O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT
INSTITUTI

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI

“YOSHLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHNING DOLZARB MASALALARI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
(2025-yil 25-iyun)

Toshkent – 2025

UDK343.9 343.85(575.1) (063)
K82

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti kengashining 2025-yil 30-iyundagi yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilgan hamda bosma va elektron shaklda tarqatilishga tavsiya etilgan.

Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari *(2025-yil 25-iyun)* / Mas’ul muharrir: y.f.b.f.d (PhD) B.E. Berdialiyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. 212 b.

Mas’ul muharrir:

B.E. Berdialiyev — O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

A.A. Alimov — O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bo‘lim boshlig‘i

B.A. Umirzakov — O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nashrga tayyorlovchilar:
U.I. Mirzatillayev, A.P. Turayev, M.A. A’loxonov, B.N. Normurodov.

Mazkur to‘plamda yoshlar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning dolzarb masalalari zamonaviy kriminologik yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Unda kiberjinoyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar hamda jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar chuqur o‘rganilib, amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim sohasi vakillari va amaliyotchi mutaxassislar uchun metodik va nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 112-son yig‘ilish bayonining 11-bandi ijrosi doirasida tashkil etilgan.

Maqola va tezislar mazmuni hamda faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir.

© O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025-y.

KIRISH SO‘ZI

Hurmatli ishtirokchilar, aziz hamkasblar, muhtaram o‘quvchi!

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, jamiyat xavfsizligi va qonun ustuvorligini ta’minlashda yoshlar jinoyatchiligining oldini olish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, Davlatimiz rahbarining 2024-yil 15 yanvardagi PF-10-son farmoni va PQ-22-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi 445-son qarori bilan belgilangan vazifalar doirasida Institutimiz zamonaviy kriminologik tadqiqotlar, ilmiy prognoz diagnoz, ijtimoiy profilaktika mexanizmlarini rivojlantirishga, ilm-fan bilan amaliyot o‘rtasida mustahkam ko‘prik yaratishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mazkur konferensiya va qo‘lingizdagi to‘plam ana shu maqsad yo‘lidagi amaliy qadamlarimizdan biridir.

Yior.‘qotilgan har bir imkoniyat – bir yosh qalbnining ijtimoiy hayotdan chetlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda, yoshlar jinoyatchiligini barvaqt aniqlash va oldini olish – faqat huquqni muhofaza organlari vazifasi emas, balki oila, ta’lim, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes sektorining umumiy mas’uliyatidir. Konferensiyamiz aynan shunday ko‘p tomonlama hamkorlik va ilmiy-amaliy muloqotni yo‘lga qo‘yishni ko‘zladi.

So‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, raqamlashuv jarayonlari va global axborot maydonining kengayishi yoshlar ongi va xulq-atvoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunga muvofiq, yoshlar jinoyatchiligi ham an’anaviy shakllar *(bezorilik, mayda o‘g‘rilik, mulkka zarar yetkazish)* bilan birga, yangi ko‘rinishlarda – kiberfiribgarlik, onlayn-haqorat va tazyiq, elektron tijoratdagi noqonuniy amallar, psixoaktiv moddalarga bog‘liq huquqbuzarliklar kabi sohalarda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa profilaktikaga tizimli, dalillarga asoslangan va tezkor moslashuvchan yondashuvni talab qiladi.

Konferensiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

☑ yoshlar jinoyatchiligining sabab va omillarini kriminologik-empirik tahlil etish;

☑ milliy amaliyotda o‘zini oqlagan profilaktika modellari va xalqaro standartlarni solishtirma o‘rganish;

☑ davlat organlari, ta’lim muassasalari, mahalla va NNTlar o‘rtasida samarali hamkorlik algoritmlarini ishlab chiqish;

☑ raqamli profilaktika, xavf-xatarni baholash (risk assessment), kriminologik prognoz va jinoyatchilik xaritalari (crime mapping)ni amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

☑ bolalar va voyaga yetmaganlar huquqlarini muhofaza qilishda insonparvarlik, gender sezgirlik va shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi tamoyillarini kuchaytirish.

Institutimiz yoshlar jinoyatchiligiga oid tadqiqotlarda dalillarga asoslangan siyosat *(evidence-based policy)* tamoyiliga tayanadi. Buning uchun turli manbalardan – rasmiy statistika, ma’muriy ma’lumotlar, viktimizatsiya so‘rovnomalari, ta’lim va mehnat bozori ma’lumotlari, mahalla kesimidagi holat tahlilidir – kompleks tarzda foydalanish zarur. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va tadqiqot etikasini ta’minlash qat’iy talab sifatida qo‘yiladi.

Yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda quyidagi mezonlar hal qiluvchi deb hisoblaymiz:

Barvaqt profilaktika: maktabgacha va maktab davridan boshlab ijtimoiy-huquqiy savodxonlik, raqamli madaniyat va nizolarni tinch hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Keys-menejment: xavf guruhidagi o‘smirlar bilan individual reja asosida ishlash, sog‘liqni saqlash, maorif, ichki ishlar va “Yagona ijtimoiy reyestr” tizimi o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini huquqiy asosda yo‘lga qo‘yilsa,

Qayta ijtimoiylashuv: restorativ adolat (mediatsiya, murosaga kel-tirish), probatsiya mexanlari, kasbiy yo‘naltirish va bandlikni qo‘llab-quvvatlash;

Hududiy manzilli yondashuv: “mahallabŷ” tizimi, xavfli hududlarni aniqlash va manzilli profilaktik dasturlar.

Ushbu to‘plam konferensiyadagi ilmiy ma’ruzalar va amaliy taqdi-motlarni tizimlashtirgan holda quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Nazariy-metodologik asoslar: yoshlar jinoyatchiligining konseptual modellari, zamonaviy kriminologik nazariyalar, omillar tipologiyasi va baholash indikatorlari.

Empirik tadqiqotlar: respublika va hududlar kesimidagi tahlillar, viktimizatsiya so‘rovlari natijalari, maktab-kollej va oliy ta’lim tizimidagi profilaktika amaliyoti.

Innovatsion yechimlar: raqamli profilaktika platformalari, kriminologik prognoz, “hot-spot” xaritalar, axborot-tahlil markazlari faoliyati.

Idoralararo hamkorlik: ichki ishlar, prokuratura, sud, yoshlar ishlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va mahalla tuzilmalari o‘rtasidagi koordinatsiya mexanizmlari.

Restorativ adolat va reabilitatsiya: probatsiya xizmati, mediatsiya amaliyoti, qayta ijtimoiylashuv dasturlari, yoshlar bandligini ta’minlash.

Xalqaro tajriba: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti, qiyosiy tahlil va transfer imkoniyatlari.

Qonunchilik va siyosat takliflari: amaldagi meyoriy asosni takomillash-tirish, dasturiy hujjatlar va indikatorlar, monitoring va baholash *(M&E)* tizimi.

To‘plamdagi har bir maqola ilmiy novatorlik, amaliyotga yo‘naltirilganlik va huquqiy aniqlik talablariga javob berishiga ahamiyat qaratildi. Mualliflar jamoasi – akademiklar, amaliyotchi xodimlar, o‘qituvchilar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar va axborot texnologiyalari mutaxassislaridan iborat bo‘lib, bu multidissiplinar yondashuv natijalarini boyitdi.

Konferensiya materiallari to‘plamidan quyidagi amaliy samaralar kutamiz:

Idoralararo “yo‘l xaritasi”: yoshlar jinoyatchiligini oldini olish bo‘yicha mutasaddi tashkilotlar o‘rtasida vazifalar taqsimoti, javobgarlik va jadvallar aniqlashtirilgan amaliy hujjat tayyorlash;

Indikatorlar va monitoring: profilaktika jarayonlarini baholash uchun ijtimoiy-hurriy indikatorlar to‘plamini shakllantirish *(masalan, maktab tashlab ketish ko‘rsatkichi, qayta huquqbuzarlik, viktimizatsiya ulushi va h.k.)*;

Model loyihalar: hududlar kesimida “yo‘qotilgan yoshni topish” dasturi, raqamli xavfdan himoya qilish *(kibergigiyena)*, ota-onalar uchun ma’rifat kurslari, “maktab–oila–mahalla–IIB” qo‘shma platformasi kabi loyihalarni pilot tarzida joriy etish;

Kadrlar salohiyati: profilaktikaga ixtisoslashgan inspektorlar, maktab psixologiyasi mutaxassislari va probatsiya xodimlari uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari.

Yoshlar bilan ishlashda har bir qaror shaxsning qadr-qimmati, bola manfaati va kelajak imkoniyatlarini ustuvor qo‘yadi. Shu bois:

☑ javobgarlik choralari ta’lim-tarbiya va reabilitatsiya bilan hamnafas bo‘lishi;

☑ qarorlar dalilga tayangan, tenglik va adolat tamoyillariga mos bo‘lishi;

☑ shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlanishi;

☑ barcha jarayonlar shaffof va jamoatchilikka ochiq bo‘lishi lozim.

Institutimiz ushbu tamoyillarga amal qilgan holda faqat statistikadagi raqamlar emas, balki har bir yoshning takrorlanmas hayotiy qissasi ortidagi muammoni yechishga intilgan holda ish yuritadi.

Konferensiyani tayyorlash va o‘tkazishda bevosita ishtirok etgan hamkor idoralar, vazirlik va tashkilotlar, mahalliy kengashlar va hokimliklar, ilmiy va ta’lim muassasalariga, moderator va spikerlarga, to‘plam muharrirlari va retsenzentlariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz. Maqola mualliflariga ilmiy-ma’rifiy mehnati, amaliy yechimlarga yo‘naltirilgan taklif va tavsiyalari uchun alohida rahmat aytamiz.

Shuningdek, tinglovchi va o‘quvchilarimiz – huquqbuzarliklar profilaktikasining birinchi safida xizmat qilayotgan inspektorlar, psixologlar, ijtimoiy xodimlar, o‘qituvchilar va mahalla faollari qo‘l farzandlarimiz taqdiri turganida qanchalar ilhom va mas’uliyat bilan harakat qilishini yana bir bor tasdiqladilar. Bu to‘plam ularning kundalik mehnatida amaliy qo‘llanma vazifasini o‘taydi, deb ishonamiz.

“Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ushbu to‘plam – ilmiy fikr va amaliyot uyg‘unligining mevasidir. Uni, avvalo, amaliy qo‘llanma sifatida ko‘rishlaringizni istaymiz: har bir bo‘limdagi xulosa va tavsiyalar idoralararo ishchi guruhlar, hududiy komissiyalar, ta’lim muassasalari hamda mahalla tuzilmalari uchun aniq algoritm va chek-listlar shakllantirishga asos bo‘la oladi. Institutimiz ushbu tavsiyalarni hayotga tatbiq etishda hamkorlikka tayyor: pilot loyihalar, treninglar, uslubiy qo‘llanmalar va axborot-tahlil yordami bilan amaliy qadamlarni birgalikda amalga ishiramiz.

Yoshlar – bugunning mas’uliyati va ertaning taraqqiyotidir. Har bir yoshning qonuniy himoyasi, sog‘lom ijtimoiy muhiti va munosib imkoniyatlari – umumiy kelajagimiz garovidir. Keling, birgalikda shunday ekotizim barpo etishda davom etaylik: jinoyatga emas, imkoniyatga yo‘l ochadigan tizim!

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), polkovnik B.E. Berdialiyev

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY PROFILAKTIKA TIZIMINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ijtimoiy profilaktika tizimi – jamiyatda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuidir. Mazkur tizim profilaktikaning ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini o‘zida mujassam etgan holda, jamiyat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy profilaktikaga davlat darajasida katta e’tibor qaratilmoqda – bu borada mahalla institutining o‘rni sezilarli darajada ortib, yangi tashkiliy tuzilmalar va axborot tizimlari joriy etilmoqda. Ushbu maqolada mazkur tizimning shakllanish tarixi va bugungi holati tahlil qilinib, uning asosiy tarkibiy qismlari – mahalla tizimi, “Mahalla yettiligi” instituti, “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi – xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, huquqiy asoslar, amaliy natijalar (2024 yil ko‘rsatkichlari misolida) hamda tizim samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy tahlil va asosli takliflar keltiriladi.

Mahalla tizimining ijtimoiy boshqaruvdagi o‘rni va evolyutsiyasi.

Mahalla – O‘zbekistonning an’anaviy jamoaviy xududiy birligi bo‘lib, uzoq tarixga ega o‘zini o‘zi boshqarish instituti hisoblanadi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan boshlab, mahalla fuqarolar yig‘ini davlat tomonidan jamiyatni boshqarishning eng quyi bo‘g‘ini sifatida rasman tan olindi va uning faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi. O‘tgan davr mobaynida mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati bosqichma-bosqich oshib bordi. Avvalombor, mahalla o‘z atrofiga aholini uyushtiradigan, qo‘shnichilik ruhini saqlaydigan hamda mahalliy darajada turli masalalarni hal etuvchi institut sifatida namoyon bo‘ldi. Keyinchalik unga ijtimoiy muhofaza, kam ta’minlanganlarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlash kabi davlat siyosatining turli yo‘nalishlari ham yuklatildi.

Hozirgi kunga kelib, mahalla tizimi ijtimoiy profilaktika – ya'ni huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olish ishlarida ham muhim o'rin tuta boshladi. Bu evolyutsiyaning zamirida jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlashda fuqarolarning bevosita ishtirokini ta'minlash g'oyasi yotadi. Mahallada yashovchi har bir fuqaro o'z hududidagi vaziyatdan xabardor va u yerdagi muammolar yechimidan manfaatdor. Shu sababli, davlat idoralari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar mahalla bilan hamkorlikda ishlashga, profilaktika choralarini qo'shma ravishda amalga oshirishga intilmoqda. Amaliyotda mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim, soliq inspektoridan iborat mahalla yettiligi vakillari kabi mahalladagi faollar huquqbuzarlikning oldini olish bo'yicha jamoaviy harakatlanmoqda. Bunday yondashuv jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilik nazorati va jamoaviy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi.

"Mahalla yettiligi" instituti va ijtimoiy profilaktika faoliyati.

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda samaraga erishish uchun mahalla darajasida ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Shu maqsadda mamlakatimizda yangicha mexanizm – "Mahalla yettiligi" instituti joriy qilindi. "Mahalla yettiligi" deganda har bir mahallada tashkil etilgan, yettita asosiy subyekt vakillaridan iborat jamoa tushuniladi. Mahalla raisi, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va soliq inspektori mazkur yettilikning asosiy vakillari hisoblanadi. Bunday "yettilik" mahallada huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir barcha ishlarni birgalikda muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi. "Mahalla yettiligi" instituti orqali olib borilayotgan ijtimoiy profilaktika faoliyati mazmunan jinoyatchilikka qarshi ko'p subyektli kurash mexanizmiga asoslanadi. Ya'ni, mahallada bir vaqtning o'zida ham huquqiy nazorat, ham ijtimoiy yordam, ham tarbiyaviy-profilaktik ta'sir choralari qamrab olinadi. Masalan, profilaktika inspektori mahallada jinoyat sodir etishga moyil shaxslarning ro'yxatini shakllantirsa va ular bilan profilaktik suhbatlar o'tkazsa, mahalla raisi va hokim yordamchisi o'sha shaxslarni ishga joylashtirish, bandligini ta'minlash, ijtimoiy muammolarini hal etishga yordamlashadi. Yoshlar yetakchisi va xotin-qizlar maslahatchisi esa vaziyatdan kelib chiqib, ma'lum tarbiyaviy ta'sir choralarini ko'radi, psixologik yordam tashkil etadi yoki jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Bunda "mahalla yettiligi" har bir aniq oila yoki shaxs kesimida manzilli ish olib boradi – bu ularning faoliyatini byurokratik rasmiyatchilikdan xoli qilib,

amaliy natijaga yo‘naltiradi. Ta’kidlash joizki, “mahalla yettiligi” institutining joriy etilishi jinoyatchilikni jilovlash sohasidagi ishlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qildi. Avvalo, mahalladagi yettita mas’ul shaxs doimiy hamkorlikda ishlashi uchun institutsional zamin yaratildi. Ilgari turli idora va tashkilotlar alohida-alohida amalda borgan ishlar endi bir joyga jamlanib, yagona maqsad sari — jinoyatlar profilaktikasi sari yo‘naltirildi. Ikkinchidan, “mahalla yettiligi” profilaktika jarayonini byurokratiyadan xalos etib, muammolarga tezkor va muvofiqlashgan tarzda javob qaytarish imkonini berdi. Endi mahallada muayyan muammo (masalan, qarovsiz yoshlar yig‘ilib qolishi yoki oilalarda nizolar chiqishi) kuzatilsa, yettilik jamoaviy tarzda darhol daxldor choralarni ko‘radi. Uchinchidan, ushbu institut orqali hisobdorlik va natijaviylik oshdi – har bir a’zo o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishi talab etiladi va bu ishlar ustidan mahalla fuqarolari ham jamoatchilik nazoratini o‘rnatishlari mumkin.

“E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi va raqamli nazorat.

Ijtimoiy profilaktika tizimini samarali boshqarish va monitoring qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, O‘zbekistonda mazkur sohada “E-ijtimoiy profilaktika” deb nomlangan maxsus axborot tizimi joriy etildi. Bu tizim jinoyatchilikning oldini olish bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni yagona platformada jamlash, tahlil qilish va tegishli idoralar o‘rtasida tezkor almashinuvini ta’minlash maqsadida yaratilgan. “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi orqali mahallalardagi profilaktika ishlari yuzasidan to‘planadigan ma’lumotlar elektron bazaga kiritib boriladi: profilaktik hisobda turuvchi shaxslar ro‘yxati, ular bilan o‘tkazilgan tarbiyaviy suhbatlar, ko‘rsatilgan ijtimoiy yordam turlari va boshqalar. Tizim tezkor ma’lumotlarni raqamli nazorat qilish imkonini beradi – vakolatli organlar har bir mahallada profilaktika holatini real vaqt rejimida kuzatishi mumkin, shuningdek, ma’lum bir shaxs bo‘yicha barcha tegishli ma’lumotni integratsiyalashgan holda ko‘ra oladi. “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi profilaktika faoliyatini raqamlashtirish orqali bir qator afzalliklarni bermoqda.

Birinchidan, ma’lumotlarning markazlashgan elektron bazasi qaror qabul qilishni yengillashtiradi: masalan, qaysi hududda qanday turdagi huquqbuzarliklar oshgani yoki qaysi xavf guruhidagi shaxslar bilan ishlash sust ketayotgani haqida tizimdagi analitik hisobotlar orqali aniq ma’lumot olish mumkin.

Ikkinchidan, raqamli nazorat inson omili bilan bog‘liq xato va suiiste’mollarni kamaytiradi – har bir profilaktik tadbir yoki ogohlantirish,

murojaat yoki suhbat haqida ma’lumot tizimga kiritilishi talab etiladi, bu esa nazoratni avtomatlashtirishga imkon beradi. Masalan, agar profilaktika inspektori belgilangan shaxs bilan ma’lum bir muddat ichida profilaktik suhbat o‘tkazmagan bo‘lsa, tizim bu haqda signal beradi va chora ko‘rish tizimi ishga tushadi.

Ijtimoiy profilaktika tizimining samaradorligi uning jamiyatga ta’siri, jinoyatchilik dinamikasi va fuqarolar xavfsizligini oshirishdagi hissasi bilan baholanadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu holat jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktikaning to‘g‘ri strategiya ekanini tasdiqlaydi. Masalan, jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni *(ishsizlik, ijtimoiy nazoratning susayishi, yoshlar o‘rtasidagi bandlik muammolari va h.k.)* mahalla darajasida hal etish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkinligi kriminologik tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan.

Shu o‘rinda alohida e’tiborga molik shaxslar tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu turkumga odatda jinoyat sodir etishga moyilligi bor deb hisoblangan, huquq-tartibot idoralarida hisobda turgan yoki ijtimoiy xavfli holatda bo‘lgan shaxslar kiritiladi. Ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bunday shaxslar bilan manzilli ishlash – ularning har biri uchun individual profil va reabilitatsiya rejasini ishlab chiqish – eng to‘g‘ri yondashuvdir. “Mahalla yettiligi” doirasida aynan shu prinsip amalga oshirilayotgani uning konseptual asosga ega ekanidan dalolatdir.

O‘zbekistonda ijtimoiy profilaktika tizimining tashkil etilishi va rivojlanishi jamiyat barqarorligi hamda huquqbuzarliklarning oldini olish yo‘lidagi muhim qadamdir. Mahalla institutining evolyutsiyasi, “mahalla yettiligi” kabi innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi va “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimi orqali raqamli nazoratning tatbiq etilishi tizimli o‘zgarishlarning halqasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan bu chora-tadbirlar ilk natijalarini bermoqda – jinoyatchilikning pasayishi, aholining profilaktikaga daxldorlik tuyg‘usining oshishi, mahallalardagi ijtimoiy muhitning sog‘lomlashuvi kabi ko‘rsatkichlarda aks etmoqda. Shu bilan birga, oldinda turgan vazifalar ham salmoqli: tizim samaradorligini tahlil etish va doimiy takomillashtirib borish, xavf guruhlari bilan ishlash uslublarini charxlash, profilaktika subyektlarining salohiyatini oshirish, shuningdek, aholining huquqiy ongini yuksaltirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashni umumxalq harakatiga aylantirish lozim. Mazkur maqolada ilgari surilgan takliflar va tavsiyalar shu maqsadga erishish yo‘lida asos bo‘la oladi, deb o‘ylaymiz. Ijtimoiy profilaktika tizimining kelgusi rivojlanish istiqbollari innovatsiyalarni jalb

etgan holda, ilmiy tahlil va amaliy tajribani uyg‘unlashtirgan tarzda davom etadi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekistonning barqaror va xavfsiz jamiyat qurishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrdagi Jinoyat kodeksi // URL: https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-son Qonuni. 14.05.2014-yil. https://lex.uz/

3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. J. 3.- T.:O‘zbekiston, 2019.- B.39.

4. Mirziyoyev Sh.M. Nukus shahridagi Altin jag‘is mahallasidagi aholi bilan uchrashuvidan. 2023-yil 30-mart.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ““Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 801-sonli qarori. 2024 -yil 30-noyabr. https://lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-mart-dagi 137-son qaroriga 1-ilova: “Hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorining ishga kelib ketishi bo‘yicha davomatni *(tabelni)* yuritish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma”si.

7. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari *(2024-yil bo‘yicha)*: Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025. –– 12-13b.

8. Mualliflar jamoasi. Kriminologiya. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006-y.-144-b.

9. Abdurasulova Q.R., Zakirova A.G., Ismailov I va boshq. Kriminologiya: Darslik / – T.: O‘zR IIV Akademiyasi, 2023. 16-45 b.

10. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYUI, 2008. – B. 63.

11. Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Fazilov I.Y. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 31. (– 272 b.).

YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI!

Sa’dullayev Alisher Zafar o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori

Biz sizlarning timsolingizda Yangi O‘zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko‘ramiz!

Sh.M. Mirziyoyev

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 14-fevral kuni mamlakatimiz yoshlari bilan o‘tkazilgan tarixiy uchrashuvda yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yosh avlod bilan bog‘liq eng dolzarb masalalarni hal etish, belgilangan vazifalar ijrosiga yondashuvni tubdan takomillashtirish yuzasidan aniq tashabbus va takliflarni ilgari surdilar. Jumladan, shunday ta’kidladilar: “**Endi barcha tizimdagi rahbarlar yoshlarning baralla ovozini eshitishga majbur. Yoshlar buyuk kelajagimizning asosiy bo‘g‘ini ekanligini tushunmagan rahbar bizning safimizda bo‘lishga haqqi yo‘q**”.

Ushbu uchrashuvda davlatimiz rahbari Vatanimiz va xalqimizni yanada qudratli qilish, yoshlarni bilimli, vatanparvar, global miqyosda raqobatbardosh insonlar etib tarbiyalashdek ulkan maqsad atrofida jamiyatni birlashishga chaqirdi.

Shu kuni Prezidentimiz yoshlarimiz taqdiriga bevosita daxldor bo‘lgan **3 ta muhim hujjatga** imzo chekkanini e’lon qildilar. Mazkur qarorlar **yoshlar bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirishga** qaratilgan bo‘lib, yoshlar bilan ishlash sohasida yangi tartib-taomillarni belgilab berdi.

Ushbu topshiriqlar asosida **9,2 mln** nafar **“yoshlar balansi”** shakllantirilib, ularning individual muammolarini hal etish, qiziqish va iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha **Respublika yoshlar komissiyasi** nazorati ostida aniq va manzilli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Bunda har bir rahbar va mas’ul xodimning **shaxsiy mas’uliyati, temir intizomi va professional mahorati – ijro intizomining muhim poydevori** bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori asosida **Vazirlar Mahkamasi tomonidan yangi tizim joriy qilindi.** Unga ko‘ra, har oyda topshiriqlar ijrosi bo‘yicha **“kalendar reja”** hamda **Agentlik direktorining o‘rinbosarlari bo‘yicha alohida “yo‘l xarita”lari** ishlab chiqilib, **“Ijro.gov.uz”** tizimidagi topshiriqlar ijrosi **“kunbay” nazoratga** olindi.

Xususan, Yoshlar ishlari agentligida **“markaziy apparat – tizim tashkilotlari – hududiy bo‘linmalar – mahalladagi yoshlar yetakchilari”** shaklidagi **“texnologik zanjir”** asosida **ijro intizomi** yanada mustahkamlandi. Mazkur mexanizm asosida **har hafta dushanba kuni – Agentlik direktori huzurida, har haftaning juma kuni – Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari** huzurida topshiriqlar ijrosi tanqidiy muhokama qilib borilmoqda, bu borada **mas’ul xodimlar bilan individual ishlash va ularga ko‘maklashish** yo‘lga qo‘yildi.

Bundan tashqari, ijro intizomini yuqori darajada ta’minlashda mas’ul xodimlar kasbiy malakasini oshirish maqsadida 2025-yil yanvar-may oylarida **Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan grafik asosida 6 marotaba o‘quv-seminarlar** tashkil etildi.

Mazkur seminarlarda **Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi va Adliya vazirligining mas’ul xodimlari** ham ishtirok etib, Yoshlar ishlari agentligi xodimlariga uslubiy va amaliy ko‘mak ko‘rsatdi.

Buning natijasida 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida **“Ijro.gov.uz”** tizimidagi **563 ta topshiriq** *(yanvar – 114 ta, fevral – 83 ta, mart – 95 ta, aprel – 131 ta, май – 140 ta)* **ijrosi belgilangan muddatlarda to‘liq ta’minlandi**.

Jumladan, hurmatli Prezidentimizning “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **2025-yil 14-fevraldagi PQ–60-sonli qaroriga** muvofiq, **ishsiz va biznesini boshlash istagidagi 384,4 ming** yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan **“Yoshlar bandligi dasturi”** qabul qilinib, joriy yil 1 iyunga qadar **161,5 ming** *(42 foiz)* yoshlar bandligi ta’minlandi.

Davlatimiz rahbarining 2025 yil 14 fevraldagi PQ–62-sonli qaroriga asosida **“Aloqabank”** tomonidan **“Yoshlar biznesi” dasturi** amalga oshirilib, dastur doirasida **3 698 t**a loyihaga **449,6 mlrd so‘m** uzoq muddatli **imtiyozli kreditlar** ажратилди ва **7 869 ta yangi ish o‘rinlariga** ishsiz yoshlar joylashtirildi.

“Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” 2025 yil 14 fevraldagi PQ–61-sonli qaror asosida esa “**Milliybank”** tomonidan **“Kelajakka qadam” dasturi** ishga tushirildi.

Bugungi kunga qadar ushbu dastur doirasida **22,7 ming** bitiruvchi **ishga joylashtirildi** va **1 549 nafar** талабанинг **26,8 mlrd** so‘mlik **biznes loyihalari** moliyalashtirildi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan **5,8 ming** yoshga **subsidiya** ajratilib, **o‘zini o‘zi band qilishiga** ko‘maklashildi. **Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari** doirasida **47,8 ming** yoshga **imtiyozli kredit** ajratildi.

Hurmatli Prezidentimizning yana bir muhim tashabbuslari bilan 2024 yil 5 aprelda “**Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ–153-sonli qarori qabul qilinib, mazkur qarorga asosan 2024 yilda **154,8 ming** yoshga **57,1 ming** gektar yer maydonlari ajratildi va **156,4 ming tonna** qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirildi.

2025-yilda ham ushbu tizim davom ettirilib, yana **4,8 ming** yoshlarga dehqonchilik uchun **2,5 ming** gektar **ekin maydonlari ajratildi**. Natijada **2 474 t**a mahalla **“yoshlar ishsizligidan holi mahalla”**ga aylandi. Bu yil kutilayotgan hosildorlik miqdori yanada yuqori. Chunki, yosh dehqonlarimiz yerdan unumli foydalanish bo‘yicha muayyan tajribaga ega bo‘ldi.

Globallashuv sharoitida yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan, professional tayyorgarlikka ega, o‘z yurti manfaatlariga sadoqatli, vatanparvar avlodni voyaga yetkazish davlatimiz oldida turgan eng ulkan maqsadlardan biridir.

Shu bois, davlatimiz rahbari tomonidan bu masalaga alohida e’tibor qaratilib, barcha davlat tashkilotlari mas’ul mutasaddilarining yoshlar bilan ishlash natijadorligini oshirish bo‘yicha alohida vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, bu yil **70 ming** nafar og‘ir toifadagi yoshlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga **nomma-nom** biriktirilib, o‘tgan vaqt davomida ularning **4,2 mingi ishga joylashtirildi** v**a 14,5 mingining ijtimoiy** v**a maishiy muammolari hal etildi**.

Kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda **“Jinoyatga jazo muqarrar”** tamoyili asosida **2 132 marotaba jinoyat muhokamasi** v**a sayyor sud** tashkil etildi, ularda **68,3 mingdan** ziyod yoshlar ishtirok etdi.

Bu yildan **“Shijoat va g‘ayrat” harbiy-sport musobaqalari** o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilib, **284 ming** nafar mahalla yoshlari jalb etildi. Ushbu musobaqa **yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda** muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, mahallalarda **harbiy-vatanparvarlik** tadbirlari hamda harbiy qismlarda **“Jasorat” harbiy yig‘inlarini** o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, **11 320 nafar** yoshlar **harbiy xizmatga** saralab olindi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning o‘tgan **5 oyida** yoshlar jinoyatchiligi **20,2 foizga kamaydi**. Eng quvonarlisi, **5 584 ta mahalla “yoshlar jinoyatchiligidan holi hudud”**ga aylandi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan “**Besh tashabbus olimpiadasi**”, “**Yosh kitobxon**” ko‘rik-tanlovi va boshqa yirik loyihalar nafaqat yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazadi, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Birgina, joriy yilning o‘tgan davrida bunday madaniy-ma’rifiy tadbirlar, **tanlov**, **musobaqa** va **loyihalarga 5 mln** yoshlar qamrab olinganini mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Bundan tashqari, ‘‘**Ibrat farzandlari**’’, “**Mutolaa**”, ‘‘**Ustoz AI**” v**a** “**Qizlar akademiyasi**” kabi **xorijiy tillar**, **zamonaviy kasblar** va **kitobxonlikka oid** loyihalarga **5,1 mln** yoshlar jalb etildi.

Yoshlarning xorijiy tillarga qiziqishi xorijiy tillar bo‘yicha **xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritgan 6,8 ming** yoshga **15 mlrd so‘mlik** imtihon topshirish xarajatlari qoplab berilishida aks etmoqda. Natijada, birgina xalqaro **“IELTS”** imtihonidan **5,5 ball** olgan yoshlar soni **2020-yilga** nisbatan **5 baravarga**, **7–8 ball** olganlar **7,5 baravarga**, **8,5–9 ball** olganlar **24 baravarga oshdi**.

Shu o‘rinda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017 yildan buyon an’anaviy ravishda o‘tkazib kelinayotgan **“Yosh kitobxon” tanlovi** haqida batafsilroq to‘xtalmoqchiman.

Ma’lumki, tanlov **3 ta** yosh toifasida *(10–14 yosh, 15–19 yosh, 20–30 yosh)* **mahalla-sektor-tuman-hudud-respublika** bosqichlarida o‘tkaziladi. Shartlar ham takomillashtirilgan bo‘lib, eng kuchli, zamonaviy kitobxon yoshlarni saralab olishga yo‘naltirilgan.

Tanlovda ishtirok etish uchun 10–14 yoshdagilar maxsus shakllantirilgan ro‘yxat asosida **40 nom**dagi, 15–19, 20–30 yoshdagilar **50 nom**dagi o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalari, ilmiy-ommabop asarlarni o‘qishi belgilangan.

Tahlillarga ko‘ra, kitob do‘konlari va kutubxonalarda **eng ko‘p izlanayotgan kitoblar** ham “Yosh kitobxon” tanlovida e’lon qilingan **140 nomdagi** adabiyotlar ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu o‘z o‘rnida kitob bozorida talab va taklifning ortishiga ham xizmat qilmoqda.

2017-yildan buyon **238 nafar** yosh kitobxonlar tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan bo‘lsa, shundan **17 nafari** g‘oliblikni qo‘lga kiritib, **Prezident sovg‘asi – “Spark” avtomashinasi, 3 nafari “Kobalt” avtomashinasi,** yana **3 nafari “Chazor” elektromobili** sovrindori bo‘ldi.

Tanlovda ishtirok etish uchun **2024-yilda 915 ming nafarga** yaqin **yoshlar ariza topshirgani** tanlovning ko‘lami va nufuzi qanchalar yuqori ekanini ko‘rsatib turibdi, nazarimda.

Umuman, Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar bilan ishlash tizimi yil sayin takomillashib borayotgani, yoshlar masalalarini har doim birinchi navbatda hal etishga qaratilayotgan e’tibor davlat xizmatchilaridan qat’iy tartib va intizom asosida ishlashni, muntazam ravishda olg‘a intilishni talab qilmoqda.

Xususan, 2025-yil mamlakatimizda **“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”** deb e’lon qilinib, yil bilan bog‘liq davlat dasturiga yoshlarimizning sifatli ta’lim-tarbiya olishi, doimiy mehnat bilan band bo‘lishini ta’minlash yuzasidan strategik muhim vazifalar kiritildi.

Umuman olganda sohada erishilayotgan samarali natijalar va yutuqlarning zamirida qabul qilingan meyoriy hujjatlar va **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlar dasturulamal** bo‘lmoqda.

Mazkur muhim hayotiy topshiriqlarning ijrosi **Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qat’iy tartib va “temir intizom” asosida** tizimli tashkil etilishi bilan birga qat’iy nazorat va mas’uliyatni talab etadigan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta’minlash hamda mamlakatimiz yoshlarining hayotda munosib o‘rin egallashiga zamin yaratmoqda.

YOSHLAR JINOYATCHILIGINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ULARNI OLDINI OLISHNING DOLZARB MASALALARI

Azim Shuxrat Obid o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yosh avlodning tarbiyasi va huquqbuzarliklarning oldini olish har bir jamiyat uchun dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida aholining sezilarli qismini yoshlar tashkil etadi, shu bois yoshlar jinoyatchiligi masalasi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda mamlakat rahbariyati yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish va profilaktika qilishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, yoshlar siyosatini davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash maqsadida Yoshlar siyosati to‘g‘risidagi qonun qabul qilinib, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bilan birga, kriminologik vaziyatni chuqur ilmiy o‘rganish va tahlil qilish uchun yaqinda maxsus Kriminologik tadqiqotlar instituti tashkil etilgani mazkur yo‘nalishga berilayotgan e’tiborning namunasidir. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan yoshlar masalalari bo‘yicha keng qamrovli siyosat va “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar yosh avlodni jinoyatchilikdan asrash, ularning huquqiy ongini oshirish va bandligini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur kirish qismida ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mutasaddi idoralar hamkorligida yoshlar jinoyatchiligini oldini olish borasida yangi tashabbuslar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida profilaktika inspektorlari faoliyati takomillashtirilib, ta’lim muassasalari va mahallalar bilan hamkorlik kuchaytirildi. Shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi kabi institutlar yoshlar bilan bevosita ishlash, ularni foydali mehnat va o‘qishga jalb etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olishga hissa qo‘shmoqda.

Yoshlar jinoyatchiligi – bu nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki butun jamiyat uchun dolzarb va murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo hisoblanadi. Zamonaviy globallashuv, axborot texnologiyalarining keskin

rivojlanishi, migratsiya oqimlari va “ommaviy madaniyat”ning salbiy ko‘rinishlari yoshlar hayot tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning xulq-atvorida yangi xavf omillarini shakllantirmoqda. Bugun nafaqat an’anaviy mulkiy jinoyatlar, balki kiberjinoyatlar, onlayn firibgarlik, giyohvandlik vositalariga oid huquqbuzarliklar va zo‘ravonlik xatti-harakatlari ham yoshlar orasida uchramoqda. Bu holatlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikka putur yetkazish bilan birga, kelajak avlod salohiyatiga ham salbiy ta’sir etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda yoshlar jinoyatchiligining oldini olish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezident farmon va qarorlarida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni huquqbuzarliklardan asrash va sog‘lom ijtimoiy muhitda tarbiyalash bo‘yicha aniq vazifalar belgilandi. Shu asosda, Kriminologik tadqiqotlar instituti, Yoshlar ishlari agentligi, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Statistik ma’lumotlar yoshlar jinoyatchiligida ayrim hududlarda yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilayotganini, jinoyatlarning katta qismini mulkka qarshi va iqtisodiy jinoyatlar tashkil etayotganini ko‘rsatmoqda.

Shu bois, yoshlar jinoyatchiligining zamonaviy tendensiyalarini chuqur o‘rganish, ularning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, xalqaro tajriba va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida yoshlar jinoyatchiligining holati va dinamikasini tahlil qilish hamda uni oldini olishning dolzarb masalalarini yoritishga qaratilgan.

Avvalambor, barchangizni bugungi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ko‘rib turganimdan bag‘oyatda xursandman. Bugungi konferensiyamizning mavzusi — «Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning dolzarb masalalari» — bu nafaqat bugungi kun, balki ertangi kelajagimiz uchun ham juda muhim ahamiyatga ega ilmiy anjuman hisoblanadi. Chunki yoshlar — mamlakatimizning kelajagi, milliy taraqqiyot poydevori, jamiyatdagi barqarorlik va xavfsizlikning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur konferensiya bevosita O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bilan birgalikda Yoshlar ishlari agentligi hamda Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining o‘zaro hamkorligida o‘tkazilayotgan bo‘lib, tadbir tashkilotchilariga alohida minnatdorchilik bildiraman.

Binobarin, bugungi kunda Prezidentimiz, hurmatli Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan Yangi O‘zbekistonni barpo etish borasida

izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning aksariyati Yangi O‘zbekistonning bo‘lajak quruvchilari – kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mavzusiga bevosita aloqador. Oxirgi yillarda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga doir ko‘plab qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi,

Olib borilayotgan islohotlarning hamda qonunchilik hujjatlarining natijasi o‘laroq, bugun O‘zbekiston yoshlari jahon arenalarida sport, ilm-fan, tibbiyot va boshqa ko‘plab sohalarda yuqori shohsupalarga ko‘tarilib, davlatimiz sha’nini yuksaltirmoqda. Buyuk ajdodlari Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Pahlovon Mahmud va boshqa ko‘plab daholarning munosib vorislari ekanliklarini isbotlamoqdalar.

Ammo, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv jarayonlari, texnika va texnologiyalarning kun sayin takomillashuvi, migratsiya hodisasining chegara bilmas harakatlanishi o‘zining ijobiy jihatlari bilan birga, salbiy tomonlarini ham namoyon etmoqda. “Ommaviy madaniyat”, transmilliy jinoyatchilik, Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan turli xil mentalitetimizga xos bo‘lmagan namoyish va chaqiriqlar yoshlar orasida jinoyatchilikning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, barchamizni birdek ogohlikka chaqiradi va keskin choralar ko‘rishni taqozo etadi.

Shuni aniq anglab yetish kerakki, yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar — bu faqat ijtimoiy xavfli qilmish emas, balki ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy va psixologik muammolarning oqibatidir. Bu muammolarga nisbatan beparvo va loqayd munosabatda bo‘lish, ularni o‘z vaqtida oldini olmaslik — jamiyatda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ayniqsa, respublika miqyosida 2024-yil hamda 2025-yil 5 oyi yakuni bo‘yicha sodir etilgan jinoyatlarni tahlil qilinganda voyaga yetmaganlar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning salmog‘i ortib borayotganligini kuzatish mumkin.

2024-yilda yoshlar tomonidan 23 908 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, jami jinoyatlarning 18,1 foizini tashkil etgan va ular o‘z xatti-harakatining huquqiy oqibatini anglab yetmagan holda, noqonuniy boylik orttirish niyati bilan asosan firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlari sodir etilganliklarini kuzatish mumkin.

18-30 yoshdagi shaxslar tomonidan 2 652 ta firibgarlik, 3 651 ta o‘g‘rilik, 1 185 ta bezorilik jinoyatlari sodir etilgan.

Yoshlar jinoyatlarining jami jinoyatlardagi salmog‘i Namangan *(22,8 foiz)*, Farg‘ona (22 foiz), Andijon (19,4 foiz), Samarqand (19,72 foiz), Toshkent (18 foiz) va Sirdaryo (17,7 foiz) viloyatlarida yuqori.

2025-yilning birinchi choragida yoshlar tomonidan 2 145 ta jinoyatlar sodir etilgan bo‘lib, jami jinoyatlarning 8,9 foizini tashkil etgan va ular o‘z xatti-harakatining huquqiy oqibatini anglab yetmagan holda, noqonuniy boylik orttirish niyati bilan asosan firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlari sodir etilganliklarini kuzatish mumkin.

Yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning har uchinchisi o‘g‘rilik (336) va firibgarlik (158) jinoyatlari tashkil qilgan.

53 ta bezorilik, 26 ta og‘ir shikast yetkazish, 15 ta talonchilik, 8 tadan nomusga tegish, bosqinchilik, 4 tadan qotillik va transport vositasini olib qochish jinoyatlari sodir etilgan.

Jinoyat sodir etgan 2 073 nafar yoshlar barcha jinoyatlar bo‘yicha aniqlangan shaxslarning 37 foizini tashkil etgan.

Jinoyatchi yoshlarning 245 nafari ayol, 5 nafari kollej, 115 nafari oliy ta’lim tashkiloti talabasi, 216 nafari ishsiz.

Mazkur jinoyatchilik tendensiyalarining o‘zi yoshlar jinoyatchiligi oldini olish bo‘yicha muhim va strategik chora-tadbirlar belgilashni taqozo etadi.

Aynan, yoshlar jinoyatchiligining salbiy tendensiyalari va omillari, jinoyatchilikni vujudga keltirgan sabab va shart-sharoitlar bo‘yicha Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan respublika miqyosida kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xabaringiz bor bizning Institutimiz 2024-yil 15-yanvar sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning PF-10-son farmoni asosida tashkil etilgan. Mazkur dargohda jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillariga ilmiy xulosa berish, huquq-tartibot sohasida maqsadli ilmiy tadqiqotlarni olib borish bo‘yicha yangicha ishlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi kunda Institut tashabbusi bilan huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarni manzilli hal qilish maqsadida qator ilmiy loyihalarni amalga oshirish ishlari boshlandi. Jumladan, yoshlar jinoyatchiligini oldini olish, respublika miqyosida kompleks tadqiqotlar olib borish bo‘yicha Institut har qanday ilmiy hamkorlikka tayyorligini ma’lum qilaman.

Yoshlar jinoyatchiligi masalasi jamiyat hayotining ko‘p qirrali muammolaridan biri bo‘lib, uni faqat huquqiy choralar bilan cheklangan holda hal etish mumkin emas. Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash lozimki, statistik ko‘rsatkichlar jinoyatning faqat rasmiy qayd etilgan qismini aks ettiradi, aslida esa yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarlikning “latent” qismi bundan ham keng bo‘lishi mumkin. Bu esa profilaktika choralarini ishlab chiqishda faqat rasmiy ma’lumotlarga tayanib qolmasdan, sotsiologik so‘rovlar, viktimizatsiya tadqiqotlari va joylardagi bevosita kuzatuv natijalarini ham qo‘shib o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yoshlar jinoyatchiligiga sabab bo‘layotgan omillar kompleks yondashuvni talab etadi: iqtisodiy imkoniyatlarning yetarli emasligi, ta’lim tizimidan uzilish, oilaviy muhitdagi muammolar, axborot makonidagi salbiy ta’sirlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shunday ekan, ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ham idoralararo hamkorlik asosida olib borilishi shart. Masalan, ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, mahalla va yoshlar tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsionallashtirish profilaktikaning uzluksizligini ta’minlaydi.

Muhokama davomida yana bir e’tiborli jihat — zamonaviy texnologiyalar orqali sodir etilayotgan jinoyatlar salmog‘ining oshib borayotganidir. Bu esa profilaktik ishlar faqat an’anaviy shaklda emas, balki raqamli muhitga moslashgan holda olib borilishini talab etadi. Kiberjinoyatlar profilaktikasi bo‘yicha maxsus modullar, yoshlar uchun internet xavfsizligi bo‘yicha ta’lim dasturlari, zararli kontent monitoringi kabi yo‘nalishlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yoshlar jinoyatchiligi muammosini samarali hal etish uchun profilaktika choralarini iqtisodiy, ijtimoiy, ta’limiy va huquqiy bloklar bo‘yicha uyg‘unlashtirish, ularni ilmiy tahlil natijalariga asoslab, mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Shu yo‘lgina yoshlar orasida jinoyatchilikka qarshi barqaror natijaga erishish imkonini beradi.

O‘ylaymanki, bugungi konferensiya ishtirokchilari o‘z ma’ruzalarida ilgari suradigan taklif va tavsiyalar kelgusida ilm-fanni rivojlantirishga, bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan yoshlar jinoyatchiligining oldini olishga xizmat qiladi.

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda har qanday turdagi jinoyatlarga, ayniqsa yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda hamjihatlikdagi sa’y-harakatlarsiz ko‘zlangan maqsadga erishishning imkoni yo‘q. Zamonaviy tahdidlar va xavf-xatarlar yuzasidan doimiy muloqot o‘rnatish, ularga qarshi kurashishda eng samarali usullar bo‘yicha o‘zaro tajriba almashish har qachongidan ham muhimdir. Ishonchim komilki, mazkur anjuman kelgusida kelajagimiz bo‘lgan yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar talablaridan, shuningdek Taraqqiyot va “O‘zbekiston – 2030” strategiyalarida belgilangan maqsad va vazifalarini amalga oshirish, shuningdek 2030 yilga qadar yoshlarni ijtimoiy himoyalash, ular tomonidan jinoyatlar sodir etilishini oldini olish yuzasidan bu sohadagi barcha mas’ul davlat organlari, tashkilot va muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlikni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

YOSHLAR SIYOSATI – DAVLAT SIYOSATINING MUHIM USTOVOR TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Muminov Abdulaziz Majidovich

Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari

Mamlakatimizda keyingi yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini rivojlantirishda ma’naviy sog‘lom va jismonan baquvvat avlodni voyaga yetkazish hamda ularda milliy urf-odatlarimizni shakllantirishga va uni takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun ham bu masalani chuqur va xar tomonlama o‘rganish bugungi kunni asosiy talablaridan. “...Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda”. Respublikada bu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar asnosida butun xalqimizni hususan, yoshlarni ma’naviy-mafkuraviy profilaktika faoliyatini rivojlantirish zarur. Natijada mafkuraviy profilaktika ma’naviy targ‘ibot sistemasini ham muttasil taraqqiy ettirishni dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Bugungi tahlikali dunyoda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, qurolli to‘qnashuvlar hamda notinchliklar fonida mamlakatda eng avvalo tinchlik biz uchun juda muhim ahamiyat kasb etadigan ne’mat ekanligini yana bir bor chuqur his qilib turibmiz.

Davlat va jamiyatning ijtimoiy sohasini innovatsion rivojlantirishning turli yo‘nalishlari borasida L. Galaktionova, I. Krasnorolskaya, M. Bagomedov, I. Vodyanenko , N. Yemirov kabi rus olimlari tadqiqot olib borganlar. Shuningdek, N. Lapin kabi olimlar innovatsiyalarning nazariyasi va amaliyoti, uni jamiyat modernizatsiyasidagi ahamiyatini tahlil qilganlar.

Shuningdek, mamlakatning eng qimmatli resursi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni vatanparvar etib tarbiyalash hamda jinoyatlarning barcha turlariga qarshi murosasiz kayfiyatni shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib hisoblanadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Joriy yilning boshida (03.01.2025 y.) Davlatimiz rahbari tomonidan eng birinchi imzolangan 1-sonli Prezident qarori ham aynan mahallalardagi xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilgan vazifalarni belgilab berdi.

Yuqoridagi belgilangan muhim vazifa va topshiriqlardan kelib chiqib, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika

qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida qator vazirlik va iboralar tomonidan amaliy va tizimli ishlar olib borilmoqda.

Birinchi, yoshlarning bandligi masalasi islohotlarimizning eng muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Joriy yilda Prezidentimiz yoshlarimiz taqdiriga bevosita daxldor bo‘lgan 3 ta yoshlar bandligini ta’minlash va tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjatni imzoladi.

Mahalla yetakchilari tomonidan 9,2 mln.li “Yoshlar balansi” shakllantirilib, ularning muammolarini hal etish, qiziqish va iqtidorini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha aniq va manzilli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, ishsiz va biznesini boshlash istagidagi 384,4 ming yoshni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Yoshlar bandligi dasturi” qabul qilinib, joriy yil yarmiga qadar 161,5 mingining (42 foiz) bandligi ta’minlandi.

Prezidentning 14 fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, “Aloqabank” tomonidan “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 3 698 ta loyihaga 449,6 mlrd so‘m uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratildi va 7 869 ta yangi ish o‘rniga ishsiz yoshlar joylashtirildi.

Prezidentning “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida esa Milliy bank tomonidan “Kelajakka qadam” dasturi ishga tushirildi.

Ushbu dastur orqali hozirgacha 22,7 ming bitiruvchi ishga joylashtirildi va 1549 talabaning 26,8 mlrd so‘mlik biznes loyihalari moliyalashtirildi.

“Yoshlar daftari”dagi 5,8 ming yoshga subsidiya ajratilib, o‘zini o‘zi band qilishiga ko‘maklashildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarida 47,8 ming yoshga imtiyozli kredit ajratildi.

Davlatimiz tashqi siyosatining ma’no-mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo‘lsa O‘zbekiston manfaati va yana bir bor O‘zbekiston manfaatidir. Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda. XXI asr vabosi bo‘lgan ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O‘zbekiston to‘la qo‘llab-quvvatlaydi .

Hozirgi dunyoda madaniy aloqalar kengayib borayotganligi sababli, turli madaniyatlar o‘zoro hamkorligining samaradorligi muammosi dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda. O‘zoro madaniy aloqa va bu sohada hamjihatlik g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, xilma-xil mantiqiy va ma’naviy tarkibga

egadir. Bu holatni inkor etish koʻpincha murakkab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Endilikda insoniyat “Biz yashab turgan dunyo qanday boʻlishi kerak”, “Qon toʻkilishiga, ekstremizmga, odamlar oʻrtasidagi adovatga qanday qilib barham berish kerak”, degan masala ustida tinimsiz bosh qotirmoqda. Alohida har bir odamni va umuman jamiyatni oʻzida boshqa shaxs va jamiyatlarni salbiy darajada talqin etmaslik, oʻzgalar fikriga sabr-toqat bilan munosabatda boʻlish – Demokratik, xuquqiy jamiyatning eng asosiy belgilaridan biri ekanini tushunish ruhida qanday qilib tarbiyalamoq kerak, degan masala ham gʻoyat muhim ahamiyatga egadir. Globallashuv jarayonida insoniyatning oʻzoro bogʻliqligi kuchayib, uning bundan buyongi taqdiri uchun ma’suliyat anglab olinayotganligi esa tolerantlik madaniyatning shakllanishiga shak-shubxasiz imkon bermoqda.

Yoshlarni har xil ijtimoiy tarmoqlar orqali qonli mafkuralar girdobiga tortilishini oldini olish nafaqat bizning hukumatimiz balki butun dunyo rahbariyati harakat qilib kelayotgan murakkab vazifadir. Xalqaro tashkilotlarning minbarlarida ham bu masalaga yechimlar topishga harakat qilinmoqda. OʻPrezidentimizning yana bir muhim tashabbusi bilan 2024 yil 5 aprelda “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini oʻzlashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaror qabul qilinib, unga asosan, 2024 yilda 154,8 ming yoshga 57,1 ming gektar yer ajratildi va 156,4 ming tonna qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirildi. 2025 yilda ham ushbu tizim davom ettirilib, yana 4,8 ming yoshga dehqonchilik uchun 2,5 ming gektar ekin maydoni ajratildi.

Natijada, 2 474 ta mahalla “yoshlar ishsizligidan xoli mahalla”ga aylandi.

Ikkinchi, bugungi kunda yoshlar oʻrtasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yangi bosqichga olib chiqilmoqda.

Jumladan, jinoyat sodir etishga moyil boʻlgan va alohida ishlash talab etiladigan 70 ming nafar yosh huquq-tartibot va mubofaa organlariga otaliqqa nomma-nom biriktirilib, bugungi kungacha ularning 4,2 ming nafari ishga joylashtirildi va 14,5 ming nafarining ijtimoiy va maishiy muammolari hal etildi.

Kriminogen vaziyat ogʻir mahallalarda “Jinoyatga jazo muqarrar” tamoyili asosida 2132 marotaba jinoyat muhokamasi va sayyor sudlar tashkil etilib, ularda 68,3 mingdan ziyod yosh ishtirok etdi.

Bu yildan “Shijoat va gʻayrat” harbiy-sport musobaqalari oʻtkazilishi yoʻlga qoʻyilib, unga mahallalardan 244 ming yoshlar jalb etilgan. Ushbu musobaqa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahallalarda harbiy-vatanparvarlik tadbirlari hamda harbiy qismlarda “Jasorat” harbiy yig‘inlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, 11,5 mingga yaqin yosh harbiy xizmatga saralab olindi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning o‘tgan 5 oyida yoshlar jinoyatchiligi 20,2 foiz kamaydi. Quvonarlisi, 5 584 ta mahalla “yoshlar jinoyatchiligidan xoli hudud”ga aylandi.

Uchinchi, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish mahalla yetakchilarining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

“Besh tashabbus olimpiadasi”, “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi va boshqa yirik loyihalar nafaqat yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, balki shaxsiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Joriy yilning o‘tgan davrida bunday madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlov, musobaqa va loyihalarga 5 mln yosh qamrab olinganida yetakchilarimizning hissalari katta.

Bundan tashqari, xorijiy tillar, zamonaviy kasblar va kitobxonlikka oid “Ibrat farzandlari”, “Mutolaa”, “Ustoz AI” va “Qizlar akademiyasi” kabi loyihalarga 5,1 mln yosh jalb etildi. Yoshlarning xorijiy tillarga qiziqishi xorijiy tillar bo‘yicha xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritgan 6,8 ming yoshga imtihon topshirish bilan bog‘liq 15 mlrd so‘m xarajati qoplab berilishida aks etmoqda. Natijada birgina xalqaro “IELTS” imtihonidan 5,5 ball olgan yoshlar soni 2020 yildagiga nisbatan 5 baravar, 7-8 ball olganlar 7,5 baravar, 8,5-9 ball olganlar 24 baravar oshdi.

2017 yildan buyon an’anaviy ravishda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” loyihasida 238 nafar yosh respublika bosqichida ishtirok etgan bo‘lsa, shundan, 17 nafari Prezident sovg‘asi — “Spark”, 3 nafari “Cobalt”, yana 3 nafari “Chazor” avtomashinalari sovrindori bo‘ldi.

Bundan tashqari, bolalarni milliy g‘oya orqali tarbiyalashda ahamiyatli bo‘lgan animatsion multfilmlar yaratilmoqda. Jumladan, “Bek va lola” multfilmi qo‘shiq, o‘yin va raqslar orqali bolalarga qadriyatlarimiz va axloq meyorlarini o‘rgatmoqda.

Ma’lumot uchun: Multfilmning 11 qismi taqdim etilgan (rejada 50 qism). “YouTube” platformasidagi obunachilar soni 137 mingdan ortiq, ko‘rishlar soni 42 mln.dan ortiq.

To‘rtinchi, yoshlarning huquqiy va siyosiy savodxonligini yuksaltirish choralari ko‘rilmoqda.

Parlamentimiz, Adliya vazirligi va qator huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, shuningdek chiqayotgan normativ hujjatlarning muhokamalarida yoshlarning ishtirokini kengaytirish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda.

“Yoshlar va qonun”, “Yosh huquqshunos”, “Parlament modeli” loyihalari, “Senator va yoshlar”, “Deputat va yoshlar” kabi loyihalar mana shularning jumlasidandir.

Bunda Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda Qonunchilik palatasidagi Yoshlar masalalari komissiyasi bilan alohida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Hududlarda ham deputatlar kengashlari va ularning huzuridagi “Yosh maslahatchilar kengashlari” tomonidan yoshlar bo‘yicha ko‘p muammolarimizga deputatlarimiz yechim topishda o‘zlarining hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Shu o‘rinda Oliy Majlisning Senati va qonunchilik palatalari huzuridagi Yoshlar parlamentlari (Senatda 100 nafar, Qonunchilik palatasida 150 nafar) bilan ham yaqin hamkorlikda ularning yangi tarkiblari shakllantirilib, ta’sis yig‘ilishlarini o‘tkazish va uslubiy ko‘mak berish choralari ko‘rildi.

Hozirda O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini oshirish, mamlakatda kechayotgan islohotlar jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash masalalari dolzarb bo‘lgan bir sharoitda, davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, oilada, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv, sotsial hayot, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida ayollarning ishtirokini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “...ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish kabi bir qator muhim masalalar yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan amaliy ishlarni talab etmoqda” Bu xotin-qizlarning oilani shakllantirish va mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash, davlat, jamiyat va madaniy qurilishdagi yuksak mavqei va ulushining e’tirof etilishi bilan birgalikda, ularning mamlakatning istiqbolini barpo etishdagi salohiyatidan foydalanishga bo‘lgan ko‘rsatma hamdir.

Hozirda barcha qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishida yoshlarning taklif va tashabbuslarini aks ettirishda ushbu konsultativ tuzilmalar bilan hamkorlik kuchaytiriladi, huquqiy va siyosiy yo‘nalishlarda tanlov, seminar kabi targ‘ibot loyihalari tashkil etilishi belgilangan.

Xulosa. Yoshlar siyosati borasida aytish mumkin juda ko‘p ishlarimiz va natijalarimiz mavjud. Biroq, bugungi anjumanimizda soha mutaxassislari va ma’ruzachilarimizdan aniq tahlil va tadqiqotlar asosida istiqbolda qilishimiz kerak bo‘lgan vazifalar va kreativ takliflarni olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylayman.

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FUQAROLAR O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI: TAHLIL, NATIJA VA ISTIQBOLLARI

Ismailov Isamiddin

Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor

Suvankulov Mehmonali

IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasi boshlig‘i, y.f.n., dotsent

Mamlakatimizda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, birinchidan, ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni umumiy jinoyatchilikdagi salmog‘ini oshib borishi, ikkinchidan, ularning ongini egallashga harakat qilayotgan g‘araz maqsadli kuchlarning mavjudligi, uchinchidan, dunyo miqyosida ekstremizm, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, odam savdosi, giyohvandlik va “ommaviy madaniyat”, axloqsizlik kabi salbiy illatlarning tabora keng tarqayotganligi bilan bog‘liqdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022-yil davomida yoshlar tomonidan 24.443 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, uning salmog‘i jami jinoyatlarning 23 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda esa 35150 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, jami jinoyatlarning 33,8 foizini tashkil etgan, 2024-yilda esa 36190 ta jinoyat sodir etilgan bo‘lib, jami jinoyatlarning 34,1 foizini tashkil etgan. Tahlillardan ko‘rinib turibdik, mazkur davrda yoshlar jinoyatchiligining umumiy jinoyatchilikda salmog‘ining o‘sish tendensiyasi kuzatilgan.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining talablaridan kelib chiqqan holda ularning huquqlarini himoya qilish, jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlash, shuningdek ular o‘rtasida huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasini amalga oshirish maqsadida ichki ishlar organlarining, xususan profilaktika xizmati bo‘linmalarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorligini: a) mahallada yoshlarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni

qo‘llab-quvvatlash va turli tahdid hamda xavf-xatarlardan himoya qilish; b) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; v) uyushmagan yoshlarni aniqlash va ularning huquqiy savodxonligini oshirish; g) ularning ijtimoiy muammolarini aniqlash va hal qilish buyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘nalishlariga ajratgan holda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Birinchi yo‘nalish. Mahallada yoshlarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va turli tahdid hamda xavf-xatarlardan himoya qilish borasidagi hamkorlik.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularni ishga joylashtirish va bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, ichki ishlar organlari mazkur yo‘nalishlarda faoliyat yuritishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan bevosita hamkorlikni amalga oshiradi. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari esa yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirishga, sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, oilada ma’naviy axloqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘radi, shuningdek mahalla hududida joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlarda yoshlarning bandligini ta’minlashga ko‘maklashadi, bu sohada profilaktika inspektorlari bilan bevosita hamkorlik qiladi.

IIVga biriktirilgan “ishsiz yoshlar” ikkita alohida toifaga ajratilgan bo‘lib, birinchisiga “jinoyat sodir etish ehtimoli bo‘lgan, alohida e’tiborga molik” 12.601 nafar ishsiz va o‘qimaydigan yoshlar, ikkinchisiga “huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish ehtimoli bo‘lmagan” 141.873 nafar ishsiz yoshlar bilan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, sotsiologik so‘rovga jalb etilganlarning 44,8 foizi hokimiyat organlari tomonidan yoshlar bandligini ta’minlash yo‘nalishida yangi sohalar bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish kerakligi, 35,8 foizi esa yoshlarni imtiyozli kreditlar ajratgan holda tadbirkorlikka yo‘naltirish kerak degan fikrini bildirganlar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Qarori, ularni ijrosini ta’minlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining qarori, shuningdek mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasini ta’minlashga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq “jinoyat sodir etish ehtimoli bo‘lgan, alohida e’tiborga molik” ishsiz yoshlar

alohida guruhlarga ajratilgan holda bugungi kunda “ijtimoiy profilaktika obyektlari” sifatida “mahalla yettiligi” faoliyati doirasida ichki ishlar organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining hamkorligi asosida maqsadli kompleks profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Profilaktika inspektorlari ijtimoiy profilaktika obyekti bo‘lgan quyidagi toifadagi: probatsiya hisobida turgan yoshlar; profilaktik hisobda turgan yoshlar; yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan yoshlar; jazoni ijro etish muassasalaridan chiqqan sudlanganlik muddati tugamagan yoshlar; oilaviy ajrim yoqasiga kelib qolgan yoshlar; umumta’lim maktabiga bormayotgan yoki jalb etilmagan yoshlar (14-18 yoshdagilar); giyohvand va psixotrop moddalarni va surunkali spirtli ichimlik iste’mol qiluvchi yoshlar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan, ijtimoiy tarmoq bilan bog‘liq turli xildagi o‘yinlarga ruju qo‘ygan uyushmagan yoshlar; agressiv xulq-atvorli yoshlar bilan ishlashda amaldagi qonunchilik hujjatiga muvofiq mahalla yettiligi vakillari xususan, mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va hokim yordamchisi bilan bevosita hamkorlik qiladi.

2024-yilda yoshlarning bandligini ta’minlash maqsadida 2.666 ta mehnat yarmarkalari tashkil etilib, 16.517 nafar yoshlar ishga joylashtirildi, 8.862 nafari kasb-hunarga o‘qitildi. 2025 yil 5 oyi davomida esa og‘ir toifadagi 70 ming yosh huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga nomma-nom biriktirilib, o‘tgan vaqt davomida ularning 4,2 ming nafari ishga joylashtirildi.

Ikkinchi yo‘nalish. Mahalla yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi hamkorlik.

Mahalladagi yoshlar, xususan IIVga biriktirilgan 1.885.038 nafar ishsiz, jinoyat sodir etish ehtimoli bo‘lgan, alohida e’tiborga molik hamda huquq-buzarlik va jinoyat sodir etish ehtimoli bo‘lmagan toifaga kiruvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, fidoiy, jamiyatning faol a’zosi sifatida tarbiyalash maqsadida tizimli chora-tadbirlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtirokida amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan yoshlar agentligi, ayniqsa mahalla yettiligi vakili bo‘lgan profilaktika inspektori va yoshlar yetakchisi hamkorligida:

a) ma’naviy-madaniy tadbirlar - “Dillarda Vatan madhi” shiori ostida qo‘shiq, she’riyat va kitobxonlik tanlovlari o‘tkazilmoqda, mahallalarda kutubxonalar, kitob va ma’naviyat burchaklari, Vatanparvarlik guzarlari tashkil etilmoqda, taniqli va yoshlarni sevimli san’atkorlari, teatr aktyorlari ishtirokida konsert va spektakllar namoyishi tashkil etilmoqda. 2024-yilda ma’naviyat oshyoni va ulug‘ qadriyatlar beshigi bo‘lgan mahallalarda

yoshlar yetakchilari va mahalla yoshlari ishtirokida «Mahalla ma’naviyat qo‘rg‘oni» dasturi doirasida yoshlar bilan 42415 ta ma’naviy-ma’rifiy, 15 125 ta madaniy tadbirlar o‘tkazilgan, 808 ta kutubxona, kitob va ma’naviyat burchaklari tashkil etilgan.

b) sport tadbirlari - mahallalarda yoshlar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida marafon va marshlar, “Shijoat va g‘ayrat” sport o‘yinlari, “Davlat xavfsizlik xizmati” kubogi uchun mahallalar o‘rtasida futbol, mini futbol, “Ichki ishlar vazirligi” kubogi uchun voleybol, qo‘l jangi, kurash, shaxmat va boshqa sport musobaqalari o‘tkazilmoqda. 2024 yilda 24961 sport tadbirlari o‘tkazilgan.

v) yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlari – mahalladagi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, shu jumladan, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan tadbirlar hisoblandi.

2024-yilda 12287 ta vatanparvarlik, 6401 ta harbiy yo‘nalishda tadbirlari tashkil etilgan. Xususan, mahallalarda yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash borasida ichki ishlar organlari, yoshlar agentligi hududiy bo‘linmalari, mudofa ishlar bo‘linmalari, milliy gvardiya, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamkorligida “Jasorat” harbiy yig‘inlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, 11.500 yaqin yosh harbiy xizmatchilar xarbiy xizmatga saralab olingan. Bundan tashqari mahalla yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida «Harbiy qismda bir kun», «Ochiq eshiklar kuni», «Uch avlod uchrashuvi» kabi qator tadbirlar doirasida yoshlarni harbiy qism, muassasa va poligonlarga tashriflari tashkil etilmoqda.

Uchinchi yo‘nalish. Mahallada yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish borasidagi hamkorlik.

Mahalla yoshlarida jamiyatdagi salbiy illatlarga, ayniqsa, jinoyatchilikka, korrupsiyaga, ekstremizmga, terrorizmga, giyohvandlikka, axloqsizlikka murosasizlik munosabatlarini shakllantirish, shuningdek huquqiy bilimini,

ongini va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni Konstitutsiya va qonun talablariga rioya etish ruhida tarbiyalash orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga erishishda ichki ishlar organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi”.

Ichki ishlar organlari mahallalarda yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish borasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda turli xil yo‘nalishlarda va mavzularda huquqiy targ‘ibot tadbirlarini, seminar-treninglar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, konferensiya, viktorinalar, “zakovat” uyinlari, jinoyat muhokamalari, sayyor sudlar va boshqa tarbiyaviy-profilaktik tadbirlar o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yilgan. 2024 yilda mahalla yoshlarining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlarga jami 3.335.307 nafar yoshlar jalb etilgan, shuningdek yoshlarda qonunga itaotkorlik hissini oshirishga qaratilgan 109.847 ta tadbir o‘tkazilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda “Jinoyatga jazo muqarrar” tamoyili asosida 68.300 nafar yoshlar ishtirokida 2.132 marotaba jinoyat muhokamasi va sayyor sudlar tashkil etildi.

To‘rtinchi yo‘nalish, mahallada ijtimoiy va maishiy muammolari bo‘lgan yoshlarni aniqlash, hisobini yuritish hamda ularning muammolarini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi hamkorlik.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri aholi muammolarini aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan bo‘lib, bu borada davlat rahbarining tashabbusi bilan “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” joriy etilishi hamda uning asosida “fuqarobay”, “oilabay” va “mahallabay” ishlash tizimining yaratilganligi mas’ul davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari, xususan ichki ishlar organlari bilan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi hamkorlikning mutlaqo yangi modelini yaratish imkonini berdi.

Mazkur modelning samarali ishlashini ta’minlash maqsadida aholining, shu jumladan yoshlarning ijtimoiy va maishiy muammolarini aniqlash, ularning hisobini yuritish hamda muammolarini hal etish borasida ichki ishlar organlari bilan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish orgnanlari hamkorlik mexanizmlarini yaratish maqsadida Ichki ishlar vazirligi, Kambag‘allikni

qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 30 martdagi 10/3-qq/05-qq-son “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to‘g‘risida”gi qo‘shma qaroriga muvofiq “mahalla beshligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2024-yilda ichki ishlar organlarining tashabbusi bilan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda “xonadonbay” anketa- so‘rovnomasi asosida 942.152 nafar yoshlar o‘rganilib, 88.466 nafari bilan onlayn suhbatlar o‘tkazilgan, 16.068 nafari xorijda migratsiyada bo‘lgan yoshlarning 9.017 nafari yashash joylariga qaytarilgan.

Bundan tashqari, 124.201 nafar yoshlarning muammolari aniqlangan bo‘lib, ularning 116.577 nafarining muammolari hal etilgan. Ularning 48.749 nafari “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bo‘lib, 40.677 nafarining muammolari hal etilgan . Xususan, 2.590 nafariga subsidiya, 5.685 nafariga kreditlar ajratilgan, 4.841 nafariga moddiy yordam ko‘rsatilgan, 54.182 nafarining boshqa muammolari hal qilingan.

Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishining yo‘lga qo‘yilishi bu sohada hamkorlikning zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondoshuvlar asosida tashkil etish imkonini bermoqda. Xususan, “mahalla yettiligi” tomonidan aholining, shu jumladan yoshlarning ijtimoiy muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha “E-ijtimoiy profilaktika” tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2025-yil 5 oy yakuniga ko‘ra respublika bo‘yicha hamkorlik subyektlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan 502.049 nafar ijtimoiy profilaktika obyektlari hisoblangan shaxslar aniqlanib, ulardan 99.461 nafari bo‘yicha profilaktika inspektorlari tomonidan yoshlar yetakchisiga xulosalari yuborilgan.

Yoshlar yetakchilari tomonidan xulosa berilgan ijtimoiy profilaktika obyektlari bo‘lgan yoshlarga nisbatan alohida dasturlar asosida: 13 518 nafari o‘zini o‘zi band qilinishga, 2 963 nafari hunarmandchilik uyushmasiga a’zo bo‘lishiga, 7 374 nafari dehqon xo‘jaligi uchun yer maydoni ajratilishiga, 6 250 nafariga chorvachilik va boshqa shu kabi faoliyat turlariga ko‘maklashilgan.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek mahallalarda ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan, xususan yoshlar bilan ishlashda ichki ishlar organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalla yettiligi doirasida maqsadli va

tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida 2025 yilning birinchi yarim yilligida yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi salmog‘ining sezilarli darajada kamayishiga erishilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar bilan amalga oshirilayotgan kompleks ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarga qaramasdan ular o‘rtasida huquqbuzarlik sodir etish moyil va jabrlanish ehtimoli bo‘lgan toifalarining saqlanib qolayotganligi ijtimoiy profilaktika subyektlarining, xususan profilaktika xizmatlari bilan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘rtasida hamkorlikdagi faoliyatida xato va kamchiliklarning, yechimini kutayotgan muammolarning mavjudligini, bu muammolarni barataraf etish uchun esa ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yoshlar bilan ishlashda ichki ishlar organlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorligini takomillashtirishga oid istiqbolli taklif va tavsiyalar:

birinchidan, profilaktika inspektorlari va yoshlar yetakchilarini ijtimoiy profilaktika yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirishni tizimli tashkil kilish;

ikkinchidan, Profilaktika inspektorlarining va yoshlar yetakchilarini innovatsion yondoshuvlar asosida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda hamkorlik faoliyat ko‘rsatishi bo‘yicha seminar-trening, master klass, davra suhbatlari tashkil qilish;

uchinchidan, profilaktika inspektori va yoshlar yetakchilari tomonidan xizmat faoliyatida foydalanilayotgan axborot dasturiy ta’minotlarni yagona tizimga integratsiya qilish;

to‘rtinchidan, profilaktika inspektori va yoshlar yetakchilari tomonidan faoliyatida foydalanilanishi uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni metodik jihatdan ta’minlashni yo‘lga qo‘yish.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Мирзатиллаев Умид Иззатиллаевич

Научный сотрудник Института криминологических исследований Республики Узбекистан, самостоятельный соискатель

Правонарушения, совершаемые несовершеннолетними, оказывают негативное влияние не только на их собственное будущее, но и на устойчивость общества в целом, а также на перспективы развития государства. В связи с этим научный, правовой и практический анализ данной проблемы и разработка эффективных мер по её предотвращению являются одной из приоритетных задач на сегодняшний день.

Согласно данным Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан, 36% населения страны составляют несовершеннолетние (0–17 лет), а 26% — молодёжь (14–30 лет). Эти цифры свидетельствуют о том, что именно несовершеннолетние в будущем станут решающей силой, определяющей развитие общества и государства.

В стране сформирована прочная нормативно-правовая база по защите прав и интересов несовершеннолетних, их ограждению от правонарушений и усилению профилактической работы в системе образования и воспитания.

В частности, приняты законы «Об образовании», «О гарантиях прав ребёнка», «О профилактике беспризорности и правонарушений среди несовершеннолетних», «Об опеке и попечительстве», «О защите детей от информации, наносящей вред их здоровью», а также Указы Президента и постановления Правительства Республики Узбекистан, направленные на совершенствование системы профилактики правонарушений среди несовершеннолетних.

В Узбекистане функционируют различные государственные органы и организации, занимающиеся вопросами несовершеннолетних, включая Уполномоченного Олий Мажлиса по правам ребёнка (Детский омбудсман), специализированные управления в системе прокуратуры,

инспекторов-психологов Министерства внутренних дел, комиссии по делам детей при хакимиятах, органы опеки и попечительства и другие.

В результате реализуемых реформ и практических мероприятий в области предупреждения правонарушений среди несовершеннолетних, в 2024 году зафиксирована тенденция к снижению подростковой преступности — по сравнению с 2023 годом количество преступлений сократилось на 12,6%.

В 2024 году несовершеннолетними было совершено 3 144 преступления, в которых участвовали 3 364 лица. Из них 71% (2 377 лиц) составляют школьники, 14% (478 лиц) — учащиеся профессиональных учебных заведений.

Анализ показывает, что 44% из всех преступлений составляют кражи (1 370), 8% — хулиганство (252), 5% — мошенничество (144), 4% — грабежи (113), 3% — умышленное причинение телесных повреждений (97).

Основные причины и факторы, способствующие совершению преступлений несовершеннолетними:

• высокая заинтересованность в материальных благах и социальное расслоение среди учащихся способствуют совершению краж;

• незнание последствий противоправных действий и эмоциональная импульсивность во взаимоотношениях со сверстниками провоцируют нанесение телесных повреждений;

• негативное влияние семейной и социальной среды, включая поведение членов семьи, соседей, одноклассников;

• сохраняющееся отрицательное воздействие социальных сетей и СМИ на воспитание несовершеннолетних;

• недостаточный контроль за досуговой занятостью учащихся;

• отсутствие должного родительского контроля и условий для воспитания;

• низкое качество успеваемости школьных программ и отсутствие контроля за посещаемостью;

• слабое влияние органов самоуправления граждан и недостаточная связь между системой образования, органами самоуправления граждан и семьями;

• безответственное отношение родителей к воспитанию детей и нехватка времени у работающих родителей для контроля за досугом своих детей;

• недостаточность воспитательной работы в воспитательных колониях;

• нерешённые проблемы неблагополучных и экономически уязвимых семей;

• высокая доля неквалифицированных школьных психологов, особенно в регионах;

• девиантное поведение учащихся нередко связано с проблемными отношениями в семье, особенно в неполных семьях.

Для эффективного предупреждения правонарушений среди несовершеннолетних предлагается:

1. В случае совершения несовершеннолетними преступления или административного правонарушения из-за халатности родителей — обязать последних проходить краткосрочные обучающие курсы по решению суда.

2. Вести реестр детей, нуждающихся в особом внимании, включая тех, кто совершил правонарушения, находится без присмотра, обучался в подпольных религиозных группах, проживает в интернатах или детских домах, и назначить за ними ответственных сотрудников профильных ведомств для адресной профилактической работы.

3. Внедрить в школьную программу с начальных классов темы, посвящённые праву, преступности и личной безопасности, опираясь на опыт Японии, с использованием игровых занятий, короткометражных фильмов и других интерактивных методов.

Согласно этому опыту, организовывается профилактические мероприятия с участием анимационных героев, популярных у детей, через которых школьные психологи и инспектора-психологи разъясняют последствия правонарушений.

4. Создать систему социальной профилактики детей, включающую комплекс мероприятий, направленных на формирование у несовершеннолетних устойчивости к правонарушениям. В систему должны входить качественное воспитание и образование, организация досуга, вовлечение в спорт, развитие патриотизма, обеспечение социальной защиты, а также реинтеграция несовершеннолетних правонарушителей в общество.

В условиях стремительных изменений и современных угроз предупреждение преступности, особенно среди несовершеннолетних, невозможно без совместных усилий и обмена эффективными практиками.

В заключение следует отметить, что в стране приняты и систематизированы важные законодательные и подзаконные акты, направ-

ленные на правовое регулирование профилактики правонарушений среди несовершеннолетних, что способствует повышению эффективности этой деятельности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. www.un.org
2. https://www.childrensdefense.org/policy/policy-priorities/youth-justice
3. https://de.statista.com/statistik/daten/studie/1243155/umfrage/straftatverdaechtige-kinder-und-jugendliche-in-deutschland
4. https://assets.publishing.service.gov.uk/media/65b391a60c75e30012d800fa/YouthJusticeStatistics2022-23.pdf.
5. https://news.un.org/ru/story/2020/02/1373191
6. Данные Центра правовой статистики и оперативных данных МВД Республики Узбекистан на конец 2024 года. (Information of the Center for Legal Statistics and Operational Data of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan for the 4st quarter of 2024).
7. Д.Ж. Суюнова ва М.А. Усманова Вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятларни профилактика қилишнинг ҳудудий методикаси. Илмий-амалий тавсиялар. –Т., 2019. 17-бет. (D.J. Suyunova and M.A. Usmanova Regional methodology for the prevention of juvenile delinquency. Scientific and practical recommendations. –T., 2019. p.17.)

YOSHLARNI EKSTREMISTIK VA RADIKAL G‘OYALAR TA’SIRIDAN ASRASHDA “JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT” TAMOYILINING AHAMIYATI

Alimov Akmalbek Abdumajidovich

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bo‘lim boshlig‘i

Bugungi kunda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida hal etilishi zarur ko‘plab muammolar mavjud. Insonlarning osuda hayotini izdan chiqarishga qaratilgan turli shakldagi tahdidlarning paydo bo‘layotgani va buning natijasida buzg‘unchi g‘oyalar mafkura maydonini qurshab olayotgani barchamizga ma’lum. Mamlakatimizdagi tinchlik, farovon hayotga o‘z-o‘zidan erishilayotgani yo‘q. Turli mafkuraviy xurujlar, yovuz niyatli kishilarning ta’sirlariga qarshi aql bilan chora ko‘rish, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurishishni taqozo etilmoqda” [1].

“Jaholatga qarshi kurashning eng ma’qul va samarali yo‘li nima? Johilga johillik bilan qarshilik ko‘rsatish yonib turgan olovga yog‘ sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqog‘iga botgan kishi o‘zini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgan sari jazavasi qo‘zg‘ayveradi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashish joiz hisoblanadi. Bu O‘zbekiston rahbariyati tanlagan eng to‘g‘ri, oqilona va odilona yo‘ldir” [2].

“Ma’rifat va jaholat bir-birini inkor etadigan tushunchalar bo‘lib, qayerdaki ma’rifat bo‘lsa, o‘sha yerda nur bo‘ladi, yaxshilik urug‘lari kurtak ochadi, odamlar baxtiyor va farovon hayot kechiradi. Aksincha, jaholat bor joyda ma’rifat zaiflashgan, mehr-oqibat chekingan bo‘ladi. O‘sha yerdan qut-baraka, fayz ko‘tariladi.

Ma’rifat nima-yu, jaholat nima? Jaholat izohli lug‘atimizda “Ilm, ma’rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat” deya talqin etilgan. Ma’rifat esa insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonidir. Har kim jaholat urug‘ini qurutishi lozim. Ma’rifatga har qadamda jaholat to‘siq bo‘lishi juda ko‘p hayotiy misollardan ma’lum. Jaholatga qarshi esa faqat ma’rifat bilan kurashish lozim. Afsuski, ilmsizlik, ya’ni dunyoviy va diniy bilimlardan yetarli darajada xabardor bo‘lmaslik hamda ekstremizm, radikalizm va terrorizm kabi XXI asrning eng dahshatli balosiga aylanib ulgurgan destruktiv g‘oyalar domiga tushib qolishlik zamonaviy jaholatining jirkanchli ko‘rinishlaridan hisoblanadi.

Ilmsizlik, ilmga rag‘batsizlik, undan yuz o‘girish johillik hisoblanadi. Tarixda ham ilmsizlik oqibatida yuzaga kelayotgan barcha munosabatlar nizolarga aylanib, jamiyatning taraqqiyotiga rahna solgan. Ilmsizlik jamiyat taraqqiyotining kushandasidir, bilimsizlik oqibatida oilalar buzilmoqda, aka-ukalar begonalashib ketmoqda, qarindoshchilik rishtalari uzilmoqda, do‘stlar, qadrdonlar oqibatsiz bo‘lib, yiroqlashmoqda. Buning natijasida esa ichki xotirjamlik, oilalardagi xalovat ham yo‘qolmoqda. Ilmsizlik natijasida yoki ilmning sof manfaatini o‘rniga o‘zining shaxsiy manfaatini oldinga qo‘yish oqibatida jamiyatda nizolar, kelishmovchiliklar vujudga kelmoqda.

Ma’rifatning kishilarga foydasi behisobdir. Ilmli insonda sabr-toqat shakllangan bo‘ladi, qiziqqonlik quyi darajada bo‘ladi, qaror chiqarishga shoshilmaydi, qalblarni og‘ritishdan yiroqlashadi, xato ish qilsa to‘g‘rilashga shoshadi.

Ilmsiz, ma’rifatsiz kishi esa o‘z hayotini behuda o‘tkazadi, shuningdek, o‘zgalarni ham johilligi uchun aziyatga qo‘yadi. E’tibor bersak, dunyoda sodir bo‘layotgan ko‘plab razolat, urush va nizolarga bilimsizlik, johillik sabab bo‘lmoqda. O‘zlarini bilimdon sanovchi ayrim chalasavod kimsalarning harakatlari ayanchli oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Din niqobi ostida o‘zlarining puch g‘oyalarini yoshlar ongiga zo‘r berib singdirmoqchi bo‘layotgan, muborak Islom diniga mutlaqo yot g‘oyalarni targ‘ib etayotgan kuchlarning soxta chaqiriqlariga ishonib qolmaslik uchun ham ilm kerak. Chunki ilmli kishi haqiqat va yolg‘onning farqiga boradi, axborotlar oqimidan o‘zi uchun foydalisini ola biladi. Qolaversa, ilmsizlikka qarshi kurashadi. Bu borada ayniqsa, islom dinini niqob qilib olgan ilmsizlarni misol qilib keltirish mumkin, ular aslida ma’rifatli bo‘lmasalarda oyat va hadislarni o‘zlariga moslashtirib sharhlab oladilar. Aslida, oyat va hadislarni sharhlash uchun ilmda ma’lum darajaga ega bo‘lish muhim sanaladi. Bu haqida Payg‘ambardan (S.A.V.) – Qur’oni Karimda o‘z ra’yi bilan gapirsa, ilmsiz fikr bildirsa xato bo‘lishi hamda og‘ir gunoh ekanligi mazmunidagi hadislar keltirilgan. Demak, kimdandir diniy yoki dunyoviy ma’lumotlarni eshitganda, avvalo, uni chuqur tekshirib ko‘rish, ustoz tanlashda adashmaslik muhimdir. Bu kabi aldovlardan uzoq yurish uchun esa bilimga ega bo‘lish lozim.

Ilmsizlik, ilm kashfiyotining asl maqsadidan to‘g‘ri foydalanmaslik jaholatdir. Ilmsizlik orqasidan oddiy bir jumla noto‘g‘ri talqin qilinib, umuman boshqa bir dalillar bilan asoslantirilishi oqibatida insonlarning umidsizlik darajasi ortib ketishi, hayotning ozgina mashaqqatlariga duch kelinsa, sabrsizlikka yo‘l qo‘yiladi, natijada, huquqbuzarliklar sodir etilib, chaqaloqlarni sotish, akaning ukadan o‘g‘irlik qilishi, qaynona va kelin

o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, buning ortidan ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, hattoki, o‘zining joniga qasd qilish holatlari ham kuzatilmoqda. Dunyoga tafakkur nazari bilan qarash, ilm kashfiyotlaridan to‘g‘ri foydalanmaslik, ularni noto‘g‘ri, g‘arazli maqsadlarda qo‘llash natijasida turli kassaliklar vujudga kelmoqda, qishloqlar, shaharlar yo‘q bo‘lib, xalqlar qirilib ketmoqda, odamlar nogiron bo‘lib, qolgan umrini qiyinchiliklar bilan o‘tkazmoqda. Bularning barchasini ma’rifatsizlikdan deb baholash mumkin.

Ilmning chegarasi yo‘q ekanligi, uning odamzodni yuqori darajalarga ko‘tarishi, insonlar tug‘ilganidan to so‘nggi nafasigacha ilm talab qilib, uni to‘la his qilgan holda umr bo‘yi o‘zini tolibi ilm deb hisoblab yurishi kerakligi, ilmli, olim kishilarning sha’ni nafaqat jamiyat orasida, balki Yaratganning nazdida ham yuksak bo‘lishi Quroni karimda ham ta’kidlangan [3, 54-58-bb.].

Siyosatda, fanda va qonunchilikda ekstremizmning mohiyatini, uning subyekti, maqsadi va motivlarini tushunishda olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud bo‘lmaganligi bois, uni turlicha xarakterda tavsiflashadi. Ilmiy jamoatchilik ekstremizmni keng va tor ma’noda ko‘rib chiqib, keng ma’noda ekstremizm “muayyan maqsadlarga erishish uchun keskin qarashlarga asoslanish”, tor ma’noda – “muxoliflarni mag‘lub etish va ularni yo‘q qilishga qaratilgan faoliyat” sifatida ta’riflanadi. Ekstremizm o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, har qanday ko‘rinishda “keskin qarash” yoki “faol harakat” shaklida namoyon bo‘ladi va konstitutsiyaviy tuzumga va davlat xavfsizligiga bevosita tahdidni yuzaga keltirib chiqaradi.

Ekstremizm (lotin tilidan. extremus – bu ijtimoiy amaliyotning halokatli shaklini ifodalovchi siyosatshunoslik kategoriyasi bo‘lib, uning shakllari inson hayotining ko‘plab sohalarida uchraydi va shaxsni umuminsoniy va madaniy qadriyatlardan uzoqlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Radikalizm (lotin tilidan. Radix – ildiz) – siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ekstremal usullardan foydalanishga asoslangan ijtimoiy amaliyot turini ifodalovchi siyosatshunoslik kategoriyasi.

Ekstremizm va radikalizmning xavfi nimada? Davlat darajasida siyosiy ekstremizm va radikalizmning barcha shakllari xavfi milliy barqarorlik va xavfsizlikka haqiqiy tahdid hisoblanadi. Ekstremizm va radikalizm: birinchidan, davlat organlari va muassasalari ishiga to‘sqinlik qilish, ikkinchidan, saylovlar va ovoz berishda uzilishlar, uchinchidan, irqiy, etnik va boshqa turdagi kelishmovchiliklarni qo‘zg‘atish, to‘rtinchidan, yosh avlodni boshqa ijtimoiy guruhlarga nisbatan nafrat va dushmanlik shaklida tarbiyalash, beshinchidan, tarixni qasddan buzish, fashizm va nasizm

g‘oyalarining tiklanishi, oltinchidan, isyonlar, terrorizm, qo‘zg‘olon yoki fuqarolar urushi rivojlanishiga ko‘maklashish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Davlat siyosati miqyosida ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish uchun ularga qarshi ekstremizmga qarshi kurash sohasida monitoring tizimini yaratish va mustahkamlash, qonunchilik tizimini takomillashtirish, ekstremistik mafkuralarga qarshi axborotni kuchaytirish, ekstremistik huquqbuzarliklarni aniqlash, bostirish va oldini olish bo‘yicha bir qator profilaktika choralarini ishlab chiqishdan iborat kurash strategiyasini ishlab chiqish choralarini ko‘rishi zarur.

Yoshlar orasida radikalizmning tarqalishi, ekstremizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishining oldini olish uchun:

1. Yoshlarga ekstremizm nima va u qanday xavf tug‘dirishi haqida ma’lumot berish;

2. Madaniy va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish;

3. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini sifatli o‘tkazishlari uchun qiziqishlar bo‘yicha guruhlar, sport seksiyalari tashkil etish;

4. O‘smirlarda bag‘rikenglik va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish;

5. O‘smirlarning tajovuzkorligi va yoshlar o‘rtasidagi keskinlikni kamaytirish uchun sharoit yaratishdan iborat maxsus profilaktika tizimi yaratilishi kerak [4, 52-60-bb.].

Hozirgi davrda radikal ekstremizm ham, radikalizmning o‘zi ham nafaqat bir davlat yoki xalqqa, balki butun insoniyatga tahdid solib kelmoqda. Adabiyotlarda mavjud bo‘lgan fikrga ko‘ra, ushbu hodisalarga qarshi kurash ham harbiy, ham mafkuraviy jihatdan olib borilishi kerak.

Dunyoda sodir bo‘layotgan ko‘plab razolat, urush va nizolarga bilimsizlik, johillik sabab bo‘lmoqda. O‘zlarini bilimdon sanovchi ayrim chalasavod kimsalarning harakatlari ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Din niqobi ostida o‘zlarining puch g‘oyalarini yoshlar ongiga zo‘r berib singdirmoqchi bo‘layotgan, muborak Islom diniga mutlaqo yot g‘oyalarni targ‘ib etayotgan kuchlarning soxta chaqiriqlariga ishonib qolmaslik uchun ham ilm kerak. Chunki, ilmli kishi haqiqat va yolg‘onning farqiga boradi, axborotlar oqimidan o‘zi uchun foydalisini ola biladi. Qolaversa, ilmsizlikka qarshi kurashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тўлакбоев Б. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашайлик.// https://ravza.uz/story/ Jaholatgaqarshimarifatbilankurashaylik.

2. Зиёдов Ш. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашишнинг самарали модели. // “Янги Ўзбекистон” газетаси 2023 йил, 15 апрел, 73-сон.

3.Машарипова Г., Исроилов Б, Диёрова Г. Илмдан бошқа нажот йўқ – “Жаҳолатга қарши маърифат” билан курашиш зарурати. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: 4/2-сони 2020 йил. - Б. 54-58.

4.Каримов И.И. Экстремизм тушунчаси, шакллари ва моҳияти: қиёсий ҳуқуқий таҳлил. // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2023). - Б. 52-60.

YOSHLAR JINOYATCHILIGINING BARVAQT PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Umirzakov Begzod Ataboevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

To‘rayev Ilxomjon Esanovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, tibbiyot fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni terrorizm, diniy ekstremizm, “Ommaviy madaniyat”, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalash jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Afsuski, hozirda yoshlar tomonidan jinoyatlarning deyarli barcha turlari sodir etilmoqda.

Kriminologik tadqiqotlarda shaxs jinoiy faoliyat yo‘liga qancha erta kirsa, bu faoliyat shuncha uzoq davom etishi va xavfliroq tus olishi isbotlangan. Shu boisdan mamlakatimizda yoshlar jinoyatchiligining sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish orqali jinoyatchilikning oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasini tashkil etishda ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarining miqdor va sifat ko‘rsatgichlari, sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarini, jinoyatchi shaxsining xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash har bir jamiyat va davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, barkamol avlod tarbiyasida ma’naviy-ma’rifiy jihatlar, muhit va faoliyatning o‘zaro axloq me’yorlari asosida shakllanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu masala strategik ahamiyatga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Ayni vaqtda ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlarning “ko‘zga ko‘rinmas” va “qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan” xarakterga egaligini ham e’tirof etish joiz. Boshqacha aytganda, bu borada “birdaniga va osonlik” bilan kerakli natijaga erishish murakkabligi bilan ajralib turadi.

Ma’lumki, yoshlar ongida axloqiy me’yorlar dastlab oilada shakllanadi. Oiladagi kattalar (ota-ona, bobo, buvi, aka va opalar) tomonidan o‘rnatiladigan tartib-qoidalar aynan jamiyatdagi me’yorlar bilan hamohang bo‘lishi bu borada katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan voyaga yetmaganlarni huquqiy tarbiyalashda “oila-mahalla-maktab” konsepsiyasiga tayangan holda ish olib borish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda ichki ishlar organlarining yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasi bo‘yicha faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari tomonidan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, o‘rganish hamda bartaraf etish orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish doimo dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Jamiyatdagi islohotlar birinchi navbatda yoshlar ruhiyati, milliy qiyofasiga ta’sir etishi tabiiy hol. Taraqqiyotga erishishda barkamol avlod tarbiyasi jismoniy jihatdan chiniqqan yoshlarnigina emas, balki intellektual salohiyati yuqori, sharqona axloq-odob va umumbashariy ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan shaxsni ham ko‘zda tutadi.

Yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasini tashkil etish bo‘yicha quyidagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishi taklif etiladi:

Birinchidan, voyaga yetmaganlarda jinoiy xulq-atvorning shakllanishiga olib keladigan omillarni bartaraf etish va bolada ijobiy xulq-atvorni shakllantirish uchun avvalom bor ota-ona, maktab, mahalla, ichki ishlar, bolalar bo‘yicha idoralararo komissiyalar, jamoat birlashmalari, sog‘liqni saqlash muassasalari oldida birqancha vazifalar mavjud bular:

☑ ota-onaning farzandni dunyoga keltirishga tayyorligini aniqlash va dunyoga kelyotgan bolaga ta’lim-tarbiya berishga ota-onani tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

☑ dunyoga kelgan har bir bolani yashash joyidagi komissiya yashash sharoitlari bilan bir yilda bir marotaba tanishib, mavjud kamchiliklar yoki ijobiy tajribalarni joriy qilish, o‘rgatish bo‘yicha ota-onalarga yoki mas’ul idoralarga taklif-tavsiyalarni berish tizimini yo‘lga qo‘yish;

☑ bolaning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun uning yashash joyida ijodiy uylar va sport inshootlari hamda to‘garaklarini tashkil etib, ushbu maskanda yashovchi barcha bolalarni jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, har oyda kamida bitta sport turi bo‘yicha musobaqalar yoki badiiy-ijodiyot kechalarini o‘tkazish.

Shuning bilan birga, voyaga yetmaganlar ongiga jinoyatchilik, xususan spirtli ichimliklarni, giyohvandlik va psixotrop moddalarini iste'mol qilishning zararli oqibatlarini singdirishda milliy qadriyatlarimizning sarchashmasi bo‘lmish shariyat normalarini ham tushuntirmog‘imiz lozim:

☑ namunali xulqli, maktabda a'lo baholarga o‘qiyotgan, sport musobaqalari va badiiy-ijodiyot kechalarida o‘zlarini ko‘rsatayotgan namunali bolalarni doimo rag‘batlantirish tizimini joriy etish;

☑ bolalarning bog‘cha bilan 100 foiz qamrab olinishini ta'minlash va bog‘chalarda bolalarga tarbiyachilar tomonidan ijtimoiy tarbiyani o‘rgatish tizimini yo‘lga qo‘yish;

☑ maktab, akademik litsey va kollej o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘rtasida ustoz-shogird ananasini rivojlantirish, o‘quvchilarda o‘qituvchilarga hurmat ruhini singdirish, davomatni yaxshilash va doimo nazorat qilib borish;

☑ bolalarning internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tartib-qoidalarini ishlab chiqib, ushbu qoidalarga rioya etilishini doimiy nazoratga olish;

☑ xulqi buzulgan, darslarni muntazam sababsiz qoldirayotgan, ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetmaganlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilib, jimiyatimizda jinoyatchilikning kamayishiga erishiladi.

Ikkinchidan, Internet axborot tarmog‘i imkoniyatlari kengayib, dunyoda global axborot almashuvning tezlashishi, yot g‘oyalarning voyaga yetmaganlar ongi va dunyoqarashiga ta'siri tobora kuchayib borayotganligi mavjud qadriyatlarning ta'sirchanligini susaytirmoqda.

O‘tkazilgan anketa so‘rovlarga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga "O‘zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni qaerdan olasiz?" deb berilgan savolga, 47 % "internet saytlaridan" deb javob bergan bo‘lsa, 23 % "do‘st-dugonalarimdan, tanishlarimdan", 12 % "televizordan", 5 % "kitoblardan", 5 % "o‘qituvchimdan", 3 % "ota-onamdan" deb javob berganlar.

O‘n yil oldin insonlar internet uchun xar kuni 46 daqiqa vaqtini sarflagan bo‘lsa, ayni vaqtda bu ko‘rsatkich 4-5 soatni tashkil etmoqda.

Ushbu yo‘nalishda quyidagi ishlarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

☑ voyaga yetmaganlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi, komillikka yetaklovchi epizodlarga boy milliy seriallar, kinofilmlar,

multfilmlar, animatsion filmlar, spektakllar, shuningdek, ijtimoiy reklama va roliklarni yaratish hamda OAV orqali tizimli ravishda namoyish etish;

☑ voyaga yetmaganlarda ichki va tashqi tahdid hamda axborot hurujlarida “axborotni saralash”, “himoyalanish”, “qarshi kurash” va “boshqarish” kabi psixologik funksiyalarni rivojlantirish ulardagi mafkuraviy immunitet tizimini mustahkamlashdagi asosiy omil bo‘lib xizmat qilish tamoyilini inobatga olish zarur;

☑ bolalarni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’sirini oldini olish yoki kamaytirish uchun oilaviy kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarur. Bunda mahalla, ota-ona ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga quyidagi tavsiyalarni e’tiborga olish nazarda tutiladi:

☑ kitob mutolaasida hamisha farzandlarga o‘rnak bo‘lish;

☑ muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o‘qib berishni yo‘lga qo‘yish;

☑ har bir farzandning yosh va xarakter xususiyatini, ruhiy-ma’naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish;

☑ kichik yoshdagi bolalarga ko‘proq rangbarang suratlarga yo‘g‘rilgan, katta-katta harflarda yozilgan, uning beg‘ubor xayoloti sarhadlarini aks ettira olgan asarlarni tanlash;

☑ o‘rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko‘ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish;

☑ katta yoshdagi mustaqil, oila qurgan farzandlar bilan ham tez-tez kitob mutolaasi xususida suhbat o‘tkazib, zaruriy tavsiyalar berib turish (bu oilaviy kitobxonlik an’anasini muqaddas qadriyat sifatida davom ettirishga zamin yaratadi);

☑ har bir kitob mutolaasi uchun har kunlik va haftalik miqdorlarni belgilash va muntazam nazorat qilib borish;

☑ o‘qilgan asar mazmun-mohiyati, qahramonlar xarakteri-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan taassurotlar bo‘yicha oilada davra suhbati tashkil qilib borish;

☑ o‘z vaqtida va talab darajasida mutolaa qilgan kitobxon farzandni alohida rag‘batlantirish;

☑ badiiy adabiyot o‘qishga yetarlicha qiziqish bildirmayotgan, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajara olmayotgan farzand bilan alohida shug‘ullanish, unda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishish;

d) ta’lim muassasalari zimmasiga o‘quvchilarning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan turli to‘garaklar,

qiziqishlari bo‘yicha klublar, seksiyalarni tashkil etish vazifasini yuklash shuningdek, maqsadi va asosiy vazifalariga yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga va vatanparvarlik tuyg‘usiga ega intellektual rivojlangan yoshlarni tarbiyalash hamda ona Vatan kelajagi uchun o‘ziga mas’uliyatni oladigan, Vatan sha’nini himoya qilishga tayyor, mustahkam qarash va qat’iy fuqarolik pozitsiyasiga ega o‘quvchi-yoshlarni tayyorlash vazifasini yuklatilishi.

Uchinchidan, qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari bo‘lgan ota-onalarga har qanday maqsad bilan uzoq muddatga xorijiy davlatlarga chiqib ketayotganida, qaramog‘ida bo‘lgan barcha voyaga yetmagan farzandlariga qonuniy tarzda vasiy yoki homiylar tayinlash majburiyatini yuklash.

So‘nggi yillarda respublika hududidan xorijiy davlatlarga uzoq muddatga ishlash maqsadida chiqib ketayotgan fuqarolar soni ortib bormoqda. Mazkur fuqarolar orasida qaramog‘ida voyaga yetmagan farzandlari bo‘la turib, ularni yaqin qarindoshlariga tashlab ketayotgan ko‘plab ota-onalarni ham uchratish mumkin.

Aksariyat hollarda voyaga yetmagan bolalarni o‘z qaramog‘iga olganlar ularga topshirib ketilgan voyaga yetmagan bolalarga g‘amxo‘rlik qilsalar, ayrim hollarda ularni qarovsiz qoldirish, ta’lim va tarbiyasi bilan umuman shug‘ullanmaslik, moddiy ta’minlamaslik, ularni turli xil huquqbuzarliklar sodir etishga jalb qilish, noqonuniy mehnat munosabatlariga undash, qiynash, azob berish, jinoyat sodir etadigan vaziyatga solish kabi holatlar ham kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiyaning 77-moddasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburligi. Shuningdek davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlashi ko‘rsatib o‘tilgan. Binobarin voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishida davlat va ota-onalardan yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslardan oilada yetuk, barkamol avlodni shakllantirishda oldilariga bir qancha majburiyatlarni ular voyaga yetgunga qadar bajarishlari yuklatilgan.

Bu majburiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

☑ bolani boshpana, mavsumiy kiyim-kechak va yetarli oziq-ovqat bilan ta’minlash;

☑ bolani hayoti va sog‘ligiga qarshi turli xavf-xatardan himoya qilish;

☑ bolani sog‘lig‘iga shuningdek, tanasini to‘g‘ri rivojlanishiga e’tibor qaratib, tegishli tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazib turish va barkamol o‘sishi uchun jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullantirib turish;

☑ oilada ma’naviy muhitni ta’minlash orqali bolada jamiyatimizda azaldan ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan urf-odatlar (mehribonlik, samimiylik, g‘amxo‘rlik, kattaga hurmatda kichikka izzatda bo‘lish, salomlashish, mehmondo‘stlik, do‘stlik, bahamjihatlik, mehr-muhabbat, insonparvarlik va h.k.) va axloq-odob qoidalariga rioya qilish ruhiyatini singdirib borish;

☑ bolaning doimiy ravishda umumiy ta’lim maktablariga borishini hamda u yerda ilm olishiga, o‘qish, yozish, hisoblash, yodlash sirlarini o‘rganishini ta’minlash;

☑ bolani doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirib borish hamda hunar o‘rgatish;

☑ bolada yot g‘oyalarga qarshi immunitet hosil qildirish va bolani ma’naviy-axloqiy tarbiyalash – unda Vatanga, milliy va diniy qadriyatlarga, urf-odat va madaniyatga nisbatan mehr-muhabbat or-nomus, g‘urur, iftixor kabi tuyg‘ularni shakllantirishda ko‘maklashish.

To‘rtinchidan, barcha umumta’lim maktablarida 5-sinfdan 11-sinfgacha har yili o‘quvchilar uchun “Tarbiya soati”da “Huquqbuzarliklar va ularning huquqiy oqibatlari” deb nomlangan besh kunga mo‘ljallangan maxsus dastur asosida o‘quv kursini tashkil etish.

AQShda maktab dasturlarida o‘quvchilarga odil sudlov tizimi asoslarini o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, Arizona shtatida mashg‘ulotlar “o‘quv sudi” shaklida olib boriladi. O‘quvchilar orasida politsiya, advokat, guvoh, jurnalist, sudya rollari o‘zaro taqsimlanadi. Bunda ayblanuvchi rolini maktab o‘quvchilariga tanish bo‘lmagan politsiya xodimi o‘ynaydi. O‘yin politsiya va o‘qituvchi tomonidan boshqariladi[1].

Virjiniya-Bich shtatida esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu yerda 4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan maxsus dastur tatbiq etilgan bo‘lib, ushbu dasturda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, qonun hamda jinoyatchilik, turar-joy xavfsizligi, do‘kondagi o‘g‘irlik, bosqinchilik va shaxsiy xavfsizlik kabi 6 ta mavzuni o‘z ichiga qamrab olgan 3 hafta davom etuvchi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

[1] Ахъядов Э.С. Отечественный и зарубежный опыт профилактики безнадзорности и правонарушений несовершеннолетних // «Молодой учёный». – 2016. – № 2 (106). – С. 659.

Mashg‘ulotlar yakunida o‘quvchilarga sertifikat va nishon beriladi. Kursning o‘ziga xos xususiyati mashg‘ulotlarning o‘quvchilar xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida politsiya xodimlari tomonidan olib borilishidir. Dastur mualliflarining fikricha, ularning asosiy maqsadi bolani yoshligidan ijtimoiy hodisalarni to‘g‘ri baholashga o‘rgatish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan potensial xavfdan qochish va politsiya bilan munosabatga kirishish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat[2].

AQShning Florida shtati ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan davlat va xususiy umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun joriy etilgan huquqiy ta’lim dasturi mavjud bo‘lib, 7–8-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan ushbu dastur shaxsning jamiyatdagi qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, fuqaroning majburiyatlari va jinoyat huquqi asoslari, huquq-tartibotni buzuvchilarni kutayotgan jazoga doir bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi[3].

Respublikamizdagi barcha umumta’lim maktablari uchun taklif etilayotgan mazkur o‘quv kursi davomida hududiy ichki ishlar organlarining malakali xodimlari tomonidan o‘quvchilar bilan huquqbuzarliklar, uning turlari hamda huquqiy oqibatlari haqida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. O‘quv kursi yakunida shahar-tuman ichki ishlar organlarining boshliqlari shaxsan ishtirok etadilar va ular tomonidan o‘quvchilariga sertifikat va nishonlar beriladi.

Bu bir tomondan voyaga yetmagan maktab o‘quvchilarida huquq-buzarliklar, ularning turlari, qilmishning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy oqibatlari, tayinlanishi mumkin bo‘lgan jazolar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari bilan birga, hududiy ishchi ishlar organlari bilan umumta’lim maktablarining o‘zaro hamkorligini uzviy bog‘lashga, voyaga yetmagan maktab o‘quvchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirishga, shu orqali jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqorida yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasini takomillashtirish bo‘yicha ilgari surilgan taklif va tavsiyalar kelgusida, yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasining muammolari bo‘yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarning yo‘nalishlarini belgilab olishga, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasiga doir qonunchilikni takomillashtirish va qonunni qo‘llash amaliyoti samaradorligiga erishishga, jamiyatda

[2] Гусейнов А.Б. Профилактика правонарушений несовершеннолетних за рубежом // [Электрон манба]: https://www.twirpx.com/file/1172281.

[3] Дородонова Д.Н. Регулирование вопросов по организации профилактики правонарушений несовершеннолетних в зарубежном законодательстве: история и современность // Вестник Саратовской государственной юридической академии. – 2017. – № 5 (118). – С. 195.

sog‘lom ijtimoiy muhit barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan qadriyatlar tizimining ta’sirchanligini oshirishga, yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasini tashkil etish amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

Aniqlanishicha, ichki ishlar organlari yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarini quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etadi:

birinchidan, ular yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadilar;

ikkinchidan, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

uchinchidan, respublika, alohida viloyat, tuman va shaharlardagi jinoyatchilik bilan bog‘liq vaziyatni o‘rganadi, yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etilishining oldini olish va bartaraf etishda mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi;

to‘rtinchidan, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘layotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

beshinchidan, yoshlar o‘rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklar, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbuzarliklardan jabrlanganlar hisobini yuritadi va bu ma’lumotlarni tahlil qiladi;

oltinchidan, taqiqlangan tashkilotlar va diniy ekstremistik guruhlarga aloqador yoshlarni aniqlaydi va ularga nisbatan chora ko‘radi;

yettinchidan, yoshlar tomonidan pasport-viza rejimiga, fuqarolik va xizmat qurollari hamda ular uchun o‘q-dorilarni saqlash qoidalari va tartibiga rioya etilishi ustidan nazoratni ta’minlaydi;

sakkizinchidan, yoshlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish choralarini ko‘radilar;

to‘qqizinchidan, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda bevosita amalga oshiruvchi va ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

YOSHLAR TOMONIDAN QAYTA JINOYAT SODIR ETISH HOLATLARINI OLDINI OLISH

Мирзаев Жаҳонгир Умирзоқович

Ўзбекистон Республикаси Криминология тадқиқот институти Таҳририй-ноширлик маркази бош муҳаррири, юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Annotatsiya: Maqolada jinoyatchilik jamiyat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta’minlash sohasida jiddiy muammo hisoblanishi, yoshlarning qayta jinoyat sodir etish holatlariga qarshi kurashishda mavjud huquqiy ta’sir choralar bilan bir qatorda tahlil asosida qo‘shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, ozodlikdan mahrum etish jazosi tahlili, qayta jinoyat sodir etilishi holatlari ko‘proq kuzatilayotganligi, jinoyat sodir etgan yoshlarning tahlili, bu borada olim va tadqiqotchilarning fikr va mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar jinoyati, qayta jinoyat, jinoyat sodir etgan shaxs, jinoyatlarning oldini olish, targ‘ibot qilish, probatsiya nazorati, jazoni ijro etish, tarbiya koloniyasi, ozodlikdan mahrum etish, kasb-hunar o‘rganish, ta’lim olish, profilaktik tadbirlar, nosog‘lom oila, ijtimoiy muammo, voyaga yetmaganlar, tarbiyalanuvchilar.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev huquq tartibot idoralari faoliyati bilan bog‘liq muhokamalarning birida: “Profilaktika ishlari tahlilga asoslanishi kerak. Har bir huquqni muhofaza qilish organida jinoyatchilikning joyi va turi bo‘yicha chuqur ma’lumot bo‘lishi, buning uchun davlat idoralari, jamoat tashkilotlari muntazam birga ishlashi zarur. Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, prokuratura – hammasi xalqqa xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, jamiyatda ham jaholatga qarshi ma’rifat kuchli bo‘lishi lozim. Muhit shunday bo‘lishi kerakki, hech kim jinoyatga qo‘l ura olmasin”[1] deya ta’kidlagan edilar.

Darhaqiqat, mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri – jinoyatchilikni kamaytirish, ayniqsa yoshlarning jinoyat sodir etish holatlarini oldini olishdan iboratdir. Chunki yoshlarning jinoyat yo‘liga kirishi nafaqat mavjud jazo tizimi samaradorligi, balki jamiyatdagi tarbiya, ma’naviy muhit va huquqiy tartibotning holati haqida ham ma’lumot beradi.

Hozirgi sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat jazo qo‘llash bilan cheklanib qolmasdan, balki uning oldini olishga yo‘naltirilgan samarali profilaktik tadbirlar tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa jinoyat sodir etgan shaxslarning ta’lim darajasi, kasb-hunarga egaligi, psixologik holati, axloqiy qarashlari, oilaviy va ijtimoiy muhitini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishi, avvalo, yosh avlodning tarbiyasi va ularning sog‘lom hayotiy yo‘l tanlashiga bog‘liq. Afsuski, so‘nggi yillarda yoshlar orasida jinoyatchilik holatlari ko‘paymoqda va ayrim hollarda ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishi ham kuzatiladi. Bu esa nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki butun jamiyat uchun jiddiy xavotirli masaladir.

Yoshlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishi sabablari turlicha bo‘lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, tarbiyaviy omillar, muhit ta’siri va huquqiy ong darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, jazoni o‘tab chiqqan shaxslarni jamiyatga qaytarish jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar ham ushbu muammoning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois, yoshlar o‘rtasida qayta jinoyat sodir etish holatlarining oldini olish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarning bir marotaba adashib jinoyat qilishining o‘zida hayotini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirilmas ekan, katta yo‘qotishlarga duch kelishi mumkin.

Bu borada olim va tadqiqotchilarning fikr-mulohazalariga e’tibor qaratish joiz deb hisoblaymiz. Jumladan:

M. M. Buslov aksariyat jinoyatlar yoshlar tomonidan sodir etilayotganligini hisobga olib, eng avvalo ularning tarbiyasi va ta’limiga jiddiy e’tibor berib, keng qamrovli umumiy profilaktik tadbirlarni samarali amalga oshirish lozim deb hisoblaydi[2].

Yoshlar o‘rtasida jinoyatlarni oldini olish usullaridan biri, bunday jinoyatni sodir etgan shaxslarga ikki-uchta tarbiyaviy ta’sirga ega kitobni tarqatib, mazmuni bo‘yicha ular o‘rtasida musobaqa o‘tkazishdir. Bunda kitobni diqqat bilan o‘qiganlarni taqdirlash kerak.

Kitob o‘qishning foydasi juda katta: u insonda tasavvur qilish qobiliyatini kuchaytiradi, ruhiy sog‘lig‘ini mustahkamlaydi, bosh miyada inson ruhiyati uchun muhim bo‘lgan neyron bog‘lanishlarini paydo qiladi, shuningdek insonda o‘ziga nisbatan ishonchni oshiradi, diqqatni jamlash ko‘nikmasini hosil qiladi, so‘z boyligini ko‘paytirib, dunyoqarashini kengaytiradi, xotirasi va fikrlashini kuchaytiradi.

Profilaktik chora-tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish jinoyat sodir etishga moyil o‘spirinlar shaxsi va xulq-atvorining o‘ziga xosligini bilishga bog‘liq bo‘ladi[3].

Ayrim o‘smirlar, ayniqsa, akasi yoki otasi yo‘q o‘spirinlar uchun ba’zi tanishlari “avtoritet” bo‘ladi, ular o‘shalarga o‘xshashga harakat qilishadi. Shu bois ularga ana shu shaxslar orqali ta’sir ko‘rsatib, yakka tartibda profilaktik choralarni amalga oshirish kerak.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar va yoshlarda vijdon, hayo kabi xislatlarni rivojlantirib, jinoyatlarni oldini olish mumkin. Lekin bu ish ularni hech kim ko‘rmayotgan, yolg‘iz qolgan vaqtlarda foyda bermaydi. Shu bois ushbu jinoyatchi uchun eng hurmatli odam kimligini aniqlab, o‘sha shaxsni unga mas’ul qilib belgilash, bunda mahalladan birovni yoki begona shaxsni emas, balki qarindoshlaridan birini tanlash lozim.

Shu jumladan, yoshlarni ongiga eng ko‘p ta’sir etadigan shaxslar, bu uning tanishlari, do‘stlari va muntazam ko‘rishib turadigan atrofidagilar hisoblanadi. Ular yaxshilik tarafdori bo‘lmasa salbiy, yaxshi bo‘lsa ijobiy ta’sir etadi.

Ta’kidlash joizki, ayrimlar uchun, ayniqsa, bir necha marotaba huquqbuzarlik sodir etganlar uchun yakka tartibdagi suhbatning ahamiyati katta. Erinmasdan suhbatni muntazam olib borish, ko‘proq huquqbuzarning muammolarini o‘rganish va ko‘proq tarbiyaviy gaplardan gapirish, har bir shaxsga uning temperamenti va fe’l-atvorini inobatga olib, o‘ziga xos yondashish (kerak bo‘lsa qarindoshlarning, ilgari ishlagan jamoasining ijobiy ta’sirini qo‘llash mumkin), shuningdek olingan “ma’lumotlarni axborotdan foydalanish nuqtai nazaridan tahlil qilish” kerak[4].

Shaxsni faqat jazolash yo‘li bilan emas, balki tarbiyasiga profilaktik ta’sir etish orqali samarali natijaga erishish mumkin.

Xususan, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifasi hisoblanadi[5].

Ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etuvchi tarbiya koloniyasida 146 nafar tarbiyalanuvchilar jazo muddatini o‘tayotgan bo‘lib, ularning 2 nafari

chin yetim, 87 nafari sog‘lom oila hamda 57 nafari (19 nafari o‘gay ota yoki ona qaramog‘ida bo‘lgan, 9 nafari otasi yoki onasi spirtli ichimlikka ruju qo‘ygan, 29 nafari notinch oila) nosog‘lom oila farzandlarini tashkil qiladi.

Tarbiyalanuvchilarning 72 nafari o‘ta og‘ir, 72 nafari og‘ir, 2 nafari uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan, shuningdek, 101 nafari bir marotaba, 30 nafari ikki marotaba va 15 nafari uch va undan ortiq marotaba sudlangan[6].

O‘tkazilgan tahlillar, voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatdi:

birinchidan, oson boylik orttirish va yengil hayot kechirishga bo‘lgan intilish oqibatida jinoyat ko‘chasiga kirib qolganliklari (36 ta o‘g‘rilik, 7 ta talonchilik, 7 ta bosqinchilik, 4 ta giyohvand moddalar savdosi);

ikkinchidan, internet tarmog‘idan foydalanish madaniyati shakllanmaganligi, yoshlar haqiqiy va virtual olam o‘rtasida o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishmoqda (36 ta jinsiy erkinlikka qarshi jinoyat, 12 ta og‘ir tan jarohati yetkazish, 7 ta qotillik);

uchinchidan, jazo muddati o‘tab chiqqan voyaga yetmaganlar nazoratdan chetda qolmoqda (ikki marta sudlanganlar 30 nafar, uch va undan ortiq marta sudlanganlar 15 nafar, ikki va undan ortiq marta tarbiya koloniyasida jazo muddati o‘taganlar 10 nafar);

to‘rtinchidan, voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllanmaganligi, ular “qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod etmasligi” tamoyilini tushunib yetmaganligi (26 ta transport vositasini olib qochish, 2 ta 16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, 12 ta og‘ir tan jarohati yetkazish, 7 ta qotillik);

beshinchidan, nosog‘lom oila farzandlari muammolarini o‘rganishda joylardagi mas’ullar tomonidan sustkashlikka yo‘l qo‘yilmoqda (57 nafari nosog‘lom oila farzandlarini).

Ta’kidlash joizki, muassasada tarbiyalanuvchilarni qayta tarbiyalash, ularni ta’lim olish hamda kasb-hunar o‘rgatish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 132 nafar tarbiyalanuvchining koloniyadagi umumta’lim maktabida o‘rta ta’lim olishlari ta’minlanmoqda.

Tarbiyalanuvchilarning 94 nafariga jazo muddatini o‘tash vaqtida oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish hamda imtihonga tayyorlanishlariga zaruriy sharoit yaratib berilganligi natijasida 32 nafari talabalar safiga qabul qilingan. Bugungi kunda talaba bo‘lgan tarbiyalanuvchilardan 30 nafari ozod bo‘lgan.

Tarbiyalanuvchilarning qiziqishidan kelib chiqqan holda 731 nafari kasb-hunarga o‘rgatilib egallagan mutaxassisligi bo‘yicha sertifikatlar berilgan.

Xususan: 198 nafari avtochilangar, 129 nafari santexnik, 156 nafari kompyuter ustasi, 73 nafari sartaroshlik, 126 nafari elektromontyor, 44 nafari avtoelektrik, 5 nafari oshpazlik kasb-hunarlariga o‘rgatilgan bo‘lib, hozirda 71 nafari kasb-hunarga o‘rgatilmoqda.

Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda turli ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar hamda sport tadbirlari o‘tkazilib borilmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, bugungi jazo muddatini o‘tab chiqqan yoshlarning to‘liq bandligi ta’minlanmasligi oqibatida, qayta jinoyat ko‘chasiga kirib qolmoqda.

Bundan tashqari, ayrimlari borgan oilaviy yoki tanishlari muhitining salbiyligi bevosita qayta jinoyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bizning fikrimizcha, ozodlikdan mahrum etish jazosidan va probatsiya nazoratidan ozod etilgan yoshlarning jamiyatga moslashuvini samarali ta’minlash maqsadida, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzurida “Jazodan ozod bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llash markazi” tashkil etish zarur.

Shuningdek, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritish istagi bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini rag‘batlantirib borish lozim.

Ularning asosiy vazifasi – ozod etilgan yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, ishga joylashishi, psixologik va huquqiy yordam olishi, doimiy monitoringda bo‘lishi va kriminogen muhitdan uzilib, ijobiy hayot tarziga qadam qo‘yishiga ko‘maklashishdan iborat bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, davlat va jamiyat birlashib kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirgan taqdirdagina yoshlarni ijtimoiy-maishiy muammolari hal etilishiga, ma’naviy intellektual salohiyati va dunyoqarashi yuksaltirilishiga, ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi shakllantirilishiga hamda ular o‘rtasida qayta jinoyatlarning kamaytirilishiga erishiladi.

Xulosa, jinoyat sodir etgan yoshlarni qayta jinoyat sodir etishining oldini olish masalasi huquqiy, ijtimoiy va pedagogik jihatdan hamkorlikda hal etilishi lozim bo‘lgan murakkab jarayondir. Bunda jazoni ijro etish muassasalarida amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlarning tizimli va maqsadli tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, faqat jazo jarayoni bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatda ham ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish, to‘g‘ri yo‘naltirish va qonuniy hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan aniq mexanizmlarni joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. https://uznews.uz/ru/news/21933?utm_source=chatgpt.com.

2. Буслов М.М. Предупреждение краж и грабежей, совершаемых молодежью: Автореф. дис. … кан. юрид. наук. – М., 2013. – 28 с.

3. Коровин А.Б. Основные меры по профилактике грабежей и разбойных нападений на граждан и салоны сотовой связи и целью завладения мобильными телефонами. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-mery-po-profilaktike-grabezhey-i-razboynyh-napadeniy-na-grazhdan-i-salony-sotovoy-svyazi-s-tselyu-zavladeniya-mobilnymi (мурожаат вақти: 01.06.2025 йил).

4. Оперативно-розыскная деятельность: Учебник / Под ред. К. К. Горяинова и др. — 2-е изд., доп. и перераб. — М.: Инфра-М, 2004. — С. 38.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/2387357

6. IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma’lumotlar bosh markazining hisobotidan.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

Xonimov Sharofutdin

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Yoshlar nafaqat mamlakatning kelajagini, balki bugungi kun islohotlarining samaradorligini belgilab berishini, ular qanchalik zamonaviy jamiyatga ijtimoiylashganini teran anglash zarur.

Bugungi kunda zamonaviy yoshlarning muammolari tobora dolzarblashib bormoqda. Dunyo bo‘ylab yoshlarning hayotdagi maqsadlari, intilishlari va ustuvorliklari kun sayin o‘zgarmoqda.

Zamonaviy yoshlar – mehribon, halol va itoatkor bo‘lish, oila haqida qayg‘urish o‘rniga, qaramlik, zo‘ravonlik va ustunlik orqali ajralib turishni afzal ko‘rmoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshi katta va keksa avlod vakillari oldiga o‘smirlar va yoshlarda ezgulik va insoniylikni tarbiyalash vazifasini qo‘yadi.

Jamiyatda o‘smirlar va yoshlarning va umuman butun aholining qadriyatlarini o‘zgarishiga, mehnat, kasb-hunar, ilmga bo‘lgan qiziqishlarini so‘nishiga, yengil daromad topish va bir kunlik hayot tarzining ommalashuvga olib kelmoqda.

Har bir jamiyatda yoshlar bilan bog‘liq 3 ta asosiy muammo: bandlik (ishsizlik), kasbiy ta’lim olish va jinoyatchilik muhim ahamiyat kasb etib, qolgan barcha masalalar aynan shu muammolar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bugungi kunda mamlakatda yoshlar yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda Respublika, viloyat, tuman va mahalla darajasidagi ishlar samaradorligini o‘rganish borasida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan quyidagi qator muammo va masalalarga e’tibor qaratish zarur.

I. Yoshlar orasida ishsizlik muammolari

Yoshlar har bir jamiyatning intellektual salohiyati bo‘lib, o‘zining yoshi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari jihatidan mehnat bozorida eng ko‘p qo‘llab-quvvatlashga muhtoj qatlam sanaladi.

O‘zbekistonda yoshlar orasida ishsizlar soni aholi singari yo‘ldan-yilga ortib bormoqda (oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda yoshlarning ishsizligi 17% tashkil etgan). Ma’lumot uchun: 2020-yilning avgust holatiga AQShda ishsizlar soni – 10,2%, Germaniyada – 5,8%, Angliyada – 3,9%, Janubiy Koreyada –4,2%, Turkiyada – 13,7%ni va O‘zbekistonda – 13,2%ni tashkil etgan.

Aholi orasida jumladan, yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, davlat manfaatlariga iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari bilan katta xavf soladi. Yoshlar orasida ishsizlik muammosini hal qilish, ular bandligini ta’minlash, ijtimoiy himoya hamda mamlakatning mehnat resurslari sifatini oshirish vazifasi, yoshlar bandligini nazoratga olish masalasi hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatda yoshlar bandligini ta’minlashda muammolarga bir qator quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan:

☑ yoshlarning aksariyati o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega emas.

OTM tomonidan yoshlarga yetarli darajada amaliy bilim va ko‘nikmalarning berilmaganligi keyinchalik ish beruvchilarning yosh mutaxassislarga nisbatan ko‘plab e’tirozlariga sabab bo‘lib, yosh mutaxassislarni ishdan bo‘shash va keyinchalik ishga joylasha olmaslik kabi holatlar kelib chiqmoqda.

Mamlakat hududlarida ish beruvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, ularning 61,2 foizi OTM bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasidan qisman qoniqishini ma’lum qilishgan. Faqatgina 21,3 foiz ish beruvchilar bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasidan qoniqishini ta’kidlashgan (1-diagramma).

1-diagramma



Yana bir muhim jihat, bugungi kunda mahalliy ish beruvchilar yosh mutaxassisni ishga qabul qilishda birinchi o‘rinda uning oliy ma’lumotli ekanligiga e’tibor qaratmoqda (bu ayniqsa davlat tashkilotlariga xos). Agar

ishga kirishga da’vogar 2 mutaxassisdan biri oliy va yana biri o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lsa, oliy ma’lumot haqidagi diplomga ega kadrda ishga kirish imkoniyati yuqori bo‘lib, uning kasbiy bilim va malakasi ikkinchi darajali masala sifatida qaralmoqda.

Ish beruvchilarning asosiy qismi (87%) yosh mutaxassisni ishga qabul qilishda uning oliy ma’lumotga ega ekanligi ustuvor imkoniyat berishini ta’kidlagan. Albatta, mazkur holat talabalarning oliy o‘quv yurtida bilim va malakani oshirish, sohaning sir-asrorlarini o‘rganishdan ko‘ra faqat diplom uchun, yuzaki ta’lim olishlariga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat, mamlakatda ishga qabul qilish jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Aksariyat ish beruvchilar ta’lim muassasalarini bitirib ish stajiga ega bo‘lmagan mutaxassislarni ishga olishdan bosh tortmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 62,3 foiz ish beruvchilar, oxirgi yillarda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi qisman yaxshilanganligini, lekin bu yetarli emasligini ta’kidlangan bo‘lsa, 14,8 foizi keskin yaxshilanganini, 12,6 foizi o‘zgarishlarni umuman sezmaganini ma’lum qilgan (2-diagramma).

2-diagramma



OTMlardagi vizual o‘rganishlar va professor-o‘qituvchilar bilan ishonchli suhbatlarda – bugungi kunda ayrim mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlanayotgan yosh kadrlarga taqdim etilayotgan ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashning imkoni mavjud emasligini, ya’ni texnologik jarayonlar rivojlanishi omilining xanuzgacha aksariyat o‘quv dasturlarida inobatga olinmasligi amaliyot davrida yaqqol namoyon bo‘layotgani ma’lum bo‘ldi.

OTMlardagi o‘quv jarayonlarining ishlab chiqarish bilan integratsiya bo‘lmaganligi.

OTMlarning bitiruvchi bosqich talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan o‘rganish natijalariga ko‘ra, ularning 53,1 foizi o‘quv yurtlarida bilim berish usul va uslublarini yanada takomillashtirish kerakligini ta’kidlagan.

Faqatgina 26,2 foiz ishtirokchilar OTMning ta’lim sifatidan qoniqishini va keyinchalik o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlab ketishiga to‘liq ishonishini bildirgan bo‘lsa, 10,7 foiz talabalar ta’lim sifatidan umuman qoniqmasligini qayd etgan. Shuningdek, 5 foiz talabalar esa ta’lim sifati sabab o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlab ketishiga umuman ishonmasligini ma’lum qilgan (3-diagramma).

3-diagramma



OTMlardagi ta’lim sifatidan qoniqmaslik ko‘rsatkichi hududlar kesimida tahlil qilinganda, Farg‘ona (29,3%), Andijon (21,3%), Namangan (20,2%) va Jizzax (17,3%) viloyatlarida nisbatan ko‘proq ekanligi kuzatilgan.

Bugungi kunda sifatli ta’lim olmaslik, mehnat bozoridagi kuchli raqobat, ishga joylashish kabi masalalar – yoshlarni tashvishlantirayotgan eng asosiy jihatlardir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, 39,6 foiz yoshlarni birinchi navbatda munosib ish topish masalasi tashvishlantirayotgan bo‘lsa, 26,1 foizini o‘qishni davom ettirish, 10,4 foizini karyera, 7,5 foizini xorijga ketish, 7,2 foizini oila qurish va boshqa muammolar tashvishlantirayotgani aniqlangan (4-diagramma).

4-diagramma



Yosh mutaxassislarning har uchinchisi AKTdan foydalanish ko‘nikmalarga ega emas.

Bugun yoshlarning AKT sohasidagi savodxonligini oshirish, ularni bu boradagi bilimlarini yuksaltirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Biroq, shuni alohida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, aksariyat ta’lim muassasalarida kompyuter savodxonligini oshirish, AKTni o‘rgatish borasidagi ishlarni talab darajasida deb bo‘lmaydi.

Yoshlarning uchdan bir qismi (33%) kompyuter savodxonligi darajasini o‘rta deb baholaydi. Shuningdek, ish beruvchilarning deyarli har uchinchisi (27,3%) yosh mutaxassislarning kompyuter dasturlarini bilish, ma’lumot yig‘ish, qayta ishlash va almashish ko‘nikmalarini o‘rtacha ekanligini qayd etgan (5 a va b diagrammalar).5 a diagramma



5 b diagramma



II. Yoshlarning ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishdagi muammolari

Bugungi kunda mamlakatning ta'lim tizimida an'anaviy dars o'tish usullarining (metodlari) saqlanib qolayotganligi yoshlarda mantiqiy fikrlash va kreativlikni rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Yoshlarning 22,6 foizi o'zlarining kreativlik va mantiqiy fikrlash darajasini yuqori deb baholaydi (5-diagramma).

Shuningdek, ish beruvchilarning qariyb yarmi (46,5%) bugungi yosh mutaxassislarda yuqoridagi jihat yetishmasligini ma'lum qilgan.



Yoshlarning muayyan kasb-hunar, mutaxassislikni egallash borasidagi qarorlariga tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda o‘ziga jalb qiladigan kasb-hunar turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoshlarning 41,7 foizi OAV (TV, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va h.k.) orqali olishini ta’kidlagan bo‘lsa, 36,4 foizi ta’lim muassasini (o‘qituvchilar, ma’ruza va suhbatlardan) ko‘rsatgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, aksariyat yoshlar mutaxassislik yoki kasb-hunar tanlashida tashqi ta’sirlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim muassasalarida esa yoshlarga zamonaviy mutaxassisliklar va kasb-hunar turlari borasidagi yangiliklar haqida ma’lumotlar berib borish tizimli yo‘lga qo‘yilmagan.

Yoshlarning deyarli har o‘ninchisi (8,2%) boshqa manbalar orqali emas, balki o‘zi amaliyotda ishlab, sinab, kuzatgan kasb-hunarni afzal bilishini e’tirof etib, ularning 6 foizi korxonalarga ekskursiya va tashriflar, 4,3 foizi ota-ona va qarindoshlar orqali xabar topganligini bildirgan 7-diagramma).



Yoshlarda kasb-hunar o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq pasayib, yengil yo‘llar bilan pul topishga intilish kuchaymoqda.

Ushbu tendensiyani o‘rganish natijalariga ko‘ra, yoshlarning har to‘rtinchisi (25%) ish faoliyati, kasb-hunarni tanlashda birinchi navbatda maosh va daromad miqdorini inobatga olmoqda.

Shuningdek, 18 foiz yoshlar mehnat sharoitlari va imkoniyatlariga, 12,6 foizi ish va kasb-hunarning mazmuniga, 9,6 foizi ish va kasb-hunarning nufuziga, 9,3 foizi ishning yashash joyiga yaqin/uzoqligiga ahamiyat berishini bildirgan (8-diagramma).

8-diagramma



Bu borada soha mutaxassislari va ekspertlarning fikri o‘rganilganda, bugungi kunda hududlarda “Yoshlar dasturlari” doirasida har bir ta’lim muassasasi va mahallada kasb-hunar to‘garaklarini tashkil etishda qator kamchiliklar mavjudligi ta’kidlangan, jumladan, kasb-hunar to‘garaklar faoliyatini yuritishda malakali mutaxassislarning yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi hamda umumta’lim maktablarida tashkil etilayotgan kasb-hunar to‘garaklaridagi mutaxassislarning yoshlarda bilim va ko‘nikmalarni shakllashtirishga sust yondashish holatlari mavjudligi aniqlangan.

III. Yoshlar tadbirkorligidagi muammolar

Oxirgi yillarda mamlakatda tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, bu borada yoshlarga taqdim etilayotgan imkoniyatlar, ularning ushbu faoliyatga qiziqishinning ortishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan har uchinchi (31,5%) yosh ishlab chiqarish sohasini afzal ko‘radi.

Shuningdek, tijorat, savdo-sotiq (30,2%), turizm (11%), restoran, choyxona biznesi (6,5%), fermerlik (5,5%), blogerlik (3,9%), mehmonxona (3,5%), qurilish (2,8%), hunarmandchilik (2,4%), baliqchilik (0,5%) va boshqalar Jamiyatda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar (1-jadval).

1-jadval

№	Yoshlarning fikriga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi	Muhim (%)	Muhim emas (%)
1.	Mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik	90	9,9
2.	milliy valyutaning barqarorligi	62,1	37,7
3.	Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qonun va me’yoriy hujjatlarning mavjudligi	72,3	27,6
4.	hokimiyat, nazorat va soliq organlarida qarindosh, do‘st yoki tanishlarning faoliyati	35,7	64,2
5.	dastlabki mablag‘ (sarmoya)ning bo‘lishi	65,4	34,5
6.	iqtisodiy erkinlik	75,2	24,7
7.	innovatsiya (yangi g‘oyalar)	69,6	30,3
8.	imtiyozli kreditga ega bo‘lish	64,5	35,4
9.	zamonaviy texnologiyalar	73,6	26,3

Bu borada soha ekspertlarining fikricha, bugungi kunda yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston sharoitida amalga oshirish mumkin bo‘lgan tadbirkorlik turlari bo‘yicha xabardorlikni doimiy oshirib borishni ta’minlash, tadbirkorlik faoliyati uchun yoshlarga kredit ajratishda hudud xususiyatini inobatga olish, tadbirkorlik uchun boshlang‘ich mablag‘larni to‘g‘ri sarflash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni berishni umumta’lim maktablarida joriy etish, hududlarda yoshlarga tadbirkorlik uchun banklar tomonidan kredit va subsidiyalar ajratish jarayoni ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

IV. Yoshlar tadbirkorligidagi muammolar

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlar xorijda mehnat qilish va ta’lim olish uchun asosan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Polsha, Latviya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Shvetsiya mamlakatlarini afzal ko‘rmoqda.

Yoshlar bilan o‘tkazilgan ishonchli suhbatlarda, bugungi kunda ularni xorijiy davlatlarga ketishga undayotgan quyidagi omillar mavjudligi aniqlangan:

☑ yaqin qarindoshlar, do‘stlar va tanishlar ta’siri;

☑ ta’lim sifatining pastligi, ta’limdagi korrupsiya;

☑ ishsizlik, ish haqiqining kamligi, ijtimoiy kafolatlarning amaliyotda ishlamasligi;

☑ turmush sharoitlari va xizmat koʻrsatish darajasining rivojlangan davlatlarga nisbatan orqada ekanligi;

☑ biznes boshlashda qiyinchilik borligi;

☑ davlat organlarining layoqatsizligi;

☑ mansabdor shaxslarning mas'uliyatsizligi;

☑ korrupsiya va byurokratiya;

☑ tanish-bilish va mahalliychilik;

☑ sogʻliqni saqlash tizimi talabga javob bermasligi;

☑ davlat va xususiy sektorda ish hajmining koʻpligi, maoshning kamligi, ish vaqti me'yorlariga rioya etilmasligi;

☑ ishga qabul qilishda talabalar, amaliyotchilar va ayollarni ishga olmaslik holatlari;

☑ xodimlarni ragʻbatlantirishda foydali ish koeffitsientiga (KPI) qarab baho berilmasligi;

☑ mamlakatda aniq fanlarga (kimyo, fizika, biologiya va h.k.) e'tiborning sustligi;

☑ tadqiqot institutlari va ilmiy mini-laboratoriyalarning yetarli emasligi va h.k.

Yoshlarning har uchinchisi xorijiy davlatga ketish masalasiga ijobiy munosabatda.

Xususan, xorijiy davlatlarga chiqib ketishi holati yuzasidan yoshlarning fikri oʻrganilganda, ularning 51,8 foizi mazkur masalaga salbiy munosabat bildirib, har kim oʻzi tugʻilib oʻsgan hududda rivojlanishi kerakligini, 27,6 foizi bunga ijobiy munosabatda boʻlib, bu har kimning shaxsiy ishi ekanligini ma'lum qilishgan.

Hozirgi davrning yoshlari oʻziga xos boʻlgan "tushunchalar urushi" sharoitida, ularning keskin tus olgan vaqtida yashamoqdalar. Gʻarbdan kirib kelgan, haqiqiy madaniyatga umuman aloqasi boʻlmagan, "Ommaviy madaniyat" atalmish, bu ajnabiy holat barchani bir tusga, bir qolipga, bir xil koʻrinishga, bir xil fikrlashga, bir xil turmush tarziga odatlantirishga, urf-odatlarimizdan, mentalitetimizdan yuz oʻgirtirishga chiranmoqda, ota-bobolarimiz "qora" degan narsalarni "oq", "oq" degan narsalarini "qora" deb uqtirishga harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini

kuchaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 15-son, 153-modda.

2. “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017., 6-son, 69 - modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T:. O‘zbekiston, 2017.– 32.b

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T:. O‘zbekiston, 2017.– 56 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

7. Almond G. Comparative political Systems // The Journal of Politics. Vol. 18.-1956. № 3.

8. Almond G. Verba S. The Civil Culture: Political Attitudes and Democracy in five Countries.- Princeton, 1963.

9. Almond G., Verba S. The civil Culture Revisited. – Boston, Toronto, 1980; Tucker R. Political Culture and Leadership in Soviet Russia. – N.Y.-L., 1987; Зарубежная политология: словарь-справочник. - С. 237-239.

10. Зеленин А. А. “Национальная модель реализации молодежной политики в Соединенных Штатах Америки”. Кемерево: Кемер. гос. Университет, – 2009. С. – 12.

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYADA JINOYATCHILIKNING YANGICHA KO‘RINISHLARI VA UNGA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI

A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminolgiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jinoyatchilikning xususiyatlari va unga qarshi kurash strategiyalari har taraflama tahlil qilingan. So‘nggi yillarda paydo bo‘lgan jinoyatchilikning yangi shakllari – kiberjinoyatlar, transmilliy uyushgan jinoyatlar, giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar, odam savdosi, radikalizm kabi xavfli tendensiyalar yoritilib, ularga qarshi samarali choralar muhokama etiladi. Maqolada O‘zbekiston va jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar solishtirilib, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishni takomillashtirish bo‘yicha xulosa va takliflar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy jinoyatchilik; kiberjinoyat; transmilliy uyushgan jinoyatchilik; odam savdosi; giyohvandlik jinoyati; radikalizm va ekstremizm; jinoyatchilik profilaktikasi; mahalla modeli.

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida jinoyatchilik yangi ko‘rinish va ko‘lam kasb etmoqda. Jamiyat va texnologiyalarning rivojlanishi jinoyat sodir etish usullarini o‘zgartirib, transchegaraviy xavf-xatarlarni kuchaytirmoqda. Xususan, zamonaviy jinoyatchilik tushunchasi ostida kiberjinoyatlar, xalqaro uyushgan jinoyatlar, giyohvandlik savdosi, odam savdosi, terrorizm va ekstremizm kabi an’anaviy bo‘lmagan, murakkab tarmoqlangan jinoyatlar tushuniladi. Bunday jinoyatlar nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqalar va jahonda xavfsizlikka tahdid solmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashning bosh yo‘nalishi sifatida belgilash, jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Zamonaviy jinoyatchilik va unga qarshi strategiyalar masalasi bo‘yicha so‘nggi yillarda qator milliy va xorijiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O‘zbekistonlik kriminolog olimlar zamonaviy jinoyatchilikning turli jihatlarini o‘rganganlar. Masalan, mazkur yo‘nalishdagi taniqli olim S.B. Xo‘jaqulov

huquqbuzarliklar profilaktikasining tizimli muammolarini tadqiq etib, transmilliy jinoyatlar va yot g‘oyalarning kuchayishi zamonaviy va samarali kurash tizimini talab etayotganini ta’kidlagan. Zamonaviy kirminologiyadagi milliy olimlarimizdan hisoblangan A.A. Ikanov o‘zining tadqiqotida terrorizm, xususan suitsidal terrorizm masalasini ko‘rib chiqib, dunyoda ijtimoiy-siyosiy nizolar, iqtisodiy farqlar hamda transmilliy jinoyatchi tashkilotlar faollashuvi terrorchilik ko‘lamini kengaytirganini, unga qarshi xalqaro va milliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini qayd etgan. Shuningdek, N.A. Xushvaqtova tergovga qadar jarayonda jamoatchilik ishtiroki masalasini o‘rgangan bo‘lib, jahon amaliyotida jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlovni ta’minlashda fuqarolarning faol ishtiroki yuqori samara berayotganini va bu borada O‘zbekistonda ham jamoatchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozimligini ko‘rsatgan. Xalqaro adabiyotlarda ham zamonaviy jinoyatchilik xatarlariga e’tibor kuchaygan. BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (UNODC) ma’lumotlariga ko‘ra, transmilliy uyushgan jinoyatchilikning global “aylanmasi” yiliga taxminan 870 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Bu miqdor dunyo YIMning 1,5 foiziga teng bo‘lib, bunday jinoiy tarmoqlar butun mintaqalarni beqarorlashtirish salohiyatiga ega. Xususan, eng daromadli transmilliy jinoyatlar qatoriga giyohvand moddalar kontrabandasi, odam savdosi va xalqaro firibgarliklar kiradi. Jahonda kiberjinoyatlar bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2025-yilga borib kiberjinoyatchilik natijasida iqtisodiy zarar yiliga 10,5 trillion AQSh dollariga yetishi mumkinligi prognoz qilinmoqda. Bu ko‘lamdagi zarar kiberjinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va huquqiy normalarni kuchaytirish zarurligini dunyo miqyosida kun tartibiga chiqarmoqda. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar profilaktika tizimini takomillashtirish, jamoatchilik ishtirokini oshirish, xalqaro tajriba va hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, milliy va xalqaro manbalarning integratsiyalashgan tahlili asosida zamonaviy jinoyatchilikning yangi shakllariga qarshi kompleks strategiyalar ishlab chiqish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola ana shunday yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

Kiberjinoyatchilik yuqori daromadli va yashirin xarakterga ega bo‘lib, internet tarmog‘ining chegarasizligi tufayli jinoyatchilar turli davlatlarda turib, sodir etilgan qilmishlar uchun aniqlanmasdan qolishi xavfi mavjud. Ikkinchi yirik tahdid – transmilliy uyushgan jinoyatchilik bo‘lib, u xalqaro

darajada faoliyat yurituvchi jinoiy sindikatlar orqali amalga oshiriladi. Bunday jinoiy guruhlar giyohvand moddalar, qurol-yarog‘, qimmatbaho buyumlar kontrabandasidan tortib pul yuvish va korrupsiyaga qadar turli sohalarda “faoliyat” olib boradi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, transmilliy jinoyatlar soni yil sayin ortib, jinoiy aloqalar tobora barqaror tus olmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun dolzarb muammo – giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar transmilliy jinoyatchilikning xavfli ko‘rinishidir. Afg‘onistonda yetishtirilayotgan giyohvandlik vositalari (opiy, geroin va boshqalar)ning muayyan qismi noqonuniy ravishda O‘zbekiston hududi orqali boshqa davlatlarga olib o‘tilishi xavfi mavjud bo‘lib, bu holatga qarshi mamlakatimiz chegara va huquq-tartibot idoralari doimiy ravishda muvaffaqiyatli kurash olib bormoqda. So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda giyohvand moddalarning ishlab chiqarilishi va ular bilan savdo qilish holatlari yuqori ko‘rsatkichlarda saqlanib turibdi. Giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar nafaqat kontrabanda, balki davlat ichkarisida narkotik moddalarni tarqatish, iste’mol qilishga ko‘maklashish kabi shakllarda ham xavf soladi.

Yana bir zamonaviy tahdid – odam savdosidir. Odam savdosi bugungi kunda “zamonaviy qullik” deb ham atalib, BMT baholariga ko‘ra dunyo bo‘ylab bir vaqtda 2,4 milliondan ortiq kishi odam savdosi jabrdiydasiga aylangan. O‘zbekiston ham bu muammoga begona emas: mehnat migratsiyasi jarayonlarida ayrim fuqarolarimiz firibgarlar tuzog‘iga tushib, majburiy mehnatga jalb etilgan yoki jinsiy ekspluatatsiya qurboniga aylangan holatlar qayd etildi. 2008-yildan beri mamlakatimizda “Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi” faoliyat yuritib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa idoralar hamkorligida odam savdosini aniqlash va unga chek qo‘yish choralarini ko‘rib kelmoqda. Jinoyat kodeksida odam savdosi alohida og‘ir jinoyat sifatida belgilangan bo‘lib, ushbu jinoyat uchun jazo choralarini kuchaytirish va jabrlanganlarni reabilitatsiya qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Zamonaviy jinoyatlarga qarshi kurash muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qo‘llanilayotgan strategiyalar va yondashuvlarning zamon talabiga mosligiga bog‘liq. Tadqiqotimiz davomida quyidagi asosiy strategik yo‘nalishlar samarador deb topildi:

☑ ma’lumotli tahlil va texnologik vositalar. Kiberjinoyatlar va boshqa murakkab jinoyatlarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kriminologiyada “ilg‘or tahlil” (crime analysis)

degan tushuncha shakllanmoqda – jinoyatlar to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatchilikni bashorat qilish va oldini olish choralari belgilanadi. O‘zbekiston ichki ishlar tizimida so‘nggi yillarda “Xavfsiz shahar” (Safe City) loyihasi amalga tatbiq etilib, jamoat joylariga kuzatuv kameralari o‘rnatildi, Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati avtomatlashtirilgan foto-video qayd tizimini joriy qildi. Bu choralar jinoyat sodir bo‘lgandan keyin tezda fosh etishga xizmat qilsa, boshqa tomondan huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini pasaytiruvchi omil sifatida profilaktik rol o‘ynamoqda.

☑ “Mahalla modeli” va jamoatchilik ishtiroki. O‘zbekistonning o‘ziga xos profilaktika mexanizmlaridan biri bu mahallalardagi jamoatchilik tuzilmalarini jalb etishdir. Mahalla – asrlar davomida shakllangan o‘zbek jamiyatining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish instituti bo‘lib, hozirgi kunda fuqarolar yig‘inlari sifatida faoliyat yuritadi. Mahalla nafaqat aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, balki huquqbuzarliklarning oldini olishda ham muhim o‘rin tutadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, qadimda mahalla ahli og‘ir jinoyatlar sodir bo‘lganda jamoaviy javobgarlik ham olgan – masalan, noma’lum qotil topilmasa mahalla ahli diyat to‘lagan hollar bo‘lgan. Bugungi kunda mahalla instituti profilaktikasi tajribasini yanada kuchaytirish maqsadida unga qonunchilik darajasida ayrim vakolatlar berish masalasi ham olimlar tomonidan taklif qilinmoqda. Jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, fuqarolarning huquqni muhofaza idoralariga ko‘maklashuvi jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali strategiyasiga aylanganligi xalqaro tajriba (masalan, Buyuk Britaniyadagi “Neighborhood Watch” yoki AQSh, Yaponiya tajribasi) misolida ham tasdiqlangan.

Xalqaro hamkorlik. Transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash doimo bir davlat doirasida cheklangan qolib ketishi mumkin emas – xalqaro hamkorlik bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi jinoyatchilikka qarshi kurashda ko‘plab xalqaro tuzilmalar a’zosi hisoblanadi. Jumladan, INTERPOL (Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti) bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan, respublika hududida qidiruvda bo‘lgan ko‘plab xalqaro jinoyatchilar ushbu tarmoq orqali qo‘lga olindi. MDH davlatlari o‘rtasida 1990-yillar boshidan buyon uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha hamkorlik dasturlari amalga oshib kelmoqda. 2000-yilda MDH doirasida Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya qabul qilingan va unga muvofiq, jinoyatchilarni o‘zaro berib berish, tezkor ma’lumot almashish, qo‘shma amaliyotlar o‘tkazish mexanizmlari yaratilgan. AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlarning huquqni

muhofaza organlari bilan ham O‘zbekiston jinoyatchilikka qarshi kurashda memorandum va kelishuvlar orqali hamkorlik qilib kelmoqda. Masalan, noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashishda Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) va BMTning tegishli komissiyalari bilan hamkorlik alohida natija bermoqda – bir qator jabrlanuvchilar vatanga qaytarildi, jinoyatchilar jazoga tortildi. Xalqaro treninglar va seminarlar o‘tkazish orqali huquq-tartibot xodimlarining malakasi oshirilmoqda. Umuman olganda, zamonaviy jinoyatchilikning transchegaraviy tabiati inobatga olinsa, milliy darajada erishilgan muvaffaqiyatlar xalqaro hamjamiyat ko‘magisiz barqaror bo‘lmasligini bugungi tajriba ko‘rsatmoqda. Yuqoridagi tahlillar zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurash ko‘p qirrali yondashuvni talab qilishini tasdiqlaydi. Faqat kuch ishlatish yoki jazoni og‘irlashtirish bilangina ushbu global muammoni hal etib bo‘lmaydi. Aksincha, profilaktika va jazo muqarrarligi uyg‘unligiga erishish, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni yaxshilash, huquqiy madaniyatni oshirish kabi kompleks choralar zarur. Shuningdek, ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalar jinoyatchilikka qarshi kurash xizmatida bo‘lishi lozim.

XXI asrning ilk choragida jinoyatchilikning globallashuvi va yangi shakllarining paydo bo‘lishi huquqni muhofaza qilish organlari oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarur: Birinchidan, jinoyatlarning oldini olish profilaktik choralarning ilmiy asoslangan tizimini shakllantirish lozim. Huquqbuzarliklar profilaktikasini jinoyatchilikka qarshi kurashning bosh yo‘nalishi sifatida rivojlantirish konsepsiyasini izchil davom ettirish kerak. Xususan, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga investitsiya qilish, ta’lim-tarbiyada huquqiy ongni oshirish orqali kelajak avlodni jinoyatchilikdan xoli muhitda tarbiyalashga erishish darkor. Ikkinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashda ma’lumotli yondashuvni kuchaytirish tavsiya etiladi. Kriminologik statistikani yuritish va tahlil qilishning zamonaviy uslublarini joriy etib, jinoyatchilikning holati va dinamikasini doimiy kuzatib borish lozim. “Elektron jinoyat xaritasi” (crime mapping) tizimini rivojlantirish orqali har bir hudud kesimida kriminogen vaziyatni tezkor baholab borish mumkin. Shu asosda resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, profilaktik tadbirlarni mo‘ljallangan nuqtalarda amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Masalan, jinoyatlar sodir etilish vaqti, usuli, qurollari va boshqa xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qiluvchi dasturlar joriy etilishi huquqni muhofaza organlariga jinoyatlarni

prognoz qilishda koʻmaklashadi. Uchinchidan, jamoatchilik va mahalla instituti imkoniyatlaridan yanada keng foydalanish lozim. Jamoatchilikka tayanmagan holda jinoyatchilikka qarshi siyosat samarali boʻla olmasligi tajriba koʻrsatmoqda, shu bois har bir fuqaroda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik tuygʻusini shakllantirish jamiyatning umumiy vazifasidir.

Qonunchilikni takomillashtirish doimiy jarayon boʻlishi zarur. Jinoyat qonunchiligini muntazam ravishda hozirgi zamon xatarlariga moslashtirib borish talab etiladi. Xususan, kiberjinoyatlar, iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlarga doir normalarni takomillashtirish, ularni tergov qilishning protsessual asoslarini aniq belgilash lozim. Qonunchilikni takomillashtirish jarayonida xalqaro standartlar va xorijiy ilgʻor tajribani inobatga olish kerak. Shuningdek, jazo siyosatida jinoyat ogʻirligiga mos differensiasiya qilish – ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan jinoyatlar uchun sanksiyalarni yengillashtirish, oʻta xavfli jinoyatlar uchun jazoni muqarrar va muvofiq qilish tamoyiliga amal qilish lozim. Bu jinoyatga jazo muqarrarligi prinsipini toʻlaqonli ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvini kengaytirish zarur. Transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash boʻyicha xalqaro konvensiyalar va shartnomalarga qoʻshilish, xorijiy huquqni muhofaza qilish idoralari bilan axborot almashuvini tezkor yoʻlga qoʻyish darkor. Shuningdek, xalqaro treninglar, malaka oshirish kurslarida Oʻzbekiston huquq-tartibot organlari xodimlarining ishtirokini koʻpaytirish kerak. Bu ularga zamonaviy usullarni oʻrganish va global tarmoq yaratishga yordam beradi.

Yuqoridagi tavsiyalarni hayotga tatbiq etish orqali zamonaviy jinoyatchilikka qarshi milliy kurash tizimini yangi bosqichga koʻtarish mumkin. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jinoyatchilikning murakkab va tez oʻzgaruvchan tabiati unga qarshi kurash strategiyalarini ham doimiy ravishda yangilab va takomillashtirib borishni taqozo etadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash faqat jazolash funksiyasi emas, balki keng koʻlamli profilaktika, tarbiya, ijtimoiy va xalqaro hamkorlikni oʻz ichiga olgan tizimli faoliyatdir. Oʻzbekiston Respublikasi huquqni muhofaza organlari va butun jamiyati ushbu vazifani amalga oshirish yoʻlida sa’y-harakatlarni birlashtirishi zarur. Zero, jamiyat tinchligi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash – demokratik huquqiy davlatning eng asosiy burchlaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Y. Fazilov; Mas’ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b.).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024 yil 15 yanvardagi PF–10-son Farmoni.

3. Criminology Definition and History / ThoughtCo magazine / Humanities / Issues / https://www.thoughtco.com).

4. Modern criminology factors / article / “The Lawers & Jurists” / https://www.lawersnjurists.com/article/modern-criminology-factors.

MAHALLALARDA UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN MANZILLI ISHLASH – ZAMON TALABI

Qilichev Xayrulla Mamatovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi boshlig‘i, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Ma’lumki, kishilik jamiyatining har qanday bosqichida unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod, farzandlar tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala bo‘lib kelgan.

Buyuk bobomiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlari axborot asri deb nomlanayotgan XXI asrda qanchalik dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi barchaga ma’lum. Zero, bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochayotganligi, shu bilan birga, ular uchun ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlar, chunonchi diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar ham yuzaga kelayotganligi sir emas.

Davlatimiz Rahbari Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidadagi nutqida yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganliklari hali ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan katta vazifalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Jumladan, mamlakatimiz Prezidenti Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratligini dolzarb vazifa sifatida belgilab berganligi mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Darhaqiqat, uyushmagan yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lganlar va sodir etganlar nisbatan ko‘proq uchrashi tabiiy hisoblanadi.

Binobarin, mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini shakllantirish – davr talabi bo‘lib, bu borada fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, mahallalarda yoshlar yetakchisi hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchi tomonidan uyushmagan yoshlar ro‘yxatini shakllantirish va muntazam ravishda yangilab borish hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limlari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha tumanlar va shaharlar kengashlari ijro apparatlariga qoida tariqasida, yilning har choragida kamida bir marotaba taqdim etish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Uyushmagan yoshlar ro‘yxatini shakllantirishda ularning oilaviy ahvoli (ijtimoiy-iqtisodiy holati), qiziqishlari, ma’lumoti kabilar bo‘yicha axborotlarni to‘plash yuzasidan yagona namunaviy shaklni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish amaliyotda bir xillikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun dastlab:

mahallalardagi yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchilarga mahallada yoshlar yetakchisi rahbarlik qilishlarini belgilash bo‘yicha qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish;

jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan ushbu komissiyalar rahbarlarini O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hisobidan rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish, kelajakda esa davlat budjetidan oylik ish haqi olib ishlaydigan xodim lavozimini joriy etish zarur.

ikkinchidan, mahallalarda tuzilgan ro‘yxatlarni umumlashtirish, tahlil qilish mexanizmini joriy etish lozim.

Buning uchun tuman (shahar) hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruhlar tuzish hamda ular tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limlari mas’ul xodimlari, ichki ishlar bo‘limlari boshliqlarining o‘rinbosari – jamoat xavfsizligi xizmati boshliqlari hamda boshqa mas’ul xodimlarini jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

uchinchidan, shakllantirilgan ro‘yxatlar asosida ishchi guruhlar tomonidan har bir uyushmagan yoshning oilaviy ahvoli (ijtimoiy-iqtisodiy holati) qiziqishi, ma’lumotiga, ijtimoiy ahamiyatligi darajasiga qarab toifalarga (guruhlarga) ajratish tizimini joriy etish lozim.

Misol uchun, 1-toifaga – profilaktik hisobda turgan yoshlarni, oila a’zolarining barchasi ishsiz bo‘lgan uyushmagan yoshlarni, kam ta’minlangan oila a’zosi bo‘lgan uyushmagan yoshlarni, 2-toifaga – ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan oila a’zosi bo‘lgan uyushmagan yoshlarni, 3-toifaga – oilaviy holati (ijtimoiy-iqtisodiy holati) o‘rtacha bo‘lgan oila a’zosi bo‘lgan uyushmagan yoshlarni kiritish masalasini muhokama qilish foydadan holi bo‘lmaydi.

Nazarimizda, bunday toifalarga ajratish uyushmagan yoshlar sonining ko‘pligini inobatga olgan holda, mahallalarda ular bilan aniq manzilli ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda qo‘l keladi.

to‘rtinchidan, uyushmagan yoshlar bilan amalga oshiriladigan ishlarni dastlab toifalarga kiritilganlar bilan bosqichma-bosqich amalga oshirishga ahamiyat qaratish lozim. Jumladan, dastlab 1-toifaga kiritilganlar bilan ishlarni amalga oshirish, keyinchalik 2-toifadagi va qolgan toifalarga kiritilganlar bilan ishlash sohada aniq maqsadli va manzilli chora-tadbirlarning tizimli ravishda amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

beshinchidan, uyushmagan yoshlar bilan ishlashda ularning har birining oilaviy ahvoli (ijtimoiy-iqtisodiy holati), qiziqishi, ma’lumoti kabilarni, eng asosiysi ular bilan individual suhbatlar o‘tkazish natijalarini hisobga olgan holda chora-tadbirlarni belgilash lozim.

Chora-tadbirlarni belgilashda asosiy e’tiborni ularning bandligini (ish bilan) ta’minlashga, shaxsiy va oilaviy daromadlarini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan, tijorat banklari tomonidan yoshlarning kichik biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun imtiyozli mikrokreditlarni ajratish to‘g‘risidagi masalalar bo‘yicha qo‘shma qarorlar qabul qilish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Xuddi shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limlarining:

Uyushmagan yoshlarni hududdagi korxona va tashkilotlardagi mavjud bo‘sh ish o‘rni bilan ta’minlash bo‘yicha Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan;

hokim yordamchilari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan uyushmagan yoshlarga tadbirkorlikka oid axborot xizmatlari ko‘rsatishni tashkillashtirish;

uyushmagan yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish, mahallalar hududidagi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari va umumta’lim maktablari negizida ular uchun turli fan va sport to‘garaklarini tashkil etish maqsadida ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlikda qo‘shma qarorlar qabul qilish masalasini muhokama qilish zarur.

Umuman olganda, “uyushmagan yoshlar” kontingentini kamaytirish hamda ular bilan ishlash yo‘nalishidagi chora-tadbirlarning joylarda amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ta’lim muassasalari tizimi

bitiruvchilarining faoliyatini ular 30 yoshga to‘lgunga qadar monitoring qilish tizimini joriy etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining qarorini qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, uyushmagan yoshlar bilan bog‘liq masalalar dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, mahallalarda ular bilan ishlashning ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirish va amaliyotda tizimli ravishda amalga oshirilishini ta’minlash ularni katta maqsadlar sari safarbar etishda muhim hisoblanadi.

YOSHLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH: MUAMMOLAR VA YECHIM YO‘NALISHLARI

Kaxarova Munira Maxamadjanovna

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori.

Yoshlar jamiyatning eng faol, yangilikka intiladigan va istiqbolli qatlamini tashkil etadi. Ular mamlakatning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ma’naviy-axloqiy hayotida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bois ham har bir davlat o‘z kelajagini yoshlar tarbiyasi bilan bog‘laydi, ularning ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy kamoloti va huquqiy ongiga alohida e’tibor qaratadi.

Shu bilan birga, bu guruhdagi ayrim yoshlarning jinoiy faoliyatga moyilligi, huquqbuzarlik sodir etish holatlari jamiyat uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘pgina mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham umumiy jinoyatchilikda yoshlarning ulushi sezilarli darajada. Bu esa masalani nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, ma’naviy va ta’limiy nuqtai nazardan ham atroflicha o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yoshlar jinoyatchiligining ortishiga ta’sir etuvchi omillar turlicha: oiladagi muammolar, ta’lim tarbiyadagi yetishmovchiliklar, mahallada nazoratsiz qolish, internet va ommaviy axborot vositalari ta’siri, ishsizlik hamda bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qila olmaslik kabi faktorlar shular jumlasidandir. Bu omillar yoshlarning ruhiyatiga ta’sir etib, turli noqonuniy harakatlarga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlarda qonun va jamiyat talablariga nisbatan beparvolik, jazodan qo‘rqmaslik kabi munosabat shakllansa, bu salbiy holat yanada avj oladi.

Shu bois, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki ta’lim muassasalari, mahalla faollari, oila va butun jamiyatning birgalikdagi say-harakatini talab etadi. Jinoyatning oldini olish, profilaktika choralarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning ortishi jamiyatda xavotir uyg‘otayotgan muammolardan biri ekanini birgina mamlakatimizda 2024 yil davomida 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan 23 908 ta jinoyat sodir etilganidan anglash mumkin. Bu ko‘rsatkich umumiy jinoyatlarning 18,1 foizini tashkil etgan. Bu shundan

dalolat beradiki, har beshinchi jinoyat aynan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday holat yoshlarning o‘z xatti-harakatlarining huquqiy oqibatlarini anglab yetmasligi, turmushda tez va oson boylik orttirish illyuziyasiga ishonishi bilan bog‘liq.

Xususan, 2024 yilda yoshlar o‘rtasida sodir etilgan jinoyatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu toifadagi shaxslar asosan mulkiy va jamiyat tartibiga qarshi yo‘naltirilgan jinoyatlarga moyillik namoyon etmoqdalar. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, firibgarlik, o‘g‘rilik va bezorilik kabi jinoyatlar yoshlar tomonidan eng ko‘p sodir etilgan turlar sirasiga kiradi:

Firibgarlik — 2 652 ta holat. Bunday jinoyatlar, odatda, moddiy foyda orttirish maqsadida boshqalarni aldash, haqiqatni yashirish yoki soxta ma’lumotlar berish orqali amalga oshiriladi. Yoshlar firibgarlikka internet orqali onlayn savdo, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta reklama, ishga joylashtirish yoki “lotereya yutuqlari” kabi vositalar bilan jalb qilinmoqda. Bu ularning kiberxavfsizlik bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi va tez boyishga bo‘lgan istagi bilan bog‘liq.

O‘g‘rilik — 3 651 ta holat. Bu jinoyat turi yoshlar orasida eng keng tarqalgan hisoblanadi. Ularning ba’zilari mulkiy yetishmovchilik, ishsizlik yoki oilaviy nazoratsizlik oqibatida turli shaxslarning mulkiga qasd qilishga moyil bo‘ladi. Ko‘p hollarda o‘g‘rilik jamoat transportlari, savdo nuqtalari va turar joylarda amalga oshiriladi. Bu esa jamiyatda xavfsizlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bezorilik — 1 185 ta holat. Yoshlar o‘rtasidagi bezorilik holatlari, odatda, jamoat joylarida tartibni buzish, fuqarolarga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lish, ommaviy zo‘ravonlik yoki guruh bo‘lib “avtoritetlik”ni namoyon qilish shaklida sodir etiladi. Bunday jinoyatlarda ko‘p hollarda yoshlarning o‘zini namoyon qilishga intilishi, empatiyaning yetishmasligi va tengdoshlar ta’siri asosiy omil sifatida ishtirok etadi.

Ushbu raqamlardan anglashiladiki, yoshlar o‘rtasidagi jinoyatlar ko‘proq axloqiy-ma’naviy yetishmovchilik, hayotda o‘z o‘rnini topa olmaslik, qonuniy ish bilan band emaslik kabi omillar tufayli ro‘y bermoqda. Bu holat profilaktika ishlarining yanada individual va maqsadli shaklda tashkil etilishini taqozo etadi. Ayniqsa, firibgarlik va o‘g‘rilik kabi “tez boyish” maqsadida sodir etiladigan jinoyatlarning ko‘pligi bu guruhdagi shaxslarda hayot haqidagi to‘g‘ri tushunchaning shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli bu sohada bir qator jiddiy muammolar mavjud bo‘lib, ular profilaktika ishlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Birinchidan, huquqiy tarbiyadagi samarasizlik. Bunda ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiya ko‘pincha rasmiy va umumiy xarakterga ega. Amaliy mashg‘ulotlar, hayotiy

vaziyatlar asosida ta’lim berish yetarli darajada emas. Yoshlarda huquqiy ong va mas’uliyat hissining shakllanishi sust kechmoqda.

Ikkinchidan, ota-onalar farzandini nazorat qilishi sustligi. Ayniqsa shahar va migratsiya yuqori bo‘lgan hududlarda oilaviy nazoratning susayishi kuzatiladi. Ota-onalarning ko‘p ish bilan band bo‘lishi, tarbiyaga yetarli vaqt ajratmasligi yoshlarni mustaqil ravishda tashqi ta’sirlarga berilishga olib kelmoqda. Oilalarda munosabatlar sovuq va nazoratsiz bo‘lsa, yoshlar o‘zini yetarlicha qo‘llab-quvvatlangan deb his etmaydi.

Uchinchidan, yoshlarning ongida ma’naviy va axloqiy bo‘shliqlar. Yoshlar orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor pasaygan. Ma’naviy targ‘ibot ko‘p hollarda shablon va hayotdan uzoq bo‘lgan shaklda olib boriladi. Shuning uchun turli destruktiv g‘oyalar, tez pul topish va boylikka erishishni targ‘ib etuvchi internet-kontentlar ular uchun qiziqroq va ta’sirli bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchidan, ishsizlik va moddiy yetishmovchilik. Mamlakatimizda yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ba’zi hududlarda ishsizlik va daromad manbalariga ega bo‘lmaslik muammosi saqlanib qolmoqda. Bu holat yoshlarni noqonuniy daromad manbalari izlashga undaydi.

Beshinchidan, internet muhitidagi xatarlar va nazoratsizlik. Ko‘plab yoshlar internet orqali noqonuniy ma’lumotlar, jinoyatga undauvchi kontent, shaxslarga qarshi bo‘lgan da’vatlar, qimor va firibgarlik tuzoqlariga duch kelmoqda. Bu borada axborot xavfsizligi, kiberma’naviyat va raqamli xulq madaniyati bo‘yicha yetarli profilaktik choralar yo‘q.

Oltinchidan, profilaktika tizimining idoraviy parokandaligi. Yoshlar bilan ishlashda ishtirok etuvchi muassasalar (mahalla, maktab, IIB, yoshlar ittifoqi, kasb-hunar markazlari va h.k.) o‘rtasida samarali va muvofiqlashtirilgan hamkorlik yetishmaydi. Bu ishlarning tarqoq, vaqtinchalik va tasodifiy tus olishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar jinoyatchiligini oldini olishdagi muammolar — bu faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning, ayniqsa ta’lim, madaniyat, oila va OAV tizimlarining ham mas’uliyatidir. Mahalla va jamoatchilikni faol jalb qilgan holda, huquqiy ongni shakllantiruvchi zamonaviy, interaktiv usullar asosida kompleks yondashuv talab etiladi.

Yoshlar jinoyatchiligi jamiyatning barcha qatlamlariga daxldor muammodir. Uni oldini olish uchun faqat jazo bilan emas, keng qamrovli profilaktik ishlar, ma’naviy tarbiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash orqali ta’sir ko‘rsatish zarur. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish bo‘yicha taklif va tavsiyalar.

Yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni samarali oldini olish uchun profilaktika ishlariga kompleks, tizimli va innovatsion yondashuv zarur. Quyida ushbu sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan asosiy taklif va tavsiyalar keltirilgan:

1. Huquqiy ta’limni isloh qilish. O‘rta va oliy ta’lim muassasalarida huquqiy savodxonlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, hayotiy keyslar, simulyatsiyalar va elektron testlar joriy etish; “Huquq va javobgarlik” mavzusida interaktiv seminarlar va musobaqalarni tizimli o‘tkazish zarur.

2. Raqamli profilaktika strategiyasini ishlab chiqish. Yoshlar faol bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlarda kreativ, qiziqarli va ta’sirchan huquqiy-ko‘ngilochar kontent yaratish; YA’ni onlayn platforma yoki mobil ilovalar orqali yoshlar huquqiy maslahat va ko‘makka ega bo‘lishi uchun imkoniyat yaratish (chat-botlar, huquqiy savol-javob ilovalari va h.k.).

3. Oilaviy nazoratni mustahkamlash. Ota-onalar uchun “farzand tarbiyasida huquqiy yondashuv” mavzusidagi o‘quv kurslari va seminarlarni tashkil etish; Maxalla tizimida “ota-ona maslahatchi klublari”ni yo‘lga qo‘yish ham samara beradi.

4. Jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish. Ommaviy axborot vositalari, blogerlar va jamoat arboblari orqali yoshlarga huquqiy ong va mas’uliyat hissini targ‘ib qiluvchi ijobiy obrazlar yaratish; Yoshlarni ijtimoiy faollikka undagan holda, ularni profilaktika tadbirlariga jalb etish (masalan, “Yosh huquq himoyachilari” klublari).

5. Jinoyat sodir etgan yoshlarni reabilitatsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish. Yosh jinoyatchilarni jamoat ishlari, kasb-hunarga o‘qitish va psixologik yordam orqali jamiyatga qayta moslashtirish markazlarini tashkil etish; Shuningdek, jazodan so‘ng ularni ish bilan ta’minlashda afzallik berish tartibini qonuniy asosda belgilash zarur.

6. Idoraviy hamkorlik va monitoring tizimini kuchaytirish. Ichki ishlar organlari, ta’lim tizimi, yoshlar siyosati idoralari, mahalla va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvini avtomatlashtirish; Har chorakda yoshlar jinoyatchiligining holati yuzasidan ommaviy hisobot va tahlillar taqdim etib borilishi kerak.

Xullas, yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda eng muhim omil – bu ishonchli muammo tahlili, samarali profilaktik yondashuvlar va barcha ijtimoiy institutlarning hamkorligidir. Agar profilaktika choralari zamonaviy va yoshlarga tushunarli shaklda tashkil etilsa, ular jinoiy xatti-harakatdan ko‘ra qonuniy imkoniyatni afzal ko‘radi.

O‘ZBEKISTONDA FOSH ETILMAGAN VA LATENT JINOYATLAR: TUSHUNCHA, TARIXIY RIVOJLANISH VA ZAMONAVIY ISLOHOTLAR

Sattarov Mansur Abdugafurovich

IIV huzuridagi Tergov departamenti boshlig‘ining o‘rinbosari, polkovnik.

«Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish xayrlik» so‘zlariga amal qiladigan bo‘lsak, fosh etilmasdan qolgan jinoyatlar nafaqat bugungi kunning, balki o‘tgan davrlarda ham davlatlarning oldida turgan muhim vazifa hisoblanganligini ko‘rishimiz mumkin. Jinoyat protsessida fosh etilmagan jinoyatlar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning retrospektiv tahlilini amalga oshirish bizga, uning mohiyatini, tarixiy ildizlarini anglash va uning samarali yechimlarini ishlab chiqish istiqbollarini belgilashga zamin yaratadi.

Ishni sudga qadap yupitish bosqichida fosh etilmaganligi sababli surishtiruv va dastlabki tepgovni to‘xtatishning vujudga kelish omillapi, pivojlanish bosqichlapi hamda amaldagi holatini chuqup tahlil qilish ushbu jinoiy-huquqiy munosabatga oid mulohazalarni yanada takomillashtipish imkonini bepadi.

Ilmiy-nazariy tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, yurtimizda fosh etilmagan jinoyatlarning vujudga kelish genezisini quyidagi tarixiy bosqichlarga bo‘lish mumkin:

Tarixiy rivojlanishning birinchi bosqichi – pespublikamiz hududida mavjud bo‘lgan qadimgi davlatlapda jinoyat va jazo tizimi epamizning VII–VIII aspiga qadap odat huquqi hamda zapdo‘shtiylik dinining asosiy manbasi bo‘lgan “Avesto” kitobi asosida taptibga solingan. Huquqiy munosabatlar aynan zardushtiylikning asosiy kitobi «Avesto» bilan tartibga solingandir. «Avesto»ning bizgacha to‘liq yetib kelgan va asosan huquqqa oid bo‘lgan qismi «Vedivdat» bo‘lib, uning ma’nosi «Yovuz ruhlarga qarshi kurash»dir. Vedivdatning 4 fragardining 46-51-qismlarida shaxsning yolg‘on yoki rost so‘zlayotganligini aniqlash uchun ordaliyadan foydalanish to‘g‘risida so‘z boradi. Ordaliya suv, olov, metall yoki turli mahsulotlar bilan sinash shakli bo‘lib, Mitra ilohlik bilan bir qatorda adolat o‘rnatish uchun insonlarga haqiqat o‘rnatishda ko‘mak beradi deb ishonilgan. Bunda maxsus bilimlarga ega shaxslar Mitra bergan «belgi», ya’ni modda xususiyatiga

ko‘ra shaxsning yolg‘on yoki rost ko‘rsatma berayotganligini aniqlaganlar. Zardushtiylarga rost gapirish Axuramazdaga ko‘mak berish ekanligi ta’kidlangan. Guvohlarning ko‘rsatuvlari qasam va ba’zan ordaliyalar bilan ham tekshirilganlar. Bu davrda fosh etilmagan jinoyatlarni tartibga soluvchi biron bir normativ-huquqiy hujjatlar bo‘lmagan, biroq ayblanuvchi topilmagan holatlarda ishlar odat normalariga asosan olib borilgan.

Ikkinchi bosqich – Islom huquqi amal qilgan davrda (VIII aspdan to XIX aspning oxipiga qadap bo‘lgan davp mamlakatimiz hududidagi jinoyat va jazo odat huquqi bilan bipgalikda, shapiat nopmalapi bilan ham taptibga solingan) asosan, islom huquqshunosligi fiqhni o‘rganishgan. Bunda Quroni karim, sunnati nabaviy, ijmo va qiyosdan shariat normalarini ishlab chiqishda foydalanilgan. Islom huquqshunosligi hisoblanmish fiqhni o‘rganish Buxoriy, Moturidiy, Forobiy, Navoiy asarlarida ham keltirib o‘tilgan.

Islom dinida ham jamiyatdagi har bir mo‘min insonning mavjud illatlarga toqatsiz munosabatda bo‘lishligi quyidagi hadisda keltirilgan: «Rasulluloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: «Qaysi biringiz bir yomonlikni ko‘rsa, uni o‘z qo‘li bilan tuzatsin. Agar (qo‘li bilan qaytarishga) kuchi yetmasa, tili bilan qaytarsin. Bunga ham kuchi yetmasa, qalban yomon ko‘rsin. Bu esa imonning eng zaif darajasidir». Darhaqiqat, yon-atrofda mavjud muammolarga ko‘z yumib bo‘lmasligi, turli yomonliku jinoyatlarga qarshi birgalikda kurashish, befarqlikdan qochish lozimligi, umuman olganda bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda ham, yurtimizda ham kun tartibidagi asosiy masala, shu tufayli ham uning yechimini qidirayotgan butun dissertatsiya tadqiqotimizning asosiy mazmunlaridan biri ham ushbu hadisda o‘z ifodasini topgan.

Apablap bosqinidan to chop Possiyasi bosqiniga qadap esa, mamlakatimiz hududidagi feodal davlat tuzilmalapida, ya’ni Xiva va Qo‘qon xonligi hamda Buxopo amipligida jinoyat va jazo tizimi odat nopmalapi bilan bipgalikda, diniy-islomiy qapashlap singdipilgan shapiat nopmalapi bilan ham taptibga solingan. Bu davpda jinoyat ishlapini yupituvchi oliy sud hokimiyati so‘zsiz pavishda xon va amipning nazopati ostida ish yupitgan. Xon ushbu sudga paislik qiluvchi qozi kalonni, ya’ni oliy sudyani lavozimga tayinlagan va shu bilan bipgalikda, uni lavozimidan ozod etish vakolatiga ham ega bo‘lgan. Qozilik sud ishlapining yupitilishida tepgovga qadap tekshiruv, dastlabki tepgov degan tushunchalap umuman bo‘lmagan. Ayniqsa shaxslapning aybini isbotlash va ulapni javobgaplik yoki jazodan ozod etishda shaxsning aybiga iqpopligi muhim o‘pin tutgan. “Aybdopning o‘z qilmishiga iqpop bo‘lganligi, haqiqatni aniqlashdagi yaxshi dalil” ekanligi Buphoniddin Mapg‘iloniyning “Hidoya” kitobida keltipib o‘tilganligi ushbu

fikplapning yaqqol dalolatidip. Daphaqiqat, apablap istilosidan keyingi davplapda jamiyatda shakllangan nopmalap buyuk madaniyatimiz va qadimiy meposimiz ildizlapida chuqup iz qoldipishiga sabab bo‘ldi.

Shuningdek, mazkur asarning 112-114-bo‘limlari guvohlik, guvoh bo‘lishga monyelik qiladigan holatlar, guvohlikdan qaytishga bag‘ishlangan. Guvohlikka bir kishining foydasiga, ikkinchi kishining zarariga haq bilan xabar berish deb ta’rif berilib, guvohlarning barchasi uchun adolat va guvohlik lafzi shart qilingan. «Guvohlik bo‘limi»da nafaqat guvoh, balki tarjimon va xolislarga oid qoidalar ham keltirilgandir. Xususan, guvohlar 2 toifaga asl (guvoh) va ikkinchi darajali (xolis)ga ajratilgan. Shuningdek, guvohning tilini qozi bilmaganda, tarjima qilinganda yana ikki kishi ishtirok etishi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Rossiyada feodalizmning rivojlanishi bilan qonun chiqaruvchining jinoyat sodir etgan shaxsni fosh etishga bo‘lgan huquqiy munosabati ham o‘zgardi. 1649 yilgi Rossiya Kengash kodeksida jinoyat ishini to‘xtatib turish uchun quyidagi asoslar shakllantirilgan:

1) ayblanuvchining qayerdaligi noma’lum bo‘lsa;

2) yashash joyi ma’lum bo‘lgan ayblanuvchining jinoyat ishida ishtirok yetishning haqiqiy imkoniyatlari mavjud bo‘lmasa.

XX aspning boshlapiga qadap yuptimiz hududlapida jinoyat-ppotsessual munosabatlap aniq qonunlap bilan emas, balki islom huquqi nopmalapi yoki boshqa tupdagi umumiy nopmalap solinganligi tufayli jinoyat ishini qo‘zg‘atish, jinoyat ishini qo‘zg‘atishni pad etish, dastlabki tepgovni to‘xtatish degan tushunchalap mavjud bo‘lmagan. Faqatgina ijtimoiy xavfli qilmish sodip etgan shaxsni qozilap ixtiyopiga olib kelishdan avval voqeaga oydinlik kipitish uchun qisqa muddatli aniqlashtipish ishlapi bo‘lgan. Tapixga nazap tashlaydigan bo‘lsak, o‘sha davpda kishilap o‘ptasida taptibga solinadigan munosabatlap o‘zining ko‘pgina jihatlapi bilan shapiatdagi pahbapiy g‘oyalapga asoslanganligiga guvoh bo‘lamiz.

Uchinchi bosqich – Chor Rossiyasi tomonidan qabul qilingan normalarga amal qilgan davr bo‘lib, 1864-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan davr, Turkiston o‘lkasida Chor Rossiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Jinoyat sudlov ishlarini yuritish nizomi asosida amalga oshirilgan. Ayrim manbalarda bu norma mustaqil protsessual shakl sifatida XIX asr o‘rtalariga borib paydo bo‘lganligi bayon etiladi.

Chor Rossiyasi bosqinidan so‘ng mamlakatimiz hududida musulmon huquqi bilan bir qatorda romano-german huquqi qo‘llanilib, keyinchalik jinoyat ishlarini shariat normalariga ko‘ra yuritish butkul bekor bo‘ladi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida qabul qilingan jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida agar ayblanuvchi qochib ketgan yoki jinoyatni kim

sodir etganligi aniqlanmagan bo‘lsa, tergovchi tergovni to‘xtatib turishga vakolati bo‘lmagan. Ushbu holatlar bo‘yicha ish sudga yuborilgan, sud ish yuritishni to‘xtatib turish yoki tugatish to‘g‘risidagi masalani hal qilgan. Shunday qilib, agar jinoyat sodir etgan shaxs aniqlanmagan bo‘lsa, sud ishni to‘xtatishi, aybdor aniqlangandan keyin ish faqatgina sud tomonidan qayta ochilishi belgilangan.

To‘rtinchi bosqich – sovet huquqi amal qilgan davr *(1917-yildan 1991-yilgacha bo‘lgan davr, Sovet davlatini shakllantipish davpi jinoyat-ppotsessual* qonunchiligida tez-tez va ko‘p sonli o‘zgapishlap bilan tavsiflanadi). Mamlakatimiz hududi sovet davlati tomonidan bosib olinganidan keyin, gapchi qozilik va biylik sudlapi tomonidan shapiat va odat nopmalapining qo‘llanilishi taqiqlanmagan bo‘lsa-da, jinoyat ishlapini yupitish tizimida aypim o‘zgapishlap yuz bepgan. Mapkaziy Osiyo sovet davlati tomonidan bosib olinganidan keyingi Chop mustamlakachi ma’muplapi tomonidan chopizm manfaatlapini himoya etishni amalga oshipuvchi sudlov opganlapi ta’sis etilgan va ayni bip paytda qozilik va biylik sudlapi saqlanib qolgan. Qozilik sudlapining bapcha masalalapni ko‘pa olmasligi, qozilik hukmlapidan nopozi bo‘lgan fuqapolapning impepiya sudlapiga mupojaat qila olishi kabi taptiblapning jopiy etilganligi qozilik sudlapi nufuzining tushishiga sabab bo‘lgan.

Sobiq sovet davpida jinoyat ishlapi bo‘yicha dastlabki tepgovni to‘xtatib tupish quyidagi ikkita yo‘nalishda pivojlanib bopdi:

1) jinoyat ishlapi bo‘yicha dastlabki tepgovni to‘xtatib tupishni taptibga soluvchi qonun va qonunosti nopmativ-huquqiy hujjatlap qabul qilingan;

2) ilmiy izlanishlap natijalapi bo‘yicha fosh etilmaganligi sababli tepgovni to‘xtatib tupishga oid tavsiyalap, alohida tupdagi jinoyatlapni tepgov qilish, ulapni to‘xtatib tupishning nazapiy qoidalapiga oid izlanishlarga doir hujjatlar.

Beshinchi bosqich – 1991 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan davr (O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi ishlab chiqilgan) hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqilligini qo‘lga kipitganidan so‘ng davlatning yangicha jinoiy-huquqiy siyosatidan kelib chiqqan holda o‘tkazilgan sud-huquq islohotlapi, butun dunyoda demokpatiyani va inson huquqlapi ustuvopligini qat’iy ta’minlashga qapatilgan japayonlap jadallashgani ta’sipida ishni sudga qadap yupitish bosqichlapi takomillashdi.

Mustaqillik yillapida 1994-yilning 22-sentabrida O‘zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat-ppotsessual kodeksi zamon talablapidan kelib chiqib yanada takomillashtipildi, unga inson huquq va epkinliklapi kafolatlapini kuchaytipishga qapatilgan bip qatop o‘zgaptish va qo‘shimchalap kipitildi

(yetmishdan optiq qonunlap bilan kipitilgan). Amaldagi JPKning 45-bobi “Dastlabki tergovlarni to‘xtatish va qayta tiklash” deb nomlandi. JPKning 364-moddasining birinchi qismida dastlabki tergovni to‘xtatishning bugungi kundagi to‘rtta asosi belgilandi. Binobarin, dastlabki tergov: 1) ish bo‘yicha ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxs aniqlanmagan; 2) ayblanuvchining qayerda ekkanligi noma’lum bo‘lgan; 3) ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga kelishini ta’minlash imkoniyati bo‘lmasa; 4) ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda to‘xtatilishi nazarda tutildi.O‘zbekiston Pespublikasining 2007-yil 11-iyuldagi “Qamoqqa olishga sanksiya bepish huquqi sudlapga o‘tkazilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining aypim qonun hujjatlapiga o‘zgaptish va qo‘shimchalap kipitish to‘g‘pisida” O‘PQ-100-son qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Pespublikasi JPK 365-moddasining to‘ptinchi qismi quyidagi “Ushbu Kodeksning 242 va 243-moddalapida nazapda tutilgan asoslap *(ayblanuvchi, sudlanuvchi tepgov va suddan yashipinganida)* mavjud bo‘lganda qidipilayotgan ayblanuvchi topilgan taqdipda, sudning ajpimi bilan unga nisbatan qamoqqa olish tapzidagi ehtiyot chopasi qo‘llanilishi mumkin” qoidalari kiritildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008-yil 12-dekabrdagi 23-sonli “Ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandi ikkinchi xatboshisiga asosan: “.....shaxs tuzalgandan so‘ng jinoyat ishini yuritish qayta tiklanadi va shaxs umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka yoki jazoga tortilishi mumkinligi, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini bekor qilish va jinoyat ishini yuritishni qayta tiklash uchun shaxs davolangan psixiatriya muassasasi shifokorlar komissiyasining xulosasi asos bo‘ladi”,- degan normalar kiritilgan. E’tiborli jihati, mustaqillik yillarida amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksimizning 45-bobida dastlabki tergovni to‘xtatish alohida protsessual shakl sifatida shakllantirildi, qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan takomillashtirib borildi. Biroq, 1994-yilda belgilangan asoslar bugungi kunga qadar o‘zgartirishsiz qoldirildi.

Oltinchi bosqich – 2017-yildan hozirgi kunga bo‘lgan davr (amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksimizga o‘zgartirish va qo‘shimchalar natijasida surishtiruv instituti kirib kelgan). O‘zbekiston Pespublikasining 2017 yil 6 sentyabpdagi “Supishtipuv instituti takomillashtipilishi munosabati bilan O‘zbekiston Pespublikasining aypim qonun hujjatlapiga o‘zgaptish

va qo‘shimchalap kipitish to‘g‘pisida”gi O‘PQ-442-son qonuniga muvofiq, JPKda ishni sudga qadar yuritish shakllari sifatida, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini tergov qilish bosqichlariga ajratildi (JPKning 3201-moddasi). Shu bilan birgalikda, jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida o‘tkazilishi belgilandi (JPKning 3203-moddasi).Ahamiyat berganimizdek surishtiruvchi surishtiruvni to‘xtatishi mumkin. Qonunchilik buni ham nazardan chetda qoldirmagan albatta, xususan, surishtiruv institutining protsessual qonunchilikka kirib kelishi bilan JPKning 3819-moddasi “Surishtiruvni to‘xtatish” deb nomlanib, surishtiruvni to‘x-tatish amaldagi JPKning 364-371-moddalari tartibida belgilangan hollarda to‘xtatilishi nazarda tutildi. Shu bilan birga surishtiruvchi tomonidan faqat ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi to‘g‘risida qaror chiqarilgan shaxsga nisbatan qidiruv e’lon qilinishi mumkin degan norma kiritildi. So‘nggi yillapda amalga oshipilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlap natijasida jinoyat-ppotsessual munosabatlapda surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishga alohida e’tibop qapatildi. Qonunchilikdagi bu o‘zgarishlar, tergovchilarning ish yurituvidagi jinoyat ishlarini kamayishiga va tergov organi tomonidan jinoyat ishini sifatli, to‘la va xolisona o‘tkazilishida ilk debocha vazifasini bajardi. Rivojlanishning bu bosqichida surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish protsessual shaklini yanada takomillashtirish, uning qonunchilikdagi o‘rni va rolini oshirish, ishni sudga qadar yuritish bosqichida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, jinoyat ishlarini tergov qilishning samaradorligini oshirish, surishtiruvchi va tergovchilarning kasbiy faoliyati kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan bir qator vazifalar amalga oshirildi. Lekin, shu bilan bipga, sud-tepgov amaliyotining tahlili surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatishda zamon talabi darajasida rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan ayrim muammo va kamchiliklap mavjudligini ko‘psatmoqda.Chunonchi:

birinchidan, surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish 1994 yilda qabul qilingan JPKsida ko‘rsatilgan asoslar bilan qolib ketganligi, vaholanki, mamlakatimizda 2020-yilning 16-martidan boshlab Covid-19 pandemiyasi boshlanganligi surishtiruv va dastlabki tergovga chaqirilishi lozim bo‘lgan shaxslarni olib kelishda bir qator noqulayliklar tug‘dirishi va hokazolarni keltirish mumkin;

ikkinchidan, sud-tergov amaliyotida, ish to‘xtatilgan vaqtida, surishtiruv va dastlabki tergov organi tomonidan dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risida qaror chiqariladi. Zeroki, jinoyatlarni tergov qilish surishtiruv va dastlabki tergov shaklida o‘tkazilishi qonunchilikda belgilab berilgan.

Surishtiruv va dastlabki tergovni to‘xtatish to‘g‘risida qarorlar namunasining mavjud emasligi, qaror chiqarilishida nazariya va amaliyotning o‘zaro uyg‘unlashmaganligi turli amaliyot vujudga kelganligini ko‘rsatadi.

Tahlillardan ma’lumki, tarixda ham, hozirgi davrda ham ishni sudga qadar yuritishning barcha jabhalarida, jumladan fosh etilmagan jinoyatlar bo‘yicha jamoatchilik ishtiroki muxim ahamiyatga egadir. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash va jinoyat-protsessual qonunida belgilangan vazifalarni bajarishda jamoatchilik yordamidan keng foydalanish hayotiy zaruratdir. Ayni damda jinoyatchilikka qarshi kurashda jamoatchilik ishtirokining eng samarali shakllarini tanlash jinoyatni fosh etish va uni tergov qilishdagi asosiy omillardan biridir. Chunki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari jamiyat kuchi bilangina o‘z faoliyatini samarali tashkil etishi mumkin. Aynan shu sababli, fosh etilmagan jinoyatlarni samarali tergov qilishnita’minlash ham xalqaro, ham Yangi O‘zbekistonda davr talabiga aylandi. Chunki har bir inson taqdiri – jamiyat va davlat taqdiri bilan uyg‘undir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Й.А. Воронин Зарубежний опит участия населения в противодействии преступности: правоохранителний и виктимологический аспекти /Буллетин оф тҳе Соутҳ Урал Стате Университй.16 Сер. Лаw. 2019, вол. 19, но. 3, пп. 16–21

2. Тўхтарбаева С.М.Международний опит правоохранителной деятелности по противодействию коррупсии с участием гражданского обшества // Юридическая гносеология. 2016. № 2.

3. Latipov B.I. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini takomillashtirish 12.00.01 «Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi» : Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya / Latipov Begzod Ispandiyorovich; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi. – Toshkent, 2019 – S. 134-135.

4. Гордеев С. Н. Организация розискной работи правоохранителних органов (зарубежний опит) // Журнал зарубежного законодателства и сравнителного правоведения. 2016. № 3. С. 141.

5. Воронин Й.А. Введение в криминологию – «Флинта» М., 2019. – С. 52

XOTIN-QIZLAR VA YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna

Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi xodimi, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Davlatimizda bugungi kunda barcha sohalarda islohatlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi inson manfaatlariga xizmat qiladi. Go‘zal diyorimizda barchamizning haq-huquqlarimiz konstitutsiyamiz bilan kafolatlangan. Dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olish maqsadida, bugungi kunda yosh avlodga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z faoliyatini boshlashi bilan-oq, 2016-yil 14-sentabr kuni “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunni imzolashi so‘zimizga dalil bo‘la oladi [1]. Davlatimiz rahbari o‘z nutqlarida yosh avlod tarbiyasi, yoshlar kelajagi haqida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” – degan o‘rinli fikrlarni bildirgan edi [2].

Yoshlarga oid davlat siyosatining yana bir namunasi sifatida xotin-qizlarga bo‘lgan e’tiborni keltirib o‘tishimiz mumkin. Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bilim olishlari, kasb egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularni rag‘batlantirish maqsadida, “O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasida ham bir qator vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. “Yurtimizda xotin-qizlar uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan o‘tgan yillar davomida:

Bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35, tadbirkorlik sohasida 45, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi;

2020-2024-yillarda ehtiyojmand 8653 nafar xotin-qiz, oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha grand asosida o‘qishga qabul qilindi;

Magistratura bosqichida tahsil olayotgan 24 ming talabaning 60 foizi yoki 17 mingdan ziyodi xotin-qizlardir. Bu ko‘rsatgich 2018-yildagiga nisbatan 3,8 barobar ortgan.

2021-2024-yillarda 6 mingga yaqin talaba qizlarning shartnoma to‘lovlari mahalliy byudjet mablag‘i hisobidan qoplanadi;

O‘tgan yilda qariyb 890 ming nafar xotin-qizlar bandligini ta’minlashga ko‘maklashildi.

“ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning qariyb 995,5ming nafariga yordam berildi [3:4].

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi ham yoshlarning o‘z iqtidorlarini yuzaga chiqarishda hissasi katta bo‘ldi. Har yili turli sohalarda tanlovlar o‘tkazilib, g‘oliblar munosib taqdirlanib kelinmoqda. Ayniqsa, “Yosh kitobxon” tanlovining tashkil etilishi yoshlarning kitobxonlikga bo‘lgan qiziqishi yanada oshishiga sababchi bo‘ldi.

Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish bilan birga afsuski, jinoyat ko‘chasiga kirib, yoshlarimiz tomonidan huquqbuzarliklar sodir etayotganligi ko‘nglimizni xira qiladi. Xizmat faoliyatimiz davomida biz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri, Taxiyatosh tumanlaridagi qizil, sariq toifalarga kirgan mahallalarda mahalla faollari bilan birga o‘rganish ishlarini amalga oshirdik. Unda asosan, profilaktika inspektori bilan hamkorlikda mahallalardagi jinoyat sodir etgan va profilaktik hisobda turuvchi xotin-qizlar va yoshlar bilan suhbatlar o‘tkazildi.

Joylarda o‘rganish ishlari jarayonida, xotin-qizlar tomonidan asosan o‘g‘irlik, bezorilik, jamiyatta yurish-turish qoidalarini buzish, firibgarlik, mayda bezorilik singari huquqbuzarlik holatlari sodir etilgan. Ushbu holatlar o‘rganilganda asosan muammoli oilalar farzandlari tomonidan huquqbuzarlik harakatlari sodir etilgani ma’lum bo‘ldi. Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, (xizmat jarayonida bo‘lganligi sababli mahalla nomi va ism-shariflarni noma’lum qoldirishni maqul topdik.) “Nukus shahri Qizketken elatida joylashgan mahallada yashovchi endigina voyaga yetgan qiz onasining ta’ziyqlari sababli fohishalik bilan shug‘ullanadi. Bundan oldin esa, ushbu oilada o‘gay ota tomonidan qizning nomusi topdalib, o‘gay ota jinoiy javobgarlikga tortilgan. Oilada nosog‘lom muhit hukm surgan. O‘z onasi esa qiziga men sening onang bo‘lganligim uchun boqishga majbursan – deya bosim o‘tkazib nomaqbul ishlar qilishga majburlanadi. Ona bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazilib, oilaviy muhit ijobiy tomonga o‘zgartirildi.”

Keyingi holatimizda esa, yosh qizcha tomonidan yeyishga ovqati bo‘lmaganligi sababli oziq-ovqat do‘konidan oziqlik mahsulotlari va pul o‘g‘irlangani ma’lum bo‘ldi. Oila bilan suhbat o‘tkazganimizda, faqat onasi yolg‘iz boquvchi, otasi yo‘q ekanligi aniqlandi. Onasi kasallanib yotib qolganligi sababli, och qolgan oila a’zolarini qornini to‘ydirish uchun o‘g‘irlik

qilishga majbur bo‘lgan. Olib borilgan profilaktik suhbatlar natijasida holat ijobiy tomonga o‘zgardi. Milliy gvardiya, mahalla hamkorligida, Yoshlar ittifoqi vasiyligida bir qancha yoshlar sud zalidan ham ozod qilindi. Bularning barchasi davlatimiz tomonidan yoshlarning kelajagini porloq bo‘lishiga xizmat qiladi

Yo‘qoridagiday ko‘ngilsiz holatlar barchamizni ogohlikga chorlaydi. Chunki, yoshlar bizning kelajagimiz, ertangi kunimiz. Ular o‘sib kamol topsa ona vatanimiz ham gullab-yashnaydi.. Demak shunday ekan har bir yosh vatanimiz tomonidan bildirilgan ishonchni oqlab, imkoniyatlarga munosib javob qaytarishlari zarur. Yo‘qoridagi keltirilgan misollardan kelib chiqib, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni bildirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblaymiz:

Birinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida, Yoshlar ittifoqi, maktablar va mahallalar hamkorlikda huquqiy sohada targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

Ikkinchidan, oilalar mustahkamligini ta’minlash maqsadida, nikohdan o‘tuvchi yoshlar uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish;

Uchinchidan, Yoshlar ittifoqi va mahallalar hamkorlik aloqalarini doimiy ravishda davom ettirish, yurtimizda inson manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohatlarning ijobiy natijalar ko‘rsatishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2016-yil 14-sentabr kungi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni www.lex.uz

2. Taraqqiyot strategiyasi markazi O‘zbekiston – yoshlar mamlakati https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz

3. Xalq so‘zi gazetasi. // 2025-yil 7-mart № 47 (8944)., bet-4.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi.//Yangi O‘zbekiston gazetasi., 2023-yil 20-sentabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yil Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori (ko‘chirma)., 03.01.2025-yil.

YOSHLAR O‘RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH HAMDA XUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TA’MINLASHDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

M.H. Abdirasulov

O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD
Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati xodimi.

Bugungi kunda, yoshlar jamiyatning har qanday o‘zgarishlarga tez javob beradigan eng faol qatlamdir. Shu nuqtai nazardan, ularni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash har qanday davlat uchun bir qator iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarning oldini olish, barqarorlikni ta’minlash demakdir.

Respublikamizda yoshlar jinoyatchiligini oldini olish va xuquqbuzarlik profilaktikasini ta’minlashda yuzaga kelayotgan mavjud muammolar jamiyat ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Birinchidan, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik yildan-yilga o‘sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Ma’lumot uchun; oxirgi besh yilda yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik 2020 yilda 14 378 ta, 2021 yilda 21 885 ta, 2022 yilda 24 443 ta, 2023 yilda 24 045 ta, 2024 yilda 23 459 ta (2025 yil 5 oylikda 5911 ta) tashkil qilgan.

Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxslar ichida yoshlarning ulushi 34,4% ni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida profilaktik tadbirlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi sababli yoshlar jinoyatchiligi ko‘paymoqda.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida, 2024 yilda 1 244 nafar talabalari jinoyat sodir etgan bo‘lib, 2023 yilda esa 221 nafarga yoki 21,6 foizga oshgan.

Natijada talabalarning xavfsizligi, ruhiy holati va ta’lim olish jarayoniga bevosita ta’sir etadi. Bunday sharoitda o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish susayadi, darslarga qatnashish va faol ishtirok etish darajasi pasayadi. Oliy ta’lim muassasasining ma’naviy-axloqiy muhiti izdan chiqishiga olib keladi.

Ikkinchidan, mahallalarda oilaviy muhitning beqarorligi, ota-onalarning farzand tarbiyasiga loqaydligi hamda yoshlarni ish bilan ta’minlash to‘g‘ri tashkil etilmaganligi, yoshlar jinoyatchiligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘qimaydigan-ishsiz yoshlar jinoyatchiligi 2019 yilda 3 308 ta, 2020 yilda 4 052 ta, 2021 yilda 7 265 ta, 2022 yilda 6 525 ta, 2023 yilda 2 905 ta, 2024 yilda 2778 ta, 2025 yil 6 oylikda 556 tani tashkil qilgan.

Buning oqibatida, jamiyatda nosog‘lom muhit shakillanishiga hamda fuqarolarning huquq-tartibot organlariga bo‘lgan ishonchi susaymoqda.

Uchinchidan, profilaktik ishlarning yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayniqsa mahalla, maktab va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikdagi bo‘shliqlar yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda jiddiy muammo tug‘dirmoqda. Bu esa jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan yoshlar ustidan nazoratning zaiflashuviga olib kelmoqda.

Birgina, Ichki ishlar organlari hamda sog‘liqni saqlash idoralarning profilaktik hisobida turuvchi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish faoliyatida yoshlar bilan alohida toifa sifatida ishlash mexanizmi mavjud emas.

Ma’lumot uchun: bugungi kunda 453 512 nafar profilaktik hisobda turuvchi shaxslarning qariyb 11 foizi (49 260 nafar) yoshlarni tashkil etadi.

I. Yuzaga kelayotgan mavjud mumummolarni tizmli yochish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

a). Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan davlatning g‘amxo‘rligi va e’tiborini kutayotgan hamda ko‘makka muhtoj bo‘lgan “ahvoli og‘ir” toifadagi yoshlar, vazir, vazir o‘rinbosarlari, viloyat, tuman va shahar hokimlari, oliygoh rektorlari, Milliy gvardiya va harbiy qism komandirlariga nomma-nom biriktirildi.

Masalan; Ichki ishlar vazirining 2025 yil 3 apreldagi “Ichki ishlar organlari rahbarlariga biriktirilgan yoshlar bilan ishlash va ular o‘rtasida olib borilayotgan profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 182-son buyrug‘i bilan respublikaning 7 259 ta mahallasida istiqomat qiluvchi 25 ming (17 689) nafar yoshlar, ichki ishlar organlarining 1 419 nafar rahbar xodimlariga nomma-nom biriktirildi.

b). Yoshlar jinoyatchiligini kamaytirish va uni ildizidan bartaraf etishda tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan joriy etilgan “Yoshlar daftari” mexanizmi yoshlar bilan manzilli ishlashning samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Respublikada “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 33 151 nafar yoshlarning 11 302 nafari yoki 34,1 foizining muammolari hal qilindi.

d). Ijtimoiy profilaktika orqali ijtimoiy xavfli holatdagi, nazoratsiz qolgan, oilaviy muammolarga ega, maktabga bormayotgan yoki ishlamayotgan yoshlar aniqlanib, ularga erta yordam ko‘rsatilmoqda.

Joriy yilning shu kuninga qadar, Respublika bo‘yicha profilaktika inspektorlari tomonidan ijtimoiy profilaktika obyekti bo‘lgan doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsiz, davlat ko‘magiga muhtoj “og‘ir toifadagi” hamda ichkilikka, giyoxvandlikka, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarga ruchu qo‘ygan, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan yoshlarga jami 116 023 nafariga xulosalar taqdim etilgan bo‘lib, ushbu xulosalar yuzasidan 97,4 foizi yoki 112 790 nafariga yordam ko‘rsatilib, muammolari ijobiy xal etildi.

II. Yoshlar jinoyatchiligi oldini olishda rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda erishilgan ijobiy natijalar ko‘proq tizimli yondashuv, barvaqt profilaktika va ta’lim-tarbiya tizimidagi muvofiqlik bilan bog‘liq.

Masalan, Germaniyada yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda mahalliy o‘quv yurtlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Har bir maktabda ijtimoiy pedagog yoki psixolog faoliyat yuritadi, ular xavf guruhidagi bolalar bilan alohida ishlaydi. Bundan tashqari, maxsus “Erta ogohlantirish tizimi” orqali huquqbuzarlik alomatlari barvaqt aniqlanadi.

Shvetsiyada esa jinoyat sodir etgan yoshlar bilan ishlashda jazolashdan ko‘ra, ularni ijtimoiy hayotga qayta jalb qilishga urg‘u beriladi. Reabilitatsiya markazlari, kasbga yo‘naltirish dasturlari va oilaviy psixologik yordam xizmatlari keng qo‘llaniladi. Bu orqali yosh jinoyatchilar qayta jinoyat sodir etmaslikka rag‘batlantiriladi.

Yaponiya tajribasida esa jinoyatchilikka qarshi kurashda maktab, oilaviy muhit va mahalla darajasidagi nazorat kuchli yo‘lga qo‘yilgan.

Eng e’tiborli tomoni, Yaponiyada “yoshlarni huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha dastur” mavjud bo‘lib, ushbu dastur bosqichma-bosqich amalga oshirilib boriladi. Dastlabki bosqichda bolalarni bog‘cha yoshidan boshlab huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha dastlabki tushunchalar berib boriladi.

Keyingi bosqichlarda maktab yoshidagi bolalarni huquqni buzmaslik, bezorilik, o‘g‘rilik, jinoyat qilmaslik bo‘yicha, ularning oqibatlari bo‘yicha va aks holda jinoyatga jazo muqarrarligi bo‘yicha muntazam ravishda profilaktika ishlari amalga oshiriladi. Bolaligidan huquqiy bilimlarga ega bo‘lgan yoshlar to‘g‘ri tarbiyalanib, huquqbuzarlik sodir etilishi oldi olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlar jinoyatchiligi muammosiga kompleks va tizimli yondashuv zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikni faqat jazolash emas,

balki unga olib keluvchi omillarni aniqlab, barvaqt oldini olish muhimdir. O‘zbekiston tajribasida esa so‘nggi yillarda profilaktika, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ta’lim-tarbiyani kuchaytirish orqali muammoni hal etishga harakat qilinmoqda.

Kelgusida xalqaro tajribaning samarali jihatlarini chuqur tahlil qilib, mahalliy sharoitga mos innovatsion yondashuvlarni joriy etish lozim. Bunda oilalar, mahalla, maktab va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali yoshlar jinoyatchiligini barvaqt oldini olishning asosiy hal qiluvchi bo‘g‘inga aylantirish hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarning tajribalari hamda mamlakatimizda yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda olib borilgan islohotlarning natijalaridan kelib chiqib, kelgusida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlashda quydagilar taklif etiladi.

1. Mahallalarda profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari shtatlari tashkil etilib, ma’lum muddat o‘z samarasini berib kelganligi misolida, respublikaning har bir mahallasida sinov tariqasida profilaktika inspektorining yoshlar masalalari bo‘yicha yordamchilari lavozimlarini joriy etish va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

2. Ijtimoiy muammo sifatida yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish bo‘yicha va yoshlarni bolaligidan huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida kompleks chora-tadbirlarini ko‘zda tutuvchi ijtimoiy dastur ishlab chiqish va bunda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’limiy va sog‘liqni saqlashga doir ustuvor vazifalarni aniq belgilash hamda amalga oshirish lozim.

3. Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturiga xam o‘zgartirishlar kiritib, JK va MJtKda nazarda tutilgan, ko‘proq sodir qilinayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar haqida to‘liqroq tushuncha beruvchi dars soatlarini joriy qilish. Modernizatsiya va liberallashtirish sharoitida voyaga yetmagan va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni ilmiy o‘rganish bo‘yicha yagona metodik standartlarni yaratish.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA ULARNING AHAMIYATI

Hayitov Hasan Shermatovich

TIQXMMIMU, “Huquqiy fanlar” kafedrasi v.b. dotsenti, yuridik fanlari doktori

O‘zbekistonda yangi bosqichga ko‘tarilgan yoshlar siyosati mamlakat taraqqiyotining muhim ustuni sifatida belgilandi. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston kelajagini biz sizdek azmu shijoatli farzandlarimiz bilan bog‘laymiz”. Bu yondashuv, o‘z navbatida, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishda davlatning inson kapitalini investitsiya sifatida baholashidan dalolatdir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimi joriy etildi. Mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali:

yoshlarning ta’lim, kasb-hunar va ish bilan ta’minlanishi;
bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishi;
ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi ta’minlanmoqda.

Bu tizim jinoyatga moyil muhitni cheklash va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, “Yoshlar daftari” va “Yoshlar balansi” platformalari yaratildi.

Mahallalarda yoshlarning aniq muammolarini identifikatsiya qilish va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida birgina 2024 yil 156 ming yoshga 60 ming gektar yer maydoni 30 yilga ijaraga berilgan. Bu yoshlarning daromad manbalari oshishiga va iqtisodiy barqarorlikka olib kelishi bilan birga, iqtisodiy mustaqillik – jinoyatchilikka qarshi kuchli qalqon hisoblanadi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2022–2024 yillar davomida yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish holatlarining sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Bunga ta’lim, sport, madaniyat sohalarida yoshlarni jalb qilish orqali ijtimoiy integratsiyaning kuchayishi asosiy omil bo‘ldi.

Masalan: 2023 yilda 55 nafar maktab o‘quvchisi xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyat qozondi. 383 nafar yoshlar esa madaniyat sohasida xalqaro tanlovlarda g‘olib bo‘ldi. Bunday natijalar yoshlar orasida faollik, ishonch va maqsadli harakatning shakllanganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston BMTning “Yoshlar strategiyasi – 2030” doirasida namunaviy davlatlardan biri deb e’tirof etildi. Jumladan, 2022 — Buxoro “Turkiy dunyo yoshlari poytaxti”, 2024 — Toshkent “MDHdagi birinchi yoshlar poytaxti”, 2024 — ilk marta “Butunjahon yoshlar festivali”da 92 mamlakatda yoshlari ishtirok etdi. Bu kabi xalqaro e’tiroflar mamlakatning yoshlarga bag‘ishlangan siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi va yoshlar jinoyatchiligini bartaraf etishda muhim omildir.

Yoshlar uchun bir qator islohotlar qilinishiga qaramay ayrimlari jinoyat yo‘liga kirayotgani insonni tashvishga soladi. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlar telefon o‘g‘riliklari soni ortmoqda. Masalan, 2024 yil avgust oyida sodir etilgan voqea yoshlar o‘rtasida telefon o‘g‘riliklari qay darajada “kundalik hayotda sodir bo‘layotgan, rejasiz, lekin omillar bilan bog‘liq jinoyat” ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Bugungi kunda mobil telefoni — nafaqat aloqa vositasi, balki inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. U orqali to‘lov qilamiz, ma’lumot saqlaymiz, muloqot qilamiz va shaxsiy hayotimizni yuritamiz. Tabiiyki, bu qurilmalar jinoyatchilar uchun ham jozibali obyektga aylangan. Afsuski, bu kabi jinoyatlarning asosiy subyekti yoshlar bo‘lib bormoqda.

18 yoshli fuqaro P.A. va uning o‘rtog‘i A. dam olish bog‘idagi “Dragon” atraksioni oldida turgan telefonlarni kuzatgan. Boshqa bir qiz telefonni hisobxona derazasidan ichkaridagi stol ustiga qo‘yib, atraksionga chiqib ketganini ko‘rgan yoshlar muvaqqat nazoratsiz qolgan mobil qurilmani o‘zlashtirish imkonini kuzatgan. Natijada “Xonor X9” rusumli telefonni atraksionning ochiq hisobxona derazasi orqali olishgan. O‘g‘irlagan telefonni 2 100 000 so‘mga sotishgan va shundan 1 950 000 so‘mga Ipone 11 xarid qilishga ham ulgirishgan. Bu xolat qizning shaxsiy ma’lumotlari asosida ichki ishlar organlari tomonidan fosh etilgan. O‘g‘rilaganlar aybiga iqrorlik bildirishgan, jabrlanuvchi oldida kechirim so‘rashgan va zararni qoplashgan.

Ushbu misolda: jinoyat rejasiz, vaziyatdan foydalanib amalga oshirilgan. Yoshlarda huquqiy ong past darajada ekanligi yaqqol ko‘rinmoqda. Telefon — nafaqat moddiy narsa, balki shaxsiy ma’lumotlar va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni ham o‘z ichiga oluvchi muhim obyekt ekani inkor etilgan.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda, ayniqsa shahar va jamoat joylarida yoshlar tomonidan telefon o‘g‘riliklari soni keskin ortgan. Eng ko‘p jinoyatlar bozor, park, attraksion, metro, avtobus va kafe kabi joylarda sodir etilmoqda. Yoshlar bu jinoyatni ko‘pincha rejasiz, “fursatdan foydalanib” amalga oshiradi. Ularning katta qismi avval jinoyat qilmagan, lekin huquqiy ongi past. Bunday holatlar ko‘pincha: nazoratsiz muhit, axborot texnologiyalariga

nisbatan kuchli talab, ya’ni, qimmat telefonlarga ega bo‘lish istagi, lekin moddiy imkoniyatning yo‘qligi, ishsizlik, bekorchilik, ijtimoiy tarmoqlardagi bosim (moddiy namoyishbozlik, trendda bo‘lish istagi), ota-onaning nazorati pastligi, yolg‘iz qolish, tarbiyaviy muammolar, jinoyat oqibati va jazo choralari haqida ma’lumotning yetishmasligi, “telefon o‘g‘irlash — uncha katta jinoyat emas” degan xato tushunchaga ega ekanligi va moddiy ehtiyoj ortidan yuzaga keladi.

Yoshlar huquqiy va axloqiy bilimlar yetishmasligi tufayli bunday harakatni jinoyat deb emas, balki “omadli fursat” sifatida qabul qilish holatlari uchramoqda. Shu bois, huquqiy ma’rifat, jamiyatda nazorat mexanizmlari va moddiy ehtiyojni bartaraf etish choralari ustuvor bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda yoshlar siyosati nafaqat yoshlarning hayotini yaxshilash, balki ularni jinoiy xatti-harakatlardan saqlashga ham qaratilgan. Shaxsiy rivojlanish, ta’lim, ish bilan ta’minlanish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi sohalarda yaratilgan sharoitlar tufayli yoshlar qonuniy yo‘l bilan muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Ilmiy tavsiyalar:

Yoshlar siyosatida diversiya va reabilitatsiya usullarini kengaytirish;

Jinoyatga moyillikka qarshi ijtimoiy profilaktika markazlari tashkil etish;

Yoshlar bilan ishlash tizimida kriminologik tahlil asosida ish yurituvchi kadrlar tayyorlash;

Yoshlar balansi va daftarlarini sifrovizatsiya qilish va tahlil mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar tomonidan telefon o‘g‘irligi — bu shaxsiy manfaat yo‘lida qonun buzish, boshqa insonning mol-mulkiga, hayotiga, shaxsiy ma’lumotlariga befarqlik bilan munosabatda bo‘lish demakdir. Bu jinoyatning oldini olish ta’lim, tarbiya, ma’rifat va ijtimoiy islohotlar bilan amalga oshirilishi lozim.

Biz yoshlarga “muvaffaqiyatli hayot” nafaqat moddiy ashyolar, balki halol mehnat, bilim va mas’uliyat bilan qurilishi mumkinligini o‘rgatishimiz shart!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi, 2024 yil. https://president.uz/uz/lists/view/7361

2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, 2016 yil.

3. UNICEF Uzbekistan: Youth Strategy Review, 2023.

4. Sud.uz, Ombudsman.uz rasmiy ma’lumotlari.

YOSHLAR O‘RTASIDA JINOYATCHILIKNING SABABLARI VA UNING IJTIMOIY ILDIZLARI

Odilov Nordirbek Odil o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
“Maxsus-kasbiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Yoshlar har qaysi mamlakatning kelajagi hisoblanadi. Ular jamiyatning eng faol, intilishlarga boy qatlamini tashkil etadi. Shu bilan birga, turli sabablar tufayli yoshlar orasida jinoyatchilikning o‘sishi murakkab ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Zero, jinoyat yo‘liga kirib qolgan yosh shaxs nafaqat shaxsan o‘zining kelajagiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ham tahdid soladi. Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning kengayib borish sabablari aniqlangan, ularning ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Albatta, sizning so‘rovingizga muvofiq, asosiy qismni yanada kengaytirib, izchil, boblarga ajratmasdan, yaxlit holda, tahlil va amaldagi misollar bilan boyitilgan shaklda taqdim etaman:

Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning avj olishi murakkab va ko‘p omilli ijtimoiy jarayon bo‘lib, u jamiyatning turli tarmoqlaridagi muammolar bilan chambarchas bog‘liq. Bir qarashda oddiy tuyulgan xatti-harakatlar ortida ko‘plab omillar va tizimli muammolar yotadi. Bugungi kunda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar faqat shaxsiy kasallik yoki axloqiy buzuqlik natijasi emas, balki jamiyatdagi notengliklar, nazoratsiz muhit, ma’naviy bo‘shliq va ijtimoiy adolatsizlikning mahsulotidir. Mazkur jarayonlarni tushunish uchun ularning chuqur ijtimoiy ildizlarini tahlil qilish zarur.

Avvalo, yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi oila muhiti alohida o‘rin tutadi. Oiladagi muhabbat, tarbiya, ma’naviy qadriyatlar va farzandlar bilan muloqot darajasi yoshning dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Afsuski, zamonaviy hayotda ota-onalarning ko‘p ish bilan bandligi, migratsiya, ajralish holatlari sababli bolalar yetarlicha e’tiborsiz qolmoqda. Oiladagi nizolar, tajovuzkor munosabat, nazoratsizlik, yoki butunlay tarbiyasiz muhit yoshlarni deviant fe’l-atvor sari yetaklamoqda. Ichki ishlar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda yoshlar sodir etgan jinoyatlarning 37%i kam ta’minlangan, yoki to‘liq oilada

tarbiya topmagan yoshlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuni ta’kidlash joizki, har bir jinoyat — bu faqat jinoyatchi shaxsning aybi emas, balki jamiyatdagi muayyan tizimiy kamchilikning alomati bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, iqtisodiy nochorlik va ishsizlik ham yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning kengayishida muhim rol o‘ynamoqda. Ta’limni tugatib, mutaxassislikka ega bo‘lgan yoshlar ish topa olmasligi yoki mehnat bozorida yetarli imkoniyatga ega bo‘lmasligi ularda ruhiy tushkunlik va noqonuniy faoliyatga moyillikni oshiradi. 2023 yilda Toshkent shahrida 16-25 yosh oralig‘ida jinoyat sodir etgan shaxslarning taxminan 45 foizi rasmiy ish joyiga ega bo‘lmagan. Bu holat o‘ziga xos “ijtimoiy xavfli muhit”ni shakllantiradi. Xususan, iqtisodiy qiyinchiliklar sababli ayrim yoshlar internet orqali onlayn firibgarlik, kriptovalyuta bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatlarga kirishgan holatlar ham ro‘yxatda turibdi. Ular jinoyatni “oson pul topish usuli” sifatida ko‘rishmoqda.

Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka sabab bo‘layotgan jiddiy muammolardan biri — ta’lim tizimidagi yetishmovchiliklar va huquqiy savodsizlikdir. Maktab va kollejlardagi huquqiy tarbiyaning shakllanmaganligi, zamonaviy yondoshuvning yetishmasligi yoshlarning o‘z harakatlarining oqibatini to‘liq tushunishiga to‘sqinlik qiladi. Ta’lim muassasalarida huquqshunos mutaxassislar ishtirokida muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o‘tkazish hamon ko‘p joylarda nazariy darajada qolmoqda. Qishloq va chekka hududlarda, ayniqsa, bunday ishlar amaliy ifoda topmayotganini tahlillar ko‘rsatmoqda. Natijada, yoshlar qonunni bilish o‘rniga, jamoatchilikda tarqalgan “afsonaviy” tushunchalarga tayanib, noto‘g‘ri qarorlar qabul qiladi.

Bugungi raqamli zamonda internet va ommaviy axborot vositalari yoshlarning ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Aksariyat hollarda blogerlar, kino va seriallar orqali jinoyat va zo‘ravonlik “qahramonlik”, “erkaklik” sifatida ko‘rsatiladi. Ayniqsa, “TikTok”, “YouTube”, “Instagram” kabi platformalarda yoshlar cho‘qish, qo‘pol kulgi, shovqinli va noqonuniy harakatlar orqali “layk” va “e’tibor” to‘plashga harakat qilishmoqda. Bu o‘z navbatida ularni jinoyat yo‘liga yetaklaydi. 2023 yilda Fergana.uz veb-sayti tarqatgan ma’lumotga ko‘ra, Andijonda maktab o‘quvchilari orasida “chiqish-chopish” deb nomlangan internet-chellenj tufayli jinoiy guruh tuzilgan va u ikki oy ichida o‘nlab o‘quvchi ishtirokidagi zo‘ravonlik holatlariga sabab bo‘lgan.

Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashishda mahalla, mahalliy kengash va fuqarolar yig‘ini kabi jamoatchilik nazorati institutlarining susayishi ham muhim omil hisoblanadi. Aslida mahalla jamiyatdagi profilaktikaning “birinchi chizig‘i” sanaladi. Ammo ba’zi hududlarda mahallada ish yurituvchi mutaxassislar (yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori)ning yetishmasligi, yoki ularning ish yuritishining formallashuvi nazoratsizlik va mas’uliyatsizlikni

keltirib chiqarmoqda. “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” orqali muammoli guruhlarni aniqlash va ular bilan individual ish olib borish mexanizmi joriy qilingan bo‘lsa-da, uning amaldagi samaradorligi barcha hududlarda teng darajada ta’minlanmagan. Ayrim tumanlarda nazorat ostidan chiqib ketgan yoshlar tomonidan sodir etilgan og‘ir jinoyatlar ushbu profilaktik tizimning yanada takomillashtirilishini talab qilayotganini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, yoshlar jinoyatchiligi bu faqat bir shaxs yoki oilaning muammosi emas, balki keng qamrovli ijtimoiy masaladir. Jamiyatdagi ma’naviy bo‘shliq, ishsizlik, ta’limdagi tizimli muammolar, jamoaviy nazoratning susayishi kabi omillar birgalikda bu muammoni yanada og‘irlashtirmoqda. Mas’ul tashkilotlar, davlat organlari, ta’lim muassasalari, OAV va mahalliy hokimiyatlar birgalikda ish olib bormagan taqdirda, yoshlar jinoyatchiligini kamaytirish imkoni cheklangan bo‘lib qoladi. Ushbu muammolarga kompleks yondashuv talab etiladi: profilaktika, ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, ish o‘rinlari yaratish, ta’lim sifati va jamoatchilik nazoratini isloh qilish.

Yoshlar jinoyatchiligi bu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy muammodir. Unga qarshi kurashishda faqat jazo berish emas, balki chuqur profilaktika, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, oilaviy muhitni barqarorlashtirish va ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish asosiy vazifa bo‘lishi shart. Davlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalla va NNTlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada samarali tashkil etish, huquqiy savodxonlikni oshirish, yoshlarni ijtimoiy faol hayotga jalb qilish orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin. Jinoyat yo‘liga kirgan har bir yosh shaxs – jamiyatning mas’uliyatidir. Shu boisdan, tizimli va insonparvar yondashuv asosida harakat qilish dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. Jamshidov A. “Yoshlar va jinoyatchilik: muammolar va yechimlar” – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlari, 2023-yil yakunlari.
4. Qurbonov Sh. “Ijtimoiy muhit va deviant fe’l-atvor” – Samarqand, 2021.
5. www.fergana.uz, www.stat.uz, www.lex.uz – rasmiy statistik va huquqiy manbalar.
6. UNESCO Youth Crime Prevention Report, 2022.

YOSHLARNING BEGONALASHUVI: SABABLARI, NAMOYON BO‘LISHI VA YECHIMLARI

Akramov Xasan Furkatovich

Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mirzatillayev Umid Izzatillayevich

Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Begonalashuv individning jamiyatdagi rolining batamom tugatilishiga va xattoki yo‘q bo‘lib ketishiga ham sabab bo‘ladi. Jamiyatlardagi har bir guruhlar va uning subuyektiv qarashiga ega bo‘lgan individlar o‘z jamiyatidagi sodir bo‘layotgan ijobiy va salbiy o‘zgarishlardan ta’sirlanishi, holatining o‘zgarishi yuz berishi aniq. Chunki har bir sodir bo‘layotgan o‘zgarish hoh u salbiy bo‘lsin, hoh u ijobiy farqi yo‘q, baribir jamiyatdagi mavjud bo‘lgan har bir guruh a’zosi o‘zgarishlarga o‘zining subyektiv va obyektiv munosabatini nomoyon etmay qolmaydi.

Jamiyatdagi olib borilayotgan siyosat, g‘oya va mafkura yuqoridagi guruhlarning va ularga bevosita bog‘lanib keluvchi individlarning fikrini qandau bo‘lishini,keuinshlik esa har qandau uangilik uoki o‘zgarishlardan qay darajada ta’sirlanishi belgilaydi. Asosan fikrlarning subyektiv tomonlama shakllanishini obyektiv qarashlar belgilab beradi. Chunki jamoviy fikrlashdan kelib chiqib ham guruh a’zolarining subyektiv qarashlari tubdanda o‘zgarmasada, lekin qisman bo‘lsada qarashlarga va fikrlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Begonalashish muammosi zamonaviy davrni tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. G‘arb mutafakkirlarining ushbu masala bo‘yicha tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatda industrializm rivojlanishining teskari tomoni sifatida raydo bo‘lgan begonalashuv holati postindustrial jamiyatda dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda, unda u yangi namoyon bo‘ladi.

Yoshlarni begonalashuvi zamonaviy jamiyatda jiddiy tashvish tug‘diradigan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Bu ajralish, yolg‘izlik, davlat institutlari va ijtimoiy meyorlarga ishonchsizlik, shuningdek, kelajakka befarqlik hissi

bilan namoyon bo‘ladi. Bu nafaqat o‘smirlar isyoni, balki butun dunyo bo‘ylab millionlab yoshlarga ta’sir qiladigan chuqur ekzistensial tajribadir.

Asosiy qism.

Begonalashuvning sabablari. Yoshlarni begonalashuviga yordam beradigan ko‘plab omillar mavjud, ularni taxminan bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillari.

Tengsizlik: boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut, ijtimoiy tenglikning yetishmasligi va o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlari, ayniqsa turmush darajasi past bo‘lgan mintaqalardagi omillar.

Beqarorlik: iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik, kelajakka nisbatan noaniqlik, uy-joy va ta’lim narxlarining ko‘tarilishi bilan bog‘liq omillar.

Korrupsiya va adolatsizlik: Davlat institutlariga, huquqni muhofaza qilish organlariga va sud tizimiga ishonchsizlik omillari.

Siyosiy omillar.

Siyosiy jarayonlarda ishtirok etishmasligi: yoshlar ko‘pincha ularning ovozi eshitilmayotganini, siyosatchilar ularning muammolari va manfaatlarini e’tiborsiz qoldirayotganini his etish omillari.

Jamiyatning qutblanishi: siyosiy, diniy va mafkuraviy qarashlarga asoslangan bo‘linishlarning kuchayishi, nizolar va ishonchsizlikka olib keluvchi omillar.

Shaffoflik va hisobdorlikning yo‘qligi: ma’lumotlarga kirishning yetishmasligi, senzura, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish omillari.

Madaniy omillar:

Individualizm va iste’molchilik: shaxsiy muvaffaqiyatga, moddiy farovonlikka va jamoat manfaatlariga e’tibor bermaslikka qaratilgan qadriyatlarning ustunligi bilan bog‘liq omillar.

An’anaviy qadriyatlar inqirozi: axloqiy ko‘rsatmalarning tez o‘zgarishi, oilaviy aloqalarning zaiflashishi, aniq hayotiy ko‘rsatmalarning yetishmasligi bilan bog‘liq omillar.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri: kiberhujum, soxta yangiliklarni tarqatish, ideal hayot illyuziyasini yaratish, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, yolg‘izlik va xavotirga olib keladigan omillar.

Psixologik omillar:

O‘ziga ishonmaslik: ijtimoiy bosimdan kelib chiqqan stress, muvaffaqiyatiisizlik qo‘rquvi, o‘zini past baholash omillari.

Depressiya va tashvish: stress, yolg‘izlik va maktab, ish va munosabatlar bilan bog‘liq bosimlardan kelib chiqqan yoshlar orasida ruhiy kasalliklarning shakllanishi bilan bog‘liq omillar.

Shaxsn identifikatsiyasi: hayotdagi o‘rnini izlash, maqsadiga shubha bilan qarash, adashish hissi omillari.

Begonalashuvning namoyon bo‘lishi. Yoshlarning begonalashuvi turli shakllarda namoyon bo‘ladi, ular individual xususiyatlarga, ijtimoiy-madaniy kontekstga va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin. Bularga:

* Befarqlik: o‘qishga, ishga, ijtimoiy hayotga qiziqishning yo‘qligi, atrofda bo‘layotgan voqealarga befarqlik xissini shakllanishi.

* Ijtimoiy izolyatsiya: Yolg‘izlik, muloqot qilishni istamaslik, odamlar bilan aloqa qilishdan qochish, o‘ziga chekinish xususiyatlariini paydo bo‘lishi.

* Norozilik harakati: ruxsatsiz mitinglarda ishtirok etish, vandalizm, tajovuz, psixtrop moddalardan foydalanish orqali shakllanishi.

* O‘z-o‘zini vayron qiluvchi xatti-harakatlar: o‘z joniga qasd qilish fikrlari va urinishlari, o‘z-o‘ziga jarohat yetkazish, xavfli xatti-harakatlarni ishlab chiqish harakatlari asosida yuz beradi.

* Vertual dunyoga qochish: ijtimoiy tarmoqlarga, onlayn o‘yinlarga va vertual hayotga qaramlik, haqiqatdan qochish usuli sifatida hayot kechirish.

* Kelajakka salbiy munosabat: kelajak uchun rejalarning yo‘qligi, pessimizm, o‘zgarish ehtimoliga ishonmaslik xissini oshib borishi.

Begonalashtirish muammosini hal qilish usullari. Yoshlarni begonalashtirish muammosini hal qilish kompleks yondashuvni talab qiladi, jumladan:

Ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar;

- ish o‘rinlarini yaratish va ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini takomillashtirish;
- ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va ta’lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini ta’minlash;
- yosh tadbirkorlar va startap loyhalarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

Siyosiy choralari;

- yoshlarning siyosiy jarayondagi ishtirokini kengaytirish, yoshlar kengashlari va tashkilotlarini yaratish;
- davlat muassasalarining shaffofligi va hisobdorligini oshirish;
- korrupsiyaga qarshi kurash va inson huquqlarini himoya qilish.

Madaniy tadbirlar;

- o‘zaro yordam, birdamlik, tolerantlik va boshqa madaniyatlarga hurmat kabi ijobiy qadriyatlarni targ‘ib qilish;

- fuqarolik va vatanparvarlik ta’lim dasturlarini rivojlantirish;

- yoshlarning startap va madaniy loyihalarini va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

- tanqidiy fikrlashni shakllantirish va Media savodxonligi bo‘yicha treninglarni olib borish.

Psixologik choralar;

- yoshlarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va yordam xizmatlarini rivojlantirish;

- depressiya, tashvish va o‘z joniga qasd qilish bilan kurashish uchun profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va o‘tkazish;

- ijtimoiylashuv va o‘zini o‘zi anglashga yordam beradigan yoshlar jamoalari va tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash;

- o‘zini namoyon qilish va ijodkorlik uchun sharoitlar yaratish, yoshlarni kelajakka bo‘lgan ishonchini shakllantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Xulosa.

Yoshlarni begonalashuvish jiddiy muammo bo‘lib, Davlat, jamiyat va yoshlarning o‘zlari tomonidan diqqat va birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish faqat begonalashtirish sabablarini bartaraf etish va to‘laqonli hayot, o‘zini o‘zi anglash va yoshlarning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan kompleks yondashuv orqali amalga oshirish mumkin. Shuni esda tutish kerakki, yoshlar jamiyatning kelajagidir va biz ularga hayot-faoliyatidagi istisnolarni yengishga qanchalik yordam berishimizga ularni rivojlanishi bog‘liq bo‘ladi.

Yoshlar begonallashuvi jamiyatdagi asosiy muammo bo‘lib, oldini olish uchun kompleks choralar talab qiladi. Agar biz yoshlarni faolligini o‘rganishda psixolog xizmatlarini joriy qilsak va oilaviy munosabatlarni mustahkamlasakgina biz ularni tushunishimiz osonroq bo‘ladi. Bundan tashqari, jamiyatning barqarorligi va yoshlarning kelajagdagi begonallashuv jarayonini oldini olishda har birimiz mas’ul bo‘lishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маркс, К. Соч. / К. Маркс, Ф. Энгельс. Соч. – Т. 42. – М.: Политиздат, 1974.

2. Хабермас, Ю. Философский дискурс о модерне / Ю. Хабермас / пер. с нем. М.: Весь мир, 2003.

3. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд. -СПб., 1912.

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING ASOSIY VAZIFASI

Sultanov Baxriddin Murodovich

Toshkent shahar IIBB Tashkiliy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik.

Milliy qonunchiligimizda bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha’niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e’tirof etilgan bo‘lib, bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari hamda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 14.11.2024-yildagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-son Qonuniga muvofiq, ichki ishlar organlarining bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqqan holda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etmb kelmoqda.

Xususan, yozgi ta’til davomida bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ayniqsa, o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalarni aniqlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishlarini tashkil qilish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida, mutasaddi idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda 2025 yil 29 may kuni qo‘shma qaror ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Ichki ishlar organlari tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq, yozgi dam olish mavsumida bolalarning xavfsizligi va jamoat tartibini, yong‘in va

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda turli nohush hodisalarga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilab olindi.

IIBBning 2025-yil 17-may kunidagi 79F-son farmoyishiga muvofiq, “G‘amhurlik-2025” ishchi guruh tuzildi

Joriy 2024-2025-o‘quv yil yakunida 326 ta davlat umumtalim maktablarining o‘quvchilari yozgi dam olish ta’tiliga chiqdi.

Shundan, 307 ta maktabning o‘quvchilari dam olishga jalb etiladi, shuningdek, ayrim o‘quvchilar ota-onasiga uy ishlarida yordam berishligi ma’lum bo‘ldi.

Har yili oromgoh yoshidagi bolalarimizni shahar tashqarisidagi 20 ta statsionar oromgohlarda dam oladi.

Toshkent viloyati hududidagi statsionar oromgohlarga huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va rahbarlari to‘liq biriktirildi.

Oromgohlarda jamoat tartibini saqlash uchun xodimlar, shuningdek, oromgohlarda jamoat tartibini saqlash uchun biriktirilgan xodimlar faoliyatini kunlik nazorat qilish uchun mas’ul rahbarlar biriktirildi.

Bolalarni oromgohlargacha olib borish uchun 382 ta avtobuslar, yetarli miqdorda yo‘l-patrul xizmati hamda patrul avtomobillari ajratildi.

Ikkinchidan, Yoz mavsumida Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi tizimidagi 100 ta umumta’lim maktablari qoshida kunduzgi sog‘lomlashtirish oromgohlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Mazkur oromgohlar 5 ta mavsum davomida tashkil etiladi va 50 mingga yaqin bolalarni qamrab olish rejalashtirilgan.

“Yoz-2025” sport musobaqalari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘garaklari, repetitorlik va ijodiy to‘graklar, “Barkamol avlod” va Kitobxonlik festivallari, “Turon” maktab teatri va ‘‘Iqtidor’’ maktab ansambil jamoalarining konsertlari kabi 11 yo‘nalishdan jami 9 539 ta man’naviy-ma’rifiy, tashkiliy va sport tadbirlari tashkil etilib, jami 26 mingdan ziyod o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlari mazmunli tashkil etildi.

Toshkent shahri umumta’lim maktablarida 13 ta “Kasb maktablari” tashkil etildi. O‘quvchilardan so‘rovnomalar o‘tkazilib xozirgi kunda 650 nafar ortiq o‘quvchilar o‘z xohishlariga ko‘ra kasb to‘garaklariga jalb etilgan.

Olmazor tuman 11 va 24-umumta’lim maktablarida “Ustoz – shogird” yo‘nalishida 12 nafar o‘quvchilar kasb o‘rganib, daromat topishni boshlagan. Ushbu tadbirlar bo‘yicha “Telegram” tarmog‘ida 5039 ta, “Instagram”da 67 ta, “Fasebook”da 123 ta post joylandi. Telekanallarda 21 ta ko‘rsatuvda efirga berildi.

Uchinchidan, yozgi ta’til vaqtida bolalarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida 207 ta maktab qoshidagi sog‘lomlashtirish maydonchalarida bolalar dam olishlari rejalashtirilgan.

Sog‘lomlashtirish maydonchalarida jamoat tartibini saqlash uchun hudud profilaktika inspektorlari biriktirildi.

Yozgi ta’til vaqtda bolalar va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, voyaga yetmaganlar bilan har qanday salbiy holatlar hamda ular o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida “Dolzarb 90 kunlik” tadbiri e’lon qilindi.

Mazkur tadbir doirasida bolalar o‘rtasida jinoyatlar va zo‘ravonlik sodir etilishiga imkon beruvchi sabablarni hamda shart-sharoitlarni tizimli ravishda tahlil qilinib, bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini shuningdek, ularni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida, bir qator manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hususan, 24 nafar ta’til vaqtida xorijga chiqib ketgan voyaga yetmaganlar aniqlanib, ularning xavfsizligi o‘rganib chiqildi, 523 marotaba mahallalarda bolalarga noqonuniy diniy ta’lim berish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish borasida targ‘ibotlar o‘tkazildi, 904 nafar kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari va tarbiyasi og‘ir voyaga yetmaganlarni yozgi oromgohlarga jalb etildi, voyaga yetmagan shaxsning ko‘ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo‘lishiga yo‘l qo‘ygan 64 nafar huquqbuzarlarga MJtKning 1882-moddasiga asosan choralar ko‘rildi, bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmagan 342 nafar shaxslarga MJtKning 47-moddasiga asosan choralar ko‘rildi, ota-onasi chet davlatlarda uzoq muddatda yurgan 5 nafar voyaga yetmaganlarga vasiy va homiy tayinlandi, 694 marotaba bolalar o‘rtasida (Giyoxvandlik vabosi, Yot g‘oyalar ta’siri ostiga tushib qolish, Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati) profilaktik targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi, 131 marotaba yoshlar orasida sportning voleybol turi bo‘yicha “Ichki ishlar vaziri kubogi” musobaqalari o‘tkazildi, 32 marotaba “Uch avlod” va “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari o‘tkazildi.

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLAR TUSHUNCHASI, TURLARI HAMDA JINOYATCHILIK TAHLILI

Maxtumova Yulduz Botir qizi

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar tushunchasi, turlari haqida tushunchalar berilgan. Xotin qizlarga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarliklar tahlili qilingan,va keng yoritilgan, respublika bo‘yicha statistika keltirilgan. Shuningdek fuqarolik sulariga murojaat qilishda tazyiq va zo‘ravonliklaga uchragan xotin-qizlarga imtiyozlar belgilash, ta’lim tizimini yangilash va ayollarga nisbatan huquqbuzar tomonidan qo‘yilgan cheklovlarni taqiqlash va ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlarga, tazyiq, zo‘ravonlik, jismoniy , ruxiy iqtisodiy jinsiy zo‘ravonlik taqib etish jinoyatchilik tahlili.

Bugungi kunda jahonning 155 mamlakatida oilaviy zo‘ravonlik to‘g‘risida qonunlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekistonda ham 2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, unda “jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta’minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash” xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan etib belgilangan.

Adabiyotlarda zo‘rlik — biror kishining ikkinchi bir kishini zo‘ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan xo‘rlashi, jabr-zulm qilishi [1; B. 199], zo‘rlik-biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo‘rlik qilishi, zo‘ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan xo‘rlashi, jabr-zulm qilishi [2; B. 410], qonun bilan taqiqlangan ma’naviy, ruhiy va jismoniy zarar yetkazuvchi harakatlarni shaxs xohish irodasiga qarshi ravishda amalga oshirish[3; B. 405], zo‘ravonlarga xos xatti-harakat, zo‘rlik, kuch ishlatish, o‘zgalarga qonunsiz ravishda

kuch ishlatuvchi, zo‘rlik qiluvchi, jismoniy baquvvatlik, kuchlilik, ulkanlik, shiddatlilik [4; B. 167-168] deb turlicha ta’rif berilgan. “Zo‘rlik” so‘zinining etimologik tahlilida bir kishi boshqa bir kishing (xohishi)irodasiga qarshi sodir etgan qandaydir xarakatdan iboratdir. Ammo har doim ham zo‘rlik ijtimoiy xavflik qonunga xilof bo‘lmasligi mumkin. Masalan, zaruriy mudofaa holatida qo‘llangan zo‘rlik qonunuiy hisoblanadi. Zo‘rlik tushunchasiga sinonim tarzda o‘zbek tili izohli lug‘atida “zo‘ravonlik”, “adaolatsizlik” deya tarif berilgan lekin zo‘rlik so‘zi ahloqiy mazmuni neytral hisoblanadi va ham ijobiy ham salbiy maqsadga erishish vositasidir.[5;C-436.]

A.Murodov esa “Zo‘ravonlikning mazmun-mohiyatiga ko‘ra uni quyidagicha sharhlashlaydi:

1) zo‘ravonlik biror-bir kishiga nisbatan jismoniy ta’sir o‘tkazish, qasddan badaniga turli darajada shikast yetkazish;

2) shaxsga majburiy ta’sir ko‘rsatish, ya’ni shaxsning ustidan zo‘ravonlik qilish, uning ixtiyoriga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni qilishga majburlash;

3) shaxsga ruhiy ta’sir etish orqali uni o‘ziga qaram qilish yoki bo‘ysundirish” deya tasvirlaydi.[6; B.13-14]

Zo‘ravonliklar jumlasiga qiynoqqa tortish, yakkalatib qo‘yish, inson irodasiga qarshi harakat qilishga majburlash yoki undash, ushlab turish, zo‘rlash, tahqirlash, xo‘rlash kabilarni kiritish mumkin. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda tahqirlash deganda, jabrlanuvchining sha’ni va g‘ururini bir necha marta tahqirlashni (masalan, tuhmat qilish, haqoratlash, ta’qib etish va hokazolarni) tushunish kerak [7; B.89]. “Zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat (xarakasizlik)dir[8].

Zo‘ravonlik — bu jarohatlash, suiiste’mol qilish, zarar yetkazish yoki yo‘q qilish uchun jismoniy kuch ishlatishdir. Jabrlanuvchining o‘limga, unning psixologiyasiga, noto‘g‘ri rivojlanishiga yoki mahrumlikka sabab bo‘luvchi o‘ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo‘llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazish zo‘ravonlikdir. Zo‘ravonlikning oldini olishda ko‘p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo‘ravonlik darajasi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan omillar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor. Masalan, gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, bolalar va ota-onalar o‘rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo‘qligi. Garchi ruhiy va jismoniy

salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo‘lib kelgan bo‘lsada, zo‘ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo‘lishi mumkin. Zo‘ravonlik o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, o‘zini nozik va vahshiy shakllarda namoyon qiladi. Ayniqsa, bunda shaxsning sha’ni, qadr-qimmati, ozodligi, huquq va erkinligi, hayoti va sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar sodir etiladi [9; S.10]

Jinsiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlashdir.[8] Jinsiy zo‘ravonlik – bu ochiq-oydin yoki yashirin shahvoniy g‘oyalarni o‘zining ichiga olgan zo‘ravonlikning bir turi bo‘lib, jinsiy manfaatlar evaziga shaxsning o‘zi istalmagan va nomaqbul harakatlarni qilishga majburlash holatidir. [10;B.2-5]Jinsiy zo‘ravonlik og‘zaki harakatlardan tortib jinsiy tajovuzgacha bo‘lgan barcha harakatlarni o‘z ichiga oladi. Ta’qib qilish turli xil ijtimoiy muhitda, masalan, ish joyi, uy, maktab va boshqa hududlarda sodir bo‘lishi mumkin. Ta’qib qiluvchilar yoki ta’qib qurbonlari har qanday jins vakillari bo‘lishi mumkin.[11]

Bugungi huquqiy kontekstda jinsiy zo‘ravonlik noqonuniy hisoblanadi. Jinsiy zo‘ravonlikka oid qonunlar, odatda, oddiy gaplar g‘iybat, og‘zaki izohlar yoki alohida kichik hodisalarni ta’qiqlamaydi – buning sababi „umumiy xulq-atvor kodeksi“ mavjud emasligidadir. Ish joyida ta’qib qilish holati agar u tez-tez, davomli va og‘ir holatda yuz bergan bo‘lsa va natija ish bilan bog‘liq salbiy qaror qabul qilishga olib kelsa (masalan, ishdan bo‘shatish yoki iste’foga chiqarish) yoki dushmanlik va haqoratli ish muhitini yaratsa noqonuniy bo‘lishi mumkin. Biroq, jinsiy zo‘ravonlikning huquqiy va ijtimoiy tushunchasi turli madaniyatlarda bir-biridan farq qiladi. Rossiya qonunchiligida „jinsiy zo‘ravonlik“ degan ta’rif mavjud emas. Ushbu konsepsiyaga eng yaqin bo‘lgan qonun “jinsiy xarakterdagi harakatlarni amalga oshirishga majburlash“ haqidagisi bo‘lib, bu Rossiya jinoyat qonunchiligida Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 133-moddasida belgilab qo‘yilgan.[12] O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida esa nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyotida masalalar kelib chiqqanligi munosabati bilan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy

sudi Plenumi qarorida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra har bir insonga uning huquq va erkinliklari, shu jumladan jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka bo‘lgan huquqi himoyasi kafolatlanadi.[13] Jinsiy zo‘ravonlik-muntazam ravishdagi jinsiy zo‘rlashga nisbatan bosim o‘tkazish, kuch ishlatish, qo‘rqitish yoki shantaj qilish orqali jinsiy aloqa qilishga majburlash (zo‘rlab nomusga tegish, ayol uchun maqbul bo‘lmagan ko‘rinishlarda jinsiy aloqa qilishga majburlash, boshqa shaxslar ko‘z o‘ngida jinsiy aloqa qilishga majburlash, bolalar yoki uchinchi shaxslar bilan jinsiy aloqa qilishga majbur qilish, jinsiy aloqa qilishga majburlash yoki jinsiy aloqa qilishga yo‘naltirilgan harakatlar bilan jabrdiydaga og‘riq va sog‘ligiga ziyon yetkazish va hokazo). Intim hamkor tomonidan zo‘ravonlik ko‘rsatish – bu nazorat qilinuvchi hatti-harakatlarni mujassam etuvchi jismoniy tajovuz, jinsiy aloqa qilishga psixologik majburlash va boshqa turli tazyiqlarni o‘zida namoyon qiladigan, ayni paytdagi yoki avvalgi intim hamkor tomonidan amalga oshiriladigan jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yetkazish.[14;B126-127]

Jismoniy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli. [8] Jismoniy zo‘rlik jabrlanuvchiga turli darajada tan jarohatlari yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining qarindoshlarini, yaqinlarini o‘ldirish, nomusiga tegish va hokazolar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin1. Bunda oilaning bir a’zosi tomonidan boshqa a’zosiga nisbatan qasddan uning hayoti, sog‘lig‘iga yoki badanining turli joylariga shikast yetkazish kabi xatti-harakatlar sodir etilib, quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish; kuchli zarb bilan itarib yuborish; turli o‘tkir buyum va narsalarni otish; qurol bilan xavf solish yoki yaralash; uydan chiqishiga jismonan yo‘l qo‘ymaslik kabilar bo‘lishi mumukin.

Jismoniy zo‘rlik jabrlanuvchiga turli darajada tan jarohatlari yetkazish, urish, jismoniy kuch ishlatish, jabrlanuvchining qarindoshlarini,yaqinlarini o‘ldirish, nomusiga tegish va h.k. ko‘rinishlarda sodir etiladi [15; –B. 42].

Ta’kidlash kerakki, jinsiy zo‘ravonlik deyarli barcha holatlarda jabrlanuvchining roziligisiz amalga oshiriladi [15; B.7] T.Norboeva Jismoniy zo‘ravonlik-itarish, changallash, uloqtirish, tupurish, shapatilash

(mushtlash) yoki boshqa predmetlar bilan zarba berish, tutqunlikda tutish, bo‘g‘ish, do‘pposlash, kaltaklash, tepkilash, qurol ishlatish, kuydirish orqali zarar yetkazish, jabrlanuvchini ijtimoiy yoki tibbiy yordam olishi ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish va shu kabilardir [14; B.125]deydi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakasizlik)dir bu shaxsga ziyon yetkazadigan har qanday holat yoki xatti-harakatlardir.[8] Iqtisodiy zo‘ravonlik, masalan, mulkiy zarar, moliyaviy resurslarga, ta’limga yoki mehnat bozoriga kirishni cheklash yoinki aliment kabi iqtisodiy majburiyatlarga rioya qilmaslik shaklida bo‘lishi mumkin. Moddiy qaramlik deganda, jabrlanuvchining aybdordan qonun bilan belgilangan moddiyyordam (pul, oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar va hokazolar) olib kelganligini yoki uning bevosita qaramog‘ida bo‘lgan holatlar tushuniladi [7;B.90].

Yani boshqa farzandlardan ayri tarzda qiz farzandni ta’lim olishiga to‘sqinlik qilish, raxbarlik lavozimidan foydalanib xodima ayolga ish joyida shilqimlik qilish, ayol kishi ekanligini rukach qilib ishga olishdan bo‘yin tovlash, aliment to‘lashdan bo‘yin tovlash kabilardir. Iqtisodiy zo‘ravonlik – hamkor ustidan nazoratni o‘rnatish uchun pulidan foydalanish. Bu bolalarni boqishdan bosh tortish, moliyaviy qarorlarni faqat o‘zi qabul qilishi, hamkorning pulni so‘rab olishi va har qanday xarajatlar bo‘yicha to‘liq axborot berishi bilan bog‘liq vaziyatni yuzaga keltirish, daromadni yashirish, oilaga tegishli bo‘lgan pullarni sarflash, ishlashga ruxsat bermaslik yoki aksincha ishlashga majbur etish, ishlab topilgan pulni tortib olib qo‘yish va hokazolardir.[17;B.127]

Ruhiy zo‘ravonlik — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakasizlik). [7] Ruhiy zo‘rlik ishlatish deganda jabrlanuvchiga jismoniy zo‘rlik ishlatish, uning mol-mulkini nobud qilish, jabrlanuvchi sir saqlamoqchi bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor etish bilan unga tahdid qilish kabi holatlar tushuniladi [18; B. 167].Ruhiy zo‘rlik –

jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma’lumotlarni oshkor etish va hokazolar bilan qo‘rqitish. Ruhiy zo‘rlik va jismoniy zo‘rlik bir-birini taqozo etuvchi va biri ikkinchisini to‘ldirgandagina oqibat kelib chiqishi mumkin. Bunda qasddan oilaning bir a’zosi tomonidan boshqa a’zosining sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish orqali uning ruxiyatiga ta’sir ko‘rsatish, his tuyg‘ularini so‘ndiruvchi harakatlar qilish, qo‘rqitish va haqoratlash bilan uning ruhiyatiga shikast yetkazuvchi so‘zlar va harakatlarni sodir etishda namoyon bo‘ladi: hissiyot va his-tuyg‘ularni tan olmaslik; ustidan kulish; jazo chorasi sifatida uning hissiyotlariga e’tibor bermaslik; yolg‘on so‘zlar aytib, undan o‘zining manfaati yo‘lida foydalanish; do‘stlari va qarindoshlariga xavf yetkazish bilan qo‘rqiqish va ular bilan aloqa qilishga yo‘l qo‘ymaslik; u bilan ommaviy joylarga chiqishdan bosh tortish; oila byudjetini o‘zi nazorat ostiga olish; qarindosh urug‘lar orasida sharmanda qilish; uydan ketishini aytib qo‘rqitish; kasal yoki homilador bo‘lganida unga yordam berishdan bosh tortish, tibbiy yordam olishiga qarshilik ko‘rsatish.

Tahlillarga qaraganda, ruhiy va jismoniy zo‘ravonlik bir-birini taqozo etuvchi hamda sodir etilganda hamisha biri ikkinchisini to‘ldiruvchi xususiyatga egadir [19; B. 39-40]. Ruhiy zo‘rlik jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy zo‘rlik ishlatish, mol-mulkini nobud qilish yoki zarar yetkazish va jabrlanuvchi sir saqlanishini istagan ma’lumotlarni oshkor etish yoki qo‘rqitish shaklida sodir etiladi [7; B.95-96].

Tahdid etish deganda jabrlanuvchining qarshiligini yengish maqsadida unga jismoniy zo‘rlik ishlatish niyati aniqligini ifodalovchi harakatlar yoki so‘zlar bilan qo‘rqitishni tushunish lozim [20; B.161]. Ruhiy zo‘ravonlik tahqirlash, qo‘rqitish, majburlash va tutqunlikda tutishda namoyon bo‘ladi. U o‘zida haqoratli so‘zlar, fikrlarni, hislarni, o‘ylarni, e’tiqodni, harakatlarni doimiy ravishdagi tanqid qilish. Doimiy so‘roqlar, shantajlar, uydan chiqib ketish va ketganda ham bolalarni o‘zi bilan olib ketish bilan, o‘z joniga, jabrdiydaga yoki bolalarga qasd qilish qo‘rqitish, bolalarga, ota-onaga, uy hayvonlariga nisbatan zo‘ravonlik sodir etish, jihozlarga ziyon yetkazish, jabrdiydani doimiy nazorat ostida tutish yoki uning atrofidagilari bilan muloqot o‘rnatishini, telefon orqali so‘zlashuvini cheklab qo‘yish, rashkning eng yuqori darajadagi ko‘rinishini namoyon etish, ta’qib qilish, yuzaga keladigan har qanday muammolarda hamkorni ayblash, uyqu, ovqat yeyish jarayonlarini buzish va hokazolardir[14;B.127]

Ruhiy zo‘ravonlik asosan quyidagi ko‘rinishlarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

a) shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish;
b) shaxsning ruxiyatga ta’sir etish;
v) haqorat yoki tuhmat qilish;
g) doimiy tanqid qilish, qo‘rqitish;
d) qarindosh urug‘lar orasida sharmanda qilish va h.k.

Tazyiq — sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakasizlik), shilqimlik, ta’qib etish.[8] O‘ziga nisbatan kuchsizligi huquqbuzarga ayon bo‘lgan holda jabirlanuvchi xotin-qizga qastdan Kuch bilan, zo‘rlab o‘tkaziladigan ta’sir, yokida siquv. Haqorat qilish, tuxmat qilish, jabirlanuvchi xotin qizning sirini oshkor qilish yo‘li bilan qo‘rqitish ya’ni tovlamachilik qilish,

Ta’qib etish — jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi, uning ikki yoki undan ortiq marta qarshilik ko‘rsatganligiga yoxud ogohlantirganligiga qaramay sodir etiladigan, jabrlanuvchini qidirishda, u bilan og‘zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘i orqali yoki boshqa usullarni qo‘llash yo‘li bilan muloqotga kirishishda, uning ish, o‘qish va (yoki) yashash joyiga borishda ifodalangan hamda jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotirlik qo‘zg‘atadigan harakatlar.[8]

Tadqiqotning usullari: Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar tushunchasi, turlari hamda jinoyatchilik tahlili mavzusini o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining huquqiy asoslari haqida huquqiy, iqtisodiy adabiyotlarni hamda statistik ma’lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi. Shuningdek, olimlarning ilgari surgan fikrlari, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar tushunchasi, turlari hamda jinoyatchilik tahlili bo‘yicha bugungi kundagi muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarni o‘rganish uchun aralash usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida umumlashtirish, taqqoslash ilmiy tadqiqot usullaridan hamda tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Muhokama: Madomiki zamon rivojlanayotgan ekan huquqbuzarliklar ham o‘zarib zamonaviylashib boradi. Yuqorida ko‘rsatilgan tazyiq va zo‘ravonlik turlariga bugungi kunda keng rivojlamgan kibir zo‘ravonlikni ham kiritish lozim.

Kiberzo‘ravonlik, yoki kiberbulling — qasddan haqorat qilish, haqorat qilish, tahdid qilish, tuhmat qilish va zamonaviy aloqa vositalaridan

foydalangan holda, qoida tariqasida, boshqalarga zarar yetkazuvchi ma’lumotlarni yetkazish. [22;23;24;25]

Ushbu tazyiq turi axborot makonida axborot-kommunikatsiya kanallari va vositalari orqali amalga oshiriladi. Shu jumladan Internetda elektron pochta orqali, lahzali xabar almashish dasturlari, ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda, shuningdek, video portallarda (YouTube, Vimeo va boshqalar) buzg‘unchi video materiallar va xabarlarni joylashtirish orqali (odatda odobsiz so‘zlar bilan) yoki mobil telefon orqali (masalan, SMS xabarlar yoki bezovta qiluvchi qo‘ng‘iroqlar orqali). Kibir zo‘rovonlikning odatdagi zo‘ravonlik turlaridan bir necha farqlari bor.

Kibermaydonningchegaralanmaganligi-shaxsiyhayotgadoimiytajovuz. Bezorilik vaqt yoki geografik cheklovlarga ega emas. Hujumlar maktabdan yoki ish kunidan keyin tugamaydi. Kiberjinoyatchi jabrlanuvchiga texnik vositalar: mobil telefon yoki ijtimoiy tarmoq profili va elektron pochta orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish huquqiga ega. Doimiy raqamlar va hisoblar tufayli qurbon uydagi hujumlardan himoyalanmagan.Bunda vaqt va maxsus joy talab qilinmaydi.

Jabrlanuvchining zo‘ravonlikni cheklay olish imkoniyatlari avjudligi. Jabrlanuvchi oz ixtiyori bilan himoyalanish maqsadida, zo‘ravonlik ko‘rsatuvchini qora ro‘yxatga kiritilishi va spam sifatida belgilanishi mumkin.

Zo‘ravonlikni nazorat qilish qiyinligi. Cheksiz auditoriya, axborotni tarqatish tezligi. Elektron vositalar orqali yuborilgan xabarlar yoki rasmlarni onlayn bo‘lgandan keyin nazorat qilish juda qiyin. Ko‘p vaqtdan beri unutilgan kontent yana ommaga ko‘rsatilishi mumkin, bu esa jabrlanuvchiga uni zararsizlantirishni qiyinlashtiradi. Misol uchun, videolar bir Internet portalidan boshqasiga osongina ko‘chiriladi.

Zo‘ravonlikning kim tomonidan sodir tilishi noma’lumligi. Huquqbuzar o‘z qurboniga o‘zini ko‘rsatmaydi, u anonim tarzda harakat qilishi mumkin, bu esa unga ko‘rinishda bo‘lsa ham xavfsizlikni ta’minlaydi va ko‘pincha uning salbiy „kiber faoliyati“ davomiyligini oshiradi. Jabrlanuvchining uni tahqirlayotgan „boshqa“ kimligini bilmasligi uni qo‘rqitishi va tinchlikdan mahrum qilishi mumkin. Hozirda ushbu huquqbuzarlik zo‘ravonlik sifatida keng rivojlangan va alohida tazyiq turi sifatida keltirilmagan.

Kiberzo‘ravonlikning eng yomon tomoni uning oqibatlarining ma’lum darajasi yo‘q. Uundan jabrlangan shaxs o‘z-o‘zini o‘ldirishgacha borishi mumkin.

Xotin-qizlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi miqyosida sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonliklar 2024-2025 yillar davomidagi statistikasiga

nazar soladigan bo‘lsak, xotin-qizlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonliklar 2023 yilda 7744 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 10019 tani tashkil etgan ya’ni 29% ga o‘sgan, jinsiy zo‘ravonliklar 2023 yilda 29 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 47 tani tashkil etgan ya’ni 62 % ga o‘sgan, iqtisodiy zo‘ravonliklar 2023 yilda 304 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 236 tani tashkil etgan ya’ni 21.5 % ga kamaygan, ruhiy zo‘ravonliklar 2023 yilda 23289 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 30920 tani tashkil etgan ya’ni 33 % ga o‘sgan, tazyiq o‘tkazish 2023 yilda 8671 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 13460 tani tashkil etgan ya’ni 55 % ga o‘sgan, ta’qib etish 2023 yilda 18 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatgich 75 tani tashkil etgan ya’ni 100% dan ko‘proq o‘sgan. [21]

Ushbu statistika bizga yildan yilga xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo‘ravonliklar ko‘proq sodir etilayotganligini va aniqlanayotganligini ko‘rsatadi. Buning asosiy sabablari:

• Bugungi kunda ayollarning ishsizligi va moliyaviy qaramligi ularni “qo‘l sinsa yeng ichida” qabilida ish tutishga majbur qilmoqda ya’ni ko‘pchilik ayollar o‘zlariga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlikni huquqbuzarga nisbatan moddiy qaramliklari tufayli oshkor etmaydilar.

• Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar ularga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zarar haqida tegishli idoralarga murojaat qilganlaridan so‘ng va yoki bu borada mas’uliyatli tashkilot va muassasalar tomonidan bu kabi holatlar aniqlangandan so‘ng huquqbuzarga nisbatan jazo chorasi ko‘riladi. Agar bu kabi holatlar oila a’zolari (er, qaynona, va boshqalar) tomonidan sodir etilgan bo‘lsa oilaviy nizolar kelib chiqish holatlari ham kuzatilmoqda bu borada tegishliligi bo‘yicha Fuqarolik sudlari tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan muammolar kelib chiqmoqda. Masalan ajrim, farzandlarini qaramog‘iga olish, moddiy yordam olish kabi masalalar Bu kabi masalalar bilan Fuqarolik sudlariga murojaat qilingan taqdirga arizachi, jabrlangan xotin-qizdan ishni ko‘rib chiqish uchun ma’lum miqdorda davlat boji talab qilinadi Lekin moddiy ta’minotga ega bo‘lmagan va bu borada ko‘p holatlarda huquqbuzarga qaram bo‘lgan tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar imkonsiz va chorasiz qolmoqda Garchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha

maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash, shuningdek, ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;”[22] belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, yetkazilgan moddiy-ma’naviy ziyoni qoplash va bu borada olib borilishi kerak bo‘lgan chora tadbirlar masalasi amaliyotda ochiqligicha qolmoqda.

•Ta’lim tizimidagi muammolar, zamon talabiga javob beradigan ta’lim tizimining to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi xotin-qizlarni to‘liq ta’limga jalb qilish va o‘z mintalitetimizga hos bo‘lgan o‘zgacha yondashuvning yo‘qligi.

•Huquqbuzar tomonidan jabrlanuvchiga jismoniy, moddiy, jinsiy zo‘ravonlik ko‘rsatilmasada undan nisbatan shaxsiy mulk kabi qarashning saqlab qolinganligi, unga nisbatan o‘z manfaatlaridan kelib chiqib taqiqlar qo‘yilishi;

•Ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali qilinayotgan zo‘ravonliklar tobora avj olmoqda va bu yanigi zo‘ravonlikning bir turidir. Ushbu zo‘ravonlik turining oldini olish imkoniyatlari chegaralangan va jabrlanuvchining viktimlik darajasi yuqori shunday bo‘lsada unga mos alohida chora tadbirlar tizimi ishlab chiqilmagan.

Bugungi kunda ayollarga nisbatan sodir etilayotgan ko‘plab tazyiq va zo‘ravonliklarning ostida shu kabi muammolar bor. Bu esa o‘z navbatida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar latentlashuviga olib keladi va bu kelajakda jiddiy oqibatlarga olib kelishi va og‘irroq turdagi jinoyatchilikka yo‘l ochadi.

Amaliy natijalar: Yuqoridagilarda keltirilgan ko‘rsatgichlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonliklarning statistikasiga asosan xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishning quyidagi yo‘larini ishlab chiqish lozim:

☑ Ayollarni moliyaviy mustaqil qilish, ularga o‘z-o‘zini ta’minlay oluvchi kasbga tayyorlash va yoki shu kabi bilan shug‘ullanishi uchun imkon yaratish va buni moliyaviy ta’minlash

☑ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish va tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizda agar u moddiy va ma’naviy ziyoni undirish va yoki boshqa masalalarda Fuqarolik sudlariga murojaat qilganda taqdirda to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat boji huquqbuzardan undirilishi va buning imkoni bo‘lmagan istisno vaziyatlarda jabrlanuvchi bu kabi to‘lovlardan ozod etilishi lozim.

☑ Xotin-qizlarni imkon qadar ta’limga jalb qilish va to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish bilangina ularga nisbatan qilingan qilingan va qilinayotgan tazyiq va zo‘ravonlikning jabrlanuvchisi bo‘lib qolishining oldini olish

☑ Cheklov qo‘yish-voyaga yetgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy tarmoq vositalaridan foydalanish, zamonaviy axborot hamda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish, aqlan va ruhan sog‘lom xotin-qizning xohish irodasiga qarshi xohlagan joyiga (dam olish, oila a’zolaridan xbar olish, tijorat maqsadida v.h.) bora olish imkoniyatlarini ayol kishi bo‘lganligi uchun qilib cheklov qo‘yishni butunlay taqiqlash.

☑ Kiber zo‘ravonlikni taqiqlovchi yoki uni cheklovchi normativ qonun qabul qilinishi lozim. Unga beriladigan jazo chorasi ham uning keltirib chiqaradigan oqibatiga qarab hisobga olinishi lozim.

Xulosa: Ayollarga nisbatan sodir etilgan, ularning sha’ni, qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish, kuch bilan, zo‘rlab o‘tkaziladigan ta’sir, yoki siquv, haqorat qilish, tuhmat qilish, jabrlanuvchi xotin qizning sirini oshkor qilish yo‘li bilan qo‘rqitish ya’ni tovlamachilik qilish va boshqalar xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo‘ravonliklar deb yuritiladi. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo‘ravonliklar sodir etilishi motiv-maqsadi, subyektiv tomonlari ya’ni harakat shakliga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Tazyiq va zo‘ravonliklar turlariga ko‘ra ularni bartaraf etish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T., 2009. – B. 199.

2. Yuridik atamalarning izohli lug‘ati: 1-jild. –T., 2007. –B. 410

3. Arifxodjaeva I.X. Ichki ishlar idoralari psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. –T., IIV Akademiyasi, 2008. –B. 405.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T:. 2009. –B. 167–168.

5.Y.M.Antanyan Prestuplenhe I nakazanie. Kriminologo-psixologichiskiyanaliz: monografiya/ Y.M.Antanyan, B.E.Eminov –M.,Norma INFRA, 2014, 436-c

6. Murodov Alisher Sharofxonovich O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi doktori “Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish” T-2019 yil 13-14 bet

7. 2019 yil 2 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo‘yicha sud

amaliyoti to‘g‘risida»gi 1998 yil 11 sentyabr’ 20-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami. –T., 2018. –B. 89-90

8. O‘zbekiston respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni https://lex.uz/acts/-4494709

9.Al-kavasmi a.x. protivodeystvie kriminal’nomu nasiliyu v sfere semeyno-bitovix otnosheniy: aftoref. Dis. Kan. Yurid. Nauk. –bishkek. 2011. – s.10

10. Paludi, Michele A. „Definitions and incidence of academic and workplace sexual harassment“, . Academic and workplace sexual harassment: a resource manual. Albany, NY: SUNY Press, 1991 — 2–5-bet. 9780791408308.

11. Dziech, Billie Wright; Weiner, Linda. The Lecherous Professor: Sexual Harassment on Campus. Chicago Illinois: University of Illinois Press, 1990. ISBN 978-0-8070-3100-1; Boland, 2002

12. Z. A. Xotkina. „Chto takoe seksual’nie domogatel’stva?“ (ru). trudprava.ru. 2018-yil 16-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2020-yil 7-sentyabr.

13. 2000 yil 14 dekabr O‘zbekiston Respeblikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun HTTPS://LEX.UZ/ACTS/-68532.

14.T.Narbaeva “O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli” dis. kan. yurid.-T.,2020 B.125-127

15. Rustambaev M.X. Jinoyat huquqi: Maxsus qism. –T., 2006. –B. 42.

16. Musaev A.M. Hayotga qarshi jinoyatlar: nazariya va amaliyot muammolari. –T., 2011. –B.167.

17.O‘razaliev M.K. Oilada voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘rlik ishlatib sodir sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarni oldini olish: aftoref. diss. kan. yurid. nauk. –T., 2011. –B. 7-8.

18.Murodov A. Oiladagi zo‘ravonlik tushunchasi, turlari va jinoiy huquqiy tavsifi // Advakat jurnali. –T., 2018. № 1. –B. 39-40.

19. Taxirov F. Ayrim xorijiy mamlakatlarda jinsiy jinoyatlar uchun javob-garlik / Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. –T., 2009. –B. 95–96.

20. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 2010 yil 29 oktyabr’ 13-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami. –T., 2018. –B. 161.

21.Ichkiishlarvazirligi Jamoatxavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati hisoboti shakl -6.

YOSHLAR VA ZAMONAVIY DUNYO: IMKONIYAT VA XAVFLAR

Aliyeva Zuxra Mamatqulovna

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

Sh.M. Mirziyoyev

Dunyo aholisining 2 milliarddan ziyodi, ya’ni 25 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 37 million 543,2 ming kishiga yetdi. Jami aholining 18,9 millioni (50,4 foizi) erkaklar, 18,6 millioni (49,6 foizi) ayollar tashkil etmoqda. Mamlakatimizda esa yoshlar qatlami jami aholining qariyb 60 foiziga yaqinlashgan. Shuning uchun O‘zbekiston yoshlar mamlakati sifatida e’tirof etiladi.

Inson aynan yoshlik chog‘ida jamiyatda o‘ziga munosib o‘rinni topishga intiladi. Mehnat faoliyatini boshlash bilan birga, oila quradi, ilm-fan, san’at yoki sport sohalari bilan jiddiy shug‘ullana boshlaydi. Ayni shu pallada unga davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi har qachongidan ham ko‘proq zarur bo‘ladi. Chunki insonning yoshlik davrida amalga oshirgan tanlovlari albatta uning taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Biz yashayotgan globallashuv davrida jahon taraqqiyotida ham, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida yoshlar eng muhim va asosiy kuchga aylanib bormoqda.

1999-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi o‘zining 54/120-sonli rezolyutsiyasi bilan Xalqaro yoshlar kuni ta’sis etildi. Ushbu kunda jahon hamjamiyatining diqqat-e’tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish “Insoniyat kelajagi butun dunyo yoshlarining bemisl shiddat-shijoati, orzu va g‘oyalari hamda shu ezgu maqsadga munosib hissa qo‘shishga qaratilgan astoydil sa’y-harakatlariga bog‘liq” deb ta’kidladi.

Ushbu fikrga qo‘shimcha qilib, insoniyat kelajagi yoshlarga bog‘liq bo‘lsa, har bir inson kelajagi yoshlik davrida amalga oshirgan sa’y-harakatlariga bog‘liq deya ayta olamiz. BMT yoshlar huquqlarini ta’minlash, yoshlarga oid maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirishga bugungi kunda har qachongidan ham katta e’tibor qaratmoqda. Jumladan, jahon yoshlarining talab-ehtiyojlarini qondirish, salohiyatini mustahkamlash va huquqlarini to‘laqonli ta’minlash uchun BMTning “Yoshlar 2030” strategiyasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Ushbu xalqaro strategiyada 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilangan:

birinchi yo‘nalish yoshlarni zamonaviy muammolarni hal etishga jalb qilish, butun jahonda tinchlik, adolat va ekologik xavfsizlikka erishishda yoshlarning rolini oshirish;

ikkinchi yo‘nalish barcha yoshlarning sifatli ta’lim olishi va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi imkoniyatini kengaytirish;

uchinchi yo‘nalish yoshlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga erishish, yoshlarga loyiq ish o‘rinlarini yaratish, malaka oshirish tizimini yaxshilash, ishga joylashmagan va ta’lim olmagan yoshlar sonini qisqartirish;

to‘rtinchi yo‘nalish fuqarolik va siyosiy huquqlarini amalga oshirish uchun yoshlarga sharoit yaratish, yoshlar huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish;

beshinchi yo‘nalish islohotlar jarayonining barcha bosqichlarida yoshlar ishtirokini ta’minlash, yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini rivojlantirish kabi masalalardan iborat.

Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qonuniga ko‘ra O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan kun – 30 iyun O‘zbekiston Respublikasida Yoshlar kuni etib belgilandi. Shuningdek, 2020 yil 30 iyunda Prezident Farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilishi ham fikrimizning bir isbotidir.

Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida 2020-yil 25-dekabr kuni O‘zbekiston yoshlari forumi o‘tkazildi. O‘ttiz mingdan ortiq yoshlar ishtirok etgan forumda Davlat rahbari tomonidan yoshlar bilan muloqot qilinib, ularning g‘oyalari, taklif va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

Binobarin, mamlakat rahbari va hukumat aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va

barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini yaxshi anglaydi.

Mamlakatimizda yosh avlodga huquqiy kafolatlarni yaratishdan tortib, sifatli bilim olishi, kasb-hunar egallashi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, shaxs sifatida kamol topishi, mehnat qilib, farovon kelajagini bunyod etishi uchun barcha imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta’minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishda muammolar saqlanib qolmoqda.

Keling siz bilan so‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlili va bu borada quyidagi erishilgan salmoqli natijalarga ahamiyat qaratsak.

Birinchidan, yoshlar huquqlarini kafolatlovchi meyoriy hujjat, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlatimiz rahbari sifatida imzolagan dastlabki qonun “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonundir. So‘nggi o‘n yilda mamlakatimizda yoshlarga taalluqli 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga yoshlar huquqlariga oid qator normalar kiritildi.

Ikkinchidan, yoshlar bilan ishlovchi yangi tashkiliy tuzilma Yoshlar ishlari agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bosh vazir raisligida yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash va Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tuzildi, Oliy Majlis palatalari qoshida Yoshlar parlamenti tashkil etildi.

Uchinchidan, chora-tadbirlarning tizimli va izchil bo‘lishini ta’minlash maqsadida milliy strategiya va dasturlar qabul qilindi. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining besh muhim tashabbusi shular jumlasidandir.

To‘rtinchidan, har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qiynalayotgan, ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor

bo‘lgan ishsiz yoshlar bilan ishlashda “Yoshlar daftari” yangi tizimi joriy etildi. Unga kiritilgan hamyurtlarimizga ko‘rsatilayotgan yordam ko‘lami yil sayin oshib bormoqda. So‘nggi ikki yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb 1 trillion so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatilgani, shu jumladan 53 ming nafar ehtiyojmand oilaga mansub talabaga o‘qish uchun shartnoma pullari to‘lab berilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Shuningdek, respublikamizdagi har bir mahallada yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida yoshlar yetakchisi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Beshinchidan, yoshlarning ilm olishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Oliy ta’lim tizimi isloh etilib, qabul imtihonlari shaffoflashdi. Dorilfununlar soni va shunga mos tarzda qamrov darajasi oshishiga erishildi. Shartnoma asosida o‘qiydigan talaba yoshlar uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratilib, magistraturada o‘qiyotgan ayollar esa to‘liq grant asosida ta’lim olmoqdalar. Shu bilan birga, “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etilib, iqtidorli yigit-qizlarning xorijdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishlariga imkoniyat yaratildi.

Oltinchidan, ijodkor yoshlarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlar kuchaydi. Jumladan, oliy ta’lim muassasalaridagi tahsil olayotgan yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ilhom” mukofoti uchun respublika tanlovi ta’sis etildi. “Yosh kitobxon” ko‘rik tanlovi respublikamizning millionlab yoshlarini mutolaaga undamoqda. Adiblar xiyobonida yosh ijodkor qalamkashlar uchun turli adabiy anjumanlar tashkillashtirilgan. “Birinchi kitobim” loyihasi doirasida har yili o‘nlab yosh ijodkorlarning ilk kitobi bepul nashr etilmoqda.

Yettinchidan, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzi va sportni targ‘ib etish, sportchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash davlatimizning doimiy e’tibor markazida bo‘lib turibdi. Joriy yilning dastlabki yarim yilligida o‘zbekistonlik sportchi yoshlar 247 ta oltin, 119 ta kumush va 110 ta bronza medali sohibiga aylangani zamirida ham davlatimiz tomonidan sportni rivojlantirish va yoshlar orasida ommalashtirish, zamonaviy sport inshootlarini bunyod etish bo‘yicha olib borilgan tizimli ishlar mujassam.

Sakkizinchidan, yoshlarni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlarida ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda 210 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari” tashkil etilib, ularda 2,5 mingdan ortiq loyiha amalga oshirildi. Yosh tadbirkorlarga esa qulay shartlar asosida imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda.

To‘qqizinchidan, yosh oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ularni uy-joy bilan ta’minlashga ko‘maklashish

maqsadida subsidiyalar ajratilib, har bir yosh oila mahallalar kesimida doimiy rag‘batlantirib borilmoqda.

O‘ninchidan, «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti va «Kelajak bunyodkori» medali ta’sis etilib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan, shuningdek, o‘qishda va mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishgan 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan yoshlar mukofotlanmoqda.

Shu bilan birga siyosiy jarayonlarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga 2024 yilda o‘tkazilgan saylovlarda deputatlarning 11 nafari 35 yoshgacha, ilk bor yoshlar parlamentining 2 nafar vakili Qonunchilik palatasi deputati etib saylandi, bu kabi ijobiy o‘sishlar yoshlar siyosatiga oid davlat rahbarining qat’iy irodasi asosida olib borilayotganidan dalolatdir.

Bugungi kunda yoshlar bilan ishlash, jamiyatdan ajrab qolgan, hayotda o‘z o‘rnini topolmayotgan, buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushgan yoki hayotning noto‘g‘ri ko‘chalariga kirib qolganlarni faol hayotga qaytarish o‘zini shu yurt farzandi sanagan har birimizning muhim vazifamiz hisoblanadi.

Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi qator organlar va muassasalar qatorida Ichki ishlar organlarining ham quyidagi vakolatlari ko‘rsatib o‘tildi:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir faoliyatdagi ishtiroki;

yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishi;

yosh fuqarolarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirishda tegishli chora-tadbirlarini ko‘rishi;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qilishi.

Prezidentning «O‘zbekiston – 2030 strategiyasini Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmoniga ko‘ra, 2024 yil 1 martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste’dodli va iqtidorli yoshlar «Yoshlar balansi» asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirildi.

Rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o‘zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashishi, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini

yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko‘maklashadi. E’tiborli jihati shundaki, amalga oshirilayotgan bu kabi xayrli tashabbuslar ijrosi yoshlarning faol bo‘lmagan qatlamini jamiyatga qaytarishga katta turtki bo‘ladi.

Respublikamizda 2023-2024-yillarda sodir etilgan jinoyatlarning hisobatidan kelib chiqib yoshlar tomonidan qasdan odam o‘ldirish (103/91), qasdan badanga og‘ir tan jarohati yetkazish (431/356), nomusga tegish (189/146), o‘g‘rilik (3515/3651), talonchilik (288/286), bosqinchilik (97/94), bezorilik (1332/1185), firibgarlik (2666/2652), transport vositasini olib qochish (98/91), oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik (190/256), jinoyatlari qayd qilingan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, nosog‘lom muhit, o‘z vaqtini besamar o‘tkazishi, ota-onalar nazoratsizligi oqibatida hamda yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi pastligi ham bu kabi salbiy holatlarni sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Yoshlar jinoyatchiligining asl omillari, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar, ularni bartaraf etish yo‘llari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini, bu borada xorij mamlakatlarining tajribasini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish uchun nafaqat ota-ona, mahalla, balki bir qator tashkilot va idoralar ham mas’ul etib belgilangan.

Yoshlar ertamiz ko‘zgusi. Lekin ular orasida adashgan yoshlarimiz ham yo‘q emas, ularni yuqoridagi jinoyatlarga qo‘l urishi, bebaho umrning oltinga teng davrini temir panjara ortida o‘tkazayotganliklari albatta achinarlidir.

Ma’lumki, yoshlar asosan bekorchiligi, e’tiborga muhtojligi, huquqiy savodxonligining pastligi tufayli jinoyat sodir etadi. Muammoga yechim topish maqsadida Yoshlar ittifoqi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlarning siyosiy faolligi, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlar tobora kuchaytirilmoqda.

Jumladan, Prezident tashabbusi bilan joriy yilning 1 iyundan 30 avgustgacha o‘quvchi-yoshlarning yozgi ta’til davrini mazmunli tashkil etish har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog‘lomlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy va jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashish maqsadida “Dolzarb 90 kun” loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Loyiha

doirasida maktab o‘quvchilari va uyushmagan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni sog‘lomlashtirish va har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib boriladi.

Yozgi ta’tilni samarali tashkil etish bo‘yicha berilgan topshiriqlarning asosiy maqsadi — ota-onalar ishda bo‘lgan paytda bolalarning vaqtini uyda bekor o‘tkazishining oldini olishdir. Shu sababli har bir maktabda kunduzgi oromgohlar tashkil etilib, ularda sport, rassomchilik, shaxmat, shashka kabi sakkizga yaqin yo‘nalishda to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Mazkur tashabbus kelajak avlodning sog‘lom, bilimli va faol bo‘lib ulg‘ayishi uchun muhim zamin yaratadi degan umidamiz.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistoning faol qatlami yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta’minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoq kerak. Yangi O‘zbekiston – yoshlar mamlakati, yoshlarga yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar mamlakati.

So‘zimni davlatimiz rahbariga tegishli “Ishonchim komil, jonajon Vatanimizga mehr va sadoqat bilan yashayotgan, ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallab, hozirgi murakkab zamondagi keskin raqobatga tayyor bo‘lib voyaga yetayotgan yoshlarimiz har qanday baland marrani egallashga qodir” so‘zlari bilan tamomlasam.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-2023 y;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi;

3. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi;

4. Birlashgan millatlar tashkilotining “Yoshlar 2030” strategiyasi;

5. 2016 yil 24 avgustdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni;

6. Prezidentning «O‘zbekiston – 2030 strategiyasini Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmoni;

7. O‘zbekiston Respublikasi IIV Raqamli texnlolgiyalar va huquqiy statistika departamenti Huquqiy statistika bosh markazi hisoboti.

AYOL MAHKUMALARNING JAZONI O‘TASH TARTIBI: O‘ZBEKISTON, QOZOG‘ISTON VA QIRG‘IZISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Rixsimov Komron Abrorovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim tadqiqotchisi.

Ayollar va xotin-qizlarning jinoiy ijroiya tizimidagi mavqei inson huquqlari va jinsiy tenglikning muhim jihatidir. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda ayollar va qizlar uchun jazo o‘tash tartibidagi qonunchilik va amaliyotlarda muayyan o‘ziga xosliklar mavjud.

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi, Qirg‘iz Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi va Qozog‘iston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi normalari o‘rganiladi.

Tahlildan ko‘zlangan maqsad – ushbu uchta Markaziy Osiyo yurisdiksiyasida ayol mahkumalarga nisbatan qo‘llanilayotgan yondashuvlardagi o‘xshashliklar, farqlar, ilg‘or tajribalar va takomillashtirishga muhtoj jihatlarni aniqlashdir.

I. Jinoyat-ijroiya qonunchiligining umumiy tamoyillari.

O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istondagi jinoyat-ijroiya qonunchiligidagi asosiy tamoyillarni tahlil qilish, har uch davlatda ham huquqiy qadriyatlarga sodiqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq, bu tamoyillarga berilgan e’tibor va ularning ayrim jihatlarida ma’lum farqlar kuzatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya qonunchiligi mamlakat Konstitutsiyasiga asoslanadi hamda Jinoyat-ijroiya kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonunchiligi qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda tabaqalashtirishga va yakka tartibda yondashishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo‘llash va mahkumalarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag‘batlantirish, mahkumlarga nisbatan insoniy muomalada bo‘lish, mahkumlarning inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish prinsiplariga asoslanadi.

Qonunchilikning asosiy vazifalari sifatida – jazoni ijro etilishini ta’minlash, mahkumalarni tuzatish, jinoyatlarning oldini olish va mahkumalarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish belgilangan.

Qirg‘iz Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi Konstitutsiya hamda jinoyat-ijroiya qonunchiligining tarkibiy qismi bo‘lgan xalqaro shartnomalarga asoslanadi. Asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

☑ qonuniylik;
☑ insonparvarlik;
☑ jamoatchilikning ishtirok etishi;
☑ mahkumlarning qonun oldida tengligi;
☑ jazolarni ijro etishda differensiatsiya va individuallashtirish;
☑ majburlov choralarini oqilona qo‘llash;
☑ ichki tartib qoidalariga rioya etgan mahkumalarni rag‘batlantirish;
☑ jazoni tuzatuvchi ta’sir va resotsializatsiya bilan uyg‘unlashtirish.

Insonparvarlik tamoyili alohida ta’kidlanadi: jazolarni ijro etish inson qadrini kamsitish, jismoniy va ma’naviy azob berish, qiynoq yoki shafqatsiz muomala qilish maqsadini ko‘zlashi mumkin emas. Shuningdek, kodeks jinsi, irqi, tili, nogironligi, etnik mansubiyati, dinga e’tiqodi, yoshi, siyosiy yoki boshqa qarashlari, ta’lim darajasi, kelib chiqishi, mulkiy yoki boshqa maqomi, fuqaroligi kabi belgilar asosida diskriminatsiyani qat’iyan taqiqlaydi.

Qozog‘iston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi ham Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillariga asoslanadi. Quyidagi asosiy tamoyillar belgilangan:

☑ inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish,
☑ qonuniylik;
☑ insonparvarlik;
☑ jazoni ijro etish shartlarini differensiatsiya qilish;
☑ jazo ijrosini individuallashtirish;
☑ majburlov choralarini oqilona qo‘llash;
☑ jazo va tuzatuv ta’sirini uyg‘unlashtirish;
☑ faol ijtimoiy foydali xulqni rag‘batlantirish.

Kodeks ochiq bayon qiladiki, jazoni ijro etish maqsadi jismoniy azob berish yoki inson qadrini kamsitish emas.

Shuningdek, mahkumalar hech qanday diskriminatsiyaga duch kelmasliklari kerak. Bunday diskriminatsiyalarga quyidagilar kiradi: kelib chiqish, ijtimoiy, mansabdor yoki mulkiy maqom, jins, irq, millat, til, din, e’tiqod, yashash joyi va boshqa shunga o‘xshash holatlar.

Har uch ta kodeks qonuniylik, insonparvarlik, differensiatsiya va individuallashtirish kabi asosiy tamoyillarga umumiy sodiqlikni namoyon etadi.

“Insonparvarlik” va “inson qadrini hurmat qilish” kabi tushunchalarga berilgan alohida e’tibor, qiynoq va kamsituvchi munosabatlarga qarshi xalqaro hujjatlardagi qoidalarni bevosita aks ettiradi. Bu esa, ushbu mamlakatlar jinoyat-ijroiya tizimlari inson huquqlari bo‘yicha universal qadriyatlarga asoslanganligini tasdiqlaydi.

Biroq, tamoyillarga berilgan ta’riflar turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, Qirg‘iziston “jamoatchilikning ishtirokini” va “resotsializatsiya”ni asosiy tamoyil sifatida alohida belgilab o‘tadi. Bu esa, jinoyat-ijroiya tizimi avvalo jamiyat ishtirokini ta’minlash va jazoni o‘tagan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish kabi maqsadlar asosida tuzilganini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv qonunbuzarlarni reabilitatsiya qilish va tiklovchi adolatni rivojlantirish bo‘yicha mustahkam va integratsiyalashgan dasturlarni yaratishga xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, Qirg‘iziston va Qozog‘iston diskriminatsiyaga qarshi taqiqlangan asoslar ro‘yxatini batafsil bayon etadi. O‘zbekistonning Jinoyat-ijroiya kodeksi esa “insonparvar munosabat” va “inson qadrini hurmat qilish” kabi umumiy ifodalar bilan cheklangan.

II. Jazoni ijro etish muassasalari turlari va ayollarni alohida saqlash qoidalari.

Har uch davlatda ham turli toifadagi jazoni ijro etish muassasalari mavjud bo‘lib, barchasida erkaklar va ayollarni alohida saqlash tamoyili qo‘llaniladi. Biroq, bu masalada ayrim istisnolar va o‘ziga xos jihatlar mavjud.

O‘zbekistonning jinoyat-ijroiya tizimida quyidagi muassasalar mavjud:

Jazoni ijro etish koloniyalari (umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalar);

tarbiyaviy koloniyalar;

tergov hibsxonalari;

maxsus kasalxonalar.

Ayollar, agar birinchi marta og‘ir yoki juda og‘ir jinoyat uchun mahkum etilgan bo‘lsa, umumiy tartibli koloniyalarda jazo o‘taydi. Ilgari sodir etgan jinoyati uchun jazo o‘tagan, keyinchalik o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan yoki alohida xavfli retsidivist deb topilgan ayollar esa qattiq tartibli koloniyalarda saqlanadi.

Erkak va ayollarning alohida saqlanishi umumiy qoida hisoblanadi. Biroq, manzil koloniyasida ayrim hollarda erkaklar va ayollar birgalikda saqlanishi mumkin.

Qirg‘izistondagi jazoni ijro etish tizimi quyidagi muassasalardan iborat:

manzil koloniyalari;

jazoni ijro etish koloniyalari (umumiy, qattiq, maxsus rejimlar);

tarbiyaviy koloniyalar;
tergov hibsxonalari.

Bu davlatda alohida saqlash bo‘yicha qat’iy qoidalar joriy qilingan:

ayollar va erkaklar alohida saqlanadi;

bolalar kattalardan alohida saqlanadi;

birinchi marta jazo olganlar ham, avval jazo o‘taganlardan alohida saqlanadi.

O‘zbekistondagi kabi, Qirg‘izistonda ham manzil koloniyasida erkak va ayollar birga saqlanishi mumkin bo‘lgan holatlar mavjud.

Qozog‘istonda jazoni ijro etish muassasalari xavfsizlik darajalariga qarab turkumlanadi:

minimal xavfsizlik;

o‘rta xavfsizlik;

maksimal xavfsizlik;

favqulodda xavfsizlik;

to‘liq xavfsizlik hamda aralash xavfsizlikdagi muassasalar.

Kodeksga ko‘ra: erkaklar va ayollardan, voyaga yetmaganlar esa kattalardan alohida saqlanadi.

Bundan tashqari, birinchi marta mahkum qilingan shaxslar, odatda, avval jazo o‘taganlardan alohida saqlanadi, bu qoida faqat minimal xavfsizlikdagi muassasalarda amal qilmasligi mumkin.

Qiziqarli jihati shundaki, birinchi marta jinoyat sodir etgan ayollar va avval jazo o‘tagan ayollar bir muassasada, ammo alohida sharoitlarda saqlanishi mumkin.

Shuningdek, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va maxsus davlat organlari xodimlari bo‘lib ishlagan shaxslar uchun alohida saqlash shartlari ham mavjud.

Har uch davlatda ham jazoni ijro etish muassasalarida erkaklar va ayollarni alohida saqlashga oid asosiy tamoyilga qat’iy amal qilinadi. Bunday gender bo‘yicha ajratish talabi xalqaro standartlarga, xususan, Bangkok qoidalariga mos keladi. Ushbu qoidalar mahkuma ayollarni saqlashda genderga xos sharoitlarga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi.

Biroq, O‘zbekiston va Qirg‘izistondagi manzil koloniyalari mazkur qoidadan istisno sifatida ajralib turadi. Bu holat pragmatik yondashuvning mavjudligini anglatadi: ya’ni, jazo muddati tugashiga yaqinlashib qolgan va xavf darajasi past bo‘lgan mahkumlar uchun reintegratsiyaga e’tibor qaratilmoqda va gender bo‘yicha qattiq ajratish unchalik muhim hisoblanmaydi.

Qozog‘istonda esa jazoni ijro etish muassasalari ancha mukammal tasniflangan, ya’ni xavfsizlik darajasiga qarab turkumlarga bo‘lingan. Shuningdek, ilgari huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud organlarida ishlagan mahkumalar uchun alohida saqlash qoidalari mavjud.

Bunday detallashtirilgan tasnif boshqa kodekslarda unchalik aniq emas. Bu holat Qozog‘istondagi jinoyat-ijroiya tizimida ichki xavfsizlik, mahkumlarni tasniflash va xatarlarni boshqarishga nisbatan kengroq va chuqurroq yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Nihoyat, ushbu uchta kodeksda ham yuqumli kasalliklar mavjud bo‘lgan mahkumlarni alohida saqlash nazarda tutilgan. Bu esa yopiq muassasalarda jamoat salomatligini ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

Bu chora nafaqat boshqa mahkumalar, balki muassasa xodimlarini ham xastalikdan himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, sanitariya va epidemiologiya nuqtai nazaridan mas’uliyatli yondashuvni aks ettiradi.

III. Ayol mahkumalar uchun huquq va cheklovlar

Ayol mahkumalar uchun umumiy huquqlar va cheklovlar, shuningdek tashqi dunyo bilan aloqa, ta’lim olish va ijtimoiy moslashuvga doir qoidalar har bir davlat qonunchiligida umumiy yondashuvlarni ham, o‘ziga xos farqli jihatlarni ham namoyon etadi.

O‘zbekistonda mahkumalar quyidagi huquqlarga egadirlar:

jazoni o‘tash shartlari to‘g‘risida axborot olish;

ariza va shikoyatlar berish;

yuridik yordam olish;

shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash;

insonparvar munosabatda bo‘lish;

vijdon erkinligi va dinga e’tiqod qilish.

Advokat bilan uchrashuvlar soni va davomiyligiga nisbatan cheklovlarsiz amalga oshirilishi mumkin.

Umumiy va kasbiy ta’lim taqdim etiladi. Ammo oliy yoki o‘rta-maxsus ta’limga ruxsat berilmaydi, faqat manzil koloniyasidagi mahkumlar uchun sirtqi ta’lim orqali oliy ta’lim muassasalarida tahsil olishi mumkin.

Qirg‘izistondagi mahkumlar quyidagi keng doiradagi huquqlarga ega:

axborot olish;

munosib munosabat va shaxsiy xavfsizlik;

sog‘liqni saqlash va kvalifikatsiyali tibbiy yordam;

ijtimoiy himoya;

yuridik yordam;

ta’lim olish;

vijdon va e’tiqod erkinligi;
taklif, ariza va shikoyatlar berish;
tushuntirish berish va yozishma olib borish;
mediatsiya jarayonlarida ishtirok etish.

Shuningdek, xorijlik fuqarolar uchun diplomatik vakolatxonalar bilan aloqa qilish huquqi ham kafolatlanadi.

Davlat tomonidan yuridik yordam va advokat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ta’minlanadi.

Kodeksda telefon orqali suhbatlar va posilkalarni qabul qilish bo‘yicha maxsus moddalar mavjud.

Qonunchilikda resotsializatsiya ustuvor tamoyil sifatida belgilangan. Ma’muriyat mahkumlar bilan ijtimoiy moslashuv va psixologik ishlar olib boradi.

Qozog‘istonda mahkumlar quyidagi huquqlarga egadirlar:
axborot olish;
afv etish to‘g‘risida murojaat qilish;
shikoyatlar berish;
inson qadrini tan olish;
qiynoqlardan himoya;
shaxsiy xavfsizlik;
tushuntirish berish va yozishma olib borish;
malakali yuridik yordam olish;
sog‘liqni saqlash va psixologik yordam;
ijtimoiy va pensiya ta’minoti;
xavfsiz mehnat shart-sharoitlari;
dam olish, ta’til va mehnat haqi.

Eng muhim jihat shundaki, jins bo‘yicha kamsitish qat’iyan taqiqlangan va bu huquqiy ravishda ochiq ko‘rsatilgan.

IV. Olib borilgan qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston jinoyat-ijroiya tizimlarida ayollarga nisbatan genderga xos munosabatni yaxshilash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Aniq normalar, xususan bolalarni onalari bilan birga saqlash uchun belgilangan eng yuqori yosh chegarasi va onalarning tashqi dunyo bilan aloqalar hajmini eng ilg‘or amaliyotlarga mos ravishda muvofiqlashtirish taklif qilinadi (masalan, Qozog‘istonda bolalarni 4 yoshgacha onalari bilan birga saqlash mumkinligi amaliyoti).

2. O‘zbekistonda amaldagi kamsitishga qarshi normalar qayta ko‘rib chiqilishi va imkoniyati boricha kengaytirilishi tavsiya etiladi. Bu

ularni Qirg‘iziston va Qozog‘iston kodekslaridagi batafsil ro‘yxatlar bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuv kamsitishning barcha shakllaridan to‘liq himoyani ta’minlaydi.

3. Har uchta kodeksda psixologik qo‘llab-quvvatlash va kompleks qayta moslashuv dasturlari uchun huquqiy asos va moliyaviy resurslar mustahkamlanishi zarur. Bu borada Qirg‘izistondagi aniq prinsiplar va Qozog‘istondagi amaliyotlar asos qilib olinishi mumkin.

4. Jazoni ijro etish muassasalari xodimlari uchun doimiy ravishda genderga xos o‘quv kurslari o‘tkazilishi va mustaqil monitoring mexanizmlari joriy qilinishi lozim. Bu huquqiy normalarning amalda qo‘llanilishini ta’minlaydi va ayol mahkumalar qadri va huquqlari himoyasini kafolatlaydi.

5. Ayollar, ayniqsa farzandi bor ayollar uchun jazoning ozodlikdan mahrum etmaydigan shakllarini kengroq qo‘llash tavsiya etiladi. Bu oilalar va jamiyat uchun qamoq jazosining salbiy ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

YOSHLAR – DAVLATNING OLTIN FONDI

Fayziyeva Mohisitora Mahmud qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Alisher Navoiy mahallasi yoshlar yetakchisi.

Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash masalasi bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga mahalliy hokimlik va “mahalla yettiligi” zimmasiga muhim vazifalar yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvarda qabul qilingan “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli qarorining qabul qilinishi ham, yoshlar jinoyatchiligini oldini olish davlat ahamiyatidagi muhim masala ekanligini namoyon qilmoqda. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida asosan O‘zbekiston respublikasining jinoyat kodeksining 169-moddasida ko‘rsatilgan o‘g‘rilik jinoyatlari sodir etish ko‘plab uchrayapdi. Yana shu moddada ko‘rsatilgan talonchilik jinoyatlari, ya’ni ko‘cha-ko‘yda fuqarolarning qimmatbaho buyumlarini, taqinchoqlarini talonchilik yo‘li bilan olib ketish, kiberjinoyatchilik kabi jinoyatlar ko‘plab uchrayapdi. Ushbu jinoyatlarning kelib chiqishining asosiy sababi bu – bekorchilikdir. Yurtimizdagi har bir mahallalarda yoshlar jinoyatchiligini oldini olish maqsadida “mahalla yettiligi” tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilib bormoqda, bunda mahalla yoshlar yetakchilarining o‘rni beqiyos. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida, mahallalarda 5 tashabbus olimpiadasi musobaqalari doirasida turli sport tadbirlari, madaniy va ma’rifiy tadbirlar, kechgi tadbirlar doimiy tashkil etilmoqda, shuningdek barcha mahallalarning volontyor yoshlaridan tashkil topgan, “Qalqon” jamoatchilik tuzilmasi orqali tungi reyd tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mahalla inspektorlari tomonidan yoshlar yetakchilariga “Ijtimoiy profilaktika” platformasida huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan ishlash uchun turli xulosalar beriladi. Yoshlar yetakchilari esa yoshlar bilan uchrashib, muammolarini izchil o‘rganib, yoshlarga

kerakli yordamlarni beradi va ushbu xulosalarni yakunlaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 15-mayda tashkil etilgan, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi ham, yoshlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligini kamaytirishga qaratilgan profilaktik tadbirlardan biri hisoblanadi.

Ushbu loyiha doirasida yurtimizdagi 9216 ta mahallalarda doimiy ravishda, yoshlar uchun har kuni turli loyihalar, sport va madaniy, ma’rifiy tadbirlar, chellenjlar, sayohatlar, to‘garaklar, kitobxonlik bayramlari tashkil qilinmoqda. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda jamiyatning o‘rni beqiyos. Chunki har bir yosh inson oilada, maktabda, mahallada va kengroq jamiyat muhitida shakllanadi. Jamiyatda qanday qadriyatlar, axloqiy mezonlar va normalar hukmron bo‘lsa yoshlar ham shunga qarab yo‘l tutadi. Quyida jamiyatning asosiy o‘rni va mas’uliyatlari ko‘rsatilgan:

1. Ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, jamiyatda insonparvarlik, halollik, o‘zaro hurmat va adolat tamoyillari mustahkam bo‘lsa, yoshlar ham bu qadriyatlarga mos yashashga intiladi. Jinoyatni targ‘ib qiluvchi — zo‘ravonlik, giyohvandlik, noqonuniy harakatlar aks etgan kino, internet materiallari, musiqalar jamiyatda tanqid ostiga olinishi, bunday axborotdan himoya kuchaytirilishi kerak.

2. Mahalla va qo‘shnichilik muhitining roli, mahallada yoshlar faoliyatini kuzatish, nog‘ora taqillatmasdan suhbat qurish, yo‘ldan yurmasdan oldin yo‘l ko‘rsatish — jamiyatning asosiy vazifasidir.

3. Tarbiya institutlarini qo‘llab-quvvatlash, maktab, kollej va universitetlar nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiya beruvchi maskan bo‘lishi uchun jamiyatdan doimiy qo‘llab-quvvatlash kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘qituvchilar, psixologlar, huquqshunoslar ishtirokida tarbiyaviy kontentlar yaratilib, yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi ijobiy axborotlar ko‘paytirilishi lozim.

4. Ommaviy axborot vositalarining ta’siri, televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun ijobiy hayotiy misollar, qahramonliklar, halol mehnat haqida lavhalar tayyorlanib tarqatilishi zarur. OAV yoshlarni jinoyatga emas, mehnatga, intiluvchanlikka va ijtimoiy faoliyatga chorlovchi rol o‘ynashi kerak.

5. Fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish, har bir fuqaro — ota-ona, o‘qituvchi, qo‘shni, tadbirkor — o‘z atrofidagi yoshlar taqdiriga befarq bo‘lmasligi kerak. Yoshlarni ko‘chada, ijtimoiy tarmoqlarda yoki biror muammoli holatda ko‘rsak, aralashishdan cho‘chimaslik, u bilan muloqot qilish, yo‘l ko‘rsatish muhim. Jamiyat – bu katta oila. Uning har bir a’zosi

yosh avlodning kamol topishida o‘z hissasini qo‘shsa, jinoyatchilikni oldini olish mumkin. Eng muhimi, yoshga nisbatan ishonch, e’tibor va yo‘l-yo‘riq — jinoyatdan ko‘ra yuksak ma’naviyat tomon yetaklaydi. Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish — jamiyatda barqarorlik, tinchlik va sog‘lom avlod tarbiyasini ta’minlash uchun juda muhim masala. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish — bu ularning jamiyatdagi faol, qonunlarga hurmatli, mas’uliyatli va ongli fuqarolar sifatida shakllanishini ta’minlovchi muhim jarayondir. Huquqiy madaniyat nafaqat qonunni bilish, balki unga amal qilish, boshqalarning huquqini hurmat qilish va fuqarolik mas’uliyatini his qilish deganidir. Yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishning bir qancha yo‘llari mavjud, huquqiy bilimlarni oshirish, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ‘ibot, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik, oila va mahalla tarbiyasining roli, huquqiy ong va mas’uliyatni shakllantirish. Huquqiy madaniyat — faqat bilim emas, ongli tanlov va mas’uliyatdir. Yoshlar biror harakat qilishdan avval uning oqibatlarini anglay olish madaniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish — ularni jinoyatchilikdan, huquqbuzarlikdan, va hatto internetdagi noqonuniy faoliyatdan ham himoya qilishning eng samarali yo‘lidir. Buning uchun ta’lim, oila, jamiyat, OAV va davlat idoralari birgalikda harakat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-sonli qarori.

OILADA YOSHLAR TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETILISHI SABABLARINING TAHLILI

Murod Mamarajabovich

O‘zbekiston Respublkasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Insoniyat tarixi shuni ko‘rsatadiki, qaysi jamiyatda, millatda, oilada ota-onaga, bolalarga bo‘lgan hurmat ko‘rsatuvchi urf-odatlar mavjud bo‘lsa, shu yerda oila-turmush doirasidagi jinoyatlar kam sodir etiladi. Huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to‘sqinlik qiladigan omillarni birinchi navbatda oilalardan izlash lozimligini ko‘rsatdi. Zotan, har qanday huquqbuzarlikning kelib chiqishida oiladagi nosog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhit sabab bo‘ladi.

Oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy va axloqiy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi sanaladi. Oila azaldan bizning xalqimiz uchun muqaddas tushuncha bo‘lib kelgan. Zero, har birimiz oilada ulg‘ayib kamol topganmiz.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yosh oilalar mustahkamligini ta’minlash, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni o‘z ichiga olgan besh muhim tashabbus amalga oshirilmoqda[4].

[4] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг 18.05.2020 йилдаги «Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, улар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишга қаратилган вазифалар ижроси устидан таъсирчан парламент назоратини амалга ошириш тўғрисида»ги 274-IV-сон қарори, / https://lex.uz/ru/docs/5175351

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “.... Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz[5]” degan fikrlari ham yoshlar jinoyatchiligini o‘rganish, uni tahlil etish va barvaqt profilaktikasini amalga oshirish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar bilan ishlashda faqat ma’rifiy va profilaktik tadbirlar emas, balki sotsiologik tahlillarga asoslangan ilmiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sotsiologik tadqiqotlar orqali yoshlarning ichki ehtiyojlari, ruhiy holati, faolligi, ijtimoiy munosabatlari hamda qiyinchiliklarga munosabati real statistik ma’lumotlar asosida ochib beriladi. Bu esa davlat va nodavlat tashkilotlar, ta’lim muassasalari hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[6].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng quyi bo‘g‘indagi kriminogen vaziyat va oilalarni qiynab kelayotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni chuqur tahlil qilish asosida mahallalarni jinoyatdan xoli “yashil” toifadagi hududga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mahallaning aholi va davlat organlari o‘rtasida ishonchli “ko‘prik” bo‘lishini ta’minlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida har bir mahallada muammolarni joyida aniqlab, kompleks yondashuv asosida hal etish mexanizmlari “mahalla yettiligi”[7] tizimining yo‘lga qo‘yilgani yoshlarning oilasida jinoyat sodir etishini aniqlash, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish[8] orqali oilalarda jinoyat sodir etilishining barvaqt oldini olishga xizmat qilmoqda.

[5] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади // http: // uza/uz

[6] OECD. Youth Wellbeing Policy Review, Paris, 2022, 85 p.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni, 21.12.2023-yildagi / PF-209-son / https://lex.uz/ru/docs/6705763.

[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “«Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 30.11.2024-yildagi, 801-son / https://lex.uz/docs/7243832

Hammamizga ma’lumki mamlakatimizda oilalarda xavfsizligini, tinchligini hamda farovonligini ta’minlashda ichki ishlar organlarining o‘rni va roli beqiyosdir. Respublikamizda ichki ishlar organlari tomonidan oilalarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari aniqlash va tahlil qilish samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaramay, jinoyatlarning sabablarini tahlili bilan bog‘liq muammolar hali yetarlicha o‘rganilmagan va oldini olish chora-tadbirlari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Bizga ma’lumki sababning o‘zi shart-sharoit bilan o‘zaro ta’sir orqali namoyon bo‘ladi va oqibatni keltirib chiqaradi. Agarda sabab bo‘lsa-yu, ammo sharoit bo‘lmasa yoki aksincha, sharoit bor, ammo sabab bo‘lmasa, unda har ikkala holatda ham huquqbuzarlik yuz bermaydi.

Misol uchun, 1998-yilda tug‘ilgan S.S. tungi soat 01:00dan 02:00ga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘z yashash uyining mehmonxonasida otasi S.Sh. bilan spirtli ichimlik iste’mol qilib o‘tirgan vaqtida mastlik holatida o‘rtalarida kelib chiqqan o‘zaro janjal natijasida pichoqni S.Sh.ning ko‘krak qafasining chap tomoniga va oyog‘ining orqa dumba sohasiga sanchib, hayoti uchun xavfli bo‘lgan og‘ir tan jarohati yetkazgan.

Bu jinoyat ishida 1998-yilda tug‘ilgan S.S.ning hamda jabrlanuvchi S.Sh. ning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorliligi hamda ular o‘rtasida oldindan adovatning mavjudligi jinoyatning sababi sifatida gavdalansa, jinoyat jinoyatchining uyida sodir etilganligi, tungi vaqtligi, yaqin qarindoshligi, yonlarida hech kim yo‘qligi, jabrlanuvchining tajovuzdan xabardor emasligi, birgalikda spirtli ichimlik iste’mol qilganligi va boshqa shu kabilar jinoyatning shart-sharoiti sifatida ifodalanadi.

Yuqoridagi jinoyat ishida agarda ota va farzand o‘rtalarida oilaviy qadriyatlar mustahkam bo‘lganida, ular tungacha spirtli ichimlik iste’mol qilmaganida, yuzaga kelgan kelishmovchilikni qonuniy yo‘l bilan hal etish ko‘nikmasi shakllanganligida, jabrlanuvchi o‘zini o‘zi himoya qilish usullaridan xabardor bo‘lganida bu kabi jinoyat sodir etilmagan bo‘lar edi. Bundan ko‘rinib turibdiki ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish mumkin.

Yoshlar huquqbuzarligining barvaqt profilaktikasini tashkil etishda oilada yoshlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlari tomonidan oilada yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablarini quyidagicha aniqlaydi:

birinchidan, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali;

ikkinchidan, ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatga oid ishlarni yuritish jarayoni, voqea va xodisa joylarini ko‘zdan kechirish, huquqbuzar,

jinoyatchi, jabrlanuvchi, guvoh va xolislarning ko‘rsatmalarini o‘rganish orqali;

uchinchidan, ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlari hamda hukmlarini o‘rganish orqali;

to‘rtinchidan, internet (ijtimoiy tarmoqlar) va ommaviy axborot vositalaridan kelib tushadigan ma’lumotlarni kuzatish va tahlil qilish orqali;

beshinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganish orqali;

oltinchidan, ilmiy izlanishlar olib borish orqali;

yettinchidan, fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish orqali;

sakkizinchidan, huquqbuzarliklar (ijtimoiy) profilaktikasi sub’ektlari faoliyatini manitoring qilish va baholash orqali;

to‘qqizinchidan, ma’muriy hududni profilaktik ko‘zdan kechirish va kriminogen vaziyatni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

O‘rganishlarga (anketa so‘rovi, suhbat-intervyu) ko‘ra respondentlar huquqbuzarliklarni quyidagi sabablar tufayli sodir etganligi ma’lum bo‘ldi:

1) moddiy yetishmovchilik – 69 foiz;

2) oilaviy qadriyatlarga oid ko‘nikmalarning shakllanmagani – 71 foiz;

3) muntazam oilaviy (maishiy) tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganligi – 49 foiz;

4) spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarga qaramlik – 15 foiz;

5) shaxs atrofidagi nosog‘lom muhitning ta’siri – 24 foiz;

6) huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetishmasligi – 43 foiz.

Ayrim yoshlar huquqbuzarlik sodir etilishiga ushbu sabablardan bir nechtasini ko‘rsatganlar.

Yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabablarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini batafsil o‘rganib chiqamiz.

Birinchidan, moddiy yetishmovchilik:

Moddiy yetishmovchilik tufayli oilalarda yoshlarning huquqbuzarliklar sodir etganligi ma’lum bo‘ldi. Ayrim hollarda esa yoshlarning ta’lim olishga intilishining pastligi, kasb-hunar egallamagani, oila a’zolari tomonidan ishlashiga qarshilik bo‘lgani va boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi kabi omillar ularda moddiy yetishmovchilik kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Shu bilan birga ayrim yosh xotin-qizlarning qimmatbaho buyum va vositalarga o‘chligi, o‘zini ko‘z-ko‘z qilishga intilishi va mazkur toifadagi xotin-qizlar bilan munosabatlarning shakllanganligi g‘arazgo‘ylik motivlarini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Shuningdek, anketa so‘rovi natijalariga ko‘ra, yoshlarning 45 foizi oylik daromadi moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligini bildirgan. Korxona, muassasa va tashkilotlarda yoshlarga ish haqi yuqori bo‘lgan lavozimlar berilmasligi.

O‘rganishlarayrimyoshlarningoiladamoddiyjihatdanta’minlamaganligi yoki daromad manbaisiz qolishi oqibatida moddiy yetishmovchilik kelib chiqqanligi ayon bo‘ldi.

Yuqoridagi omillar tufayli kelib chiqqan moddiy yetishmovchiliklar yoshlar tomonidan turli huquqbuzarliklar, xususan oilada mayda o‘g‘rilik, fohishaxona saqlash, qo‘shmachilik qilish, giyohvandlik vositalari savdosi kabi jinoyatlar sodir etilishiga imkon yaratgan.

Masalan, talonchilikni sodir etgan Y. moddiy yetishmovchilik tufayli, o‘zganingmol-mulkinitalon-torojqilishmaqsadidaqarindoshifuqaroG.ning xonadoniga kirib, bolalar aravachasi va qimmatbaho kiyim-kechaklarni talon-toroj qilayotgan vaqtida, uy egasi yaqin qarindoshi tomonidan ushlangan. Y. o‘zining huquqbuzarlik sodir etishining sababai sifatida u moddiy qiyinchilikda voyaga yetganligini, maktabni tamomlaganidan so‘ng o‘qishni davom ettira olmaganini, aniq kasbi va ish joyiga ega bo‘lmaganligi sababli jinoyat sodir etganligini bayon qilgan.

Ikkinchidan, oilaviy qadriyatlarga oid ko‘nikmalarning shakllanmagani:

Yoshlarda oilaviy qadriyatlarga oid ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmagani, ota-onalar tomonidan farzandiga ta’lim-tarbiya berishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani, noto‘liq yoki notinch oilada voyaga yetgani tufayli yoshlar jinoyat yo‘liga kirgani ma’lum bo‘ldi.

Bundan tashqari, ayrim yoshlarning tarbiyasiga ota-onalari e’tiborsiz munosabatda bo‘lganligi, ularni qarindosh yoki boshqa tanish shaxslarga ishonib topshirishi ham ularda jinoiy xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘lgan.

O‘rganishlar davomida mahalla va ta’lim muassasalarida oilaviy qadriyatlarga oid yetarli bilimlar berilmagani ortidan yosh oilalarda turli nizolar kelib chiqqani ma’lum bo‘ldi.

Ayrim hollarda ota-onalarning farzdanlarini moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlab kelganligi, ularning qonuniy nikohi bo‘la turib, ikkinchi nikohdagi ayollar (er) bilan munosabatlarga kirishganligi, o‘gay ota-onalar tomonidan qaramog‘idagi farzandlariga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik qilib kelganligi xotin-qizlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ishonchsizlik va hurmatsizlik tuyg‘ularini shakllantirgan.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishishganligi, ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan nikoh yoshiga yetmagan bo‘lsada, erga berilganligi yoshlarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan bo‘shliqni yuzaga keltirgan.

Masalan, odam savdosi uchun jazoga hukm qilingan S. bilan o‘tkazilgan suhbat-intervyudan uning to‘liq bo‘lmagan oilada o‘sganligi, nikoh yoshiga yetmasdan erta turmush qurganligi, turmush o‘rtog‘i bilan yuzaga kelgan ko‘plab nizolar tufayli ajrashgani, shundan so‘ng, fohishalik bilan shug‘ullangani, ko‘proq pul topish maqsadida qo‘shmachilik qilganligi, tanishi G. bilan til biriktirib, O‘zbekiston fuqarolarini qo‘shni davlatga ishlash niqobi ostida fohishalikka yuborish bilan shug‘ullanganligini ko‘rsatgan.

Uchinchidan, muntazam oilaviy (maishiy) tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanganligi:

Yoshlarning oiladagi turli ziddiyatlar, muntazam tazyiq va zo‘ravonlikka uchrab kelganligi sababli ham huquqbuzarliklar sodir etganligi ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, ular suhbat-intervyu davomida oilada rashk yoki axloqsiz jinsiy qarashlarning mavjudligi, ishsizlik va iqtisodiy yetishmovchilik (kam daromadlilik, shu jumladan, uy-joyning yo‘qligi), uchinchi shaxslarning oilaviy munosabatlarga noo‘rin aralashuvi, er-xotin o‘rtasida nosog‘lom ma’naviy-ruhiy muhitning mavjudligi tufayli tazyiq va zo‘ravonlikka uchrab kelganligini bildirgan.

Ma’lumot o‘rnida, 2023-yil davomida respublikada qayd etilgan oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning 2,2 foizi (809 ta)ni oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik tashkil etgan.

Oiladagi tazyiq va zo‘ravonliklarning kuchayishi er-xotin o‘rtasidagi nizolar kelib chiqishi, ma’naviy-ruhiy muhitning buzilishi, ularning spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga kuchli ta’sir etuvchi moddalarga qaramligining yuqoriligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ayrim yoshlarda oiladagi doimiy nizo, muttasil ravishda tazyiq va zo‘ravonlikka uchrashi ularda o‘ch olish, nafrat va ko‘raolmaslik kabi salbiy xulq-atvorni shakllantirib, qasddan odam o‘ldirish, shikast yetkazish, mulki talon-toroj qilish bilan bog‘liq qilmishlarni sodir etishiga sabab bo‘lgan.

Masalan, mahkuma S. oilasida muntazam janjal bo‘lgani, turmush o‘rtog‘ining spirtli ichimlikka ruju qo‘ygani, unga ruhiy va jismoniy tazyiq o‘tkazib kelgani, qolaversa, u xiyonat qilganligi sababli undan o‘ch olish maqsadida ukasi D. bilan til biriktirib uni o‘ldirganini bildirgan.

To‘rtinchidan, spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarga qaramlikning mavjudligi:

Aksariyat yoshlar spirtli ichimlik, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarga qaramligi tufayli oilada huquqbuzarlik sodir etgani ma’lum bo‘ldi.

O‘rganishlar yoshlarda va qizlarda spirtli ichimlik, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarga qaramlikning vujudga kelishi alohida omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Jumladan, voyaga yetmagan qizlarning spirtli ichimlik, giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilishlari aksariyat hollarda atrofidagi va oilasidagi salbiy muhitning ta’siri natijasida yuzaga kelgan.

Yoshlarda esa stress, depressiya va boshqa ruhiy buzilishlar, kamsitilish, jamoada past baholanish, xayotdagi qiyinchilik va tashvishlarni oson yengishga urinish, shuningdek, atrofdagilar salbiy xulq-atvorining ta’siri spirtli ichimliklar, giyohvandlik va psixotrop moddalarga qaramlikni keltirib chiqargan.

Yuqoridagi omillar tufayli so‘ngi vaqtlarda yoshlar tomonidan mastlik holatida jinoyat sodir etish holatlari ko‘payganini kuzatish mumkin.

Masalan, jinoyat sodir etgan Ye. bilan o‘tkazilgan suhbatda u o‘z xonadonida tez-tez tanishlari bilan yig‘ilib spirtli ichimliklar iste’mol qilishni odat qilganini, shunday kunlarning birida tanishi fuqaro D. bilan o‘rtalaridagi qarz oldi-berdisi bilan bog‘liq yuzaga kelgan nizo sababli, mast holda uning boshiga temir bo‘lagi bilan urib og‘ir shikast yetkazganini bildirgan.

Beshinchidan, shaxs atrofidagi nosog‘lom muhitning ta’siri:

Yoshlarning oilada huquqbuzarliklarning sodir etishiga atrofdagi nosog‘lom muhit sabab bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi.

Yoshlarning salbiy guruhlarga qo‘shilishi atrofdagilarning ta’siri, ijtimoiy bosim, turli shart-sharoitlar va moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlari bilan bog‘liq. Yoshlardagi ishonuvchanlik, soddalik va moslashuvchanlik ularni turli salbiy guruhlarga qo‘shilishga sharoit yaratadi.

Bunday guruhlarda spirtli ichimliklar, giyohvandlik yoki psixotrop moddalar iste’mol etilishi, turli buzuq va faxsh ishlar qilinishi, shuningdek, tajovuzkor xatti-harakatlar yoki huquqbuzarliklar sodir etilish ehtimoli yuqoridir.

Yoshlarning bunday guruhlarga qo‘shilishiga ulardagi moddiy va ma’naviy ehtiyojlar xam sabab bo‘lishi mumkin. Chunki, yoshllar ijtimoiy xayotga endigina shakllanib kelayotganligi sababli yolg‘izlik, qiyinchilik va moddiy yetishmovchiliklarning yechimini o‘zga shaxslardan yoki yuqoridagi kabi guruhlardan qidirishlari mumkin.

Masalan, U. qo‘shmachilik qilgani uchun jazoni o‘tash davrida giyohvandlik vositasini qonunga xilof ravishda o‘tkazish uchun jazoni o‘tayotgan shaxslar bilan tanishib qolgan. U. ozodlikka chiqqanidan so‘ng o‘ziga to‘g‘ri xulosa chiqarmasdan, muassasada tanishganlar bilan til biriktirib, oson daromad topish maqsadida giyohvandlik moddasini qonunga xilof ravishda sotish jinoyatiga qo‘l urgan.

Oltinchidan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetishmasligi:

Yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatining pastligi ular tomonidan turli huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lganini aniqlandi.

Aksariyat hollarda ularda oilada huquqbuzarlik sodir etishga moyillikning shakllanishi o‘smirlik vaqtida oila a’zolarining mol-mulkini so‘ramasdan olib-sotish orqali moddiy ehtiyojini qondirishga odatlanganlik bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, ularda huquqiy qarashlarning shakllanmagani va jamiyatdagi turli vaziyatlarga to‘g‘ri baho bera olmasligiga oila, mahalla va ta’lim muassasalaridagi huquqiy ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq kamchiliklar, huquqiy targ‘ibot tadbirlarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi ham sabab bo‘lgan.

Ular tomonidan sodir etilgan oiladagi ijtimoiy xavfli huquqbuzarliklar (mayda bezorilik, maishiy shovqin, tilanchilik, haqorat va boshq.) uchun javobgarlik qo‘llanilmagani yoki yengilroq jazo tayinlangani xam ularda qonunlarga nisbatan hurmatsizlik tuyg‘usini yuzaga keltirgan.

Yoshlardagi huquqiy madaniyatning yetishmasligi ularni dastlab umume’tirof etilgan odob-axloq qoidalarini buzishga, kelgusida esa huquqbuzarlik sodir etishga sabab bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda jamiyatda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, jamiyatda yoshlarning muayyan kasbni egallashiga shart-sharoitlar yaratilmagani, iqtisodiy jihatdan boshqalarga qaram bo‘lishi, hayotda muvaffaqiyatga erishishlari uchun bandligining ta’minlanmasligi ularni huquqbuzarliklar sodir etishga undashi mumkin.

YOSHLAR JINOYATCHILIGINI BARVAQT OLDINI OLISHNING AYRIM JIHATLARI

Iskandarov Xushmamat Qalandarovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti tayanch doktorantura doktoranti, podpolkovnik.

Esanov Dilshodbek Ilhomjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi magistraturasi tinglovchisi.

Yangi O‘zbekistonda keng keng ko‘lamli ravishda amalga oshilayotgan va alohida e’tibor qaratilayotgan islohotlardan biri bu yosh avlodni ma’nan yetuk va barkamol tarbiyalash hamda ularga mukammal ta’lim berish jarayonidir. Zero millatimiz azaldan o‘z madaniyati va ma’naviyatida barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishga katta e’tibor bergan. Insonni ulug‘lash, uni qadriga yetish, ayniqsa, yosh avlodni kamolotga yetkazishda milliy ma’naviy madaniyatimizning tiklanishi va rivojlantirilishi muhim o‘rin tutadi. Mustaqillikni ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni, an’ana va urf-odatlarni asrab-avaylash, insonlar, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga xalqiga, ona yurtiga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deya ta’kidlab o‘tgan. Jamiyatni rivojlantirishda avvalombor oilaning shakllanishiga, ijtimoiy ma’naviy tarbiyani rivojlantirishga hamda farzandlar tarbiyasi ularning kamolotida keng jamoatchilikning o‘rni beqiyosdir.

Sharq mamlakatlari ulamolari, mutafakkirlari bola tarbiyasiga juda katta e’tibor berib, xalq pedagogikasining o‘zagini shakllantirishga hissa

qo‘shganlar. Buyuk alloma Ibn Sino ham ta’lim-tarbiya va axloqqa oid “Tadbir al - manozil”, “Risola fi ilm al - axloq”, “Risola fi al - ahd”, “Risola fi tazkiyai an - nafs”, “Siyosat al - badan”, “Kitob al - ansof” kabi asarlar yaratgan. Ibn Sinoning fikricha, bola tarbiyasi bilan avvalo, oila, ota-ona shug‘ullanmog‘i lozim. “Bola axloqi shakllanishida – deydi u, – er- xotinning bir-biriga bo‘lgan munosabati muhim o‘rin tutadi. Buning uchun oila a’zolarining har biriga ma’lum vazifalar yuklatilgan bo‘lishi kerak”. “Bir bolaga yetti mahalla javobgar” degan xalq naqli ham o‘z ichiga ko‘p ma’noni qamrab olgan. Mahalla, oila va maktab hamda keng jamoatchilik vakillarining hamkorligi bo‘lajak avlodning qanday bo‘lishi, ota-ona va yaqin qo‘shnilarning tanbehlari yo‘nalishlarining barchasi faqat yaxshi niyatda bo‘lishini ko‘rsatgan. Yanada aniqroq qilib aytganda, oila davrasida mahallada va keng jamoatchilikda ota-onaning ijobiy fazilati hamda munosabatlari farzand tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatishini ifodalagan. Har bir ota-ona o‘z farzandiga hunar o‘rgatish bilan birga odob - axloqni va atrof-muhitni sevib ardoqlashni, katta-kichikni hurmat qilish kabi an’anaviy urf-odatlarni ham o‘rgatib borishi tajribalarda o‘z samarasini bergan. Biroq, bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga qarash alohida mavzu bo‘lib bormoqda. Boshqacha aytganda, yoshlar va ayollar muammolari jamiyatdagi muammolarning barometri hisoblanadi. Xususan, Markaziy Osiyo dunyodagi eng yosh mintaqa bo‘lib, aholisining yoshi o‘rtacha 27,6 yoshni tashkil etadi. Mintaqa aholisining 50 foizga yaqini O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, mamlakatimiz aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. (15 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgani 2 558 977 nafar, 20 yoshdan 24 yoshgacha 2 890 718 nafar, 25 yoshdan 29 yoshgacha 3 212 525 nafarni tashkil qiladi). Ayni paytda mamlakatimizda yoshlarga bog‘liq quyidagi jiddiy muammolar mavjud. Jumladan, 39 088 nafar yoshlar notinch oilalarda istiqomat qilmoqda, ulardan 368 nafar yoshlar turli zararli norasmiy guruhlar, oqimlar ta’siriga tushib qolganligini ko‘rsatmoqda. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar umumiy jinoyatlarga nisbatan 25 foizga yetgan.

Bundan tashqari, 2020-yilda har 100 ta jinoyatning 2,2 tasini 6-17 yoshdagilar, har 100 ta jinoyatning 15,2 tasini 18-24 yoshdagilar, har 100 ta jinoyatning 19,2 tasini esa 25-30 yoshdagi shaxslar sodir etgan. Bugungi kunda Mahalla va oilani qo‘llab - quvvatlash vazirligi tomonidan “Obod va xavfsiz mahalla” mezonlarini amaliyotga tatbiq etishda mazkur konsepsiyasi ikkita “Obod mahalla” va “Xavfsiz mahalla” yo‘nalishlariga ajratildi, yo‘nalishlarimos ravishda ularning har biri bo‘yicha alohida mezonlar ishlab chiqildi. Masalan, “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasini amalga oshirishda

respublikadagi mavjud 9 314 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratilgan holda mahallalardagi jinoyat o‘choqlari aniqlanib, ularni keltirib chiqaruvchi omil va sabablar tahlil etildi. Bu borada 2021 yil 30 mart kuni Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab – quvvatlash vazirligi hamda Davlat soliq qo‘mitasining o‘zaro hamkorlikdagi “Mahallalarni kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda toifalash hamda jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish to‘g‘risidagi yo‘riqnoma tasdiqlandi. Hududlarda “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida har bir mahalladan 5 nafardan tarbiyasi og‘ir, ma’naviy ko‘makka muxtoj, uyushmagan, ishchiz yoshlarni 1 nafar nuroniyga biriktirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Natijada 2021 yilning 6 oyi davomida respublika bo‘yicha 35 212 nafar obro‘li nuroniylarning ro‘yxati shakllantirildi va ular 172 638 nafar tarbiyasi og‘ir, ma’naviy ko‘makka muhtoj, uyushmagan va ishsiz yoshlarga biriktirildi.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat o‘z mustaqilligiga erishgach, o‘zining milliy tarixiy negizlarini, ajdodlarining avlodlarga qoldirgan boy ma’naviy-axloqiy merosini tiklashga, ularni yanada rivojlantirishga harakat qiladi. Shu asnoda o‘zining strategik taraqqiyot yo‘lini belgilab, asrlar davomida ota-bobolari orzu qilgan ozodlik va erkinlik asosida o‘zligini anglashga, jahonda o‘zining mustahkam o‘rnini topishga bel bog‘lab unga tashqaridan bo‘ladigan har qanday ta’sirlarga munosib javob berishi lozim. Yosh avlodning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, dunyoda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma’no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglagan holda o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealar hodisalarga o‘z mustaqil fikrini bildira oladian yetuk kadr qilib yetkazish dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, ularni sport va kasbga yo‘naltiruvchi boshqa turdagi to‘garaklarga jalb qilish ular orasida jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qilishi bilan birga ularning kelgusida malakali kadrlar bo‘lib yetishishilari uchun ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz - T., O‘zbekiston. NMIU, 2016. 14-bet.

2. Jonmatova H. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya to‘g‘risida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. - 19.

3. G‘ozibekov T. Oilada, yoshlar, bola va uning tarbiyasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar hamda turli zo‘ravonliklarning olidini olishda keng jamoatchilikning faoliyati // Odam savdosi jinoyatining sodir etilish sabablari va imkon bergan shart - sharoitlar. Mazkur jinoyatning oldini olishda va qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining faoliyati. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya to‘plami. –

4. Isamutdinova R. O‘zbekistonda “xavfsiz mahalla” konsepsiyasini joriy qilishning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar akademiyasining Axborotnomasi. 2022 yil, 1 (52) - son. – 126 bet.

5. 2021 yil 3 martdagi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi o‘zaro hamkorlikda “Mahallalarda aholiorasida obro‘li, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan nuroniylarni “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida yoshlarga biriktirish va ular bilan olib boriladigan ma’naviyma’rifiy ishlar dasturi”.

YOSHLAR BANDLIGI VA JINOYATCHILIK: IJTIMOIY BARQARORLIK SARI TIZIMLI YONDASHUV

Komilov Lazizjon Zokirjon o‘g‘li

IIV Malaka oshirish instituti Jangovar tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, kapitan

Maqolada globallashuv davrida yoshlar bandligini ta’minlash va jinoyatchilikning oldini olish masalalari yoritilgan. Unda O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish, mehnat bozoriga moslashtirish va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, mavjud grantlar tizimining samaradorligi, ularning barqarorligi va ikki bosqichli model asosida takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Yoshlarni mehnatga jalb etish orqali ularning jinoyatchilikka moyilligini kamaytirish g‘oyasi ilgari surilgan va bu yo‘nalishdagi amaliy islohotlarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar bandligi, jinoyatchilik, ijtimoiy barqarorlik, globallashuv, mehnat bozori, grantlar tizimi, ikki bosqichli model, yoshlar siyosati, startaplar.

Bugungi globallashuv davrida taraqqiyotning yuksak marralarini ko‘zlab intilayotgan har bir davlat oldida yoshlarning qalbi va ongini yot g‘oyalardan asrashdek muhim vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bunga erishish uchun, avvalo, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish lozim. Jumladan, bu masala mamlakatimiz uchun ham dolzarbdir. Bugun yurtimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar soni 18 milliondan oshdi va ularga oid masalalar bilan ishlashda yangicha yondashuv va talablarni yuzaga chiqarmoqda. Jamiyatimizdagi islohotlar jarayonida bu masalalarga ustuvor ahamiyat berilayotgani navqiron avlodni ertangi kunimizning munosib davomchilari etib tarbiyalashda muhim omil bo‘layotir [1].

Aholini ish bilan ta’minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, u mehnat masalalari bilan bog‘liq muammolarni hamda mehnatga bo‘lgan taklif va talablarni qondirish yo‘llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat’i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o‘zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga

layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko‘rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichdir [2].

Aholini, ayniqsa yosh avlodni ish bilan ta’minlash — nafaqat iqtisodiy taraqqiyot mezoni, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim vositadir. Bandlik yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi, shuningdek, ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilinishi orqali ularning buzg‘unchi yo‘llarga kirib ketishining oldini oladi. Aksincha, ish bilan bandlikning yetarli darajada ta’minlanmagani, mehnatga layoqatli yoshlarning bo‘sh va samarasiz vaqt o‘tkazishga majbur bo‘lishi jinoyatchilikka moyillikni kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, ish bilan bandlik darajasi — yoshlar orasidagi jinoyatchilik holatlarining muhim determinanti sifatida qaralishi lozim.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta’minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta’minlanishiga bog‘liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta’minlashning ijtimoiy iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Umuman olganda, har qanday jinoyat jamiyat uchun xatarli. Ayniqsa ushbu illatning yoshlar tomonidan sodir etilayotgani yurt ravnaqi va osoyishtaligiga daxldor kishini tashvishga solmay qo‘ymaydi. Shu bois, kelajak avlodning taqdiri bilan bog‘liq bunday muammolar doimo dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Albatta, yoshlarning bandlik bilan ta’minlanishi va ularning jinoyatchilikka qo‘l urmasligi kabi masalalar davlat darajasidagi masala desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Yoshlar va ayollar jinoyatchiligi borasidagi ahvol kishini tashvishga solmay qo‘ymaydi” deb, fikr bildirilgan [4].

Shuningdek, 2023-yil 26-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni [5] ning tasdiqlanishi mazkur sohaning yanada takomillashuviga sabab bo‘lib

kelmoqda. Darhaqiqat, yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor” tamoyili asosida ko‘ngilli tadbirkorlarni jalb etgan holda 1 nafar tadbirkorga 1 nafardan ishsiz yoshni biriktirish tashabbusini amalga oshirish vazifasi qo‘yilgani, ayniqsa, ahamiyatlidir. “Yoshlar: 1+1” dasturi doirasida uyushmagan va ishsiz yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, ularda biznes ko‘nikmalarini shakllantirish, imtiyozli kreditlar ajratish orqali o‘z faoliyatini boshlashga ko‘maklashish vazifalari belgilandi. Davlat dasturida nazarda tutilgan mazkur vazifalarning amaliyotga to‘laqonli joriy etilishi natijasida yoshlarning arzon ishchi kuchi sifatida mehnat bozoriga kirib kelishining oldi olinib, bugungi kun talabiga javob beradigan raqobatdosh kadrlar bo‘lib yetishishiga erishilmoqda [1].

Shuningdek, har bir mahallada “fuqarobay” tasdiqlangan “Yoshlar bandligi dasturi” amalga oshirildi. 2023-yilning o‘zida ishsiz 236 120 yosh, 189 085 maktab bitiruvchisining bandligi ta’minlandi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 150 ming yoshga 3,2 trillion so‘m imtiyozli kredit, 163 ming yoshga 67 ming gektar ekin maydoni ajratildi. 662 ming nafariga o‘zini o‘zi band qilishiga ko‘maklashildi, 56 ming nafari kasb-hunarga o‘qitilib, bandligi ta’minlandi [6].

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo mamlakatimizda yoshlar qatlami aholining 60 foizga yaqinini tashkil etishini [6] hisobga oladigan bo‘lsak, islohotlar miqdor jihatdan yetarli emasligiga guvohi bo‘lishimiz mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekistonda yoshlar uchun ijodiy, texnologik, ijtimoiy sohalarda grantlar (masalan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida “huquqiy madaniyat oyligi” kabi tadbirlar uchun) ajratilmoqda. Ammo, ekspertlarning ta’kidlashicha, agarda grant hajmi sezilarli bo‘lmasa va qo‘shimcha qo‘llab quvvatlash mavjud bo‘lmasa, u holda startaplar reallikka moslashtirish, rivojlanish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Hozirda amalda grantlar ko‘pincha bir martalik bo‘lib qolmoqda va doimiy rivojlanish uchun zarur vositalar yetarli emasligini namoyon etmoqda. Shu munosabat bilan, davlat tomonidan ajratiladigan grantlar uchun ikki bosqichli modelni joriy etish maqsadga muvofiq. Ya’ni, birinchi bosqichda kichik miqdordagi mablag‘ (masalan, 20 million so‘mgacha) ni ajratish, ikkinchi bosqichda esa, faqat natija ko‘rsatgan loyihalarga qo‘shimcha grantni ajratish lozim. Bunda birinchidan, yoshlar faqat mablag‘ olish uchun emas, balki loyiha barqarorligi uchun harakat qiladilar. Bu esa loyihaning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, 2024-yilda

O‘zbekistonda sodir etilgan jinoyatlarning 59,4 foiz ulushi yoshlarga, 132 298 ta jinoyatdan 7000 dan ortig‘i ish bilan band bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilganini hisobga olsak, ikki bosqichli grantlar ajratilishi yoshlarning startap va boshqa loyihalar bilan band bo‘lishi natijasida ushbu jinoyatchilik ko‘rsatkichlarining keskin tushishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yoshlar bandligini ta’minlash masalasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning, balki jamiyat taraqqiyoti va xavfsizligining muhim omillaridan biriga aylangan. Har qanday davlat o‘z kelajagini belgilovchi yosh avlodni beparvo qoldirolmaydi, shu sababli ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozoriga moslashtirish va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarning ish bilan band bo‘lishi, o‘z qobiliyat va g‘oyalarini hayotga tatbiq eta olishi, ularning salbiy yo‘nalishlarga og‘ishining oldini oladi. Shu jihatdan, grantlar, kasb-hunar ta’limi, mentorlik va tizimli qo‘llab-quvvatlash kabi choralarni yanada takomillashtirish zarur. Eng muhimi, har bir yosh o‘zini jamiyatning muhim a’zosi sifatida his qilsa, bu kelajak avlod tarbiyasiga, tinch va barqaror jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

VOYAGA YETMAGANLARNING JINSIY ERKINLIGIGA QARSHI JINOYATLAR SODIR ETILISHINI TAQOZO ETUVCHI KRIMINOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Kattaqulov Murodillo Qurbonboyevich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Hozirgi kriminologiya sohasida jinoyatchilikni o‘rganish jarayonida uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilikning turli ko‘rinishlari va ularning kelib chiqishidagi omillar turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi

Jinoyatchilikni o‘rganish va uning oldini olish tadbirlarini ishlab chiqishda jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv omillarni to‘liq o‘rganish zarur. Bunda obyektiv omillar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular umumiy jinoyatchilik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, subyektiv omillar shaxsning ichki psixologik holati, shaxsiy dunyoqarashi va ongining shakllanishiga bog‘liqdir. Masalan, shaxsning turmush tarzi, odob-ahloq ko‘rsatmalari, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy muomala darajasi uning jinoiy yo‘lni tanlashidagi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Kriminologiyada jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlari borasida turli olimlar tomonidan bir qancha nazariy yondashuvlar mavjud. Birinchi navbatda, N.A. Belyayev, Y.A. Shubin, M.D. Shargorodskiy, N.F.Kuznetsova, A.P.Rezvan kabi olimlarning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilikning sabablari ijtimoiy hayotning turli jihatlari bilan chambarchas bog‘liq. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, oilaviy tarbiyaning yetishmovchiligi, ta’lim tizimidagi kamchiliklar va ma’naviy qadriyatlar pasayishi jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardir. Bu omillar jamiyatda ijtimoiy tartibsizlik, maishiy muammolar, yoshlar o‘rtasidagi ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy muhit inson ongiga ta’sir qiluvchi omillarni shakllantiradi va shaxsning antisotsial xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur holatda, jinoyatlar psixo-sotsial ta’sir orqali vujudga kelishi mumkin, ya’ni tashqi ta’sirlar ichki psixologik omillar bilan birgalikda ishlaydi. Bu jarayonda shaxsning individual xususiyatlari, psixologiyasi, dunyoqarashi va uning jamiyatdagi o‘rni ham muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, A.P. Rezvan, S.M.Samodelkin va A.G.Zabolotskaya kabi olimlar jinoyatchilikning sabablarini klassifikatsiyalash orqali uning turli bosqichlarini va makonlarini aniqlashni taklif qiladilar. Bu yondashuv jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktika choralarini ishlab chiqishda samaralidir. Masalan, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ta'lim tizimini isloh qilish, huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligini oshirish va jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy tajovuzlar sodir etilishi sabab va shart-sharoitlarini o'rganish ushbu jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan samarali choralarni ishlab chiqish uchun zaruriy asosdir. Bu jarayon jinoyatchilikka olib keladigan omillarni to'liq tushunish va tahlil qilishni talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday tajovuzlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash nafaqat jinoyatlarni kamaytirish, balki jamiyatdagi jinoyatchilikka nisbatan yondashuvni o'zgartirishga ham yordam beradi.

A.V. Kulakovning fikricha, zo'ravonlik jinoyatlarining o'sishi va jamiyat uchun ijtimoiy xavfliligining ortishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- moddiy boylikni yagona qadriyat sifatida ommaviy ong tomonidan ko'proq e'tirof etish;

- axloq va beodoblik o'rtasidagi chegaralarning yo'qolib borayotganligi;

- aholi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovut, turmush darajasidagi katta farqlar tufayli jamiyatda ijtimoiy ziddiyatlar ko'lami va darajasining ortishi;

- aholining katta qismining turmush tarzi va ijtimoiy maqomiga sezilarli darajada o'zgarishlar kiritilishi, ularning maqsadga erishish uchun har qanday vositalarga murojaat qilishga majbur bo'lishi.

A.V.Kulakovning zo'ravonlik jinoyatlariga sabab qilib ko'rsatgan omillari muhokamaga loyiq bo'lsa-da, ularning jinoyatchilikka ta'siri bahslidir. Moddiy boylikka intilish, axloqiy qadriyatlar zaiflashuvi, ijtimoiy tafovut va turmush tarzidagi o'zgarishlar jinoyatchilikka ta'sir qilishi mumkin, lekin ularning ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas va ko'pincha ijtimoiy muhit, qonunchilik va shaxsiy omillar bilan bog'liq. Shu sababli, zo'ravonlik jinoyatlarining o'sishini kompleks tahlil qilish zarur. Biroq, ushbu omillarning tahlili jamiyatdagi zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlarni kamaytirish va ularning oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

M.A. Gorbachyov o'zining tadqiqotida Rossiyada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy jinoyatlarning sabablari va shart-

sharoitlarini kompleks ravishda o‘rganib, ularning murakkabligini va ko‘p qirraliligini ta’kidlaydi. Olim mazkur jinoyatlarning asosiy sabablari sifatida quyidagicha ta’riflaydi:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, kambag‘allik, ishsizlik va moddiy qiyinchiliklar, yoshlar orasida jinoiy faollikka moyillikni kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida belgilanadi. Yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy turmush darajasidagi farqlar ularni jinoiy yo‘lga kirishga turtki bo‘ladi.

Oiladagi tarbiya va ta’lim kamchiliklari. Ota-onalarning tarbiyadagi yetishmovchiligi, oilalardagi muammolar va yoshlarning ta’lim olishdagi yetishmovchiliklari ularning ijtimoiy himoyasizligini kuchaytiradi. M.A.Gorbachyovning ta’kidlashicha, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarning sodir etilishida oilalardagi muammolarning ta’siri katta ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy axborot vositalari va internetta’siri. Pornografik materiallarning internet orqali tarqalishi, shuningdek, odob-axloq meyorlarining pasayishi jinoyatlarga nisbatan jamiyatdagi to‘qnashuvchanlikni oshiradi.

Qonunchilikdagi kamchiliklar. Jinoyatlar uchun qonunchilikda belgilangan jazolarning yetarli darajada og‘ir emasligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarasizligi jinoiy xatti-harakatlarning oldini olishdagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, M.A.Gorbachyov jinsiy jinoyatlarga sharoit yaratuvchi asosiy omillarni ham alohida ajratib ko‘rsatadi:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yetarsiz ishlashi: huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan yetarli darajada jinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo‘yicha profilaktik tadbirlarning samaradorligi past darajada. Bu holat ko‘pincha huquqiy jarayonlarning uzoq davom etishi va jinoyatlarning yuzaga chiqmasligi sababli yuz beradi.

Qonunchilikdagi kamchiliklar: jinsiy jinoyatlarga qarshi kurashga oid qonunchilikdagi ba’zi kamchiliklar, jumladan, huquqiy mezonlarning aniq emasligi ham jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratadi.

Jamiyatdagi indifferentlik: aholi orasidagi indifferentlik va qurbonlarning yordam so‘rashdan qaytishga moilligi ham jinsiy jinoyatlarning ko‘payishiga olib keladi. Bunday holatlarda jinoyatchilarning jazosiz qolishi, ularning yanada qo‘rqmasdan harakat qilishlariga olib keladi.

M.A.Gorbachyov tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlariga berilgan tasnif to‘g‘ri va har tomonlama yoritilgan bo‘lsa-da, uni yanada kengaytirish va takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflar kiritilishi mumkin:

1. Psixo-sotsial omillarni alohida ajratish.

M.A.Gorbachyovning tasnifi asosan ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy va huquqiy omillarni o‘z ichiga oladi, lekin jinoiy xatti-harakatlarga sababchi bo‘ladigan psixo-sotsial omillarni alohida o‘rganish kerak. Bolalikdagi psixologik jarohatlar, qiyin bolalik tajribasi, oiladagi zo‘ravonlik va yoshlar o‘rtasidagi psixologik bosimlar kabi omillar voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarga turtki berishi mumkin. Shu sababli, jinoyatlarning psixo-sotsial sabablarini chuqurroq o‘rganish va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

2. Viktimologik omillarni tahlil qilish.

Viktimologik omillar, ya’ni qurbonlarning o‘zlariga xos omillar jinoyatlarga sharoit yaratishi mumkin. Masalan, voyaga yetmaganlarning ijtimoiy yoki psixologik himoyasizligi, ularning ishonchliligi va tajribasizligi jinoyatchilar uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Viktimologiya nuqtai nazaridan, yoshlarning o‘zini himoya qilish qobiliyatini oshirish, jinoiy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va ularni oldini olishga qaratilgan tadbirlarning zarurligi belgilanishi kerak.

3. Ma’naviy-axloqiy omillar ta’sirini kiritish.

M.A.Gorbachyovning tasnifida axloqiy meyorlar pasayishi va internet ta’siri e’tiborga olingan, lekin ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiy zaiflashuvi jinoiy xatti-harakatlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar orasidagi axloqiy qoidalarning buzilishi, jamiyatdagi ma’naviy yo‘nalishning zaiflashishi va zo‘ravonlikka nisbatan e’tiborsizlik ularning jinoyatlarga moyilligini oshiradi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish, yoshlar orasida odob-axloq qoidalariga amal qilishni rag‘batlantirish lozim.

4. Ta’lim tizimini yaxshilashga qaratilgan islohotlar.

Tarbiya va ta’lim kamchiliklari jinoyatlarning sabablaridan biri sifatida keltirilgan bo‘lsa-da, ta’lim tizimini isloh qilishga oid qo‘shimcha tadbirlar kiritilishi mumkin. Maktab va universitetlarda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan maxsus kurslar, psixologik maslahatlar va jinoyatlarga nisbatan immunitetni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Bu yoshlarning jinoyatlardan himoyalanish qobiliyatini oshiradi.

5. Qonunchilikdagi aniqlik va qat’iylikni kuchaytirish.

Qonunchilikdagi kamchiliklar, M.A.Gorbachyov ta’kidlaganidek, jinoyatlarga sharoit yaratishi mumkin. Shunga ko‘ra, jinoyatlar uchun jazolarning mustahkamligini oshirish, yangi qonunlar kiritish va mavjud qonunlarni takomillashtirish lozim. Xususan, voyaga yetmaganlarga

nisbatan jinsiy jinoyatlarni tezkor aniqlash, sud jarayonini odilona va tezkor o‘tkazish, qurbonlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik choralari zarur.

6. Jamoatchilikni faol jalb qilish va ijtimoiy tashabbuslar.

Jamoatchilikning indifferentligi jinoyatchilikka yordam beradi, shu sababli jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash zarur. Jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va oilaviy markazlarning yoshlarga qaratilgan profilaktik tadbirlari orqali jinoyatlarning oldini olishga erishish mumkin.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlarida biologik va psixologik omillarga e’tibor qaratgan olimlar ham mavjud. Xususan, N.A.Belyayevning fikriga ko‘ra, shaxsning biologik xususiyatlari, masalan, temperamenti va jinsiy xohishlarining buzilishi, jinsiy zo‘ravonlikka moyillikni oshiradi. Ushbu biologik omillar shaxsning ongini va uning jamiyatdagi munosabatini o‘zgartirib, jinoiy xulq-atvorning rivojlanishiga xizmat qiladi. N.A.Belyayev ta’kidlaganidek, jinoyatlar shaxsning ichki xususiyatlari va ijtimoiy sharoitlar ta’sirida shakllanadi.

A.A.Tkachenko ham, insonning biologik xususiyatlari, jumladan, gormonlar ishlab chiqarilishi, jinsiy zo‘ravonlikka olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, biologik xususiyatlar tashqi muhit bilan bog‘liq holda shaxsning xulq-atvorini shakllantiradi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarda jinoyatchilarning biologik xususiyatlari va jinsiy buzilishlari muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

YE.A.Aliyeva jinsiy zo‘ravonlikka olib keluvchi jinoiy xatti-harakatlarning biologik va psixologik omillarini birgalikda tahlil qiladi. Uning fikriga ko‘ra, pedofiliya va shu kabi boshqa jinsiy buzilishlar voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning asosiy sabablari hisoblanadi. YE.A.Aliyeva ta’kidlaganidek, bunday jinoyatlar shaxsning jinsiy buzilishlaridan kelib chiqadi va ular psixologik va ijtimoiy sharoitlar bilan murakkablashadi.

Y.M.Antonyan jinoyatchilarning shaxsiy muammolari va individual psixologik nuqsonlarini jinsiy zo‘ravonlik sabablari sifatida ko‘rib chiqadi. Uning ta’kidlashicha, jinsiy zo‘ravonlik, asosan, shaxsning psixologik muammolarini kompensatsiya qilishga urinish natijasida sodir etiladi. Y.M.Antonyanning fikriga ko‘ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari jinoyatchilarning psixologik nuqsonlari, ijtimoiy izolyatsiya va shaxsiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlari voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari sabablarini har tomonlama tushuntirishga yordam beradi. Biroq, ushbu omillarning o‘zaro ta’siri va ahamiyati bo‘yicha ayrim bahsli jihatlar mavjud.

Birinchidan, N.A.Belyayev va A.A.Tkachenko tomonidan ta’kidlangan biologik omillar jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida qaraladi. Bu nuqtai nazar jinoyatchilikning jismoniy asosini tushuntirishga yordam bersa-da, faqat biologik omillarga tayanish kamchiliklariga e’tibor berish zarur, chunki jinoyatchilik shaxsning jamiyat bilan o‘zaro munosabatida shakllanadi.

Ikkinchidan, YE.A.Aliyeva va Y.M.Antonyan jinoyatchilikning psixologik omillarini ham inobatga oladi. Bu yondashuv jinoyatchilarning shaxsiy muammolari va psixologik nuqsonlariga e’tibor qaratishi bilan muhimdir, ammo bu muammolarning ijtimoiy sharoit bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini tushuntirish talab qilinadi.

Shuning uchun, jinoyatlarning biologik va psixologik omillari murakkab, ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida qaralishi lozim. Bunda ularning ijtimoiy muhit bilan birgalikda tahlili samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Bu masalaga G.A.Yegoshina alohida to‘xtalib o‘tgan, uning ta’kidlashicha, kattalar tomonidan voyaga yetmaganlarga va kichik yoshdagi bolalarga nisbatan jinsiy tajovuzlar sababi sifatida adabiyotlarda ko‘pincha pedofiliya shaklidagi jinsiy buzilish keltiriladi.

Pedofiliya — bu bolalarga nisbatan jinsiy harakatlar sodir etishga intilish bilan namoyon bo‘ladigan jinsiy buzilishdir. Bunda bolaning jinsi muhim ahamiyat kasb etmaydi, chunki bolaning hali rivojlanib ulgurmagan tana tuzilishi haqiqiy jinsiy stimul sifatida namoyon bo‘lib, fetish rolini o‘ynaydi.

Yuqoridagi fikrga qarama-qarshi tarzda ba’zi adabiyotlarda jinsiy buzilishlar faqat psixik kasalliklar doirasida emas, balki psixik jihatdan sog‘lom shaxslarda ham kuzatilishi haqida fikr bildirilgan. Bunday buzilishlar ma’lum bir barqarorlikka ega bo‘lib, seksologlar tomonidan shaxsning biologik xususiyatlari orqali shakllangan «antisotsial kriminallashgan jinsiy xatti-harakatlar» sifatida tavsiflanadi.

Bizningcha, jinsiy jinoyatlarning shakllanishi va qayta tiklanishida ayrim kriminogen omillar juda katta ahamiyatga ega. Bu omillarni chuqurroq tahlil qilgan holda, quyidagi ilmiy asoslangan fikrlarni keltirish mumkin:

Birinchi navbatda, oilaviy muhit va yaqinlar tomonidan yetarli e’tiborning yetishmasligi jinoyatchilikning shakllanishida muhim rol

o‘ynaydi. Bolalarning yoki voyaga yetmaganlarning jinsiy xavfsizligini ta’minlashda oilalarning faol ishtirok etmasligi ularning himoyasizligini oshiradi. Ota-onalar va yaqinlar tomonidan bolalarga nisbatan yetarli darajada e’tibor berilmasligi yoshlarning o‘zini jamiyatdagi tahdidlardan himoya qila olmasligiga olib keladi. Bu esa ularning qurbon bo‘lish xavfini ko‘paytiradi va jinoyatchilar uchun qulay sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, internet va ommaviy axborot vositalaridagi nojo‘ya materiallarga ochiq kirish imkoniyati yoshlar orasida jinoiy moyillikning oshishiga olib keladi. Pornografik kontentning keng tarqalishi va undagi zo‘ravonlik sahnalari yoshlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi, shuningdek, jamiyatda jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan toqatlilikni oshiradi. Bu holat jinoyatchilar uchun yoshlar orasidagi himoyasizlikni yanada kuchaytiradi (bir qator olimlar ham shu fikrda).

Uchinchidan, davlat muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarasiz faoliyati jinoyatlarning oldini olishda jiddiy to‘siq bo‘ladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy himoya sohalaridagi muassasalarning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarmasligi yoshlarning himoyasizligini oshiradi va jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratadi. Bu muassasalar jinoyatlarning oldini olishdagi muhim qo‘llovchi mexanizmlar sifatida faoliyat ko‘rsatishi lozim.

To‘rtinchidan, qonunchilikdagi nuqsonlar va kamchiliklar ham jinoiy xatti-harakatlar uchun sharoit yaratadi. Jinoyatlar uchun jazolarning yetarli darajada kuchli emasligi, huquqiy jarayonlarning uzoq davom etishi va jazosiz qolish holatlari jinoyatchilarga qo‘rqmaslik hissini uyg‘otadi va ularning xatti-harakatlarini rag‘batlantiradi. Shu sababli, qonunchilikni takomillashtirish, jinoyatlarni tezkor aniqlash va adolatli jazo mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bunday chora-tadbirlarni samarali qo‘llash uchun, nafaqat jinsiy jinoyatlarni sodir etilish sabablarini, balki unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni ham chuqurroq o‘rganish zarur.

Jinoyatchi tomonidan jinsiy tajovuz sodir etilishi uchun tanlangan joy, vaqt va sharoit, shuningdek, uni amalga oshirish usullari va vositalari nafaqat jinoyatning obyektiv tomonini, balki jabrlanuvchining shaxsiyati, uning turmush tarzi, aloqalari va jinoyatchi bilan bo‘lgan munosabatlarini ham belgilaydi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy tajovuzlar ham yopiq, ham ochiq joylarda amalga oshiriladi. Jinoyatchi tomonidan jinsiy tajovuz sodir etiladigan joyning tanlanishi ko‘p jihatdan qurbonning yoshiga bog‘liqdir.

Samarqand viloyatida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy tajovuzlar bo‘yicha tahlil quyidagicha namoyon bo‘ladi. Ushbu jinoyatlar sodir etiladigan joylarning taqsimoti va ularning xususiyatlari quyidagicha ko‘rsatilgan:

Uy-joylarda sodir etish (59%). Jinsiy tajovuzlarning aksariyati uy-joylarda amalga oshiriladi, bu esa jinoyatchilarga qurbon bilan yaqin aloqada bo‘lish imkonini beradi. Qurbonlar aksariyat hollarda o‘zlarini xavfsiz joyda deb hisoblab, ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yadilar. Ushbu turdagi jinoyatlar ko‘pincha oilaviy aloqalar doirasida yoki qurbonning jinoyatchiga ishonchi natijasida sodir etiladi, bu esa jinoyatning latentligini oshiradi va huquqiy jarayonlarni murakkablashtiradi.

Ochiq maydonlar (29%). Bu turdagi joylar dala, bog‘lar, tokzorlar, o‘rmonlar kabi odamlar kam uchraydigan hududlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu holatlarda jinoyatchilar qurbonlarning himoyasizligidan foydalanib, ularni firibgarlik yoki zo‘rlik bilan ushbu joylarga olib keladi. Bunday joylardagi jinoyatlar huquqni muhofaza qilish organlari uchun yuqori darajada qiyinchilik tug‘diradi, chunki jinoyatni isbotlashda guvohlar yetishmasligi mumkin.

Avtomobillarda sodir etish (7%). Avtomobillarda amalga oshiriladigan jinsiy tajovuzlar, odatda, tezkor va yashirin xarakterga ega bo‘lib, qurbonlarning harakatlanish imkoniyatini cheklaydi. Avtomobillar xususiy mulk sifatida hisoblanadi, bu esa huquqni muhofaza qilish organlari uchun qo‘shimcha to‘siqlar yaratadi. Bunday jinoyatlarni tekshirish va dalillarni topish ham katta murakkablik tug‘diradi, shuning uchun maxsus tergov usullarini qo‘llash talab etiladi.

Boshqa joylar (5%). Bu kategoriyaga ish joylari, maktablar, yotoqxonalar, turli muassasalar yoki boshqa jamoat joylari kiradi. Bunday holatlarda jinoyatchilar qurbonlarning himoyasizligidan foydalanib, o‘zlariga qulay vaqt va joyni tanlaydilar. Jinoyatlarning ushbu turini aniqlash va ularga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va profilaktika choralarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari ko‘ra, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy tajovuzlarning 41,6% yoz faslida, 23,8% kuzda, 24,0% bahorda va 10,6% qishda sodir etilgan. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy tajovuzlar qish faslida kamayishi kuzatilgan.

Birinchi navbatda, jinsiy tajovuzlarning 41,6% yoz faslida sodir etilgani e’tiborga loyiq. Yoz oylarida kunning uzoqligi va yoshlarning ko‘proq tashqarida bo‘lishi ularni himoyasiz holatga solishi mumkin. Shuningdek,

yoz faslida ta’tillar sababli nazoratning kamayishi, bolalarning yolg‘iz qolishi va nazoratsizlik holatlarining ko‘payishi ham jinoyatlar sodir etilishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kuz faslida jinoiy faollik 23,8% ni tashkil etadi. Bu faslda kunning qisqarishi va yomg‘irli kunlarning ko‘payishi yoshlarni yolg‘iz va himoyasiz holatda qoldirishi mumkin. Shu bilan birga, maktab davri boshlanishi bilan bolalarning ko‘p vaqtini maktabda o‘tkazishi ham ularni turli xavflarga duchor qiladi.

Bahor faslida jinsiy zo‘ravonliklar 24,0% ni tashkil etadi. Bahor oylarida kunlar yorug‘ bo‘lishi va odamlarning ko‘proq tashqarida bo‘lishi yoshlarning nazoratsiz holatlarini oshiradi. Shuningdek, bahorda umumiy faollikning oshishi, ayniqsa, shahar va qishloq joylarida odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishi jinoyatlarga sharoit yaratadi.

Qish faslida esa jinsiy tajovuzlar sezilarli darajada kamayib, 10,6% ni tashkil etadi. Bu mavsumda, odatda, yoshlar ko‘proq uyda bo‘ladi, bu esa ularning himoyasini oshiradi. Shu bilan birga, qishning sovuqligi, kunning qisqarishi va yomg‘irli kunlar himoyasizlik holatlarining kamayishiga olib keladi.

Shu tariqa, mavsumiy o‘zgarishlar voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonliklar sodir etilishida muhim rol o‘ynaydi. Bu ma’lumotlardan kelib chiqib, mavsumiy profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jinsiy xavfsizlikni ta’minlash uchun maxsus tadbirlarni o‘tkazish, ota-onalar va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

M.A. Xaydarovning fikriga ko‘ra, voyaga yetmaganlarning bilim darajasi va madaniy saviyasi past bo‘lgan joylarda boshqa jinoyatlar bilan bir qatorda jinsiy jinoyatlarning ham sodir etilishi uchun ko‘proq sharoitlar yuzaga keladi.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etilishiga sharoit yaratadigan omillardan biri — yoshlar orasida jinsiy tarbiyaning yetishmovchiligi. Hozirgi kunda jinsiy tarbiyaning ahamiyati juda katta ekanligi barcha tomonidan e’tirof etilmoqda. Ushbu tarbiya birinchi navbatda oila muhitida boshlanishi va maktabda davom etishi lozim. Professor Y.M. Antonyan ta’kidlaganidek, jinsiy tarbiya bugungi kunda juda muhimdir, chunki uning yetishmovchiligi yoshlarning jinsiy xavfsizligiga tahdid soladi va zo‘ravonlik jinoyatlariga sharoit yaratadi.

Jinsiy tarbiyaning yetishmovchiligi yoshlar orasida jinsiy munosabatlar to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tushunchalarga va ularning huquqiy savodxonligi kamayishiga olib keladi, bu esa ularni himoyasiz holatga soladi. Shu sababli, jinsiy tarbiyani yaxshilash va yoshlarning jinsiy xavfsizlik to‘g‘risidagi

bilimlarini oshirish voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olishda muhim profilaktika chorasidir.

Sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, barcha ota-onalar ham o‘smir farzandlari bilan jinslar o‘rtasidagi munosabatlar haqida gaplashmagan. To‘liq oilalardagi yoshlarning faqat 55,3% o‘g‘il bolalar va 73,0% qiz bolalar so‘nggi bir yil ichida ota-onalari ular bilan ushbu mavzularda gaplashganini aytganlar. Noto‘liq oilalarda (ota yo‘q) tarbiyalangan o‘smirlarning faqat 37,5% o‘g‘il bolalar va 94,5% qiz bolalar bunday suhbatlarni yodga olishgan.

Shuningdek, to‘liq oilalarda ona va otalar o‘g‘il bolalarning jinsiy tarbiyasida bir xil darajada ishtirok etganligi ham e’tiborga molik. To‘liq oilalardagi o‘g‘il bolalarning 22,7% nafaqat onasi, balki otasi ham ular bilan bu mavzularda suhbatlashganini bildirganlar; 15,6% faqat onasi bilan, 17,0% esa faqat otasi bilan gaplashganini aytganlar. Qiz bolalarning jinsiy tarbiyasida esa otalarning ishtiroki ancha kamroq. To‘liq oilalardagi qizlarning faqat choragi (24,6%) jinsiy tarbiya bo‘yicha axborotni onasi ham, otasi ham berganini aytganlar; 47,4% faqat onasi bilan, 1,8% esa faqat otasi bilan suhbatlashganini bildirganlar.

Umuman olganda, jinsiy tarbiya voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinsiy jinoyatlarning oldini olishda ahamiyatlidir, chunki u bolalar va o‘smirlarga o‘zlarining shaxsiy chegaralari, jinsiy huquqlari va xavfsizligini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Jinsiy tarbiya orqali yoshlar potensial xavfli vaziyatlarni aniqlash, undan o‘zini himoya qilish hamda tegishli yordam va qo‘llab-quvvatlashga murojaat qilish yo‘llarini o‘rganadilar. Shu bilan birga, ota-onalarning jinsiy tarbiyada faol ishtirok etishi bolalar bilan ochiq va ishonchli muloqotni rag‘batlantirib, ularning har qanday jinsiy zo‘ravonlik holatlarini yashirmasdan, zudlik bilan xabar berishlariga yordam beradi. Bunday yondashuv voyaga yetmaganlar orasida jinoyatlar sonini kamaytirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlari ko‘p qirrali va murakkabdir. Ular ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va biologik omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jinoyatlarning oldini olish uchun har tomonlama tahlil qilish va mos profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur. Bunda ta’lim muassasalarida jinsiy tarbiyani kuchaytirish, qonunchilikni takomillashtirish va jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash muhimdir. Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligi orqali jinsiy jinoyatlarni kamaytirishga erishish mumkin.

YOSHLAR VA TALABALARNING OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARDAGI ROLI

Xamidov Asilbek Alisher o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Hozirgi kunda yoshlar va talabalar jamiyatning eng faol va dinamik qatlamlaridan biri bo‘lib, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bunday ishtirok o‘z navbatida, ham ijobiy, ham salbiy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. Davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazuvchi ommaviy tartibsizliklar, ya’ni jamoat tartibiga putur yetkazuvchi ommaviy norozilik harakatlari, ko‘pincha yoshlar va talabalarning faol ishtiroki asosida sodir etiladi. Shuning uchun ham tarix davomida ko‘plab siyosiy harakatlar, inqiloblar va ommaviy tartibsizliklarda yoshlar va talabalar yetakchi kuch sifatida namoyon bo‘lgan.

Shu o‘rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning “Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega”, - deb bejizga ta’kidlamaganligi ma’lum bo‘ladi.

Ma’lumot uchun, hozirgi davrda dunyo aholisining 2 milliarddan ortiq qismini, ya’ni 25 foizini, O‘zbekistonda esa qariyb 60 foizini yoshlar tashkil qiladi. Shu bilan birga, 2024-2025-yilgi o‘quv yili boshida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida 1 mln 432 ming 800 nafar talabalar tahsil olmoqda.

Bunday salbiy holatlar avvalambor, ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy noroziliklar natijasida kelib chiqadi. Bunda yoshlar o‘z faolligi va internet texnologiyalardan foydalanish mahorati orqali harakatlarning keng tarqalishiga yordam beradi. Ba’zilari o‘z qarashlarini tinch yo‘l bilan ifoda etishga harakat qilsa, boshqalari radikal choralarga murojaat qiladi. Namoyishlarning tinch yo‘l bilan o‘tishi jamiyatdagi ijtimoiy hamjihatlikni saqlab qolishga yordam bersa, tartibsizliklar ko‘pincha zo‘ravonlik, to‘qnashuvlar va davlat tuzumiga qarshi keskin choralar ko‘rishga olib keladi. Bunday vaziyatlarda yoshlar va talabalarning harakatlari ijtimoiy o‘zgarishlarga turtki bo‘lishi yoki, aksincha, beqarorlik va xavfli oqibatlarga sabab bo‘luvchi ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Shu o‘rinda milliy huquqiy tizimda ommaviy tartibsizliklar jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarning bir ko‘rinishi sifatida, “jamoat tartibi va fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan zo‘ravonlik, qirg‘in solish, o‘t qo‘yish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish shakllarida namoyon bo‘ladigan olomonning tartibsiz harakati” – deb ta’riflangan. Boshqacha qilib aytganda, ommaviy tartibsizliklar – bu bir guruh odamlarning qonunga xilof ravishda tinchlik va tartibni buzishga olib keladigan harakatlaridir.

Mazkur ta’rifdan ko‘rinadiki, olomon tartibsizliklarning asosiy elementi bo‘lib, zo‘ravonlik harakati jamoat xavfsizligi va davlat hokimiyatining normal faoliyat yuritishiga qarshi qaratiladi. Qolaversa, u davlat boshqaruvini izdan chiqarish, konstitutsiyaviy tuzumni o‘zgartirish, fuqarolar sog‘ligi va mol-mulkiga zarar yetkazish darajasidan kelib chiqib, favqulodda holat rejimini joriy qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni ham o‘zida namoyon qilishi mumkin.

Yoshlarning ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etishi turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta’sirida yuzaga keladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, ularning norozilik bildirish usullari jamiyatdagi mavjud shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yoshlarning tartibsizliklarda ishtirok etishida muhim rol o‘ynaydi. Sotsiologik tadqiqotlar yoshlar orasida ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda tartibsizliklar sodir etish ehtimoli ortishi haqida guvohlik beradi. Shunga muvofiq, ishsizlik – yoshlar orasida norozilikning kuchayishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uning yuqori darajasi yoshlarning kelajakka bo‘lgan ishonchini susaytiradi va davlat siyosatiga nisbatan keskin reaksiyaga sabab bo‘ladi. Chunki ishsizlik yoshlarda ijtimoiy tushkunlik va umidsizlik holatlarini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy tushkunlik va noumidlik jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida tarqalishi mumkin bo‘lgan jiddiy muammolardan biri bo‘lib, insonda hayotga bo‘lgan ishtiyoqni so‘ndirib, kelajakka nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Bu holat esa yoshlar orasida turli norozilik kayfiyatlarining shakllanishiga olib kelishi mumkin.

G‘arb olimlaridan Bell va Blanchflover o‘z tadqiqotlarida ishsizlikning yoshlar ruhiy salomatligi va ijtimoiy kayfiyatiga ta’sirini tahlil qilib, ishsizlikning uzoq muddatli salbiy oqibatlari borligini ta’kidlaydilar. Ularning ta’kidlashicha, yoshlar ishsizlikka duch kelganida, ularning ruhiy holati yomonlashadi, jamiyatga bo‘lgan ishonchi pasayadi va ular siyosiy va ijtimoiy norozilik kayfiyatlariga moyil bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tushkunlik va noumidlik yoshlarning faolligi pasayishiga, ularning ijtimoiy jarayonlardan chetlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu holat jamiyatda radikal kayfiyatlarning paydo bo‘lishiga, huquqbuzarlik va boshqa salbiy holatlarning avj olishiga zamin yaratadi.

Davlat va jamiyat yoshlarning ishonchini mustahkamlash uchun ularga munosib sharoit yaratishi, ta’lim, mehnat va ijtimoiy himoya borasida samarali choralar ko‘rishi lozim. Chunki yoshlar jamiyatning kelajagi bo‘lib, ularning ruhiy va ma’naviy barqarorligi butun jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Shu bois, ijtimoiy tushkunlik va noumidlikka qarshi kurashish uchun yoshlar orasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlash zarur. Faqat shundagina yoshlar o‘z kelajagi uchun xavotir emas, balki umid va ishonch bilan yashaydigan qatlamga aylanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy nochorlik va ishsizlik hukm surayotgan joylarda yoshlar jinoyatchilik, radikal harakatlar va hatto qurolli mojarolarga qo‘shilishi mumkin.

G‘arb olimlaridan Solliyer va Hoyeffler o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy omillar va qurolli mojarolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, iqtisodiy nochorlik va ishsizlik yoshlarni noqonuniy harakatlarga jalb etishini, yoshlar uchun qonuniy ish topish imkoniyati cheklangan joylarda ularga noqonuniy daromad manbalari jozibador bo‘lib qoladi. Natijada, ular uyushgan jinoyatchilikka, giyohvand moddalar savdosi, odam savdosi yoki radikal harakatlarga qo‘shiladilar.

Iqtisodiy nochorlikning radikallashuvga ta’siri terrorizmni o‘rganuvchi boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Masalan, Kruyeger va Malechkova (2003) o‘z ilmiy ishlarida iqtisodiy nochorlik va ta’lim darajasi terrorchilik harakatlarida ishtirok etish ehtimoliga qanday ta’sir qilishini tahlil qilib, ijtimoiy-iqtisodiy faktorlarning radikallashuv jarayonida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib bergan.

Ishsiz yoshlar o‘z muammolarini hal etish uchun ko‘chalarga chiqishga moyil bo‘ladi. Ular iqtisodiy imkoniyatlar va adolatli mehnat bozorini talab qilgan holda, namoyish va tartibsizliklarga qo‘shilishi mumkin. Ushbu jarayon ko‘pincha iqtisodiy imkoniyatlarning yetishmovchiligi, korrupsiya, ijtimoiy tengsizlik va davlat institutlariga nisbatan ishonchning pasayishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Soha mutaxassisi bo‘lgan olim Gurr o‘zining “Why Men Rebel” nomli asarida nisbiy kamsitish nazariyasini ilgari surib, odamlar o‘ziga tegishli

deb hisoblagan imkoniyatlarga ega bo‘lmaganida, ular siyosiy norozilikni namoyon qiladi, deb ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, iqtisodiy nochorlik va ijtimoiy adolatsizlikka duch kelgan yoshlar o‘z haq-huquqlarini talab qilish uchun namoyishlarga chiqishi mumkin.

Shunga muvofiq, yoshlar va talabalarning norozilik namoyishlari hamda ijtimoiy harakatlarga jalb qilinishining bir nechta asosiy sabablari bor:

1. Ijtimoiy adolatga intilish. Yoshlar odatda idealistik fikrlaydi va ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglikka katta e’tibor qaratishadi. Ular jamiyatdagi nohaqlik va korrupsiyaga qarshi faol kurashishga moyil bo‘lishadi.

2. Talaba yoshlarning bilim va tanqidiy fikrlash qobiliyati. Talabalar oliy ta’lim muassasalarida bilim olishadi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradilar va jamiyatdagi muammolarni chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Universitet muhiti ularga erkin fikrlash va faol harakat qilish imkoniyatini beradi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va axborot tarqatish imkoniyati. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga axborotni tezkor tarqatish va harakatlarni tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ularning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga turtki bo‘ladi.

4. Ishsizlik va iqtisodiy muammolar. Ko‘p mamlakatlarda yoshlar ishsizlikdan aziyat chekishadi yoki iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan bo‘ladi. Bu ularni hukumat va ijtimoiy tuzilmalarga nisbatan norozilik bildirishga undaydi.

5. Energiya va tashabbuskorlik. Yoshlar katta energiyaga ega bo‘lib, o‘zgarishlar qilishga intilishadi. Ular o‘z kelajagi uchun qayg‘urgani sababli, turli ijtimoiy va siyosiy harakatlarda faol ishtirok etishga moyil bo‘lishadi.

6. Tarixiy va siyosiy an’analar. Ko‘plab tarixiy inqiloblar va siyosiy harakatlarda yoshlar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Masalan, 1968 yilda Fransiyada talabalar namoyishlari katta ta’sir ko‘rsatgan, 1989 yilda Xitoydagi Tyananmen voqealari, shuningdek, 1992-yil 16-yanvarda O‘zbekistonda talabalar shaharchasidagi voqealarda ham asosan yoshlar asosiy o‘rin egallagan.

XXI asrning dastlabki o‘n yilliklarida dunyo bo‘ylab yoshlar va talabalar ishtirokidagi namoyishlar ko‘plab tartibsizliklarning avj olishiga va siyosiy barqarorlikning vujudga kelishiga olib keldi.

Jumladan, 2010-yilning dekabr oyida Tunisda boshlangan va keyinchalik Misr, Liviya, Yaman, Suriya va boshqa arab davlatlariga yoyilgan va tarixga “Arab bahori” nomi bilan kirgan ommaviy tartibsizliklar tarixdagi eng yirik siyosiy mojarolardan biriga aylanib ketdi. Ushbu voqealarda

ham asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida yoshlar namoyon bo‘ldi. Uning boshlanishiga esa bevosita, Tunislik yosh savdogar Muhammad Buaziziyning o‘zini yoqib yuborishi turtki bo‘ldi. Bu voqea jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlikka va hukumat korrupsiyasiga qarshi ommaviy norozilik namoyishlarini keltirib chiqardi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar (ayniqsa, Facebook va Twitter) yoshlarni uyushishiga yordam berdi va namoyishlar butun mamlakat, so‘ngra butun mintaqa bo‘ylab tarqalib ketdi. Buning natijasida 2011-yilda Tunis prezidenti Zin al-Obidiyn Ben Ali, Liviya Prezidenti Muammar Kaddafiy, Misr Prezidenti Husni Muborak hokimiyatlari ag‘darildi. Biroq, bu harakatlar ushbu mamlakatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatmadi, siyosiy beqarorlik va zo‘ravonlik avj oldi.

Ushbu misollardan ko‘rishimiz mumkin-ki yoshlar siyosiy o‘zgarishlarda muhim rol o‘ynagan, ammo bu o‘zgarishlar har doim barqarorlikka olib kelmasligi mumkin. Ko‘plab mamlakatlarda yoshlar harakatlari siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazgan, ayrim hollarda yangi siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va fuqarolik jamiyati tashabbuslarining shakllanishiga turtki bergan.

O‘z navbatida, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faolligini quyidagi holatlar bilan ham izohlash mumkin:

- yoshlar tarixan siyosiy o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib kelgan. Ular jamiyatda yangi g‘oyalarni ilgari suradigan va status-kvoni o‘zgartirishga harakat qiladigan guruh hisoblanadi;

- demokratiya, inson huquqlari va erkinliklar uchun kurashda yoshlar ko‘pincha namoyishlar va ijtimoiy harakatlar orqali ishtirok etadi;

- yoshlar harakatlari siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazib, yangi siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlarning tashkil etilishiga sabab bo‘ldi. Masalan, ba’zi mamlakatlarda talabalar harakatlari yangi siyosiy kuchlarning yuzaga kelishiga olib kelgan;

- yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishi ularning ta’sir doirasini kengaytirib, jamoatchilik fikriga katta ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Shu bilan birga ularning bunday harakatlariga ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalarning roli ham juda muhim:

- zamonaviy yoshlar an’anaviy siyosiy platformalardan ko‘ra ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media vositalar orqali siyosiy jarayonlarda qatnashmoqda;

- Twitter, Facebook, Instagram va TikTok kabi platformalar yoshlar orasida siyosiy g‘oyalarni tarqatish, tashkilotchilik va namoyishlar uyushtirish uchun asosiy vositaga aylangan;

- ijtimoiy tarmoqlar vositasida yoshlar global miqyosda birlashib, bir-birlari bilan tajriba almashishi va turli mamlakatlardagi harakatlarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin;

- raqamli vositalar, shuningdek, hukumatlar tomonidan senzuraga uchrashi yoki manipulyatsiya qilinishi mumkin, bu esa yoshlar harakatlarining samaradorligiga ta’sir qiladi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda yoshlar harakatlarining kelajagini quyidagicha prognoz qilish mumkin:

birinchidan, yoshlar harakatlari kelajakda raqamli texnologiyalar va globalizatsiya ta’siri ostida yanada kuchayadi;

ikkinchidan, yangi yosh avlod siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazish uchun sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish orqali innovatsion usullarni ishlab chiqadi;

uchinchidan, demokratiya va inson huquqlari qadriyatlari yoshlar orasida yanada kuchayadi, bu esa ularning siyosiy jarayonlarga ta’sirini yanada oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, agar hukumatlar yoshlarni tinglasa, ularga imkoniyatlar yaratsa va asosiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirsa, yoshlar harakatlari zo‘ravonliksiz va barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi kuchga aylanishi mumkin. Buning uchun fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, ta’limni takomillashtirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash zarur. Ochiq muloqot va yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning jamiyatdagi ishtiroki kuchayib, ijobiy o‘zgarishlarga yo‘l ochiladi. Hukumat va jamiyat birgalikda harakat qilsa, yoshlar taraqqiyotning asosiy omiliga aylanib, barqarorlik va demokratik islohotlar uchun mustahkam poydevor yaratilishi mumkin.

HARBIY XIZMATCHILAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHDA OILA A’ZOLARINING IJTIMOIY HIMOYASI MASALALARI

Baqoyev Shahzod Hasan o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti doktoranti

Yurtimizda davlat xavfsizligini ta’minlash, hududiy yaxlitligi va konstitutsiyaviy tuzumni saqlash yo‘lida xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilar talaygina. Harbiy xizmat o‘ziga xos qat’iylik, mas’uliyat, fidoiylik va sadoqatni talab qiladigan faoliyat turi bo‘lib, bu soha vakilllarining nafaqat o‘zlari balki oila a’zolari ham muayyan ijtimoiy muammolarga duch keladi.

Bugungi glaballashuv va xavfsizlikka tahdidlar oshib borayotgan davrda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash, oila a’zolarining yashash sharoitlarini yaxshilash orqali kasbiy sadoqatini kuchaytirish zaruriyati mavjud. Zero, harbiy xizmatchilarning oila a’zolari ijtimoiy himoyalanganligi ularning xizmatni yuksak mas’uliyat bilan bajarishiga, har qanday sharoitda ham Vatan oldidagi burchini sadoqat bilan bajarishiga zamin yaratadi.

Professor N.I. Kuznesov harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining imtiyozlarini davlat tomonidan ushbu fuqarolarga harbiy xizmatni o‘tashi yoki boshqa harbiy vazifalarni bajarishi munosabati bilan beriladigan muayyan afzallik yoki ularni muayyan davlat majburiyatlaridan to‘liq yoki qisman ozod qilish deb tushunishni taklif qiladi[9].

Yurtimizda olib borilayotgan harbiy siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilishga oiddir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida mamalakatimizning mudofaa va xavfsizlik soxasida ulkan isloxotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari boshchiligida 2025-yil 21-fevral kuni Xavfsizlik kengashining davlat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish davomida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy-

[9] Военное право: Учебник / Под ред. Н.И. Кузнецова. М.: ВУ, 1996. С. 70; Военная администрация: Учебник / Под ред. Н.И. Кузнецова. М.: ВУ, 1998. С. 222.

huquqiy himoya qilish ham kuchaytirilganligi ta’kidlandi. Jumladan, 30 mingga yaqin oila uy-joy bilan ta’minlandi, o‘tgan yil davomida 2 mingdan ortiq harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar berilganligi aytib o‘tildi, kelgusi yillar uchun harbiy xizmatchilarni va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvatlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy sport sohasiga yo‘naltirish ustuvor vazifalar etib belgilandi[10].

Huquqshunos olimlardan Y. Tursunov “imtiyoz va yengilliklar nafaqat muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvatlashda, balki ayrim shaxslarning davlat va jamiyat oldidagi ulkan xizmatlari uchun taqdirlashga ham qaratilishi, undan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi pensionerlar, nogironlar, yolg‘iz qariyalar, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy ahamiyati katta bo‘lgan muayyan kasb va vazifalarda band bo‘lgan shaxslarni (pedagoglar, shifokorlar) va boshqa toifadagi fuqarolarni ham o‘z ichiga qamrab olishi” lozim deb hisoblaydi[11].

So‘nggi yillarda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlash hamda ularga hayot uchun zarur ijtimoiy-moddiy shart-sharoitlarni yaratib berish, shu o‘rinda eng avvalo ularni uy-joylar bilan ta’minlash yuzasidan ko‘plab ijobiy islohotlar olib borilmoqda hamda bu ishlarga davlat e’tiborida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-71-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi[12] qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan 2025-yil 1-martdan boshlab harbiy xizmatchilarga turarjoyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun to‘lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdorini 20 foizga oshirish, 2025-yil 1-iyundan boshlab qonunchilik hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ipoteka kreditlarini ajratish ko‘rsatkichlari asosida uyjoy bilan ta’minlanadigan, kalendar hisobida o‘n yildan ortiq harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olish (qurish) uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdorini uy-joy hisoblangan qiymatining 35 foizi miqdorida belgilandi.

V.S. Martirosyan imtiyozlar va afzalliklarni ikki mustaqil huquqiy institut sifatida ajratib, imtiyozlar deganda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining jamoat munosabatlarining turli sohalarida qo‘shimcha

[10] https://www.president.uz/oz/lists/view/7896

[11] Турсунов Й., Усманова М. Аҳолига ижтимоий муҳофаза ёрдамини ташкил этиш. – Т.: Давр нашриёти, 2012. – 138 б.

[12] lex.uz/uz/docs/-7399907

huquqlar berish va qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlardan ozod qilishda ifodalangan manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishning huquqiy vositalarini, afzalliklar deganda esa imtiyozlardan farqli ravishda harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi mavqeini, ularning o‘tmishdagi xizmatlarini, yurt xizmati uchun qo‘shgan alohida hissasini va sharafli xizmatini e’tirof etgan holda boshqa huquqiy munosabatlar ishtirokchilaridan farqli o‘laroq beriladigan qo‘shimcha imtiyozlarni tushunadi[13].

Bugungi kunda harbiy xizmatchilar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishi holatlari ham yo‘q emas. Ushbu holatlarning asosiy sabab va shart-sharoitlari o‘rganilganda ko‘p qismini harbiy xizmatchilarning oilalaridagi mavjud ijtimoiy muammolar sabab bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirda, ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha Qurolli Kuchlarning vazirlik va idoralarida alohida dasturlar faoliyat olib bormoqda. Ular doirasida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga ijtimoiy, moddiy, ma’naviy va psixologik yordamlar berib kelmoqda. Biroq ularning faoliyati ko‘p hollarda bir-biridan mustaqil tarzda olib borilishi, o‘zaro ma’lumot almashinuvi yo‘qligi va umumiy strategik maqsadlar asosida ishlash tizimi yetishmasligi muammolari mavjud. Bu esa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga, turli vazirliklarda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy xizmatlar bir xilda ko‘rsatilmayotganligidan norozilik kayfiyati paydo bo‘lishiga, xizmatlar takrorlanishiga va ayrim ehtiyojlarning e’tibordan chetda qolishiga olib kelmoqda. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun amaldagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimida markazlashtirish, boshqaruv organlari o‘rtasida muvofiqlashtirish tizimini yaratish zarurati mavjud.

Shu o‘rinda N.A.Vinogradovning “Qaysiki davlatning armiyasi qudratli bo‘lsa shu davlatning o‘zi ham qudratli hisoblanadi. Armiyaning kuch-qudrati nafaqat uning harbiy texnikalari va qurollariga, balki unda xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning ahloqiy-ruhiy holatiga ham bevosita bog‘liqdir. Harbiy xizmatchilarni harbiy intizomi va jangovar tayyorgarligi darajasi ularning yetarli maishiy-turmush sharoitlariga ega bo‘lishiga bog‘liq” deya ta’kidlagan fikrlarini e’tirof etmasdan ilojimiz yo‘q[14].

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalalari bo‘yicha turli xil chet davlatlarda turlicha tajribalar mavjud. Xususan: AQSHda nafaqadagi

---

[13] Мартиросян В.С. Правовое регулирование лгот и преимуществ военнослужащих и членов их семей в области труда: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. М.: ВУ, 2004. С. 9.

[14] Виноградов Н.А. Советское военно-административное право: Ch. 2. - М., 1951.

va xizmatdagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish, sog‘ligini saqlash, moliyaviy yordam berish, ta’lim grantlari ajratish, uy joy kreditlari va boshqa xizmatlarni ko‘rsatuvchi “Department of Veterans Affairs” federal agentligi tashkil etilgan. Fransiyada harbiylar, urush faxriylari va ularning oila a’zolarini qo‘llab quvvatlovchi “Office National des Anciens Combattants et Victimes de Guerre” davlat agentligi tuzilgan. Ushbu agentliklar mustaqil va muvofiqlashtiruvchi organ sifatida barcha harbiy vazirlik va idoralarning harbiy xizmatchilari va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish xizmatlarining standartlarini birxillashtirish, ijtimoiy yordam shaffofligini ta’minlash vazifalarini bajaradi. Shuningdek, Isroil davlatida harbiylarga oid barcha ma’lumotlarni o‘zida jamlovchi “Israel Defense Forces” elektron tizimi mavjud. Ushbu baza harbiy xizmat davomida va undan keyin harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish uchun asos bo‘ladi.

Harbiy xizmatchilarni yuqori vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lishlari uchun ularning “yuragining yarmi” hisoblangan oila a’zolarini himoya qilish tizimini takomillashtirish muhimdir. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyalash tizimi amaldagi holati tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy himoya choralari turli vazirlik va idoralar doirasida bo‘linib ketgani, yagona muvofiqlashtiruvchi tizimning yo‘qligi, hamda huquqiy tartibning tarqoq holda ekanligi ushbu yo‘nalishda tizimli ishlar amalga oshirish lozimligini ta’minlaydi. Olib borilgan tahlillardan aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tarkibida Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari ularning oila a’zolari ijtimoiy himoya masalalari bilan shug‘ullanuvchi harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini ijtimoiy himoyalash sho‘basini tashkil etish;

Harbiy xizmatchilarning oila a’zolari haqida barcha ma’lumotlarni o‘zida jamlovchi elektron baza yaratish;

Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari o‘rtasida harbiy xizmatchi va xodimlari orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish hamda ijtimoiy muammolarini hal qilishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkillashtirish to‘g‘risida qo‘shma qaror qabul qilish.

Taklif etilgan choralar ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishga, ushbu tizim harbiy xizmatchilarning o‘z kasbiga ishonchini oshirishga, nafaqat o‘zining balki oila a’zolarining ham vatanparvarligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Военное право: Учебник / Под ред. Н.И. Кузнецова. М.: ВУ, 1996. С. 70; Военная администрация: Учебник / Под ред. Н.И. Кузнецова. М.: ВУ, 1998. С. 222.

2. https://www.president.uz/oz/lists/view/7896

3. Турсунов Й., Усманова М. Аҳолига ижтимоий муҳофаза ёрдамини ташкил этиш. – Т.: Давр нашриёти, 2012. – 138 б.

4. lex.uz/uz/docs/-7399907

5. Мартиросян В.С. Правовое регулирование лгот и преимуществ военнослужащих и членов их семей в области труда: Автореф. дис. … канд. юрид. наук. М.: ВУ, 2004. С. 9.

6. Виноградов Н.А. Советское военно-административное право: Ch. 2. - M., 1951.

MAFKURAVIY TAZYIQLAR VA ULARNING MADANIY JARAYONLARGA TA’SIRI

Masharipova Gularam Kamilovna

Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori.

Har qanday jamiyatda mafkura — kishilar dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong va axloqiy me’yorlar shakllanishida hal qiluvchi omildir. Shu sababli mafkura doimo siyosiy kuchlar tomonidan boshqarish, nazorat qilish va yo‘naltirish vositasi sifatida qo‘llanilgan. Bu esa ko‘pincha mafkuraviy tazyiqlar ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Mafkuraviy tazyiqlar — bu kishilarning fikrlash, ijod qilish, yashash erkinligini cheklovchi g‘oyaviy va siyosiy bosimlar majmuasidir. Ular madaniy taraqqiyotga, san’at, adabiyot, til, ta’lim kabi sohalarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Mafkuraviy tazyiq - bu hukmron mafkura tomonidan qarama-qarshi g‘oyalarning rad etilishi, senzura, ideologik doirani tark etgan fikrlovchilarni jazolash, madaniy me’yorlarni mafkura asosida qayta shakllantirish kabi harakatlarni o‘z ichiga oladi. Tarixda bu holat ko‘plab totalitar tuzumlarda yaqqol kuzatilgan. Masalan, Sovet davrida ijtimoiy realizm yo‘nalishidan chetga chiqish mafkuraviy jinoyat hisoblangan.

Mafkuraviy tazyiqlarning madaniyatga ta’siri quyodagilardan iborat:

Adabiyot va san’atga ta’siri: Mafkuraviy tazyiqlar ijod erkinligining cheklanishiga olib keladi. Erkin fikrlovchi yozuvchilar, rassomlar ta’qib qilinadi yoki “ijtimoiy xavfli” deb tanqid ostiga olinadi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi jadid ziyolilarning ijodi ma’lum davrlarda taqiqlangan.

Til va milliy o‘zlik: Hukmron mafkura ko‘pincha milliy tillarning o‘rniga yagona “davlat tili”ni ilgari suradi. Bu esa milliy madaniyatlarning chekinishiga, o‘zlikni yo‘qotishga sabab bo‘ladi.

Tarixni ideallashtirish: Mafkuraviy bosim orqali tarixiy voqealar siyosiy maqsadga muvofiq ravishda talqin qilinadi. Bu esa tarixiy haqiqatning soxtalashtirilishiga olib keladi.

Ma’naviyat va qadriyatlar tizimi: Mafkura axloqiy mezonlarni o‘zgartiradi, jamiyatga “to‘g‘ri” deb ko‘rsatilgan xatti-harakatlarni tanishtiradi. Bu esa avlodlar o‘rtasidagi qadriyatlar uzviyligini izdan chiqaradi.

Bugungi kunda turli mamlakatlarda namoyish etilayotgan kino, videofilm va shou-biznes namoyishlarining to‘rtdan uch qismi Amerika mahsulotiga to‘g‘ri keladi. AQSHning globallashuv jarayonida tutgan o‘rni haqida to‘xtalib, Valladao bunday deb yozadi: “Amerika jamiyati ko‘p jihatdan globallashib ulgurgani sababli o‘zaro mushtarak va global dunyoning tezroq shakllanishidan mafaatdor ekani shubxasizdir” [1, 12-b.]. Ammo, bu jarayonlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

G‘arb davlatlari tomonidan ijtimoiy hayotda madaniyat, san’at, ta’lim va fan xizmatlari bozorini monopoliyalashtirishga intilishini globallashuv jarayonlarini keltirib chiqarayotgan jiddiy tahdidlar qatoriga qo‘shish mumkin. Bu masalada ayniqsa Amerikaliklar faol harakat qilmoqdaki, bu masaalarga nafaqat, SHarq mamalakatlari, balki dunyoqarashi, yashash tarzi, qadriyatlari yaqin bo‘lgan Evropa davlatlari ham ijtimoiy hayotning barcha sohalarini “amerikalashtirish”ga qarshilik ko‘rsatayotgani buni tasdiqlaydi. Qolaversa bugungi kunda globallashuv jarayoni bilan bog‘liq tobora keng yoyilib borayotgan “Ommaviy madaniyat” deb nom olgan madaniyatning yoshlarga ta’siri uning, uning ijobiy tomonlari bilan birgalikda uning salbiy tomonlariga ham alohida e’tibor berilmoqda. “Ommaviy madaniyat”deb nom olgan xalqimiz tasavvurlariga, tarixiy-madaniy an’analariga, sharqona odob, axloq normalariga zid qarashlar, pornografik asarlar, siyqa san’at va g‘ayriaxloqiy asarlar bugun milliy madaniyatlarga, milliy o‘zlikni anglashga katta xavf solmoqda.

Mutaxassislar “ommaviy madaniyat”ning kishini ijtimoiy muammolaridan, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg‘itishga qaratilganligini qayd etishadi... “Ommaviy madaniyat”da o‘ta sodda, siyqa qarashlar yangilik, badiiy-estetik kashfiyot sifatida taqdim etiladi [2, 117-b.]. Konsertlar kliplardan iborat bo‘lib, muayyan “san’atkor”ning iqtidorini emas, balki tashqi ko‘rinishi, kiyinishi, uy-hovlisi ko‘z-ko‘z qilinadi.

Haqiqatdan ham hozirgi kunda “ommaviy madaniyat” televideniedan keng o‘rin olishga intilmoqda. Televidenie esa hammamizga ma’lumki bugun nafaqat ommaviy axborotni tarqatish vositasi, balki u insonlarga ijtimoiy ongini va estetik didni shakillantiradi. Bundan tashqari o‘zicha kishilarda duch kelayotgan ijtimoiy muammolarni “echishga” yordam beradi, u kishilarni hayot tashvishlaridan, aniqrog‘i, ijtimoiy muammolardan chalg‘itadi, ularning uyi, xayolini engil-elpi, siyqa, goxo seksual syujetlarga qurilgan dasturlari, ko‘rsatuvlari bilan band qilib qo‘yadi. Masalan, kishi qanchalik qashshoq, kambag‘al bo‘lsa, televideniega shunchalik ko‘p bog‘lanadi, hayotiy muammolarini televidenie orqali hal etishga (Eskeypizim-“essare”) moyil bo‘ladi [2, 118-b.].

Endi “ommaviy madaniyat” masalasiga chuqurroq nazar soladigan

bo‘lsak, u hozirgi kunda madaniy globallashuvning, madaniy ekspansiyaning, qolaversa, mafkuraviy tazyiqning eng xavfli quroliga aylanib bormoqda. SHuni e’tiborga olish lozimki “ommaviy madaniyat”da milliy qadriyat, milliy xususiyat va milliy tarixga asos yo‘q. Bu borada olim U.Saidov o‘zining “Globallashuv va madaniyatlararo muloqot”deb nomlangan asarida ularni umumlashtirgan holda quydagicha ifodalaydi:

- Ommaviy madaniyat – xalq madaniyati urf-odatlari, marosimlari, san’ati va hokazolarni ifodalovchi tushuncha.

- Ommaviy madaniyat OAVning rivoji bilan bog‘liq hodisa.

- Ommaviy madaniyat ishlab chiqarish, “ko‘ngil ochish industriyasi” tomonidan yaratilgan, omma iste’moliga mo‘ljallangan madaniyatning sayqallashtirilgan namunalari ko‘rinishidagi salbiy hodisalardir [3, 75-b.].

Endi «ommaviy madaniyat»ning o‘zi yana qanday ko‘rinishlari mavjud degan savol tug‘iladi. Bularga quyidagilarni ketirish mumkin, jumladan: kino va videofilmlar, teatr, adabiyot va san’at (rassomchilik, tasviriy san’at, haykaltaroshlik, musiqa va boshqalar.), matbuot va televidenie (ommaviy axborot vositalari), kiyinish madaniyati (modalar ko‘riklari), ovqatlanish madaniyati (ovqatlanish tarzining bir xillashuvi), Internet va hokazolarni keltirish mumkin. Bu ko‘rinishdagi «ommaviy madaniyat» larni rivojlanib borayotganligi, avvalambor, dunyoda «hukmronlik qilish maqsadida harakat qilayotgan davlatlarning shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun mafkuraviy maqsadlarni amalga oshirish bilan bog‘liqdir [4, 126-128-bb.].

O‘z-o‘zidan ayonki, kuchli davlatlar o‘z hayotiy, avvalo, madaniy ramzlarini himoya qilish uchun barcha vositalarni ishga soladi, o‘z «yashash tarzlari» va madaniyatlarini boshqa xududlarga yoyish kabi, boshqacha aytganda, madaniy ramzlar intervensiyasi orqali dunyoni o‘z ta’siri ostiga olishga harakat qiladi. O‘z navbatida, madaniy unifikatsiyalash, madaniy rang-baranglikni inkor etishga bo‘lgan harakatlar madaniy identifikatsiyalash, ya’ni madaniy o‘ziga xoslikni saqlab kolishga intilishni yuzaga keltirmoqda.

Rus olimi V.G.Fedotova, «ommaviy madaniyat» «ildizsiz individ» [4, 3-b.] larni shakllantiradi deb ta’kidlaydi, ommaviy axborot vositalari yordamida esa «ildizsiz», zaminidan mahrum etilgan individlar ommasi paydo bo‘ladi. Bu bilan jamiyatda tartib-qoida va qadriyatlarni yuqotish (anomiya) holatiga tushadi. Rus olimlaridan S.Naumov esa anomiya «individlarni jamiyatdan begonalashuviga olib boradigan tizim, jamiyatning normativ-funksional talablari bilan individlarning real xatti-harakatlari o‘rtasidagi bog‘lanishning buzilishi» [5, 9-b.], - deb ta’riflaydi. Shunday qilib, globallashuv jarayoni va uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan «ommaviy madaniyat» ekspansiyasi ta’siri

natijasida sodir bo‘ladigan qadriyatlar tizimidagi tub o‘zgarishlar «ijtimoiy mavjudot» bo‘lgan insondagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Buning xavotirli jihati shundaki, inson va jamiyat ma’naviy-axloqiy tayanchlaridan mahrum bo‘ladi, jamiyat inqirozga uchray boshlaydi.

Xulosa. «Ommaviy madaniyat» o‘z navbatida, azaliy qadriyatlar tizimini vayron qilish, shaxsni paymol etish va buning ortidan shakllangan davlat va jamiyatlarni buzish, odamlarni ayirish vazifasini o‘taydi. SHuning uchun xam xozirgi kunda barcha insonlar oldida turgan eng dolzarb vazifa odamlarni mafkuraviy tazyiqlar, axborot xurujlaridan himoyalash, ularning ma’naviy salohiyatini oshirish va ularda goyaviy immunitetni shakllantirishdan iborat. Bugungi globallashuv sharoitida turli shakldagi xususan, «ommaviy madaniyat» kurinishidagi mafkuraviy xurujlarga karshi kurash, buning uchun «xalqni - xalk, millatni - millat» qilishda O‘zbekistonda tinchlikni asrab-avaylash, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida milliy mafkurani mustaxkamlashdan iboratdir. Mafkuraviy tazyiqlar madaniy rivojlanishni sun’iy yo‘nalishga burib yuboradi. Bu esa jamiyatda ijodiy fikrning so‘nishiga, tarixiy xotiraning zaiflashishiga va madaniy boyliklarning boy berilishiga olib keladi. Shu sababli har qanday jamiyatda mafkuraviy pluralizm, fikrlar xilma-xilligiga nisbatan bag‘rikenglik muhim ahamiyatga ega. Madaniyat — bu erkin ijod mahsuli, u mafkuraviy zanjirlarda emas, balki ijtimoiy ong va tafakkur erkinligi sharoitida rivojlanadi.

ADABIYOTLAR:

1.Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. –T.:Akademiya, 2006. – B.12.

2.Qo‘chqorov V. Milliyligimizni anglash va ijtimoiy siyosiy jarayonlar. –T.:Akademiya, 2007. – B.117.

3.Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. – T.:Akademiya, 2008. –B.75.

4.Машарипова Г.К. Оммавий маданий ва уларнинг кўринишлари. Voyaga yetmaganlarni turli ma’naviy tahdidlar va informatsion hurujlardan himoya qilishning dolzarb masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. – T., 2014. - 126-128-bb.

5.Федотова М.Г. Фактор ценностных изменений на западе и в России. // Вопросы философии. - 2005. - №11. - С.3.

6.Наумов С. Общечеловеческие проблемы глобализации. // Глобализация: проблемы международного сотрудничества и решение общечеловеческия задач. - Саратов, 2005. - С.9.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI O‘RGANISHDA QO‘LLANILADIGAN SIYOSIY FANLAR METODLARI QIYOSIY TAHLILI

Xolmaxmatov Azim Xazratkulovich

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning obyekt-subyekt munosabatlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi siyosatni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari muayyan mamlakatdagi real holatini ko‘rish, unga doir umumlashgan xulosalar, shuningdek, istiqbolli taraqqiyotiga taaluqli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlarga oid davlat siyosati, nazariy modellar, obe’kt, subyekt, davlat hokimiyati organlari, yoshlar birlashmalari, ijtimoiy muhit, yoshlar siyosatini modellashtirish, fuqarolik jamiyati instituti, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, qo‘shma kelishuv, ko‘makchi tashkilot, jamg‘arma.

Bugungi kunda yoshlar muammolarini yoshlar siyosati nuqtayi nazaridan o‘rganish keng qamrovli hisoblanadi. Zamonaviy O‘zbekistondagi yoshlarga oid davlat siyosatining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rib chiqishdan oldin mazkur mavzuga oid kategoriyalar apparatini aniqlab olish buning uchun esa “Yoshlar siyosati”, “Yoshlar siyosatining modellari”, “Yoshlar siyosatining tamoyillari” hamda “Yoshlar siyosatining obyekti va subyekti” kabi va boshqa tushunchalarni aniq ta’riflab olish shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini o‘rganishda qo‘llaniladigan siyosiy fanlar metodlari tahliliga diqqat qaratish lozim.

Muayyan tamoyillar, yondashuvlar, metodlar tizimi sifatida har qanday fan metodologiyasi uning tadqiqot sohasining asosini tashkil etadi. Siyosiy fanlar metodologiyasi deganda mazkur yo‘nalishda qo‘llaniladigan metodlar, yondashuvlarning tarixi, ma’no-mazmuni, roli va ahamiyatini o‘rganadigan alohida yo‘nalish tushuniladi. Yoshlar siyosatini tadqiq etishning umumiy metodologiyasidan kelib chiqqan holda davlat siyosati, ijtimoiy siyosat, yoshlarga oid davlat siyosati singari siyosiy kategoriyalarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Zero, mazkur kategoriyalar tahlili yoshlarga oid davlat siyosati tushunchasining barcha elementlarini aniq ko‘rish imkonini beradi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari muayyan mamlakatdagi mazkur siyosatning real holatini koʻrish, unga doir umumlashgan xulosalar, shuningdek, istiqbolli taraqqiyotiga taaluqli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. XX asrning boshlarida yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki oʻsib borishi bilan ularning siyosiy xulq-atvori va siyosiy madaniyatini emperik tadqiqot metodlari asosida oʻrganishga boʻlgan obyektiv zarurat ortib bordi. Mazkur tadqiqot uslubi statistikadan foydalanish, hujjat tahlili, anketa soʻrovnomasi, labaratoriya eksperimenti, ish oʻyini, kuzatish va boshqa metodlarni oʻz ichiga qamrab oladi. Masalan, kontent tahlil usuli yoshlarning siyosiy faollik darajasini aniqlash imkonini bersa, statistik metoddan yoshlarning ijtimoiy-siyosiy tizimdagi holatlarini qiyosiy oʻrganish maqsadida qoʻllaniladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini oʻrganishda bunday xilma-xil metod va yondashuvlarning qoʻllanilishi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida roʻyobga chiqadigan hodisalarni bir yoqlama, bir oʻlchovga koʻra, bir chiziqli tahlil etish imkoni yoʻqligini anglatadi. Yoshlarga oid davlat siyosatini tadqiq etishda izlanishlar amaliy va maqsadli natijalarga olib kelishi uchun ularni turli metodlar asosida koʻp yoqlama tadqiq etish zarur. Ayni koʻp yoqlama komleks tahlil metodologiyasi eng avvalo yoshlarga oid davlat siyosati uning obyekti-subyektini aniq belgilab olish, shuningdek, Yoshlarga oid davlat siyosatining nazariy modellarini yaratish, paradigma va tamoyillarini shaklantirish imkonini beradi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining nazariy modellarini yaratish, paradigma va tamoyillarini shaklantirishdan avval mazkur tushunchaning mohiyati nimadan iborat ekanligini anglab olish muhim.

Yoshlar siyosati tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab, mazkur tushuncha ijtimoiy gumanitar fanlarda institutsionallasha boshladi. Oʻtgan asrning 90 yillar boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan keng, tor va muassasaviy ma’nodagi talqinlari muhokama qilinib kelinmoqda.

Zamonaviy yoshlar siyosati ta’rifi bevosita tugʻilgandan to 30 yoshgacha boʻlgan yosh avlod muammolarini hal qilishga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar yigʻindisini nazarda tutadi.

Yoshlar siyosatiga yoshlar bandligini ta’minlash, ularda tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish, ta’lim va sportga oid davlat siyosati sifatida qaraladi.

1991-yil 20-noyabr kuni “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilinishi bilan Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisidagi tushuncha mamlakatning qonunchilik tizimiga rasman kiritildi. Mazkur qonun bilan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga

oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari tuzilmalarining vazifalari belgilab berildi. Shuningdek, yoshlar siyosatiga oid davlat dasturlari va meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi. Sobiq sovet ittifoqi davrida yoshlar siyosati asosan mafkuraviy xarakter kasb etib, u davlat siyosatining alohida yo‘nalishi sifatida ajratib ko‘rsatilmas edi. Shuningdek, yoshlar siyosati tushunchasi ham alohida atama sifatida qo‘llanilmas edi.

Yoshlar siyosatining umumjahon miqyosidagi talqini BMTning bu boradagi rasmiy hujjatlarida ham aks etgan. Ushbu hujjatlarda yoshlar siyosati tushunchasi birmuncha keng ta’riflangan: xususan, “yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan davlat faoliyatining ajralmas qismi bu yoshlar siyosati hisoblanadi”. Yoshlar siyosati nafaqat davlat tashkilotlari balki, o‘zining umumiy faoliyati doirasida yoshlar masalalariga ham diqqat qaratuvchi partiyalar, ijtimoiy harakatlar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa ijtimoiy institutlarni ham qamrab oladi.

Shuningdek, 2016 yilning 14 sentabrida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida “yoshlarga oid davlat siyosati-davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi” deb ta’riflangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablarga ko‘ra O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini quyidagilar tashkil etadi:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;

yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish. Bundan kelib chiqadiki, yoshlarga oid davlat siyosati davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, yoshlarga oid davlat siyosatining tamoyillari sifatida belgilangan jamiyatning ijtimoiy madaniy sohasiga oid jarayonlarning davlat tomonidan boshqarilishini ta'minlash uning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ayni o'rinda ijtimoiy tizimga yoki bu tizimning qismi sifatida yoshlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan yoki bilvosita uning amal qilish sharoitida siyosat subyekti sifatida yoshlarni rivojlanishga undovchi boshqaruv jarayonidagi Yoshlar va yoshlarga oid davat siyosati o'rtasidagi obyekt va subyekt munosabatlari aniqlanadi.

Ijtimoiy extiyojlari yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doirasida qo'llaniladigan chora-tadbirlar va dasturlar orqali qondiriladigan turli yoshlar guruhlari va harakatlar, yoshlar tashkilotlari hamda alohida yosh insonlar yoshlar siyosatining obyekti hisoblanadi.

Bugungi kunda nafaqat birgina davlat hokimiyati organlari yoshlar birlashmalari, ularning assosiatsiyalari, shuningdek, yoshlarning ta'lim olishi, tarbiyasi, munosib turmush kechirishi uchun muayyan sharoit yaratish bilan shug'ullanuvchi o'zini-o'zi boshqarish organlari, ish beruvchilar, jamoat birlashmalari, yuridik va jismoniy shaxslar hamda yoshlarning o'zlari ham yoshlarga oid davlat siyosatining subyekti hisoblanadi. Odatda, davlat boshqaruvi tizimiga muvofiq, ta'lim va tarbiya institutlari yoshlar siyosatining subyektlari hisoblanadi.

Yoshlar siyosatini modellashtirish masalasi davlat ijtimoiy siyosatining subyekti sifatida qaraluvchi yoshlar va ularga oid nazariy va amaliy muammolar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Yoshlar siyosatining asosiy prinsiplarini mazkur siyosatning "subyektlik"i deb hisobash

mumkin. Yoshlarning subyektlik xususiyati yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida tashqaridan kiritilmagan balki, o‘z o‘zidan kasb etilgan xususiyat hisoblanadi. Mazkur xususiyat davlat va jamiyatning harakati jarayonida yuzaga keladi. Yoshlar subyektlashuvi jarayoni esa integral xarakter kasb etadi. Bu jarayon yoshlarning faoliyat turini tanlashi, o‘zining tashabbuskorligini tushunishi hamda maqsadlar va ularga erishish vositalarini ishlab chiqish kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi. Yoshlarning subyektligi, ijtimoiy faollik, o‘z o‘zini nazorat qilish va boshqarish va mavqeini belgilash bilan tavsiflanuvchi yaxlit ijtimoiy jarayonlarning omili hisoblanadi. Shu ma’noda, muayyan guruh yoki submadaniy birlikning yo‘nalganligi sifatida qaraluvchi yoshlar guruhlarining ijtimoiy faolligini, yoshlarning o‘z holatini o‘zgartirish jarayonida amal qiluvchi ijtimoiy-madaniy sharoitlarga muvofiq shakllangan qiziqish va ehtiyojlar hamda buning uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy sifatlar o‘laroq ta’riflash mumkin.

O‘zini-o‘zi boshqarish tushunchasi yoshlar siyosatining subyektlik xususiyatini tushunishda muhim bo‘lib, u o‘zida jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishdagi ishtirokini va davlat hamda ijtimoiy guruhlar manfaatlarining o‘zaro samarador mutanosibligini nazarda tutadi.

Subyektlik yoshlarning muhim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun zaruriy shart-sharoit yaratish yoki, subyektlik xususiyatining yuzaga chiqishi uchun xizmat qiladigan texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq ravishda shakllanadi. Aynan mazkur texnologiyalar yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qo‘llaniladigan muayyan ijtimoiy loyiha va dasturlar samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda bugungi kunda “yoshlar ijtimoiy taraqqiyotida vorisiylik va o‘zgaruvchanlik xususiyatlarining uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratiladi. Ijtimoiy muhit va yangi avlod o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarini boshqarishda yoshlarning o‘zini-o‘zi rivojlantirish tendensiyasiga tayanish talab qilinadi”. bunday murakkab vaziyatda jamiyat va davlat oldida yoshlarga ta’sir o‘tkazishning sifatli yo‘llari va usullarini izlab topish va muvoffaqqiyatli qo‘llash vazifasi qo‘yiladi. Shu ma’noda yoshlar va yoshlarga oid davlat siyosati o‘rtasidagi subyekt va obyekt munosabatining mazmuni bugungi kundagi yoshlar muhiti tubdan o‘zgarishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga oid davlat siyosati turli ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun predmet vazifasini o‘tay oladi. Uni tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlarning xilma-xilligi ham yoshlarga oid davlat siyosatining sohalararo tadqiqot predmeti bo‘la olishlik xususiyati bilan farqlanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqot metodlari hamda ular asosida kelib chiquvchi yoshlarga oid davlat siyosati modellari uni tadqiq etishning nazariy-metodologik asosi sifatida mazkur sohadagi obyekt subyekt munosabatlarining yaxlit tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Меркулов П. А. Методология изучения государственной молодежной политики — приглашение к дискуссии // Вестник Ассоциации ВУЗов туризма и сервиса. 2012. № 4(23). С. 79–82.

2.Н.Жўраев. Янгиланиш концепцияси: яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 43

3.Молодежь в организации Объединенных Наций / Библиотека документов ООН, связанных с молодежью. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.un.org/ youth.html.

4.Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғисида”ги қонуннинг 3 моддаси http://lex.uz/docs/3026246

5.Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятига доир ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар (I қисм). – Т: “O‘zbekiston” НМИУ, 2017.Б – 34-45.

6.Жўраев С. Ўзбекистон давлатининг ёшларга доир сиёсати: назария ва амалиёт. Сиёс.ф.док. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.:1994.

7.Социальные технологии. Толковый словарь // — Москва-Белгород: Луч-Центр социальных технологий, 1995.-С 36.

8. Иваненко, СП. Молодежь и государство: инновационные подходы / СП. Иваненков, А.Ж. Кусжанова. -Оренбург: Ком. По делам молодежи Оренбург, обл., 2005. - С. 19.

SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOV JARAYONLARIDA FOSH ETILMAGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI

Sattarov Mansur Abdugafurovich

IIV huzuridagi Tergov departamenti boshlig‘ining o‘rinbosari, polkovnik.

Har qanday mamlakatning ijtimoiy qadriyatlari tizimida bevosita shaxsning manfaatlari, ya’ni hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, qadr-qimmati va erkinliklari bilan bir qatorda, mulkiy huquqlarini ham himoya qilish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy hayotning biror-bir sohasi yoki tarmoXg‘ini shaxsning mulkiy huquqlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Ijtimoiy manfaatlar tizimida shaxsning mulkiy huquqlari eng muhim manfaatlar sifatida baholanadi, mulkiy huquqlarga tajovuz qilish bevosita shaxsga tajovuz qilish bilan teng hisoblanadi. Bu vazifalarni qachonki qonunlarni hurmat qilish har bir kishining kundalik shaxsiy e’tiqodiga aylangan takdirdagina amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Jamiyatimizda qonun-ustuvor, jazo-muqarrar” degan muhim prinspni ta’minlash, sud, prokratura, ichki ishlar organlari, advakatura tizimi faoliyatini takomillashtirish, ularni tom ma’noda inson huquq va manfaatlari himoyachisiga aylantirish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.Ana shunday o‘zgarishlartufayli jamiyat hayotida qonun-qoida, tartib intizom odamlarning haqli talablari bilan xisoblashish kabi eng muhim tamoyillar tobora chuqur o‘rin egallamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga asosan, fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi. Xususiy mulk daxlsizdir.

Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.

Biroq, xalqimizda “guruz kurmaksiz bo‘lmaydi” degan naqlni inobatga olib, halol yo‘l bilan mexnat qilmasdan, oson boylik orttirish maqsadida o‘zgalarning mulkiga va mulkiy huquqlariga zarar yetkazish, ularni

talon-taroj holatlari ham mavjuddir. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilishga qarshi kurashning asosiy yo‘li ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni sifatli va maqsadli ko‘rishdan iboratdir. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning, eng ko‘p sodir etiladigalari bu mulkiy turdagi jinoyat bo‘lib, ularni kamaytirish, oldini olish, ularga qarshi kurashish bo‘yicha davlat tomonidan alohida e’tibor va zarur choralar ko‘rilishini talab qiladi.

Darhaqiqat, bu eng muhim, kechiktirib bo‘lmaydigan bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanib, uning mazmuni qonunchilikka qa’tiy rioya qilishni, qonunlarning har qanday ko‘rinishdagi buzilishlariga yo‘l qo‘ymaslikni, jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularni keltirib chiqaradigan barcha sabab, shart va sharoitlarni bartaraf qilishni ta’minlashdan iboratdir.

Ichki ishlar organlariningmuhim faoliyat yo‘nalishlaridan biri jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘lib, o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish sohasidagi jinoyatlarni sodir qilayotgan, jamiyatimizda o‘rnatilgan turmush qoidalarini buzayotgan, halol mehnat qilib kun kechirishni istamayotgan shaxslarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligi prinsipini adolatli ravishda ia’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bevosita tadqiqotimizning obyekti ham, aynan o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq fosh etilmagan jinoyatlarni tergov qilishni takomillashtirish, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etib, tergovdan va suddan yashirinib yurgan, ijtimoiy xavfli qilmishini berkitishga qaratilgan harakatlarni sodir etayotgan shaxslarni aniqlash, jinoyatlarni to‘liq fosh etish hisoblanadi.

Odatda, fuqarolar, korxona, muassasa, tashkilot va mansabdor shaxslardan o‘zganing mulki talon-taroj qilingani to‘g‘risida tushgan ariza yoki xabarda, jinoyat ishi materiallarida jinoyat sodir etilish hodisasi bo‘yicha ma’lumot bo‘lsa-da, aybdor shaxs to‘g‘risidagi ma’lumot deyarli bo‘lmaydi. Shu bois, dastlabki ma’lumotlarning xususiyatini aniqlash tergovchiga jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki rad etish masalasini to‘g‘ri hal qilish, yuz bergan voqea xususiyati, jinoyatni sodir etish va yashirish usullari va uni sodir etgan shaxs to‘g‘risida asoslangan tusmollarni ilgari surish imkonini beradiki, bu

oxir-oqibatda yuzaga kelgan tergov vaziyatiga to‘g‘ri baho berish va shu asosda jinoyatni tergov qilish va jinoyatchilarni, shuningdek, jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan mulkni qidirish yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi.

O‘zgalar mulkini talon-taroj qilishni sodir etishning oddiy usullarini bilish mazkur ijtimoiy xavfli jinoyatlarni tergov qilish metodikasini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. O‘zgalar mulkini talon-taroj qilish usuli bo‘yicha bu kabi jinoyatlar zo‘rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar – talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik hamda zo‘rlik ishlatmasdan sodir etilgan jinoyatlar – o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik, o‘g‘rilik va hokazolarga bo‘linadi.

O‘zgalar mulkini avvaldan rejalashtirilgan va tayyorlangan holda talon-taroj qilish eng murakkab masala hisoblanadi. Bunday hollarda jinoyatchilar, odatda, keyingi sodir etiladigan o‘g‘rilikning barcha detallarini oldindan o‘ylab qo‘yadilar. Jinoyatni sodir etish izlari esa ular tomonidan yaxshilab yo‘qotiladi. Bu esa, o‘z navbatida, jinoyatlarni muvaffaqiyatli fosh etish va tergov qilishga xalaqit berishi mumkin.

Kriminalistik tavsifda mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxsga katta e’tibor beriladi. Jinoyatchi shaxsining tavsifi odatiy (tipik) individual xislatlar, xususiyatlar, va nihoyat, o‘zgalar mulkini talon-taroj qilishga ta’sir qiluvchi sifatlarining majmuini bilishni nazarda tutadi. Shuningdek, jinoyatchining yoshi va ijtimoiy holati alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Talon-toroj qilish — o‘zganing mulkini o‘zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga xilof tarzda va haq to‘lamay olib qo‘yishdir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida talon-toroj qanday usulda sodir etilganiga qarab uning uchun javobgarlik differensiatsiya qilingan. Jinoyat kodeksida o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning quyidagi shakllari nazarda tutilgan:

1) bosqinchilik (JK 164-moddasi);

2) tovlamachilik (JK 165-moddasi);

3) talonchilik (JK 166-moddasi);

4) o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (JK 167-moddasi);

5) firibgarlik (JK 168-moddasi);

6) o‘g‘rilik (JK 169-moddasi). Qonunga xiloflik har qanday talon-torojning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Shaxs jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, huquqni muhofaza qilish tizimining ayniqsa tergov idoralarining faoliyatini raqam-lashtirish, ularni moddiy texnik bazalarini zamon talablariga mos ravishda

shakllantirish, faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish samaradorligini oshirish, resurslar va amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning eng muhim yo'nalishlariga qaratilishi orqaligina kutilayotgan xavf-xatarga munosib qarshilik ko'rsatish mumkin.

Shu o'rinda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida kiberjinoyatchilikka qarshi kurash huquqni muhofaza qilish tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi sohasida sodir etilayotgan jinoiy tajovuzlar hamda real dunyoda yuqori texnologiyalardan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish o'ta murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Fikrimizcha zamonaviy texnik vositalar hamda mazkur sohada kompetensiyaga ega tajribali kadr resurslarini jamlab, samarali boshqaruv tizimini yaratish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

S.A.Nesterovich, N.R.SHevko, A.N.Yakovlev va bir qator huquqshunos olimlarning fikriga ko'ra, globallashuv jarayonida fosh etilmagan kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish bir qator muammolarni hal qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar ayniqsa tergov organlarini moddiy-texnik bazalari hamda ilmiy salohiyatini oshirish uchun juda ko'p moliyaviy resurs talab qilishini ta'kidlab o'tilgan.

Birinchidan, tergov organlarini tergov harakatlari va tergov-tezkor tadbirlarini yanada samarali amalga oshirish imkonini beruvchi, kompyuter-texnik (kompyuter apparat ta'minoti, kompyuter dasturiy ta'minoti, axborot kompyuter texnologiyalari, kompyuter-tarmoqlari va boshqalar) zamonaviy texnik vositalarning rivojlangan kompleksi bilan jihozlash talab etiladi. Ekspertiza, yuridik ahamiyatga molik dalillar bazasini shakllantirish va boshqalar shular jumlasidan. Shuningdek, ularga alohida vazifalar ya'ni kiberjinoyatchilik, kiberrazvedka, kibertahdidlarni tahlil qilishni monitoringini amalga oshirish hamda oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Ikkinchidan, kiberjinoyatlarni tergov qilishni tashkil etishning yagona ilmiy-uslubiy bazasini ishlab chiqish (bugungi kunda u huquqni muhofaza qilish tizimining turli tuzilmalari tomonidan amalga oshirilmoqda), ushbu sohadagi tergov va sud amaliyoti materiallarini umumlashtirish talab etiladi. Tergovchi va surishtiruvchilar tomonidan ko'rib chiqilayotgan, qo'llanilayotgan amaliy tajribalari, virtual daliliy manbalarni olish, qayd etish amaliyoti almashinuvi.

Uchinchidan, bugungi kunda surishtiruvchi va tergovchilar ixtisosligi bo'yicha tayyorgarligi darajasini sifat jihatidan oshirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Hozirgi vaqtda ichki ishlar organlari xodimlarining (birinchi navbatda, tergovchilar va tezkor xodimlar) zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi bilim darajasining yetarli emasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Zamonaviy kiberjinoyatlarni hal qilishning o‘ziga xosligi va murakkabligi tergovchilar uchun faqat ofis dasturlari va mashhur internet xizmatlarining ilg‘or foydalanuvchilari ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari yetarli emas, ular ko‘pincha maxsus o‘qitish va malaka oshirishning qisqa muddatli kurslarida tahsil olishadi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi sharoitda hech bo‘lmaganda eng murakkab va ijtimoiy ahamiyatga ega kiberjinoyatlarni tergov qilish ikki ma’lumotga ega tergovchilar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv tizimini yaratishga intilish zarur. Ya’ni, huquqiy va texnik ma’lumotli kadrlarni yetishtirish zamon talabi hisoblanida, chunki tergovga jalb qilingan IT-mutaxassislarining malakasi va tor ixtisoslashuvini baholash, shuningdek, ularga aniq vazifa qo‘yish uchun ham tergovchi ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Bizning fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan olimlar fikrini inobatga olib muammo va yechimlarni amaliyotga qo‘llash orqali, jabrlanuvchi va guvohlarni huquq hamda erkinliklarini ta’minlash, tayyorgarlik ko‘rilayotgan jinoyatni oldi olinishiga xizmat qiladi.

Bu bilan O‘zbekistonda tergov idoralari moddiy-texnik bazalari shakllanmagan, xodimlarni aynan ushbu soha bo‘yicha o‘qitish tashkillashtirilmagan degan fikrdan yiroqdamiz. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar kungi «Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-105-son qaroriga muvofiq surishtiruv va tergov organlari xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallari negizida tashkil etilishi belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining IIVning 2021-yil 30-martdagi “Ichki ishlar organlari tergov bo‘linmalari xodimlarining doimiy malakasini oshirib borish tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan, tergovchi va surishtiruvchilar muntazam ravishda o‘qitib borilayotganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 12.02.2021-yildagi o‘tkazilgan Vazirlik Hay’atining kengaytirilgan majlisi bayoni talablaridan kelib chiqib, haftaning har shanba kunida Tergov departamenti tomonidan hududiy bo‘linmalar ishtirokida videokonferensaloqa rejimida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi

tashkillashtirishi belgilab berilgan va bu bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ammo, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mukammal texnik bilimlarga ega bo‘lmagan xodimlar tomonidan mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida muayyan qiyinchilik va to‘siqlarga uchrashi mumkin deb hisoblaymiz.

Jinoyatni fosh etish, ayniqsa tergovda samaraga erishilmagan va jinoyat ishi to‘xtab qolgan hollarda ko‘p vaqt, kuch va vositalar sarflashni talab qiladi. Surishtiruvchi, tergovchining tergovga qadar tekshiruv organlari bilan jinoyatni fosh etish borasidagi hamkorligi turli shakllarda amalga oshiriladi. Hamkorlik shakllari deganda, ushbu organlarning birgalikda kelishib ishlashini ta’minlovchi JPKga asoslangan aniq hamkorlik usullari, jinoyatni tergov qilishdagi o‘zaro aloqalari tushuniladi. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

– mavjud materiallarni birgalikda o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda keyinchalik to‘xtatilgan jinoyat ishi bo‘yicha ishlarni kelishgan holda rejalashtirish;

– surishtiruvchi, tergovchi va tergovga qadar tekshiruv organi o‘rtasida ularning faoliyati jarayonida muntazam axborot almashish;

– surishtiruvchi, tergovchining topshiriqlari va ko‘rsatmalarini tergovga qadar tekshiruv organiga yuborish;

– qidiruv va tergov harakatlarini amalga oshirish;

– tergovga qadar tekshiruv organlarining tergov va tezkor-qidiruv harakatlarini o‘tkazayotgan tergovchiga yordamlashishi;

– surishtiruvchi, tergovchi va tezkor xodimlar, tergovga qadar tekshiruv organlarining to‘xtatilgan ishlar bo‘yicha ishlash uchun tuziladigan tezkor tergov guruhlarida birgalikda ishlashi.

Taqdiqotimizdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri bevosita yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqqan holda o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq fosh etilmagan jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha surishtiruv va tergov amaliyotida mavjud muammolarni tahlil qilish hisoblanadi, shuningdek, ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish va samarali tergov qilish bo‘yicha individual chora-tadbirlar hamda algoritmlar haqidagi taklif va tavsiyalarimizni 3-bobda keltirib o‘tishni lozim dep topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtarbayeva S.M. Mejdunarodniy opit pravooxranitelnoy deya-telnosti po protivodeystviyu korrupsii s uchastiyem grajdanskogo обшества // Юридическая гносеология. 2016. № 2.

2. Й.А.Воронин Зарубежний опит участия населения в противодействии преступности: правоохранителний и виктимологический аспекти /Буллетин оф тҳе Соутҳ Урал Стате Университй.16 Сер. Лаw. 2019, вол. 19, но. 3, пп. 16–21

3. Воронин Й.А. Введение в криминологию – «Флинта» М., 2019. – С. 52

4. Latipov B.I. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini takomillashtirish 12.00.01 «Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi» : Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya / Latipov Begzod Ispandiyorovich; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi. – Toshkent, 2019 – S. 134-135.

5. Гордеев С.Н. Организация розискной работи правоохранителних органов (зарубежний опит) // Журнал зарубежного законодателства и сравнителного правоведения. 2016. № 3. С. 141.

ZAMONAVIY KRIMINOLOGIYANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

A’loxonov Muxammadmirzoxon Adhamxon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Kriminolgiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy kriminologiya fanining ilmiy-nazariy asoslari chuqur tahlil qilingan. Jinoyatchilikning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida shakllanishi, kriminologiya fanining predmeti va vazifalari, shuningdek, zamonaviy nazariy yondashuvlar yoritib berilgan. Kriminologiya fanining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanish jarayoni, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va turdosh fanlar tizimidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Maqolada kriminologik tadqiqotlar usullari va yondashuvlari, jinoyatchilik sabablari hamda profilaktika choralarini o‘rganishdagi zamonaviy ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Xususan, jinoyatchilikka qarshi kurashda nazariyaning ahamiyati, kriminologiyaning dolzarb ilmiy muammolari va ularni hal etish yo‘llari haqida ilmiy xulosalar keltirilgan. Shuningdek, kriminologiya fanini yanada boyitish va takomillashtirish bo‘yicha tegishli takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy kriminologiya, kriminologiya, ilmiy-nazariy asoslar, jinoyatchilik, kriminologik tahlil, kriminologik tadqiqot.

Jinoyatchilik – tug‘ilish va o‘lim kabi doimiy kuzatiluvchi, jamiyat taraqqiyoti davomida doimo uchraydigan abadiy hodisadir. Insoniyat mavjud bo‘lganidan beri jamiyat jinoyatchilikka qarshi kurash usul va vositalarini izlab kelgan. Shu bois jinoyat darajasini imkon qadar pasaytirish imkonini beruvchi ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish kriminologlar oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Jinoyatlarga qarshi kurash faqat jazoga tayanmasligi, balki jinoyatlarning oldini olishga yo‘naltirilishi lozimligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Aynan jinoyatlar profilaktikasini ustuvor yo‘nalishga aylantirish zarurati “kriminologiya” deb nomlangan yangi fan shakllanishiga zamin yaratdi.

Kriminologiya jinoyatchilikni, uning sabablari va shart-sharoitlarini, jinoyat sodir etgan shaxs (jinoyatchi)ning xususiyatlarini, jabrlanuvchi shaxsini hamda jinoyatchilik profilaktikasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy-huquqiy fandir. Kriminologiya fani jamiyatda jinoyatchilikka qarshi

kurashish amaliyotining nazariy asoslarini ishlab chiqadi va takomillashtirib boradi. Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti kriminologiyaga yanada chuqur ilmiy yondashishni talab qilmoqda. Chunki hozirgi davrda jinoyatlarning kelib chiqish sabablari murakkablashib, yangi ko‘rinish va shakllarda namoyon bo‘lmoqda.

Jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi jinoyat turlari (kiberjinoyatlar, terrorizmning yangi shakllari va hokazo) ularni chuqur tadqiq etish uchun zamonaviy kriminologik nazariy bazani mustahkamlash zaruratini tug‘dirmoqda. Shu ma’noda, zamonaviy kriminologiya fani o‘zining ilmiy-nazariy asoslarini doimiy ravishda boyitib bormasa, jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borish vazifasini to‘laqonli bajarolmaydi. Nazariya amaliyotning ko‘zi ekanligi, ya’ni ilmiy nazariya amaliy faoliyatga yo‘nalish beruvchi asosiy omil ekani kriminologiya fanida alohida ta’kidlanadi. Ushbu maqolaning maqsadi – zamonaviy kriminologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida uning ilmiy va nazariy asoslarini kompleks o‘rganish, ilg‘or adabiyotlar tahlili asosida kriminologiya nazariyasining bugungi holatini yoritish hamda kelgusida yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berishdan iborat. Maqolada kriminologiyaning vujudga kelishi tarixi, uning predmeti va obyektini belgilashdagi yondashuvlar, shuningdek, kriminologik tadqiqotlarning uslubiy masalalari haqida to‘xtalib o‘tiladi.

“Kriminologiya” atamasi lotincha crimen (jinoyat) va yunoncha logos (fan, ta’limot) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, u bevosita “jinoyat haqidagi ta’limot” ma’nosini bildiradi. Ilmiy adabiyotlarda kriminologiya – jinoyat yoki jinoiy xulq-atvor haqidagi fandir degan sodda ta’rif uchraydi. Biroq zamonaviy yondashuvga ko‘ra, kriminologiya fanining mazmuni kengroq bo‘lib, u nafaqat jinoyat tushunchasini, balki jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida, jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini, jinoyatchi hamda jabrlanuvchi shaxsining xususiyatlarini, jinoyatlarning oldini olish (profilaktika) masalalarini ham qamrab oladi. Kriminologiya – jinoyatchilik, uning sabab va shart-sharoitlari, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsi hamda jinoyatlar profilaktikasi qonuniyatlarini o‘rganuvchi va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotini ilmiy tavsiyalar bilan ta’minlovchi ijtimoiy-huquqiy fan. Shu bilan birga, kriminologiya mavjud bilimlarni umumlashtirib, tizimlashtiradi va yangi ilmiy xulosalar ishlab chiqadi; uning jamiyat uchun ahamiyati shundaki, kriminologik bilimlar jinoyatchilikka qarshi kurash subyektlari faoliyatida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kriminologiya mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida XVIII asr oxiri – XIX asr oxirlarida shakllana boshlagan. Ayrim manbalarda kriminologiya fanining

boshlanishi 1764-yilda italyan huquqshunosi Chezare Bekkaria tomonidan “Jinoyatlar va jazolar to‘g‘risida” nomli asar yozilishi bilan bog‘liq deb ko‘rsatiladi. “Kriminologiya” atamasi esa ilk bor 1885-yilda italiyalik sudya Raffaele Garofalo va fransuz olimi Pol Topinar tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, ular “Kriminologiya yoki jinoyatchilik tabiati hamda jazo nazariyasi” nomli asar chop etganlar. Ushbu ilk ishlarda jinoyat, jinoyatchi va jazo masalalari yoritilib, kriminologiyaga amaliyotga yaqin talqin berilgan edi.

Keyinchalik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kriminologiya sohasi jadal rivojlanib, turli ilmiy maktablar paydo bo‘ldi. Xususan, pozitivistik kriminologiya maktabi vakili Chezare Lombrozo jinoyatchilikning biologik omillari nazariyasini rivojlantirgan, uning “Jinoiy odam” (1876) va “Jinoyat, uning sabablari va davolash vositalari” (1899) kabi asarlarida jinoyatchining tug‘ma xususiyatlari va jinoyat sabablarini tahlil qilishga uringan. Lombrozo va uning izdoshlari jinoyatchilik sabablarini biologik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg‘unligida ko‘rib, kriminologiya nazariyasiga muhim hissa qo‘shdilar. Shu bilan birga, fransuz olimi A. Ketle va boshqa statistik yondashuv tarafdorlari jamiyatdagi jinoyatchilik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali jinoyatchilik qonuniyatlarini aniqlashga harakat qilganlar. XX asr davomida kriminologiyada turli nazariy konsepsiyalar (sotsiologik, psixologik, iqtisodiy yondashuvlar va h.k.) vujudga kelib, jinoyatchilikni tushuntirishda ko‘plab ilmiy-nazariy qarashlar taklif etildi.

Kriminologiya fanining rivojlanishida Sovet davri kriminologik ilmiy maktabining ham o‘z o‘rni bor. Sobiq Ittifoq davrida kriminologiya asosan jinoyat huquqi nazariyasining bir qismi sifatida qaralar, jinoyatchilikka qarshi kurash sinfiy yondashuv nuqtai nazaridan talqin qilinar edi. 1991-yilgacha o‘zbek tilidagi kriminologiya darsliklarida jinoyatchilikka asosan Ittifoq miqyosida umumiy ta’rif berib kelingan, O‘zbekiston sharoitlariga oid tahlillar yetarli emas edi. Mustaqillik yillaridan so‘ng O‘zbekistonda kriminologiya fani jadal rivojlana boshladi. Milliy kriminologik tadqiqotlar natijalari inobatga olingan holda yangi darslik va qo‘llanmalar yaratildi. Jumladan, Q.R. Abdurasulova tomonidan 2007-yilda nashr etilgan “Kriminologiya” darsligida jinoyatchilik tushunchasi, sabablari, jinoyatchi shaxsi, viktimologiya va jinoyatchilikning oldini olish masalalari keng yoritildi. 2015 yilda I. Ismailov va hammualliflar tomonidan tayyorlangan “Kriminologiya. Umumiy qism” darsligida so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari hisobga olingan holda kriminologiya fanining asosiy masalalari hozirgi davr nuqtai nazaridan batafsil yoritildi. Mazkur darslikda jinoyatchilik va uning sabablari, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsi, profilaktika masalalari bo‘yicha

o‘zbek kriminolog olimlarining ilmiy xulosalari jamlangan bo‘lib, hozirgi zamon kriminologiyasining yutuqlari aks ettirilgan.

Ilmiy adabiyotlarda kriminologiya fanining predmeti va tizimi alohida e’tibor qaratiladigan masalalardan sanaladi. Kriminologiyaning obyekti jamiyatda jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning mavjudligi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar majmuasi bo‘lsa, uning predmeti ana shu munosabatlarning qonuniyatlari va xususiyatlaridir. Mutaxassislar kriminologiya fanining predmeti tarkibiga to‘rtta asosiy elementni kiritadilar:

1) jinoyatchilik (muayyan davr va hududda sodir etilgan barcha jinoyatlar yig‘indisi, uning holati, dinamika va tuzilmasi bilan);

2) jinoyatchi shaxsi (jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy, psixologik xususiyatlari, undan jinoyat sabablari haqida axborot olish mumkin);

3) jinoyatlarning sabablari va jinoyatchilikka imkon beruvchi shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va boshqa sohalardagi salbiy jarayonlar tizimi);

4) jinoyatchilikning oldini olish choralari (jinoyat sabablari va sharoitlarini bartaraf etish hamda huquqbuzarlikka moyil shaxslarning xulqini tuzatishga qaratilgan tadbirlar tizimi).

Ko‘rinib turibdiki, kriminologiya predmeti faqat huquqiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, jinoyatchilikni keng ijtimoiy hodisa sifatida qamrab oladi. Aynan shu sababli ko‘plab olimlar kriminologiyani ijtimoiy-huquqiy fan deb e’tirof etadilar. Kriminologiya ikki ijtimoiy fan – sotsiologiya va yuriprudensiya tutashgan nuqtada joylashgan bo‘lib, jinoyatchilik masalalarini huquqiy hamda ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganadi. Kriminologiya fani ko‘plab boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Inson xulq-atvori yaxlit hodisa bo‘lgani bois, uni faqat bir tomonlama – huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilish yetarli emas. Shu sababli kriminologiya jinoyatchilikni o‘rganishda falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, psixiatriya, iqtisodiyot kabi fanlarning ilmiy natijalaridan ham keng foydalanadi. Masalan, sotsiologiya fani jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida statistik va struktruraviy jihatdan o‘rganishga yordam bersa, psixologiya va pedagogika jinoyatchining shaxsini va uning og‘ish xulq-atvorini tarbiyaviy-ruhiy nuqtai nazardan tahlil qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan kriminologiya interfaol, ya’ni turli ilm sohalari tutashgan integrativ fandir. Ko‘plab nazariyotchilar kriminologiyani jinoyat huquqi, kriminalistika, jinoiy ijro huquqi kabi huquqiy fanlar tizimiga kiritadi.

Biroq kriminologiya mazkur huquqiy fanlardan farqli o‘laroq, faqat huquq normalarini qo‘llash yoki jinoyatlarning texnik tomonini o‘rganish

bilangina cheklanmay, jinoyatchilikning chuqur ijtimoiy ildizlarini va unga qarshi kurash choralarini izlaydi. Adabiyotlarda kriminologiya fanining ichki tuzilishi (tizimi) ham umumiy va maxsus qismlarga ajratib ko‘rsatiladi. Umumiy qism kriminologiya fanining nazariy asoslarini o‘z ichiga oladi: kriminologiya tushunchasi, predmeti, metodlari, kriminologiya tarixiy rivoji, jinoyatchilik va uning sabablari, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsi, muayyan jinoyat sodir etish mexanizmi, jinoyatchilikni oldini olish, jinoyatchilikni prognoz qilish va hokazo masalalar. Maxsus qism esa jinoyatchilikning alohida turlari – voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, takroriy (retsidiv) jinoyatchilik, uyushgan jinoyatchilik, ayollar jinoyatchiligi, ehtiyotsizlik jinoyatlari, iqtisodiy jinoyatchilik, korrupsiya, narkojinoyatchilik, terrorizm kabi turlarining kriminologik tavsifi va ularning oldini olishga doir masalalarni o‘rganuvchi bo‘limdir.

Shuningdek, kriminologiya tizimida keyingi yillarda viktimologiya (jinoyat qurbonini o‘rganish) alohida yo‘nalish sifatida ajralib chiqdi. Kriminologik viktimologiya jabrlanuvchi shaxsining xususiyatlari, ularning jinoyatga uchrashiga ta’sir etuvchi omillar va qurbon bo‘lish ehtimolini kamaytirish choralarini o‘rganadi. Viktimologiya bo‘yicha tadqiqotlar jinoyatlarning oldini olishda yangi yondashuvlarni taklif etib, kriminologiya nazariyasini boyitishga xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kriminologiya fanining ilmiy-nazariy asoslari ko‘p qirrali va muntazam rivojlanib boruvchi tushunchadir. Kriminologiya tarixi davomida shakllangan nazariy maktablar va konsepsiyalar jinoyatchilikning sabablari va unga qarshi kurash vositalarini turlicha talqin qilgan bo‘lsa-da, ularning barchasi yakunda jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan. Hozirgi davr kriminologiyasi oldida esa mavjud nazariy qarashlarni integratsiya qilish, jinoyatchilikka doir yangi hodisalarni (masalan, kiberjinoyatchilik, transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabilarni) tushuntira oladigan ilmiy asoslarni shakllantirish vazifasi turibdi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda kriminologiyaning predmeti, tushunchalari, profilaktika bo‘yicha yagona yondashuvga kelish masalasi hamon dolzarbdir. Masalan, “jinoyatchilikning oldini olish” tushunchasiga oid turli talqinlar mavjud bo‘lib, ayrim olimlar uni keng ma’noda ijtimoiy profilaktika deb qarasalar, boshqalar tor ma’noda faqat huquqiy choralar deb izohlashadi. Xuddi shuningdek, “voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi” atamasining huquqiy jihatdan aniq ta’rifi ham qonunchilikda mustahkamlanmagan, nazariyada turlicha yondashuvlar mavjudligi kuzatiladi. Bu kabi konseptual noaniqliklar kriminologiya nazariyasini yanada puxtalashtirish va ilmiy atamalar apparatini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Kriminologiya – jinoyatchilikka qarshi kurash nazariy negizi. Zamonaviy kriminologik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, jinoyatchilikka qarshi kurashishning samaradorligi ko‘p jihatdan kriminologiya fanining nazariy asoslariga bog‘liqdir. Kriminologiya fani jinoyatchilikning murakkab ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi. Jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini puxta o‘rganmasdan turib, unga qarshi kurash choralarini to‘g‘ri belgilash qiyin.

Shu boisdan bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati kriminologik bilimlardan keng foydalanishga intilmoqda. Hozirgi vaqtda amaliyot nazariy tadqiqotlar oldiga jinoyatchilikni tubdan o‘rganish vazifasini qat’iy qo‘ymoqda. Davlat organlari va huquqni muhofaza qilish idoralari jinoyatlarning oldini olishga doir qarorlarni qabul qilishda kriminolog olimlar tavsiyalariga tayanmoqda. Bu esa kriminologiyaning nazariy bazasi qanchalik mustahkam bo‘lsa, amaliy natijalar shunchalik yuqori bo‘lishini tasdiqlaydi. Masalan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o‘rganish sohasida olimlar “voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ilmiy-nazariy asoslarini puxta ishlab chiqish amaliyotda uni oldini olish va unga qarshi kurashishning muvaffaqiyatli garovidir” deb ta’kidlaydilar.

Darhaqiqat, kriminologik nazariya yetarlicha ishlab chiqilgan bo‘lsa, profilaktika choralarini to‘g‘ri belgilash va jinoyatchilikka qarshi kurash subyektlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy kriminologiya fani oldida nazariy bilimlarni yangi faktlar va tendensiyalar bilan boyitib borish, ilmiy bashorat imkoniyatlarini kengaytirish vazifasi turibdi. Kriminologiyada ilmiy bashorat qilish usuli yordamida jinoyatchilikning kelgusi holati haqida ilmiy asoslangan taxminlar ishlab chiqiladi. Bu esa oldindan zarur choralarni rejalashtirishga xizmat qiladi. Kriminologik tadqiqotlarning hozirgi yo‘nalishlari. So‘nggi yillarda kriminologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar tematikasi ancha kengaydi.

Zamonaviy kriminologlar an’anaviy mavzular (jinoyat sabablari, jinoyatchi shaxsi, retsidiv jinoyatchilik va boshqalar) bilan birga, ilgari kam o‘rganilgan yoki butkul yangi muammolarni ham tadqiq etmoqdalar. Masalan, kiberjinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, inson savdosi, korruptsiya kabi transmilliy va murakkab jinoyatlar kriminologiya e’tiborida turibdi. O‘zbekistonda ham kriminologik izlanishlar faollashgan bo‘lib, ko‘plab yosh olimlar zamonaviy jinoyatchilikning turli jihatlarini ilmiy ishlarda yoritmoqda.

Zamonaviy kriminologiya nazariyasini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – ilmiy atamalar va tushunchalarni bir xilda qo‘llashga

erishishdir. Hozirgi vaqtda ba’zi kriminologik tushunchalar bo‘yicha yagona yondashuv yo‘qligi muammosi borligini yuqorida ta’kidlab o‘tdik (masalan, “profilaktika”, “voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi” atamalari). Bu esa ilmiy kommunikatsiyada noaniqliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu masalani hal qilish uchun kriminologlar o‘rtasida ilmiy muloqot va muhokamalarni faollashtirish, konferensiyalar va seminarlar orqali yagona fikrga kelish zarur.

Bundan tashqari, kriminologiya bo‘yicha yangi ilmiy tadqiqotlarda integrativ nazariyalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Masalan, jinoyatchilikni faqat bir xil omil (huquqiy yoki ijtimoiy) bilan izohlovchi nazariyalardangina iborat bo‘lmay, balki ko‘p omilli yondashuvlarni birlashtirgan konsepsiyalarni ishlab chiqish talab etiladi. Jinoyatchilikning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, madaniy barcha jihatlarini qamrab oladigan yagona nazariy model yaratish – kriminologiya fani oldidagi ulkan vazifadir.

Albatta, hozircha bunday universal nazariya mavjud emas, ammo ilmiy izlanishlar shu yo‘nalishda davom etmoqda. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, zamonaviy kriminologiya fanining ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlash va doimiy yangilab borish jamiyat uchun hayotiy zaruratdir. Jinoyatchilik doimo o‘zgarib turuvchi hodisa ekani bois unga qarshi kurash strategiyasi ham zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayanuvchan bo‘lishi shart. Shundagina kriminologiya fani jamiyatni jinoyatlardan muhofaza qilishda o‘z vazifasini to‘laqonli bajaradi va huquqni muhofaza qilish amaliyotining samaradorligi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Y. Fazilov; Mas’ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b.).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024 yil 15 yanvardagi PF–10-son Farmoni.

3. Modern criminology factors / article / “The Lawers & Jurists” / https://www.lawersnjurists.com/article/modern-criminology-factors.

YOSHLARNING JINOYAT SODIR ETISHLARINING ASOSLARI VA ILMIY TAHLILIY JARAYONNING BORISHI

Raimov Sherozbek Akbarjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi.

Annotatsiya: Dunyo bo‘yicha yoshlarning jinoyat sodir etishlari va ularning oldini olish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan ushbu maqolada jinoyat kodeksiga asosan voyaga yetmagan shaxslarga qanday jazo chorasi ko‘rilishi bo‘yicha atroflicha o‘rganilgan, hamda bir qancha olimlarning yoshlar jinoyat sodir etishining sabablari tahlil qilingan va muallif tomonidan bir nechta takliflar berib o‘tilgan.

Kalitso‘zlar: Jinoyat, globallashuv, yengillashtiruvchi, og‘irlashtiruvchi, modernizatsiyalashgan.

Kirish. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonaviy va modernizatsiyalashgan bir davrda jinoyatlarning ham turli shakllarda sodir etilishi va bunday qilmishlar uchun muayyan jazo tizimlarining ishlab chiqilishi hozirgi kun voqeligida asosiy o‘rinlardan biri bo‘lib kelmoqda. Shuningdek bunday turli-tuman jinoyatlarni faqat katta yoshdagilar orasida emas, balki yoshlar orasida ommaviy tarzda tarqalgani, o‘smirlarning o‘zlari bilib-bilmay jinoyat sodir etishi orqali konstitutsiya, kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni muayyan normalarini qo‘pol ravishda buzgan holda harakat qilishlari orqali ularga nisbatan jazo choralari ko‘riladi hamda Jinoyat kodeksining 10-moddasiga asosan qilmishida jinoyatning barcha tarkiblari mavjud bo‘lganligi aniqlangan har-bir shaxslarga nisbatan javobgarlikka tortish choralari ko‘rilishi shart [1] .

Asosiy qism: Avvalo voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi qanday tartiba bo‘lishini ko‘rib chiqish lozim hisoblanadi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxs deganda - ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish vaqtida 13 yoshdan baland va 18 yoshga to‘lmagan shaxslarni tushunishimiz mumkin bo‘ladi. Bunday shaxslarga nisbatan quyidagicha jazo choralarini qo‘llashimiz mumkin bo‘ladi.

Jarima:

Majburiy jamoat ishlari:

Axloq tuzatish ishlari:

Ozodlikni cheklash:

Ozodlikdan mahrum qilish:

Agarda voyaga yetmagan shaxs 18 yoshga to‘lmay turib jinoyat sodir etsa ularga qo‘shimcha jazo turlari tayinlashga asos bo‘ladi. Bevosita olimlarning fikrlariga to‘xtaladigan bo‘lsam, Shuningdek N.Usmonovaning ilmiy tadqiqotlaridan shuni tushunish mumkinki yoshlarning ya’ni voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishlari bir necha sabablarga bog‘liqligi aniqlangan, sabab ularning xulq-atvori, jamiyatga qay tarzda integratsiyalashganligi, ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligining bosqichma-bosqich namoyon bo‘lishi va bir necha sabablar orqali yoshlar jinoyat sodir etishlari mumkin. Yoshlarning ko‘pincha jinoyat sodir etishlari tezroq boyib ketish maqsadini ko‘zlaganligi bu orqali o‘zining moliyaviy holatini yaxshilab olishi mumkin bo‘lgan [2] . D.Nabiyevnaning fikriga ko‘ra, Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning ortib borishi va bunga sabab qilib oila-azolarining befarqligi, oiladagi kelishmovchiliklar, mojarolar, oiladagi nosog‘lom muhit, ma’naviy-ruhiy muhitining buzilishi, ota-onaning mehrsizligi sababli bolalar o‘ziga kerakli ta’lim-tarbiyani nosog‘lom oiladan emas balki bu holatlarni ko‘rib tashqaridan olishga intiladi va natijada ko‘chadagi muhitni to‘laligicha anglab yetmasdan jinoyat sodir etishadi [3] . Jinoyat kodeksining 54-moddasiga asosan voyaga yetmagan shaxs jinoyatning istalgan turini sodir etgan taqdirda, qonunda belgilangan tartibda aybliligi aniqlanganda jazoga tortiladi. Ushbu kodeksning qaysi normasi bo‘yicha jinoyat sodir etganligi aniqlansa shu normaning sanksiyasi bo‘yicha jazoga tortiladi. Sud shuni inobatga oladiki jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etgan qilmishining sabablari o‘rganiladi, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdori, aybdor shaxsning barcha ma’lumotlari izchil o‘rganib chiqiladi hamda jinoyat sodir etgan yoshlarga nisbatan yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan hukm chiqariladi [4] . “Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning dolzarb masalalari” bu kun tartibidagi alohida vazifa bo‘lib xizmat qilishi kerak bo‘ladi, negaki biz hozirda globallashuv, IT, internet jadal rivojlangan davrda yashamoqdamiz va bu bizga katta darajada ta’sir o‘tkazadi. Yoshlarning virtual hayotga moslashib qolganligi, u yerdagi hayot jarayonlarini haqiqiy xayotda qo‘llab ko‘rishni amalga oshirishadi, bu orqali esa o‘zlari bilmagan holda jinoyat sodir etishga sababchi bo‘ladilar. Yoshlarning jinoyat sodir etishini oldini olish bo‘yicha avvalo oiladagi muhitni yaxshilash kerak bu bevosita mahalla faollari ishtirokida tekshiruvlar o‘tkazib oilalarning turmush shart-sharoitlarini o‘rganish orqali ma’lum darajada oldini olish.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini amalga oshirish jarayonida ularni faqatgina diplom, sertifikatlar bilan taqdirlamasdan, moddiy qo‘llab-quvvatlash ham lozimdir. Negaki har bir bola o‘ylaydiki men shu soha bo‘yicha ketsam faqat qandaydur maqtov qog‘ozlari bilan cheklanaman deb, lekin ularga bilimlarini taqdirlash uchun moddiy investitsiya qilsak ular menga shu soha yoki yo‘nalish yaxshi daromad olib keladi degan fikr vujudga keladi va o‘zi bilmagan holda o‘zining sohasi bo‘yicha yetuk kadr bo‘lib yetishadi. Mastlik va giyohvandlikka yo‘l qo‘yadigan turli xil illatlarni oldini olish, ko‘chalarda muayyan yoritish chiroqlari yo‘q joylarga chiroqlar o‘rnatish, yoshlarga xayot faqat kiber sportdan iborat emasligini va bu orqali hamma boyib keta olmasligini muaayn targ‘ibot orqali yetkazish lozim bo‘ladi.

Xulosa: Yoshlarning jinoyat sodir etishlarini faqatgina yuqorida keltirib o‘tilgan jazo tizimlari orqali o‘tab qutilib ketishlarini sabab qilmasdan ularga agarda jinoyat sodir etsalar nimalardan maxrum bo‘lishlarini tushuntirish lozim bo‘ladi, negaki yosh avlod hozirda fikrlari juda chalkash va tartibsizdir. Qilayotgan ishlarini to‘liqligicha anglab yetmaydi shuning uchun stressga tushib qolgan hollarda jinoyat sodir etishlari ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jinoyat kodeksi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 20.05.2025-y., 03/25/1065/0453-son.

2. Usmonova, Naima Toxir Qizi Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining asosiy sabablari va unga imkon berayotgan shart-sharoitlar // orienss. 2022. №9. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-huquqbuzarliklarining-asosiy-sabablari-va-unga-imkon-berayotgan-shart-sharoitlar (дата обращения: 14.06.2025).

3. Dilfuza Nabiyevna Nosirova YOSHLAR O‘RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH // Scientific progress. 2023. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ortasida-jinoyatchilikning-oldini-olish-va-unga-qarshi-kurashish (дата обращения: 14.06.2025).

4. Jinoyat kodeksi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 20.05.2025-y., 03/25/1065/0453-son.

ANONIM KORRUPSIYA

Akramov Xasan Furkatovich

Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Abdug‘ofurova Gulziyo Farrux qizi

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Sotsiologiya yo‘nalish talabasi.

Kirish. Xar qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy xayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan illat korrupsiyadir.

Korrupsiya ko‘p o‘lchamli, tashqi va ichki sharoitga qarab tez o‘zgaruvchandir. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha innovatsion yondashuvlarning rivojlanishini o‘rganib borish ushbu sohaga qarshi kurashda juda muhimdir. Shu bois, tadqiqot jarayonining ilk bosqichida korrupsiya muammosining tushunchasi va unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini aniqlashga hamda tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

“Korrupsiya” so‘zining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu termin lotincha “corruptio” so‘zidan olingan bo‘lib, pora evaziga og‘dirib olish, poraga sotilish, aynish kabi ma’nolarni anglatadi.

O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida berilgan ta’rifga ko‘ra, korrupsiya (lotincha “corruptio” - aynish, poraga sotilish) bu - siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli xodisa, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishidir. Korrupsiya va unga qarshi kurashishni tadqiq etishda tadqiqotchilar ushbu tushunchalarning mazmunini ochib berishda turlicha yondashishgan.

Munozara va natijalar: Ushbu tadqiqotda joriy etilgan “Anonim korrupsiya” platformasi korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Anonimlik tamoyiliga asoslanganligi sababli foydalanuvchilar o‘zlarini xavfsiz his qilib, korrupsiya holatlarini xabar berishda erkinlikka ega bo‘ldilar. Bu esa korrupsiya haqida ma’lumotlarning oshishiga va boshqaruv tizimlarida oshkoralik darajasining yaxshilanishiga yordam berdi. Shuningdek, platformaning oson va qulay interfeysi xabar berish jarayonini soddalashtirdi va odamlarning unda ishtirokini rag‘batlantirdi.

Biroq, ba’zi cheklovlar ham mavjudligi aniqlanib, masalan, platformaga kelgan xabarlarning haqqoniyligini tekshirish jarayoni murakkabligi va ayrim foydalanuvchilar tomonidan noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritilishi ehtimoli yuzaga chiqdi. Shu sababli kelajakda platforma ishonchlilik darajasini oshirish uchun sun’iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan tekshirish tizimlarini joriy etish zarurati paydo bo‘ldi.

Yana bir muhim jihat – platforma orqali kelgan xabarlar asosida amalga oshirilgan choralar va ularning natijasi haqida foydalanuvchilarga qayta aloqa berish tizimini joriy qilish. Bu foydalanuvchilarda ishonchni oshiradi va tizim samaradorligini yanada kuchaytiradi. Platformaning test davrida jami korrupsiya holatlari haqida anonim xabarlar kelib tushadi. Ulardagi raqam haqiqiy va dolzarb holatlar sifatida tasdiqlandi hamda tegishli organlarga yetkazildi. Xabarlar kelishida foiz o‘sish kuzatildi, bu esa foydalanuvchilarning platformaga bo‘lgan ishonchi va faoliyatini oshirdi.

Shuningdek, platforma yordamida aniqlangan korrupsiya holatlari natijasida jarayonlarda tekshiruvlar o‘tkazildi va ulardan natijali yakunlandi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda platformaning samaradorligini tasdiqlaydi. Foydalanuvchilar orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari platformaning qulayligi va anonimlik kafolatlanishini yuqori baholadi. Shu bilan birga, kelajakda qo‘shimcha funksiyalar va xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Anonim korrupsiya yoki latent korrupsiya haqida tadqiqot olib borgan olimlar: 1. Alina Mungiu-Pippidi (Gertiy universiteti, Berlin) Ixtisoslashuvi: tizimli va yashirin korrupsiya, korrupsion institutlar, shaffoflik siyosati. Asar(lar)i: The Quest for Gud Governance: How Societies Develop Control of Corruption (2015);

2. Susan Rose-Ackerman (Yale University, AQSH) Ixtisoslashuvi: korrupsiya iqtisodiyoti, siyosiy korrupsiya, korrupsiyaga qarshi siyosat. Asar(lar)i: Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform (1999, 2016-yangi nashr);

3. Robert Klitgaard (Claremont Graduate University, AQSH) Ixtisoslashuvi: korrupsiya nazariyasi, davlat boshqaruvi va korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalari.

Xulosa. Korrupsiya jamiyatga zarar yetkazadigan eng katta muammolardan biri hisoblanadi va ayniqsa bugungi kunda odamlar o‘zini yashirib turib qiladigan korrupsion holatlar ya’ni anonim korrupsiya juda xavfli bo‘lib bormoqda. Bunday holatlarga qarshi kurashishda eng samarali yo‘l bu odamlarning hech kimdan qo‘rqmasdan o‘zini tanitmasdan turib poraxo‘rlik yoki adolatsizlik haqida habar berishi mumkin bo‘lgan maxsus tizimlar yaratishdir.

Anonim ravishda xabar berish imkoniyati odamlarga o‘z fikrini erkin bildirishga yordam beradi va davlat idoralari orasidagi yashirin noqonuniy ishlarning oldini olishga katta hissa qo‘shadi. Bu tizimlar to‘g‘ri ishlashi uchun odamlar o‘zlarini havfsiz his qilishi kerak ularning shaxsi sir tutilishi kerak va bildirilgan har bir xabar jiddiy ko‘rib chiqilishi kerak. Agar bu tizimlar yaxshi yo‘lga qo‘yilsa jamiyatda adolat tiklanadi odamlarda esa ishonch va faollik ortadi bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishda juda muhim hisoblanadi.

Biz Korrupsion holatlarini anonim ravishda xabar bera oladigan “Anonim korrupsiya”dasturini yaratish va uning mobil ilovasini ishlab chiqishni tavsiya qilamiz. YA’ni bu 2 bosqicha amalga oshiriladi

Birinchi bosqich: Dastlab, platformaning qanday ishlashi, qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishi haqida rejalar tuziladi. Muhimi - bu platforma orqali odamlar korrupsiya holatlari haqida ism-familiyasiz, ya’ni anonim tarzda xabar bera olishadi. Hech qanday shaxsiy ma’umot so‘ralmaydi va saqlanmaydi. Buning uchun havfsiz va mahfiy tizim yaratiladi. Ilova orqali oddiy fuqarolar bemalol, hech qanday xavotirsiz korrupsiya haqida ma’lumot berishi mumkin bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich: Keyingi bosqichda esa mobil ilova ishlab chiqiladi. Ilova ichida turli qulayliklar bo‘ladi - yozma yoki ovozli xabar qoldirish, rasm, hujjat yoki video yuklash imkoniyati yaratiladi. Har bir murojaatga alohida kod beriladi, shunda foydalanuvchi o‘z murojaatini keyinroq kuzatib borishi mumkin bo‘ladi. Tayyor bo‘lganidan so‘ng, ilova Google Play platformasiga yuklanadi. Odamlarga tushunarli bo‘lishi uchun videolar, yo‘riqnomalar va axborot materiallari tayyorlanadi va targ‘ib qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Transparency International. Global Corruption Report: Technology and Corruption, 2022.

2. World Bank Group. Combating Corruption in the Digital Age, 2021.

3. OECD. Cryptocurrencies and Anti-Money Laundering ChallenГЭС, 2022.

4. Open Society Foundations. Legal Loopholes Enabling Corruption, 2021.
5. World Economic Forum. Corruption as a Global Risk, 2022.
6. O‘zbekiston Yuridik Енциклopediyasi. “Korrupsiya” moddasi. – Toshkent: Adolat, 2008. – B. 284.
7. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). The Hidden Face of Corruption, 2023.
8. Mungiu-Pippidi, A. (2015). The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption. Cambridge University Press.
9. Rose-Ackerman, S. (2016). Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform (2nd ed.). Cambridge University Press.
10. Klitgaard, R. (1998). Controlling Corruption. University of California Press

YOSHLAR JINOYATCHILIGI: DUNYO TAJRIBASI, SABABLAR VA PROFILAKTIKA CHORALARI

Hikmatov Muhriddin Izzatillo o‘g‘li

Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent shahri IIBB HPB Profilaktikka katta inspektori, kapitan.

Yoshlar jinoyatchiligi — bu jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy muammodir. Har qanday mamlakat kelajagi bo‘lgan yosh avlodning qonunbuzarlikka moyil bo‘lishi nafaqat huquqiy tizimning, balki umumiy ma’naviy muhitning zaiflashganidan dalolat beradi. Shu bois, bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish, oldini olish choralarini ilmiy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqish zarur.

Yoshlar – jamiyatning eng faol, tashabbuskor va bir vaqtning o‘zida ijtimoiy xavflarga nisbatan eng hassos qatlamini tashkil etadi. Ular har qanday mamlakatning intellektual salohiyati, innovatsion rivojlanishi va strategik barqarorligi uchun hal qiluvchi resurs sifatida qaraladi. Shu boisdan, yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Biroq so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda kuzatilayotgan tahliliy ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning turlari va soni ortib bormoqda. Ayniqsa mulkiy jinoyatlar (o‘g‘rilik, firibgarlik), zo‘ravonlik holatlari (jismoniy tajovuz, bezorilik), narkotik moddalarga bog‘liq huquqbuzarliklar hamda raqamli makonda amalga oshirilayotgan kiberjinoyatlar (fishing, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash, onlayn tovlamachilik va h.k.) yoshlar orasida ko‘p uchrayotgan jinoyat turlariga aylanmoqda. Bu tendensiya jamiyat xavfsizligi, ma’naviy muhit va huquqiy ong darajasiga bevosita tahdid solmoqda.

Aynan shu omillar tufayli yoshlar jinoyatchiligini oldini olish, uning ildiz sabablarini aniqlash hamda maqsadli profilaktika choralarini ishlab chiqish — zamonaviy ijtimoiy siyosatning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Masalan, AQSH, Braziliya, Rossiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda yoshlar jinoyatlarining umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 15–20% atrofida. Bu holat turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog‘liq.

Shu sababli, yoshlar jinoyatchiligining sabablarini tahlil qilish va xalqaro tajriba asosida samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish bugungi kunning talabidir.

Yoshlar jinoyatchiligining quyidagi xalqaro tendensiyalari va sabablarini ko‘rib chiqamiz:

AQShda yoshlar jinoyatchiligi muammosi uzoq yillardan buyon huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Federal tergov byurosi (FBI)ning 2023 yil uchun taqdim etgan rasmiy statistikasiga ko‘ra, 18–24 yosh orasidagi yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar mamlakatda qayd etilgan umumiy jinoyatlar sonining taxminan 17 foizini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich ushbu yosh guruhi kriminogen xavf darajasi jihatdan jamiyatda eng faol toifalardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Aniqroq aytganda, mazkur yosh toifasiga mansub shaxslar tomonidan eng ko‘p sodir etilgan jinoyatlar quyidagi yo‘nalishlarda to‘plangan:

- Mulkiy jinoyatlar, jumladan o‘g‘rilik, talonchilik va firibgarlik — yoshlar o‘rtasida jinoiy faollikning asosiy qismini tashkil etadi. Bu, asosan, moddiy ehtiyoj, ishsizlik va turmush tarzidagi noqulayliklar bilan bog‘liq.
- Narkotik vositalarni saqlash, iste’mol qilish va tarqatish — AQShda jinoyat statistikasida yoshlar bilan bog‘liq holatlar ichida doimiy yuqori o‘rinni egallab keladi. Bu borada ayniqsa 20 yosh atrofidagi yoshlar orasida narkotik moddalarga moyillik, ularni tijorat maqsadida tarqatishga jalb qilinishi jiddiy muammo sifatida baholanmoqda.
- Guruhli jinoyatlar — jinoiy guruhlar faoliyatida ishtirok etish, uyushgan tarzda zo‘ravonlik yoki mulkiy jinoyat sodir etish holatlari yoshlar o‘rtasida xavotirli darajada yuqori bo‘lib, ko‘pincha ijtimoiy himoyadan chetda qolgan, tarbiyasi nazoratsiz yoki ma’naviy bo‘shliqda o‘sgan shaxslar bu guruhlarga qo‘shilmoqda.

Shu bilan birga, psixologlar va kriminologlar ta’kidlashicha, AQShda yoshlar tomonidan jinoyat sodir etish holatlari ko‘pincha shaxsiy identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy beqarorlik, ta’lim tizimining kamchiliklari va oiladagi psixologik muhit bilan bog‘liqdir. Bu esa yoshlarning jinoyat yo‘liga kirib ketish xavfini kuchaytiradi.

Shunday ekan, mazkur tendensiyalarga qarshi kurashish uchun AQShda turli islohotlar, jumladan “community-based prevention” (jamoatchilikka asoslangan profilaktika) dasturlari, maktablarda huquqiy tarbiyani kuchaytirish, “Second Chance” (Ikkinchi imkoniyat) dasturlari va sudsiz reabilitatsiya markazlari faol joriy etilmoqda.

Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan Yevropa mamlakatlarida yoshlar jinoyatchiligi murakkab ijtimoiy masala sifatida qaraladi. Mazkur mamlakatlardagi rasmiy statistik ma'lumotlar va sotsiologik tadqiqotlar yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy qismi quyidagi turlardan iborat ekanini ko'rsatadi:

1. Zo'ravonlik jinoyatlari: bu toifaga jismoniy tajovuz, janjal chiqarish, ommaviy joylarda tartibbuzarlik, qurol yoki nojoiz vositalardan foydalanish holatlari kiradi. AfqpbtdfAyniqsa, Fransiya va Buyuk Britaniyada maktab atrofidagi guruhbozlik, "gang" madaniyati[15] ta'siridagi zo'ravonlik holatlari keyingi yillarda o'sishda davom etmoqda.

2. Ommaviy tartibsizliklar: Germaniya va Buyuk Britaniyada yoshlar ishtirokidagi namoyishlar, futbol muxlislari o'rtasidagi to'qnashuvlar, shovqin-suron, shahar infratuzilmasiga shikast yetkazish kabi jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar ko'p uchraydi.

3. Kiberjinoyatlar va internet orqali firibgarlik: Fransiya va Germaniyada yoshlar orasida raqamli jinoyatlar, jumladan shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, soxta veb-saytlar orqali mablag'larni qo'lga kiritish, onlayn tovlamachilik va qalbaki onlayn savdolar rivojlanayotgan jinoyat turlaridan sanaladi. Bu turdagi huquqbuzarliklar ko'pincha 15–25 yoshlilar orasida qayd etiladi.

4. Mulkiy jinoyatlar: kichik do'konlardan o'g'rilik, uy-joyni talon-taroj qilish, jamoat transportida mulkka ziyon yetkazish kabi holatlar ko'p hollarda iqtisodiy yetishmovchilik, ishsizlik va ijtimoiy tan olinmaganlik hissi bilan bog'liq bo'ladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida jinoyat sodir etgan yosh shaxslarga nisbatan qatag'on siyosat emas, balki reabilitatsiya va qayta ijtimoiylashuvga asoslangan yondashuv ustuvor ahamiyatga ega. Bu usul "restorative justice" (qayta tiklovchi adolat) konsepsiyasiga tayanadi. Mazkur yondashuvda asosiy maqsad — jinoyatchi shaxsni jazolash emas, uning jamiyatga qayta moslashuvini ta'minlash, kelgusida yana jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytirishdir.

Qo'llanilayotgan asosiy choralar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamoat ishlariga jalb etish: yosh jinoyatchilar sud qarori asosida muayyan soatlarda jamoat uchun foydali mehnat faoliyatiga jalb etiladi (shaharni tozalash, bog' parvarishi, keksa fuqarolarga yordam va h.k.).
- Psixologik va ijtimoiy yordam: ular uchun maxsus reabilitatsiya

[15] "Gang madaniyati" — bu yoshlar orasida jinoiy guruhlarga mansublikni targ'ib qiluvchi, zo'ravonlik va qonunsizlikni qahramonlik sifatida ko'rsatuvchi xavfli ijtimoiy-madaniy holat bo'lib, yoshlarning kriminal muhitga jalb etilishiga sababchi omillardan biridir.

markazlari, psixologlar, ijtimoiy maslahatchilar yordami bilan ixtiyoriy ravishda o‘z-o‘zini tiklash jarayoni tashkil etiladi.

- Maqsadli ta’lim va kasb-hunarga yo‘naltirish: jinoyat sodir etgan yoshlarga ta’lim olish va mehnat qilish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Germaniyada “Jugendgerichtshilfe” (Yoshlar sudi yordami) tizimi orqali har bir yosh jinoyatchi uchun individual reabilitatsiya dasturi ishlab chiqiladi.
- Ota-ona va maktab bilan hamkorlik: ayniqsa yoshlar o‘rta ta’limda bo‘lgan hollarda ota-ona, sinf rahbari va huquq organlari vakillari ishtirokida monitoring va kuzatuv ishlari amalga oshiriladi.

Yevropa davlatlari tajribasi yoshlar jinoyatchiligiga nisbatan jazoning qattiqligi emas, balki yoshlarni qayta to‘g‘ri yo‘lga solish orqali jamiyat xavfsizligiga erishishni maqsad qilishi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv nafaqat jinoyatchilik darajasini pasaytirishda, balki yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa shuki, dunyo tajribasi yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda kompleks yondashuv – ta’lim, tarbiya, huquqiy targ‘ibot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va raqamli savodxonlikni oshirish muhimligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda mazkur sohada muayyan yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, xalqaro modellardan samarali mexanizmlarni integratsiya qilish orqali profilaktikaning ta’sirchanligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Federal Bureau of Investigation (FBI). *Crime in the United States 2023*. – https://www.fbi.gov/services/cjis/ucr

United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). *Global Study on Youth Crime and Violence*, 2022. – https://www.unodc.org

World Bank. *Youth Unemployment and Social Risks in Developing Countries*, 2023. – https://www.worldbank.org

OECD. *Youth and Violent Crime: Trends and Policy Responses*, 2021. – https://www.oecd.org

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. *Yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurash bo‘yicha statistik ma’lumotlar*, 2024.

International Centre for the Prevention of Crime (ICPC). *Strategies and Best Practices in Youth Crime Prevention*, 2020. – https://www.crime-prevention-intl.org

German Federal Ministry of Justice. *Juvenile Justice and Reintegration Programs in Germany*, 2023.

O‘QOTAR QUROLNI, O‘Q-DORILARNI, O‘QOTAR QUROLNING ASOSIY QISMLARINI, PORTLOVCHI MODDALARNI, PORTLATISH VOSITALARINI YOKI PORTLATISH QURILMALARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA EGALLASH UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN JINOYAT QONUN HUJJATLARINING TARIXIY-HUQUQIY RIVOJLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

I.I. Anarboyev

O‘zbekiston Respublikasi IIV TQD JQX yetakchi mutaxassisi

O‘zbekiston Respublikasida Prezidentining 2021 yil 26 mart¬da “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra Jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash maqsad qilib qo‘yildi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirishda qonuniylikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki hozirgi vaqtda mamlakatimizda o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatlarini oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu turdagi jinoyatlar ko‘p hollarda qasddan og‘ir turdagi yoki terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etishga tayyorgar¬lik ko‘rayotgan shaxslar tomonidan sodir etilib, ularning jinoiy xatti-xarakatlarini oxiriga yetkazishga imkoniyat yaratadi. Aksariyat hollarda shaxslarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan hamda ularning mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida (qotil¬lik, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish, bosqinchilik, talonchilik, va nomusga tegish va boshq.) jinoyatlar sodir etilishi mumkin.

Shu o‘rinda o‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonun hujjatlarining tarixiy-huquqiy rivojlanishini o‘rganishda avvalambor jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikning huquqiy jihatdan rivojlanish tarixini o‘rganish naqadar muhimdir.

“Yurtimizda temuriylardan keyingi sulolalar hukmronligi (xonliklar va amirlik) paytidan to XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrlarda mamlakatimiz hududida o‘z zamonasining ilg‘or jang vositalari bilan ta’minlangan qo‘shin bo‘lmaganligi, jangovar harakatlarda an’anaviy qurollar (bolta, qilich, nayza, gurzi, o‘q-yoy, kamon)dan foydalanilganligi Markaziy Osiyo xonliklarining Ovrupa jang san’atidan ortda qolishiga sabab bo‘lgani shubhasizdir”.

Tarixiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, XIX asrning boshlariga kelib, milliy davlatchiligimiz hududida o‘qotar qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalar asta-sekinlik bilan muomalaga kiritila boshlangan. Xususan, Buxoro amirligi qo‘shini safida alohida to‘pchilar bo‘limi borligi diqqatga sazovor bo‘lib, ular 5 ta to‘qqizfuntlik, 2 ta beshfuntlik, 8 ta uchfuntlik zambarak va 5 ta mortir bilan qurollangan. 1821 yilda Baron Negri rahbarligidagi rus elchilik missiyasining Buxoroga tashrifi chog‘ida, ushbu missiyaning xavfsizligini ta’minlashga jalb qilingan askar (soldat) larning o‘qotar miltiqlar bilan mashq qilishini ko‘rgan Buxoro amiri o‘qotar qurollariga nisbatan qiziqishi oshib, o‘zining harbiy kuchlarida shunday miltiqlarga ehtiyoji borligiga amin bo‘ladi. Shu bois 1825 yilda miltiqlarni va 1837 yilda esa takomillashtirilgan zambaraklarni Podsho Rossiyasidan sotib olishga erishadi va natijada Buxoro amirligi qurolli kuchlarida to‘pchilar (artelliriya) batalyoni tashkil etilib, dastlab ushbu batalyonga ikkita bo‘linma (batareya) kirgan bo‘lsa, so‘ng esa ularning soni oshib borgan, bunga sabab Buxoroda zambarak o‘qlarini quyuvchi alohida zavod faoliyat yuritganligidir.

O‘zbekiston hududida Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri XIX asrning 50 yillaridan to XX asrning 20 yillarigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixida XIX asrning 60 yillarini “yangi davr”ning boshlanishi deb atash mumkin. Bu bevosita Turkiston o‘lkasini, jumladan O‘zbekiston hududini chor qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi bilan xarakterlanadi.

Turkistonda mustamlaka va boshqaruv idoralari, huquq tizimining shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Turkiston viloyatini boshqarish, hududda chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini

amalga oshirish jarayonida shakllangan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy zamini sifatida 1865 yilning 6 avgustida Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan “Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi Muvaqqat Nizom” xizmat qilgan.

Rossiyada o‘qotar qurollarning paydo bo‘lishi keyinchalik jinoyatchilar tomonidan o‘qotar qurollardan keng foydalangan holda jinoyat sodir etishlariga imkon yarata boshlaydi. Bu esa o‘qotar qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishni huquqiy choralarini qo‘llashni taqozo etardi.

XVII asrga kelib Rossiya qonunchiligida o‘g‘irlik obyektlari alohida-alohida nomlanib, qurollar boshqa obyektlardan ajratib ko‘rsatila boshlandi ya’ni: “Agar kimdir birovning otini, qurolini yoki kiyimini o‘g‘irlasa va mulk egasi o‘z uyida nimadir yo‘qligini aniqlasa, u o‘zining mulkini qonun doirasida qaytarib oladi va o‘zganing mulkini o‘g‘irlagan shaxs 3 grivna jarima to‘laydi” deb ko‘rsatilgan normada qurol so‘zi ishlatila boshlagan.

Qurol o‘g‘irlash to‘g‘risidagi norma absolyutizmning shakllanishi davrida (XVII - XVIII asrlar) yanada rivojlandi. YA’ni Pyotr I tomonidan amalga oshirilgan harbiy islohotlar armiyani davlat xizmatiga topshirdi va undagi barcha qurollar alohida nazorat ostiga olindi.

Shunday qilib, XVIII asr qonunlarida qurol-yarog‘ nafaqat mulk obyekti, balki davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlash vositasi ekanligi ta’kidlanadi. Jamoat xavfsizligiga e’tibor kuchayishi qurol o‘g‘irlashning takrorlanishi uchun jinoiy javobgarlikning og‘irlashtirilishini taqozo etardi. Shunday qilib, Rossiyada qurol o‘g‘irlash holatiga uchinchi marta o‘lim jazosi belgilandi (59-modda). 1922 yildagi RSFSR Jinoyat kodeksida faqat o‘qotar qurolni tegishli ruxsatsiz saqlash normasi mavjud bo‘lib, uning javobgarligi RSFSR Jinoyat kodeksining 220-moddasida nazarda tutilgan edi.

Birinchi marta 1926 yildagi RSFSR Jinoyat kodeksiga “Qurol va o‘qotar qurollarni o‘g‘irlash uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida” SSSR Markaziy Ijroiya qo‘mitasi va xalq Komissarlari Kengashining 1929 yil fevraldagi qarori bilan qurol o‘g‘irlash bo‘yicha mustaqil norma kiritildi. Ushbu rezolyutsiya qabul qilingandan so‘ng, qurol o‘g‘irlash bilan bog‘liq jinoyatlar jinoyat kodeksining 9-3-moddalari (boshqaruv tartibiga qarshi xavfli jinoyatlar)da o‘qotar qurollarni, uning qismlarini va o‘t o‘chirish materiallarini yashirin yoki ochiq o‘g‘irlash uchun javobgarlik masalalarini o‘z ichiga olgan normalar kiritilgan. 1926 yildan boshlab o‘qotar qurolga qonunga xilof ravishda egalik qilish uchun ham jinoiy, shuningdek ma’muriy javobgarlik qo‘llaniladigan bo‘ldi 1926 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Jinoyat kodeksida dastlab jinoiy qilmish deb tan olinmagan mazkur qilmish

ijtimoiy-siyosiy vaziyat taqozosiga koʻra, shuningdek qurol saqlanadigan omborlarga hamda xizmat va kasbiy faoliyati yuzasidan qurol olib yuradigan shaxslarga hujumlar uyushtirib, qurolni noqonuniy egallash kabi ijtimoiy xavfli qilmishlar keskin koʻpayib borayotgani sababli bunga qarshi kurash chorasi sifatida OʻzSSR Sovetlar MIQning 1934 yil 27 apreldagi 31-son qarori bilan ushbu kodeksga 781-modda kiritilib, unga koʻra “oʻqotar qurollarni, ularning qismlarini va oʻq-dorilarni alohida qoʻriqlanadigan va nazorat ostiga olingan joylardan oʻgʻirlash yoki ochiqdan-ochiq egallash” uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu harakatlar hayot uchun xavfli usulda sodir etilib, ogʻir oqibatlarga olib kelganida mol-mulk musodara qilinib, oʻlim jazosi qoʻllanilishi belgilangan .

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan soʻng oʻqotar qurol, oʻq-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarining gʻayriqonuniy (jinoiy) muomalasiga qarshi kurashishda 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksning 247-moddasida mazkur predmetlarning qonunga xilof ravishda egallash uchun jinoiy-huquqiy taqiq oʻrnatilib, jinoiy javobgarlik belgilab qoʻyildi.

Xulosa oʻrnida qurollarning gʻayriqonuniy muomalasini tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarning tarixiy va qiyosiy-huquqiy tahlili shuni koʻrsatadiki, qurol, oʻq-dorilar va portlovchi moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun jinoiy javobgarlik toʻgʻrisidagi qonunchilikning dastlabki kurtaklarini paydo boʻlishini kuzatish imkoniyatini beradi hamda oʻtkazilgan tahlillarda dastlab qurol maishiy vosita va uning insoniyat hayotida shaxsning mavqeini belgilovchi element sifatida qaralganligini, hozirgi zamonda esa u yuqori xavf tugʻdiruvchi predmet mavqeiga ega boʻlgan har qanday jamiyat rivojlanishining turli xil tarixiy koʻrinishlarida ijtimoiy xavfli qilmish sifatida huquqiy jihatdan baholanganligini koʻrishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Қаландаров М.М.* “Ўқотар қуролни, ўқ-дориларни, ўқотар қуролнинг асосий қисмларини, портловчи моддаларни, портлатиш воситаларини ёки портлатиш қурилмаларининг ғайриқонуний муомаласига қарши курашишнинг жиноят-ҳуқуқий чоралари” Диссертация. 12.00.08. – Т., 2023. 42. Б.

2. *Холикова Р. Э.* Из истории военного дела в Бухарском эмирате // Молодой ученый. – 2014. – № 9. – С. 402.

3. *Холикова Р. Э.* Из истории военного дела в Бухарском эмирате // Молодой ученый. – 2014. – № 9. – С. 402.

4. *Поланский И.* Армия эмира. Что представляли собой вооружённые силы Бухары? // https://topwar.ru/8820. (мурожаат вақти: 20.03.2021).

5. Русская Правда. Краткая редакция. Текст по Академическому списку. Перевод Б.Б.Кафенгауза//Хрестоматия по истории государства и права России/ Под ред.Ю.П.Титов. М.Д997. С. 5. 12-13.

6. *Иванова Л.В.* “Хищение и вымогательство огнестрельного оружия, боеприпасов, взрывчатых веществ и взрывных устройств” Диссертация. – Санк-Петербург, 2004. С. 22.

7. *Невский С.А.* Ответственность за незаконный оборот оружия в России в конце XIX – начале XXвв. // Уголовное право. – 2011. – № 3, – С. 5.

8. Ўзбекистон ССР Жиноят кодекси. – Т.: 1947. –32. Б.

9. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси – Т.: “Юридик адабиётлар публиш”, – 2021. –222–234. Б.

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR INSTITUTINING EVOLYUTSIYASI: KLASSIK NAZARIYADAN ZAMONAVIY YONDASHUVGACHA

S. Tuygunov

99541 harbiy qism komandirining yordamchisi yuriskonsult.

Annotatsiya. Ushbu maqola jinoyat huquqidagi qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning tarixiy rivojlanishini amaliy misollar orqali tahlil qiladi. Kam ahamiyatli qilmish, zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat institutlarining klassik nazariyadan zamonaviy amaliyotgacha bo‘lgan evolyutsiyasi olimlarning nazariy fikrlari asosida tahlil qilib berilgan. Tadqiqot ushbu institutlarning jamiyatdagi roli va zamonaviy jinoyat huquqidagi amaliyotda qo‘llashdagi muammolarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: jinoyat huquqi, tabiiy huquq, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, kam ahamiyatli qilmish, jinoyat protsessual huquqi.

Har kuni odamlar o‘zini himoya qilish uchun yoki maishiy hayotdagi muammolari natijasida kichik huquqbuzarliklarni sodir etish holatlariga duch keladi. Bu holatlar qachon jinoyat hisoblanadi va qachon qonuniy deb topiladi? Bu savol asrlar davomida huquqshunoslarni qiziqtirgan va jinoyat javobgarligidan ozod qilish institutlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Qorni och qolgan bolaning do‘kon rastasidan olma o‘g‘irlab yeyishidan toki shaxsning hayotiga real xavf bilan tahdid qilayotgan bosqinchiga qarshi mudofaalangan shaxsning unga yetkazgan tan jarohatigacha bo‘lgan harakatlar shaklidan jinoyat tarkibini keltirib chiqarishi mumkin. Lekin amaldagi qonunchilikda qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tarkibiga kiruvchi asoslar mavjud bo‘lsa qilmish jinoyat deb topilmaydi, deb qayd etilgan. Ammo agar holatlar 100 yil oldin sodir bo‘lganida qanday baholanar edi?

Yuqoridagi jumla shuni ko‘rsatadiki, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar institutlari vaqt o‘tishi bilan qanchalik o‘zgarganini tushunish zamonaviy huquqiy amaliyot uchun muhim. Ya’ni zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va kam ahamiyatli qilmish kabi institutlar nafaqat nazariy konsepsiyalar, balki bilib-bilmay jinoiy qilmish sodir etgan va harakatlarida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar mavjud bo‘lgan millionlab

odamning va ularning yaqinlarining taqdiriga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan huquqiy vositalardir.

Metodologiya

Tadqiqotda tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy o‘rganish va konkret holatlarni tahlil qilish metodlari qo‘llanilgan. Asosiy manbalar sifatida klassik va zamonaviy huquqshunoslarning asarlari, qonunchilik hujjatlari, sud qarorlari va real hayotiy holatlar tanlab olingan. Tadqiqot doirasi XVIII asrdan hozirgi zamongacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Tarixiy rivojlanish bosqichlari

Klassik davr: Tabiiy huquqdan davlat himoyasigacha

XVIII asr Yevropa jamiyati jinoyat huquqining qo‘pol usullari bilan to‘la edi. Masalan, o‘sha davrda oddiy o‘g‘irlik uchun ham o‘lim jazosi berilishi mumkin edi. Aynan shu sharoitda Cesare Beccaria o‘zining inqilobiy g‘oyalarini ilgari surdi. Beccaria shunday degan: “Har bir inson o‘z hayoti va mulkini himoya qilish huquqiga ega”[16] (Beccaria, 1764). Bu sodda ko‘ringan gap aslida jinoyat huquqida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ya’ni biz bilgan Amerika Qo‘shma Shtatlari va Yevropa davlatlarida keng tarqalgan shaxs o‘z hayoti va mol-mulkini real xavfdan kelib chiqib himoya etishda mustaqil harakatlanish prinsipi Cesare Beccarianing qarashlarining mahsulidir.

Mazkur qoida bizning qonunchiligimizda ham mavjud bo‘lsada undan foydalanishda ko‘pgina muammoli holatlar mavjud. Ya’ni undan foydalanishning aniq me’yorlarini belgilash qiyin masala bo‘lib kelmoqdaki, Jinoyat kodeksimizda mavjud normada ham yetarli ta’rif berilmagan. Hatto Jinoyat protsessual kodeksining vazifalaridan biri-qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan iborat ekanligi qayd etilgan bo‘lsada, mazkur kodeksda qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar vujudga kelganda qanday protsessual harakatlar amalga oshirilishi, qanday qaror qabul qilinishi haqida hech qanday ma’lumot berilmagan.

Lekin o‘z faoliyatini sud pretsedentlari asosida olib boradigan anglo-sakson huquq oilalarida Cesare Beccaria asos solgan shaxsning o‘z hayoti va mulkini himoya qilish huquqi ancha yillar oldindan buyon foydalanib kelinmoqda. Amaliy misol: XVIII asrda Fransiyada Jean-Baptiste ismli dehqon o‘z uyiga tunda bostirib kirib kelgan qaroqchini o‘ldirgan. O‘sha davrgi qonunlarga ko‘ra, u qotillik aybi bilan sudlanishi kerak edi. Lekin Beccarianing g‘oyalari ta’sirida fransuz sudlari birinchi marta “zaruriy mudofaa” kontsepsiyasini qo‘llay boshladilar. Natijada Jean-Baptiste oqlandi.

[16] Cesare Beccaria, “Jinoyatlar va jazolar haqida” 1764-yil

Bu holat shuni ko‘rsatdiki, Beccarianing nazariyasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim edi. Uning ta‘kidlashicha, zaruriy mudofaa huquqiga har bir insonga xos tabiiy huquq sifatda qarash lozim. Shuningdek, bu har bir insonga davlat tomonidan berilmagan, balki tan olingan tabiiy huquqdir. Shaxs mazkur huquqdan foydalanishda “Mutanosiblik” prinsipiga amal qilishi lozim. Ya’ni real xavfni oqilona baholash va unga nisbatan mustaqil munosib qarshi harakat ko‘rilishi lozim.

Hattoki Gollandiyalik huquqshunos Hugo Grotsiy zaruriy mudofaa instituti prinsipini birinchi marotaba xalqaro darajaga ko‘targan. Uning fikricha davlatlar ham o‘zlarini himoya qilish huquqiga ega[17]. Tarixiy misol: 1588-yilda Angliya Ispaniya armatasining hujumidan o‘zini himoya qilganda, bu Grotiusning nazariyasi bo‘yicha zaruriy mudofaa hisoblanardi. Shuning uchun angliyalik tarixchilar 1588-yil urushda Angliya birinchi hujum qilmagan, faqat o‘zini himoya qilgan davlat sifatida qayt etishadi.

XIX asrda nemis huquqshunoslari bu institutlarni yanada rivojlantirdilar. Rudolf von Jering 1872-yilda o‘zining mashhur formulasini yaratdi: “Oxirgi zarurat qonunni buzadi, lekin huquqni saqlab qoladi”. Bu formula oddiy ko‘rinsada, chuqur ma’noga ega. Jering shuni aytmoqchi ediki, ba’zi hollarda qonunni buzish umuman huquqni himoya qilish uchun zarur bo‘ladi.

Klassik misol: “Mignonette” ishi (1884): Ingliz dengizchilari kemaning cho‘kishi natijasida qayiqda qolib ketishdi. Ovqat tugab qolganda, ular yosh dengizchini o‘ldirib, go‘shtini yeyishdi. Keyinchalik qutqarilganda, ular qotillik aybi bilan sudlandilar. Sud ishi tarixda muhim bo‘ldi, chunki u oxirgi zarurat chegaralarini belgiladi. Sudya ishni o‘rganib aytdiki: “Hayotni saqlab qolish instinkti kuchli bo‘lsa ham, bu boshqa begunoh insonning hayotini olish huquqini bermaydi”. Dengizchilar aybdor deb topildi, lekin jazolari yumshatildi.

Bu holat Jering nazariyasining chegaralarini ko‘rsatdi. Oxirgi zarurat hamma narsaga ruxsat bermaydi - u qat’iy mezonlarga ega.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, huquq va normalar ma’lum davr va tuzum qoidalaridan kelib chiqadi. Masalan, Sovet Ittifoqida “davlat-jamiyat-shaxs” tamoyiliga amal qilingan bo‘lib, bu qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib qarashga olib keldi. G‘arb davlatlaridan farqli ravishda qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar instituti butunlay boshqacha yo‘nalish oldi. Bu yerda individual huquqlar emas, jamiyat manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yildi. Misol uchun o‘sha davr mashhur huquqshunos olimi A.A. Piontkovski 1961-yilda

[17] Hugo Grotsiy, “Urush va tinchlik huquqi” (1625)

shunday yozgan: “Zaruriy mudofaa jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi”. Bu ta’rif individual himoyadan ko‘ra ijtimoiy himoyani ta’kidlaydi. Bu yondashuv individual huquqlardan ko‘ra davlat va jamiyat manfaatlarini ustun qo‘yardi. Natijada, shaxsiy himoya huquqi cheklandi, jamiyat manfaatlari individual erkinlikdan ustun keldi, kollektiv mas’uliyat g‘oyasi kuchaydi.

Yuqoridagi qarashlar sobiq sovet davlatlarining qonunchiligiga ta’sir etmay qolmadi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng “shaxs-jamiyat-davlat” prinsipiga amal qilishini namoyon etib, shaxs manfaatlarini ustun ko‘rishini o‘z Konstitutsiyasida belgiladi. (7-modda). Shuningdek 1994-yil qabul qilingan Jinoyat kodeksining IX bobi “Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari” kiritildi. Lekin amaliyotda qanday qo‘llash bo‘yicha savollar ochiq qoldirildi. Chunki 1994-yil qabul qilingan mazkur kodeks eski qonunchilik me’yorlari ustida yaratildi. Shuning uchun ham 1994-yil qabul qilingan yana bir kodeks Jinoyat protsessual kodeksida ham mazkur institut eslab o‘tilmagan.

Jinoyat kodeksining 35-moddasi 2-qismida: “kam ahamiyatli qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish; kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik; jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish natijasida qilmish sodir etish jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi”. Mazkur normada ko‘rsatilgan har bir holat uchun alohida moddalar mavjud bo‘lib, ularning har birining ya’kuniy jumlasi “jinoyat deb topilmaydi” jumlasi bilan tugagan. E’tibor bering, aynan jinoyat deb topilmaydi deyilgan, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi deyilmagan. Jinoyat deb topilmagan xatti-harakat tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov yoki sud jarayonlarida aniqlanishidan qat’iy nazar jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish yoki oqlov hukmi chiqarish uchun asos bo‘ladi. Mazkur nazariy asosni jinoyat protsessual huquqiga kiritish esa bizga jinoyat huquqi normalarini to‘la ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida, insonning shaxsiy daxlsizligiga bo‘lgan intilishi natijasida sodir etayotgan yoki ba’zi turdagi kichik ijtimoiy-ma’ishiy qilmishlarni qonuniy hal etish davlatimizda olib borilayotgan jinoyat qonunchiligini liberallashtirish siyosatiga hamohang bo‘lar edi. Qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlarning faqat qog‘ozlarda qolib ketishi, biz ko‘rishni istayotgan huquqiy-demokraktik davlatga nisbatan salbiy munosabatning vujudga kelishiga zamin bo‘lishi mumkin. Qonun qat’iy bo‘lgan davlatga fuqarolar ishonadi hamda tayanadi.

MUNDARIJA:

Berdialiyev B.E. Kirish so‘zi 3

Berdialiyev B.E. O‘zbekistonda ijtimoiy profilaktika tizimining tashkil etilishi va rivojlanish istiqbollari 7

Sa’dullaev A.Z. Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari! 12

Azim Sh.O. Yoshlar jinoyatchiligining zamonaviy tendensiyalari va ularni oldini olishning dolzarb masalalari 18

Muminov A.M. Yoshlar siyosati - davlat siyosatining muhim ustovor tarkibiy qismi sifatida 23

Ismailov I., Suvankulov M. Yoshlar bilan ishlashda ichki ishlar organlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorligi: tahlil, natija va istiqbollari 28

Мирзатиллаев У.И. Деятелность по профилактике правонарушений среди несовершеннолетних в Республике Узбекистан 35

Alimov A.A. Yoshlarni ekstremistik va radikal g‘oyalar ta’siridan asrashda “jaholatga qarshi ma’rifat tamoyilining ahamiyati 39

Umirzakov B.A., To‘rayev I.E. Yoshlar jinoyatchiligining barvaqt profilaktikasini tashkil etish bo‘yicha ayrim mulohazalar 44

Mirzayev J.U. Yoshlar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlarini oldini olish 52

Xonimov Sh. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muammolari, yechimlari va istiqbollari 58

A’loxonov M.A. Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikning yangicha ko‘rinishlari va unga qarshi kurash strategiyalari 69

Qilichev X.M. Mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan manzilli ishlash – zamon talabi 76

Kaxarova M.M. Yoshlar jinoyatchiligining oldini olish: muammolar va yechim yo‘nalishlari 80

Sattarov M.A. O‘zbekistonda fosh etilmagan va latent jinoyatlar: tushuncha, tarixiy rivojlanish va zamonaviy islohotlar 84

Paxratdinova A.K. Xotin-qizlar va yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar 91

Abdirasulov M.H. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish hamda xuquqbuzarliklar profilaktikasini ta’minlashda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimi 94

Hayitov H.Sh. O‘zbekistonda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va jinoyatchilikning oldini olishda ularning ahamiyati 98

Odilov N.O. Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning sabablari va uning ijtimoiy ildizlari 101

Akramov X.F., Mirzatillayev U.I. Yoshlarning begonalashuvi: sabablari, namoyon bo‘lishi va yechimlari 104

Sultanov B.M. Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi 108

Maxtumova Y.B. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar tushunchasi, turlari hamda jinoyatchilik tahlili 111

Aliyeva Z.M. Yoshlar va zamonaviy dunyo: imkoniyat va xavflar 123

Rixsimov K.A. Ayol mahkumalarning jazoni o‘tash tartibi: O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston tajribasining qiyosiy tahlili 130

Fayziyeva M.M. Yoshlar – davlatning oltin fondi 137

Murod Mamarajabovich. Oilada yoshlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarining tahlili 140

Iskandarov X.I., Esanov D.I. Yoshlar jinoyatchiligini barvaqt oldini olishning ayrim jihatlari 148

Komilov L.Z. Yoshlar bandligi va jinoyatchilik: ijtimoiy barqarorlik sari tizimli yondashuv 152

Kattaqulov M.Q. Voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar sodir etilishini taqozo etuvchi kriminologik omillar tahlili . . 156

Xamidov A.A. Yoshlar va talabalarning ommaviy tartibsizliklardagi roli 166

Baqoyev Sh.H. Harbiy xizmatchilar jinoyatchiligini oldini olishda oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi masalalari 172

Masharipova G.K. Mafkuraviy tazyiqlar va ularning madaniy jarayonlarga ta’siri 177

Xolmaxmatov A.X. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini o‘rganishda qo‘llaniladigan siyosiy fanlar metodlari qiyosiy tahlili . . . 181

Sattarov M.A. Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonlarida fosh etilmagan jinoyatlarni tergov qilishning amaldagi holati va mavjud muammolar tahlili 187

A’loxonov M.A. Zamonaviy kriminologiyaning ilmiy-nazariy asoslari 194

Raimov Sh.A. Yoshlarning jinoyat sodir etishlarining asoslari va ilmiy tahliliy jarayonning borishi 201

Akramov X.F., Abdug‘ofurova G.F. Anonim korrupsiya 204

Hikmatov M.I. Yoshlar jinoyatchiligi: dunyo tajribasi, sabablar va profilaktika choralari 208

Anarboyev I.I. O‘qotar qurolni, o‘q-dorilarni, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonun hujjatlarining tarixiy-huquqiy rivojlanishi va hozirgi holati 212

Tuygunov S. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar institutining evolyutsiyasi: klassik nazariyadan zamonaviy yondashuvgacha 217

“YOSHLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHNING DOLZARB MASALALARI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
(2025-yil 25-iyun)

Muharrir: J.U. Mirzaev
Sahifalovchi: B.N. Normurodov

07.07.2025 yilda bosishga ruxsat etilgan.
Qog‘oz bichimi: 80x60 1/16.
«Source Sans 3» garniturasida bosilgan.
Nashr tabag‘i: 13.25. Adadi: 10 dona.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri
Mirzo Ulug‘bek tumani
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi 243. Buyurtma: 25/36.